

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

ABDALOVA ZULXUMOR TOIROVNA
TOJIEVA ZULXUMOR NAZAROVNA

IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llanma

Toshkent- 2013

Mualliflar: Abdalova Z.T., Tojiev Z.N.

Taqrizchilar:

Geografiya fanlari doktori, professor. T.Jumaev

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent X.Asilov

Ma'sul muharrir: geografiya fanlari nomzodi, dotsent SH.A.Azimov

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti O'quv-metodika bo'limi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

IQTISODIY VA IJTIMOY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llanma

Mazkur o'quv qo'llanmada iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy asoslari, dunyo iqtisodiy geografiyasi va undagi o'zgarishlar, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining hozirgi holati, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va demografik vaziyati, transport va infrastrukturasi, tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlariga har tomonlama baho berilgan.

O'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot va geografiya fakul'tetlari bakalavr, magistr va aspirantlariga, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyot va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedralari o'qituvchilari hamda mintaqaviy iqtisodiyot bilan bog'liq muammolarni hal etish va tadqiq etish bilan shug'ullanadigan qator mutaxassis va tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....

1-MAVZU. IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI.....

- 1.1. «Iqtisodiy geografiya» fanining ob'ekti, predmeti va vazifalari.
- 1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlabchiqarishni joylashtirishni va rivojlantirishni tashkil etish asoslari

2-MAVZU. DUNYO GEOGRAFIYASIGA UMUMIY TA'RIF.....

- 2.1. Dunyo siyosiy xaritasi.....
- 2.2. Dunyo aholisi.....
- 2.3. Dunyo xo'jaligi geografiyasi.....
- 2.4. Dunyo sanoati.....
- 2.5. Dunyo qishloq xo'jaligi geografiyasi.....
- 2.6. Dunyo transporti.....

3-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA UNING MINTAQALARI RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH.....

- 3.1. Respublika tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini iqtisodiy geografik baholash.....
- 3.2. Aholisi va mehnat resurslari.....
- 3.4. O'zbekiston Respublikasining transport va infrastruktura salohiyati.....

4-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIK TARMOQLARI VA IQTISODIY RAYONLASHTIRISH.....

- 4.1. Respublika sanoat tarmoqlari majmui.....
- 4.2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi.....
- 4.3. Tashqi iqtisodiy aloqalari.....
- 4.4. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi va iqtisodiy rayonlashtirish.....

GLOSSARIY (TAYANCH SO'ZLAR).....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

SO'Z BOSHI

XX asrning oxiri, XXI asrning boshida dunyoda qator iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu esa jahon iqtisodiyotiga, aholi geografiyasiga, mintaqalar rivojlanishiga juda katta ta'sir etdi. Yer shari xaritasida ko'plab mustaqillikka erishgan davlatlar paydo bo'ldi, internatsionallashtirish, globallashtirish, integratsiyalashtirish jarayonlari kuchaydi.

Siyosiy vaziyat, dunyo xo'jaligi va uning tarkibi, ixtisoslashuvining sifat va miqdori ko'rsatkichlari o'zgarib bordi. Jahon mamlakatlari integratsiyasi kuchayib, yangidan-yangi siyosiy va iqtisodiy ittifoqlar, birlashmalar, bloklar vujudga keldi. Ko'pgina davlatlar iqtisodiyotida yangilanish, modernizatsiyalashtirish amalga oshirila boshlandi.

Tavsiya etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy va ijtimoiy geografyaning, jahonning hamda O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiasining ko'pgina dolzarb muammolari, masalalari o'z aksini topgan. Kitobda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi islohotlar, tabiiy sharoiti va resurslari, demografik vaziyati, sanoati, qishloq xo'jaligi, transport aloqalari va tashqi iqtisodiy faoliyati, ma'muriy – hududiy tarkibidagi o'zgarishlar, iqtisodiy rayonlashtirish va uning zamonaviy muammolariga alohida to'xtalib o'tiladi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda 200 ga yaqin manbalardan, ya'ni turli adabiyotlar, statistik to'plamlar, Davlat dasturlari va qator xujjatlardan foydalanildi. O'quv qo'llanma beshta qismdan iborat: So'z boshi, iqtisodiy geografyaning nazariy asoslari; dunyo geografiasiga umumiy ta'rif; O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalari resurs salohiyatini baholash; O'zbekiston Respublikasi xo'jalik tarmoqlari va iqtisodiy rayonlashtirish. Kitobda ayrim masalalar mualliflar nazaridan chetda qolgan bo'lishi mumkin. SHu boisdan, o'quv qo'llanmani kelajakda yanada yaxshilash maqsadida bildirgan taklif va maslahatlaringizni kutamiz.

Mualliflar

1-MAVZU. IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. «Iqtisodiy geografiya» fanining ob’ekti, predmeti va vazifalari

Reja:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining vujudga kelishi
2. Fanning tadqiqot ob’ekti va predmeti
3. Fanning tadqiqot metodlari
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlari tizimidagi roli

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining vujudga kelishi.

Geografiya fanining rivojlanishi qadimgi Antik davrida mamlakatlar o’rtasida hududiy (geografik) mehnat taqsimoti, ya’ni har bir hududni o’ziga xos tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy geografik o’rni, xalqlarning urf-odatlar va an’anlari asosida ma’lum bir tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatishga ixtisoslashi va ular o’rtasida tovar ayirboshlash jarayonining shakllanishi davriga borib taqaladi.

Mamlakatlar o’rtasida hududiy mehnat taqsimotining shakllanishi geografiya fanlari tizimida dastlab iqtisodiy-geografik tadqiqotlarni vujudga kelishiga olib keladi. Qadimgi yunon olimi Strabon o’zining o’n yetti tomlik «Geografiya» deb nomlangan asarida, aholining hududiy joylashuvi, mamlakatlar va hududlar o’rtasidagi tovar ishlab chiqarish va savdo sotiq aloqalarini yoritadi.

O’rta asrlarda, jahon mamlakatlarida natural xo’jalik xukm surgan davrda, antik davrda olib borilgan iqtisodiy geografik izlanishlar bir oz sustlashadi. Ma’lumki, Buyuk Geografik kashfiyotlar xalqaro savdo va ilk kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bu davrda hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi va jahon xo’jaligining shakllanishi, o’z navbatida, iqtisodiy geografiya fanini rivojlanishini talab etadi. Mamlakatlar va ularning hududiy birliklari haqidagi iqtisodiy geografik tavsif g’arbiy yevropalik olimlarning asarlarida o’sha davrlarda juda chuqur talqin etilgan. Ayniqsa, ilk geografik bilimlarning nazariy jihatlari, mamlakatning rivojlanishida alohida

ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy-geografik o'rin, yerning ustki tuzilishi, aholining tarkibi, shaharlar, siyosiy tuzum masalalariga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining kirib kelishi ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishiga olib keladi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va uni joylashtirish mamlakat hududlari to'g'risida ma'lum bilimlarni va ma'lumotlarni to'plashni talab etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarini samarali va oqilona joylashtirishda hududning xo'jalik jihatdan o'zlashtirilganlik darajasini, uning tabiiy, demografik, moddiy shart-sharoitlarini va imkoniyatlarini o'rganish ehtiyoji iqtisodiy geografiya fanini geografiya fanidan ajralib chiqishiga va alohida mustaqil fan sifatida rivojlanishiga olib keladi. Agar "Tabiiy geografiya" fani geografik qobiqda kechayotgan tabiiy jarayonlarni va hodisalarni o'rgansa, "Iqtisodiy geografiya" fani esa ishlab chiqarishni, ayniqsa, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlanish xususiyatlarini va qonuniyatlarini o'rganadi.

«Iqtisodiy geografiya» atamasini fanga dastlab rus olimi M.V. Lomonosov tomonidan 1760 yillarda kiritiladi va keyinchalik butun dunyoda e'tirof etiladi. Olimning asosiy g'oyasida e'tibor, iqtisodiyotni rivojlanishida mamlakatni iqtisodiy geografik nuqtai-nazardan tadqiq qilish g'oyat muhim va zarurligiga qaratiladi, shuningdek hududlarning xo'jaligini o'rganganda davriylik jihatdan o'rganish va tabiiy resurslarni o'zlashtirish masalalariga alohida e'tibor beradi.

G'arbiy Evropa mamlakatlarida XYIII asrning yarmida iqtisodiy geografiya fanining ilmiy maktablari Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniyada shakllanadi va rivojlanadi. Bu bejiz emas albatta, chunki bu mamlakatlarda fan-texnika sohasining taraqqiy etishi, sanoat inqilobining ro'y berish va dastlab bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllanishi ishlab chiqarishni va buning natijasida, mamlakat hududlari to'g'risidagi iqtisodiy bilimlarni rivojlanishiga olib keladi.

O'sha davrlarda iqtisodiy geografiya faniga nemis olimi A.Gumbol'd, K.Ritter, I.Tyunen, K.I. Arseniev juda katta hissa qo'shishgan. Iqtisodiy geografiya fanini sobiq Ittifoq davrida rivojlanishiga oldingi asrning XX yillarida amalga oshirilgan butun mamlakatni elektrlashtirishga qaratilgan dasturni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu rejaga muvofiq, iqtisodiyotni qo'tarish nuqtai-

nazaridan, hududlardagi mahalliy yoqilg'i resurslari asosida yirik elektrostansiyalarni qurish va ularning negizida metallurgiya, mashinasozlik, ximiya sanoati tarmoqlarini shakllantirishga qaratilgan edi. Bu rejaning asosiy maqsadi, mamlakat hududlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan og'ir sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish bo'lib, buning natijasida, yirik transport magistral yo'llarini tashkil etish ham e'tiborga olingan.

Mazkur rejani amalga oshirish o'z navbatida, mamlakat hududlarining tabiiy resurslari va sharoitlarini, iqtisodiy geografik o'rnini, aholi va mehnat resurslarni, hududiy ixtisoslashish va boshqa imkoniyat va sharoitlarni majmuali o'rganishni talab etadi. Oqibatda, esa iqtisodiy geografik tadqiqotlarni olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosiy ilmiy yo'nalishlarida, mamlakat iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish va sanoatlashtirish maqsadida iqtisodiy rayonlashtirish va yangi hududiy ishlab chiqarish majmualarni tashkil etishning nazariy masalalarini yaratishga katta e'tibor qaratadi. Ushbu reja asosida, O'zbekiston Respublikasidagi ilk yirik gidroelektro stansiyalarining kaskadi CHirchiq-Bozsu gidroelektroenergiya kaskadi quriladi va Toshkent viloyatida elektroenergetika, metallurgiya va ximiya mashinasozlik korxonalarini tashkil topadi. SHu davrda iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga G.M.Krijjanovskiy, I.G.Aleksandrov, Yu.G.Saushkin va N.N.Baranskiylar va qator olimlar katta hissa qo'shadi va o'zlarining ilmiy maktablarini yaratishadi.

Iqtisodiy geografiya fanini O'zbekistonda rivojlanishi XX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi, 1906 yillarda Turkiston geografiya jamiyati tashkil topadi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan siyosiy va aholi geografiya fanlarining tarmoqlari rivojlanadi. Xalq xo'jaligini sanoatlashtirish, mineral xom-ashyo, yer-suv resurslarini o'zlashtirish, transport magistralarini qurish, shahar aholi punktlarini yaratilishi mamlakatning hududiy xususiyatlarini va imkoniyatlarini rivojlantirishni talab etadi va iqtisodiy geografiya fanini O'zbekistonda keng qamrovli rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanini rivojlanishiga M.Behbudiy, V.M.Четыркин, G.M.Чердантсев, K.I.Lapkin, N.G. TSapenko, N.V. Smirnov, Z.M.Akramov, M.K.Qoraxonov va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo'lgan.

2. Fanning tadqiqot ob'ekti va predmeti

Ma'lumki, har qanday fanning tadqiqot ob'ekti va predmeti bo'ladi. Ob'ekt bu keng va serqirra ma'nodagi voq'ea va hodisa bo'lib, bu ob'ektni ko'pgina fanlar o'rganishi mumkin. Ob'ektdan farqli o'laroq, predmet esa shu ob'ekning bir tomonini yoki ma'lum bir qirradi o'rganadi. Masalan, aholini, ayni paytda iqtisodchilar, demograflar, geograflar, sotsiologlar va boshqa soha vakillari ham o'rganadi. Biroq, har bir soha vakili bir-biridan farqli o'laroq, shu ob'ektning bir tomonini o'rganishadi. Agar iqtisodchilar, aholini ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchi nuqtai nazardan o'rganishsa, demograf yoki aholishunoslar aholini takror barpo etish, tabiiy ko'payishi, migratsion ko'payishi, tug'ilish, o'lim, nikoh va boshqa jarayonlarni, geograflar esa aholining hududiy joylashish qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya fani tabiiy va ijtimoiy fanlar o'rtasida shakllangan fan bo'lib, jamiyat rivojlanishida ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar, bu fanning ob'ekti va predmetini o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatib keladi. Iqtisodiy geografiya fanining ilk paydo bo'lgan davridan boshlab, fanning ob'ekti ishlab chiqarish kuchlari bo'lgan bo'lsa, uning predmeti esa ishlab chiqarish kuchlarining shakllanishi, joylashishi va rivojlanishining hududiy jihatlarini tashkil etgan.

Jamiyat rivojlanishi jarayonida iqtisodiy geografiyaning o'rganish ob'ekti va predmetida ham o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Iqtisodiy geografiya fanining nazariy asoslari, jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida muntazam rivojlanib va takomillashib boradi. Geografik tadqiqotlar faqatgina iqtisodiy yunalishda rivojlanib qolmay, balkim, uning ijtimoiylashuvi, ya'ni ijtimoiy tizimlarni aholi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalar, aholi manzilgohlari va hokozalarning hududiy joylashishi va rivojlanish doirasida ham olib boriladi.

Hozirgi davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy ob'ekti, hududiy ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar bo'lib, ularning hududiy joylashishi, shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari fanning predmetini tashkil etadi.

3. Fanning tadqiqot metodlari

Fanning ob'ekti va predmetini to'g'ri bilish, ularni kelib chiqishini, rivojlanishini ilmiy asosda tahlil etishda va ob'ektiv ravishda baho berishda, ma'lum iqtisodiy geografik metodlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy tadqiqot metodlariga quyidagilar kiradi:

Tarixiy metod;

Taqqoslash metod;

Kartografik metod;

Statistika va matematika metodi;

Tarkibiy- tizimli metod;

Modellashtirish metodi

Ekstrapolyatsiya metodi;

Sotsial so'rov metodi;

Informatsiya va boshqa metodlar bo'lib bu metodlarning ayrimlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarni olib borishda tarixiy metod alohida o'ringa ega bo'lib, xo'jalik rivojlanishining davr (vaqt) va joy birligi jihatidan o'rganish alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, hududiy iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarni shakllanishida va rivojlanishida tarixiy jarayonlarning va voqealarning hal etuvchi ta'sirini o'rganish juda muhimdir. Masalan, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy bosqichlar asosida tadqiq etish va har bir bosqichga xos bo'lgan jarayonlarni, omillarni va hodisalarni o'rganish zarurdir.

Tizimli-tarkibiy metod iqtisodiy geografiya fanida bir muncha murakkab, biroq juda samarali hisoblanadi. Bu metod o'rganilayotgan voqe'a va hodisani o'zidan kattaroq bo'lgan ob'ekt doirasida o'rganishni taqoza etadi. Masalan, respublikamizning biror viloyatini iqtisodiy geografik tavsifini olib borishda, shu viloyatning maydoni, aholisi, xo'jaligi va boshqa jihatlarini o'rganganda, bu ko'rsatkichlarni respublikaning yaxlit tizimidagi salmog'i va viloyatning respublikadagi o'rni va roli aniqlanadi. Demak, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida emas, balki turli xil hududiy tarkib birligi tarzida qo'rilishi lozim.

Taqqoslash metodi ham iqtisodiy geografiyada juda sermahsul va unumli metodlardan hisoblanib, ikkita taqqoslanayotgan ob'ektlar uchun umumiy va o'ziga xos tomonlarni, ob'ektning katta-kichikligi, uning afzalliklarini, imkoniyatlarini va omillarini ochib beradi.

Ekstrapolyatsiya metodi kelajakka baho berish bo'lib, uning asosiy mazmuni o'tmishdagi jarayonlarni kelajakka ko'chirish yoki istiqbolni aniqlash orqali o'rganiladi. Masalan, O'zbekiston aholisi har yili 3% ga yaqin o'sib boradigan bo'lsa, 2015 yilda respublika aholisining soni 30,9 mln kishini tashkil etishi mumkin, degan fikrga kelamiz, ya'ni oldingi o'sish sur'atlarini orqali kelajakdagi aholi sonini aniqlaymiz. Biroq, ekstrapolyatsiya metodi har doim ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu metodda iqtisodiy, siyosiy, tabiiy omillar va sabablar e'tiborga olinmaydi.

4.Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlari tizimidagi roli

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibi murakkab va majmualiy fanlar yo'nalishidan iborat bo'lib, bu tizimni shartli ravishda quyidagi pog'onalariga qo'yib chiqamiz.

Birinchi pog'onadagi fanlarga geografiyaning nazariy va fundamental tadqiqotlarni o'rganuvchi fanlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarixi, iqtisodiy, ijtimoiy geografiyaning nazariyasi, umumiy tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik va boshqa fanlar tashkil etadi. Chunki, har qanday iqtisodiy va

ijtimoiy geografiya fanidagi tadqiqotlarning asosini yoki uning ustqurtmasini geografiyaning nazariy masalalari tashkil etadi.

Ikkinchi pog'onadagi fanlar qatoriga geografiyaning negizini tashkil etuvchi fanlar, tabiiy–geografiya va iqtisodiy–ijtimoiy geografiya fanlari, kartografiya va o'lkashunoslik fanlari kiradi. Kartografiya fani tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan voqe'a va hodisalarni xaritalar yordamida aks etirish va tadqiq etishni o'z ichiga olsa, o'lkashunoslik fani esa, bu tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarining majmualiy yondashuvlari asosida xar xil hududlarni, mamlakatlarni va mintaqalarni umumiy geografik jihatdan tavsiflaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning uchinchi fanlar pog'onasini tarmoq fanlaridan iborat bo'lgan yoki maxsus fanlar tizimiga kiruvchi fanlar tashkil qiladi. Bularga, aholi geografiyasi, sanoat geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, xizmat ko'rsatish geografiyasi, turizm geografiya, transport geografiyasini va hokozalar kiradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining to'rtinchi pog'onadagi fanlar jumlasiga, boshqa fanlar chegarasida shakllangan fanlar kiradi. Bularga misol qilib, siyosiy geografiyani, harbiy geografiyani, tijorat geografiyasini, madaniyat geografiyasini keltirish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarmoq fanlari alohida salmoqqa ega bo'lib, bu fanlar bo'yicha juda katta ilmiy yo'nalishlar olib borilgan. Aholi geografiyasi fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining alohida bo'g'ini hisoblanib, aholining tarkibini, joylashishini va hududiy jihatdan tashkil etilish qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi. SHuningdek, aholi geografiyasi fani shaharlar, qishloq joylari geografiyasi bilan, migratsiya, mehnat resurslari va boshqa yo'nalishlarda ish olib boradi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Geografiya fanining rivojlanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
2. Geografik mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
3. Geografiya fanidan iqtisodiy geografiya mustaqil fan sifatida rivojlanish sabablarini nima?
4. Iqtisodiy geografiya fanining o'rganish ob'ekti va predmeti nima?
5. Fanning qanday tadqiqot metodlarini bilasiz?

6. Iqtisodiy geografiya fani tizimidagi qanday fanlar shakllangan va ularni o'rganish predmeti nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.V. Vavilova Ekonomicheskaya geografiya i regionalistika. 2 izd, pererab. i dop.- M.:Knorus, 2011.
2. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Uchebnoe posobie.-M.:Vlados, 2011. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshchaya xarakteristika mira.- Yaroslavl', 1993.
3. Organizatsiya Ob'edinennyyh Natsiy. Osnovnyye fakty.- M., 2000.
4. Simagin Yu. A. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira: Ucheb. posobie.-M., 2001.
5. Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira.-M., 1998.

1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishni tashkil etish asoslari.

Reja:

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlari
2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari
3. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish omillari

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida va uning ishlab chiqarish kuchlarining joylashishida tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Tabiat bevosita va bilvosita jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, uning xo'jalik yuritish va aholining turmush tarzida turlicha hududiy tafovutlarda namoyon bo'ladi. Tabiatning asosiy unsurlarini tabiiy sharoit va tabiiy resurslar tashkil etadi. Bu tushunchalarning mazmuni ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tabiiy resurs—bu tabiatning shunday elementiki, ishlab chiqarish vositalarini va ist`emol mahsulotlarini ishlab chiqarishda bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Bunga, yoqilg`i energetika, metall va nometall, yer, suv, o`simlik, hayvon va hokoza resurslar kiradi. Hududlarning tabiiy-resurs salohiyotini aniqlashda, mintaqalarning xo`jalik jihatdan rivojlanishida, uning ixtisoslashuvida va geografik mehnat taqsimoti o`rnida tabiiy resurslarning iqtisodiy geografik jihatdan, uning sifati va miqdorini baholash, aniqlash, iqtisodiy geografik tadqiqotlarda alohida o`ringa ega.

Tabiiy resurslarni iqtisodiy geografik jihatdan baholash quyidagi tomonlarini o`z ichiga oladi:

1. Tabiiy resurslarni miqdor jihatdan baholash. Bunda tabiiy resurslarning havzadagi hajmi, geologik zahirasi va havzaning o`zlashtirish muddati aniqlanadi. Masalan, neft million tonnada, yog`och esa kub metrda o`lchanadi.
2. Texnologik baholash. Bunda tabiiy resurslarning sifati, tabiiy resursning foydaliligi, tarkibi va havzaning o`zlashtirilish qulayligi darajasi baholanadi. Tabiiy resurslarni texnologik baholash natijasida, “o`zlashtirish yaroqli”, “o`zlashtirilish yaroqliligi cheklangan” va “yaroqsiz” xavzalarga guruhlanadi. Texnologik baholash ba`zi paytda ballarda baholanadi, masalan, o`rmon resurslari 1-5 ballar o`rtasida bonetirovka qilinadi.
3. Iqtisodiy baholash. Tabiiy resurslarning iqtisodiy baholanishi deganda, u yoki bu tabiiy resursning bozor iqtisodi sharoitida jahon va ichki bozorlardagi narx-navodan kelib chiqqan holda, uning qiymatini aniqlash tushuniladi.

Tabiiy sharoit—bu tabiatning shunday elementiki, ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi, biroq bu elementning ishtirokisiz ishlab chiqarish vujudga kelmaydi. Bunga, kuyosh energiyasi, namlik, atmosfera havosi, iqlim sharoiti, rel`ef va xokozalar kiradi. Tabiiy sharoitning ta`siri iqtisodning ochiq tabiatda faoliyat ko`rsatadigan tarmoqlarga bevosita ta`sir ko`rsatadi, masalan qishloq va o`rmon xo`jaligi, ularning samaradorligi va ixtisosligi esa bevosita tuproq unumdorligiga, iqlimga, suv bilan ta`minlashiga bog`liq bo`ladi.

SHuningdek, tabiiy resurs havzalarini o'zlashtirishda resursning zahirasi va uning sifatidan tashqari, havzaning o'zlashtirilish qulayligi va uning yer qa'rida joylashish qatlamlari ham muhim ahamiyatga ega. CHunki bu sharoitlar havzaning o'zlashtirilish metodiga, hajmiga va qiymatiga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga mehnat resurslari va moddiy- texnika baza kiradi.

Ishlab chiqarish kuchlarining asosiy unsurini inson tashkil etadi, chunki har qanday moddiy boylik ishlab chiqarish jarayoni insonning ta'sirisiz faoliyat yurita olmaydi, ma'lum bir qo'nikmaga, tajribaga, ixtisoslikga, malakaga ega bo'lgan, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan aholi mehnat resursini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish vositalari-bu ishlab chiqarishning asosiy moddiy bazasini tashkil etadigan va ishlab chiqarishda bevosita qo'llaniladigan predmetlarga aytiladi. Ishlab chiqarish vositalarini - mehnat predmeti va ish qurollaridan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayoniga mahsulot ishlab chiqarishga jalb qilinadigan xom ashyo resurslari, ya'ni, ruda, yoqilg'i, minerallar va xok, mehnat predmetini tashkil etadi. Tabiatga va mehnat predmetiga ish qurollari orqali ta'sir ko'rsatiladi va ma'lum tovar ishlab chiqarishiga erishiladi. Mehnat qurollarini eng oddiy ish qurollaridan boshlab zamonaviy texnika uskunalari va vositalari tashkil etadi. Demak, ishlab chiqarish vositalariga, yer, o'rmon, suv, xom ashyo, mehnat qurollari, ishlab chiqarish binolari, transport vositalar va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish alohida qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bu qonuniyatlar ishlab chiqarish kuchlari va hudud o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni rivojlanish holati, o'z navbatida, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish samaradorligini oshirilishida, ya'ni, birinchidan, tabiiy resurs salohiyotidan samarali foydalanish natijasida (maksimal darajada foyda olish, mahsulot tannarxini kamaytirish) bo'lsa, ikkinchidan esa, aholining yashash muhitida ekologik vaziyatni yaxshilash bilan bevosita bog'liq. SHu bilan birga, tabiiy

resurlardan majmuali foydalanish, hamda xom ashyo va yoqilg'i resurslardan foydalanganda chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyatga ega.

2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishni oqilona va samarali joylashtirish;
2. Iqtisodiy rayonlarda va viloyatlarda xo'jaliklarni majmuali rivojlantirish;
3. Mintaqalararo va mintaqalar o'rtasida hududiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirish;
4. Mintaqalarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining ma'lum bosqichlarida ishlab chiqarishni hududiy taqsimlanish tamoyillari ham muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillarini xo'jalikni yuritish metodlari sifatida ham qo'rish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qo'yidagi tamoyillarga asoslanadi:

A) Ishlab chiqarishni xom ashyo, yoqilg'i, energiya manbalari va iste'mol rayonlariga joylashtirish. Bu tamoyilning amalga oshishi nooqilona jihatdan uzoq masofalarga yuk tashish xarajatlarining qisqarishiga va bartaraf etilishiga, ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha mehnat xarajatlarini pasayishiga va iqtisodiy samaradorlikni oshishiga olib keladi.

B) Birinchi navbatda, eng samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmuali foydalanish, chunki bozor iqtisodiyoti davrida bu tamoyil juda muhimdir. Masalan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan boy neft va gaz zahiralarini qazib olish asosida yoki Toshkent viloyatidagi rangli metall konlari asosida hududiy ishlab chiqarish majmualarini (klasterlarni) tashkil etish va rivojlantirish.

V) Ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza etish va tabiatdan oqilona foydalanishda samarali tadbirlarni qo'llash. Bunda, insonning yashash muhitini yaxshilash maqsadida fan va texnika taraqqiyotining ilg'or yutuqlarini qo'llash, mintaqalarda tabiatdan foydalanish boshqaruvini takomillashtirish, ekologik va resurs muammolarini hal etish shuningdek, tabiatga va tabiiy resurlardan foydalanishga bo'lgan munosabatlarda iqtisodiy ma'suliyatni shakllantirish nazarda tutiladi.

G) Xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan keng foydalanish, uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish. Chunki, har bir mamlakatni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirilishi xalqaro mehnat taqsimoti doirasi amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ishlab chiqarish kuchlarining oqilona va samarali rivojlanishini va o'z resurslardan keng foydalanishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona, samarali joylashtirishning asosiy mazmuni va mohiyati mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatlarni maksimal darajada kamaytirishga, ma'lum hududlarda xom-ashyoni qazib olishdan boshlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarguncha bo'lgan barcha ishlab chiqarish jarayonlarini joylashtirishda o'z aksini topadi. Bunda albatta, ishlab chiqarishni joylashtirish omillarini e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega.

3. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish omillari.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omillari deganda, ma'lum bir guruh xo'jalik ob'ektlariga, tarmoqqa yoki mamlakat xo'jaligi tarkibini hududiy tashkil etilishiga, iqtisodiy rayonlarga, shuningdek hududiy-ishlab chiqarish majmualarning (klasterlarni) oqilona va samarali joylashishiga ta'sir etuvchi majmualar shart-sharoitlar tushuniladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omillariga quyidagilar kiradi:

A) xom ashyo omili. Bir xil sanoat tarmoqlarini joylashtirish bevosita xom ashyo manbalari bilan bog'liq. Bu sanoat guruhlariga neft, ko'mir, gaz, temir ruda va rangli metall rudalarini qazib olish, o'rmon sanoati tarmoqlari kiradi. Shuningdek,

xom-ashyo bazalari yaqinida qayta ishlash tarmoqlarining korxonalari ham joylashadi, masalan, qora metallurgiyaning birlamchi qayta ishlash jarayoni bilan bog'liq yoki mineral o'g'itlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar. Bunday tarmoqlarda, 1 tonna ishlab chiqaradigan mahsulot uchun o'rtacha 2-3 tonna xom ashyo va materiallar sarflanadi.

B) Yoqilg'i-energetika omili. Bu omil ko'pgina tarmoqlarni joylashishida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, temir qotishmalarini, alyuminiy, magniy, mis, qo'rg'oshin, nikel, sintetik ammiak va tola, kauchuk mahsulotlarning ishlab chiqarishda juda katta miqdorda yoqilg'i va energiya sarf qilinadi. Masalan, 1 tonna alyuminiy, natriy, magniy ishlab chiqarilganda, o'rtacha 14-18 ming kVt/c, 1 tonna nikel ishlab chiqarilganda – 40 ming kVt/ soat elektroenergiya sarflanadi.

V) Suv omili. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot birligiga sarf bo'ladigan suv miqdori suv talab tarmoqlarni belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Suv sarfi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning sohasiga sanoat kiradi, xo'jalikda sarflangan suvning 40% aynan shu sohaga to'g'ri keladi. Ayniqsa, ximiya sanoatining tsellyuloza-qog'oz, gidroliz, sintetik tola, tekstil sanoatining ip-gazlama va ipak mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar, shuningdek, rangli va qora metallurgiya korxonalarini joylashishida suv omili yetakchi rol o'ynaydi.

G) Demografik omil. Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashuvida bu omil katta ahamiyatga ega, ayniqsa, alohida tarmoqlarni va korxonalarining joylashuvida va ishlab chiqarish sur'atlarini o'sishida hududlarning demografik vaziyati e'tiborga olinmog'i zarur va muhimdir. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot birligiga sarf bo'ladigan ishchi kuchining soni tarmoqni mehnat talablilik mezonini aniqlab beradi

Hozirgi davrda respublikada aholining hududiy joylanishuvida keskin tafovutlar yuzaga kelgan, aholining zichligi bo'yicha Farg'ona vodiysi viloyatlari, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilmoqda. Aholi zich joylashgan respublikaning hududlarida mehnatni ko'p talab etadigan to'qimachilik korxonalarini joylashtirilsa, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud bo'lgan hududlarda esa mashinasozlikni radiotexnika,

elektorotexnika, priborsozlik korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

D) Transport omili. Mamlakatning iqtisodiy rayonlari va markazlar bilan aloqalarni o'rnatishda, tabiiy resurs havzalarini o'zlashtirilishida, mamlakatni iqtisodiy -geografik o'rnini yaxshilashda, shuningdek mamlakat xo'jaliginini hududiy jihatdan takomillashtirishda transport omilining ahamiyati juda beqiyosdir. Har bir tarmoqning hududiy joylashuvida transport omilini, ayniqsa, korxonaning optimal joylashuvida ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxida transport xarajatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

E) Iste'mol omil. Bu omil ishlab chiqarilayotgan mahsulotni saqlanish muddati qisqa bo'ladigan (tez buziladigan) yoki transport harajatlari yuqori bo'ladigan tarmoqlarni joylashishda muhim bo'lib, qo'pincha, non va non mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishida va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega.

J) Fan-texnika taraqqiyoti omili. Hozirgi davrda mamlakat xo'jaligini hududiy tashkil etishining takomillashuvi va mehnat unumdorligini oshirilishida fan-texnika taraqqiyotining natijalarini robot texnikasini, egiluvchan avtomatlashgan ishlab chiqarishni, rotor va rotor-liniyalarni qo'llanilishida juda muhimdir. FITning yo'nalishlari ayniqsa, mehnat resurslari kamyob va cheklangan hududlarda, shuningdek chekka va yetib borishi murakkab bo'lgan hududlarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Z) Ekologik omil. Ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishda atrof muhitga salbiy ta'sirni pasayishida, tabiiy resurslardan unumli va samarali foydalanishda va mintaqalarni majmuali rivojlanishida bu omilning roli katta.

Mavzu bo'yicha savollar?

1. Tabiiy resurs va tabiiy sharoit, deb nimaga aytiladi?
2. Ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslarini va moddiy texnika bazaning ahamiyati qanday?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni kuchlarini tashkil etilishining qonuniyatlarini mohiyatini ochib bering?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish tamoyillari nimadan iborat?
5. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishning asosiy omillarini ochib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.V. Vavilova Ekonomicheskaya geografiya i regionalistika. 2 izd, pererab.i dop.-M.:Knorus, 2011.
2. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Uchebnoe posobie.-M.:Vlados, 2011.
3. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshchaya xarakteristika mira.-Yaroslavl', 1993.
4. Organizatsiya Ob'edinennykh Natsiy. Osnovnyye fakty.-M., 2000.
5. Simagin Yu. A. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira: Ucheb. posobie.-M., 2001.
6. Sotsial'no-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira.-M., 1998.

2-MAVZU. DUNYO GEOGRAFIYASIGA UMUMIY TA'RIF

2.1. Dunyo siyosiy xaritasi

Reja:

1. Dunyo siyosiy xaritasidagi XX asr o'rtalari va XXI asr boshlaridagi o'zgarishlar
2. Dunyo mamlakatlarining guruhlanishi va tavsiflanishi
3. Dunyo mamlakatlarining davlat tuzumi va tuzilishi

1. Dunyo siyosiy xaritasidagi XX asr o'rtalari va XXI asr boshlaridagi o'zgarishlar

Dunyo siyosiy xaritasi juda murrakab va dinamik o'zgaruvchan jarayon bo'lib, turli tuzumdagi davlatlarni va hudududiy birliklarni o'z ichiga oladi. Dunyoning siyosiy xaritasi miqdor va sifat jihatidan o'zgarib turadi. Dunyoning siyosiy xaritasidagi miqdor jihatidan o'zgarishiga dunyo mamlakatlari soni ko'payishi yoki kamayishi bilan bog'liq bo'lsa, sifat jihatdan o'zgarishiga esa, davlatlarni mustaqillikka erishishi, davlatlarning siyosiy tuzumining o'zgarishi bilan bog'liq.

Dunyoning siyosiy xaritasidagi eng yirik miqdor va sifat jihatdan o'zgarishlar, XX asrning ikkinchi yarmiga va XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu o'zgarishlar birinchidan, bu davrda dunyoda davlatlarning va ma'muriy tuzilmalarning nisbatan o'sishi, xar xil manbalarga qaraganda, dunyo mamlakatlarning soni hozirgi paytda, 230, 243 yoki 257 ta, deb ko'rsatilgan. Ikkinchidan, bu davrda mustaqil davlatlarning soni keskin ortib ketdi, agar 1947

yilda 76 ta mustaqil davlatlar bo'lgan bo'lsa, 2007 yilda esa bu davlatlarning soni 194 taga yetdi. Uchinchidan esa, oxirgi o'n yilliklar ichida ko'pgina mamlakatlar o'zlarining siyosiy qarashlarini o'zgartirishdi. Bunday vaziyat, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda va siyosiy xaritada o'z aksini ko'rsatdi.

SHuningdek, bu davrdagi eng ahamiyatli siyosiy voqealarga mustamlakachilik tuzumining yemirilishi bo'lib, bu davrda Osiyo mintaqasida 27 ta davlat siyosiy mustaqillikka erishishdi, bular jumlasiga Hindiston, Pokiston, Indoneziya. V'etnam, M'enna, Iroq va boshqalar kiradi. Hozirgi paytda Osiyo siyosiy xaritasida birorta ham mustamlaka davlati yo'q. 60–yillarning boshlarida Lotin Amerikasida 13 ta, Okeaniyada esa 12 ta yangi mustaqil davlatlari paydo bo'ladi, Yevropada esa Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi bo'lgan Mal'ta siyosiy mustaqillikka erishdi.

Afrikada mustamlaka tizimini yemirilishi, XX asrning 50 yillaridan boshlab, 90 yillarning o'rtalarigacha davom etgan va bu davlatlarning soni 49 taga yetadi, istisno tariqasida Afrikada bir nechta maydoni bo'yicha juda kichik orolchalarda mustamlaka tuzumi xanuzgacha saqlanmoqda. Dunyoning siyosiy xaritasida XX asrning 90 yillarigacha ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sotsializm va kapitalizm tizimlari shakllanadi va bular o'rtasida mafkuraviy “sovuq urush” munosabatlari yuzaga keladi.

O'tgan asrning 80 yillarning oxiri 90 yillaring boshida dunyoning siyosiy xaritasida juda katta sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Birinchidan, dunyoning maydoni bo'yicha eng katta bo'lgan federativ davlati bo'lgan SSSR barbod bo'ladi va ularning o'rnida MDH (Mustaqil davlatlar hamdo'stligi) paydo bo'ldi, Boltiqbo'yi davlatlari Latviya, Litva va Estoniya bu hamdo'stlikka kirmaydilar, ikkinchidan esa nemis davlatlari hisoblangan Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokrativ Respublikalari birlashib Germaniya Respublikasini tashkil etdi. Uchinchidan, SHarqiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida rejali sotsializm tuzumidan bozor iqtisodiyoti tuzumiga o'tish jarayoni boshlanadi. Bu davlatlar qatoriga Pol'sha, Vengriya, Bolgariya, Ruminiya va xok. kiradi. To'rtinchidan, Yevropaning ikkita federativ tuzilishga ega bo'lgan davlatlarining

ajralishi ro'yi beradi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi o'rnida, Yugoslaviya Respublikasi Ittifoqi, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gertsogovina va Makedoniya va CHexoslovakiya Respublikasi o'rnida esa, CHexiya va Slovakiya Respublikalari vujudga keladi.

2.Dunyo mamlakatlarining guruhlanishi va tavsiflanishi.

Har bir dunyo mamlakatini o'rganganda, uni tabiiy, xo'jalik, madaniy va siyosiy jihatlari geografik ob'ekt nuqtai-nazaridan qaraladi. Dunyo mamlakatlarni guruhlanishi va tavsiflanishi turli mezonlar asosida olib boriladi. Agar mamlakatlarni guruhlanishi miqdor ko'rsatkichlari asosida o'tkazilsa, ularning tavsiflanishi esa, sifat ko'rsatkichlari asosida olib boriladi.

Mamlakatlar hududining maydoni, aholi soni, geografik o'rin xususiyatlari bo'yicha guruhlanadi. Dunyo davlatlari soni bo'yicha eng katta gigant–davlatlar, o'rta, kichik va juda kichik (mitti davlatlar) davlatlarga bo'linadi. Bundan dunyoning eng katta maydoni bo'yicha gigant davlatlarga quyidagi o'nta mamlakat kiradi (1-jadval.) Maydoni bo'yicha eng yirik davlatlar dunyoning quruqlik qismini 55% tashkil etadi.

1-jadval

Dunyodagi maydoni bo'yicha eng yirik davlatlar

Davlatlar	Maydoni, mln km.kv	Maydoni bo'yicha dunyodagi salmog'i, % da
Rossiya	17,1	12,7
Kanada	10,0	7,4
Xitoy	9,6	7,2
AQSH	9,6	7,2
Braziliya	8,5	7,2
Avstraliya	7,7	5,7
Hindiston	3,3	2,5
Argentina	2,8	2,1
Ko zog'iston	2,7	2,0
Sudan	2,5	1,9

SHuningdek dunyoning maydoni bo'yicha eng kichik, mitti-davlatlari mavjud bo'lib, ular G'arbiy Yevropada joylashgan, Andorra, Lixtensheyn, San-Marino,

Monako, Vatikan davlatlari (SHulardan eng kichik davlat Vatikan - 0,44 km.kv), Karib dengizi orollarida Grenada, Barbados, Antigua davlatlari va boshqalar kiradi. Dunyo aholisi soni bo'yicha ham dunyo mamlakatlari guruhlanadi va guruhlanish har doim o'zgarib turadi. Aholi soni bo'yicha eng yirik mamlakatlarda dunyo aholisining 3/5 foiz istiqomat qilmokda (2-jadval). Aholi soni bo'yicha Osiyo mamlakatlari yetakchi bo'lsa, ikkinchi o'rinda Amerika uchinchi o'rinda esa Yevroosiyo materigi turadi.

Mamlakatlarni iqtisodiy geografik o'rni bo'yicha guruhlaydigan bo'lsak, dengiz yo'liga ega bo'lgan va dengiz yo'liga chiqish imkoniyati berk bo'lgan mamlakatlarga ajratish mumkin (2-jadv.).

Davlatlarning tavsiflanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha olib boriladi. Mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini jahonning eng nufuzli halqaro tashkilotlari BMT (Birlashgan Millatlar tashkiloti), Jahon banki va Halqaro Valyuta fondi belgilab beradi. Hozirgi davrda dunyoda uchta guruhga xos mamlakatlar mavjud: 1) Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar; 2) rivojlanayotgan mamlakatlar; 3) bozor iqtisodiyotiga o'tish davri mamlakatlari.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga dunyoning 40 davlati to'g'ri kelib, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi bo'yicha boshqa rivojlanayotgan davlatlardan farq etadi. Bu davlatlarni 26 tasi Yevropada, 7 tasi Osiyoda, 4 tasi Avstraliya va Okeaniyada va 1 tasi Afrikada joylashgan. Ushbu davlatlarining iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, yuqori darajadagi bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanganligida, fan-texnika salohiyotini ahamiyatida, aholi turmush darajasi va sifati qo'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Jahon sanoati va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va xizmatlarni aksariyati qismi shu davlatlarga to'g'ri keladi. SHu bilan birga, bu guruh davlatlarni ichida ham ma'lum tafovutlar mavjud bo'lib, bu davlatlarni bir nechta guruhchalarga bo'lib o'rganamiz.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ichida AQSH, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadaning ahamiyati katta bo'lib, bu "ettilik davlatlari" ning yetakchiligi dunyo siyosatida va iqtisodida muhim rol o'ynaydi.

Jahonda ishlab chiqarilgan yalpi jahon mahsulotining (JYaM) va sanoat mahsulotini $\frac{1}{2}$ qismi, shuningdek qishloq ho'jaligi mahsulotini $\frac{1}{4}$ qismi shu davlatlar salmog'iga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropaning Avstriya, Belgiya, Daniya, Gollandiya, Norvegiya, SHveytsariya va SHvetsiya davlatlari ham ikkinchi guruhchani tashkil etadi, bu davlatlar uchun ham yuqori darajadagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga va xalqaro geografik mehnat taqsimotida tor ixtisoslashishga ega. Bu davlatlar jahon siyosatida ham ahamiyatli mavqega ega bo'lib, Vena va Jeneva shaharlarida Birlashgan Millatlar tashkilotining bir nechta bo'limlari joylashgan.

2-jadval

Dengiz yo'liga chiqish imkoniyati berk bo'lgan mamlakatlar

Mintaqalar	Mamlakatlar
MDH	Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston
G'arbiy Yevropa	Avstriya, Andorra, Vatikae, Vengriya, Lixtenshteyn, Lyuksenburg, Makedoniya, San –Marino, Slavakiya, CHexiya, SHveytsariya
Xorijiy Osiy	Afg'oniston, Butan, Laos, Mo'g'iliston, Nepal
Afrika	Botsvana, Burkina Faso, Burundi, Zambiya, Zimbabve, Lesoto, Malani, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, Markaziy Osiy Respublikasi, CHad, Efiopiya
Lotin Amerika	Boliviya, Paragvay

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Isroil davlatlari uchinchi guruhcha mamlakatlarini tashkil etadi. Bu davlatlar sobiq Buyuk Britaniyaning mustamlakalari bo'lib, ko'chmanchi kapitalizm bu davlatlar uchun xos. Oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga Janubiy Afrika Respublikasi, Singapur, Syangan (Gonkong) va Tayvan davlatlari qo'shildi.

Rivojlanayotgan davlatlar guruhiga dunyoning 150 mamlakati kirib, quruqlikning $\frac{1}{2}$ qismi va dunyo aholisining $\frac{4}{5}$ qism shu davlatlar to'g'ri keladi. Bu davlatlar, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyada joylashgan. Iqtisodiy jihatdan past rivojlanishi, agrar-xom ashyo tarmoqlariga ixtisoslanishuvi va jahon bozoriga qaramligi bu davlatlarga uchun xos. Bu davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish darajasida jiddiy tafovutlar mavjud, shuning uchun ham ularni xar-xil turlarga ajratib o'rganiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida **Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika davlatlari** muhim rol o'ynaydi. Tabiiy resurs zahiralari, aholi va iqtisodiy salohiyot ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur davlatlar jahonda yetakchi o'ringa ega. Oxirgi yillarda jahonda ishlab chiqarilgan yalpi jahon mahsuloti (YaJM) qiymati bo'yicha Xitoy 2 o'rinni va Hindiston esa 4 o'rinni egallamoqda, hatto rivojlangan mamlakatlardan ham o'zib ketdi. SHuningdek, bu to'rtta davlatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmi, qolgan rivojlanayotgan mamlakatlardan bir necha barobar yuqori.

Rivojlangan mamlakatlar ichida siyosiy jihatdan mustaqil va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda yuqori yutuqlarga erishayotgan Lotin Amerikasidagi **Argentina, Venesuela, Urugvay va CHili** davlatlarini ikkinchi turdagi mamlakatlarga kiritamiz.

XX asrning 80-90 yillarida, jahon iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanish bo'yicha keskin sakrash sodir etgan "yo'lbars" yoki "ajdar" deb nomlangan **yangi industrial davlatlar** vujudga keladi. Janubiy Koreya, Singapur, Syanganu(Gonkong) va Tayvan davlatlari hozirgi paytdagi xalqaro nufuzli tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha, rivojlangan davlatlar qatoriga kirgizilgan Malayziya, Tailand, Indoneziya va Fillippin ham yangi industrial davlatlari, deb tan olingan.

Rivojlanayotgan davlatlar qatorida **neft eksport qiluvchi** Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi (BAM), Qator, Baxreyn, Liviya va Bruneyni alohida guruhni tashkil etishadi. Bu davlatlar boshqa davlatlarga nisbatan ancha iqtisodi boy, valyuta tushumining asosiy qismi neft eksporti hisobiga to'g'ri keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarining aksariyat qismini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan **qoloq mamlakatlar** guruhi tashkil etadi. Bularning umumiy soni 50 tadan ortiq bo'lib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida joylashgan davlatlar kiradi. Masalan, SHri Lanka, Ganu, Gvineya, Zimbab've, Boliviya, Gayanu, Ganduras va boshqalar kiradi. Bu mamlakatlar uchun, aholi jon boshiga

to'g'ri keladigan yalpi mahsulotning pastligi, iqtisodida qishloq xo'jaligining ustuvorligi va aholining savodsizligi xususiyatlari xos.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri mamlakatlariga rejali iqtisodga asoslan sobiq sotsialistik mamlakatlar, ya'ni ilgari SSSR tarkibiga kiruvchi 15 ta respublika va Markaziy va SHarqiy Yevropada joylashgan 12 ta respublika va Mongoliya kiradi. Bu davlatlarda XX asrning 80-90 yillaridan boshlab, ma'muriy-buyruqbozlikka va rejali iqtisodga asoslangan xo'jalikdan bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish, demokratik jamiyat qurish, inson huquqlarini himoya etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari amalga oshmoqda.

3. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumi va tuzilishi

Dunyoning siyosiy xaritasida davlatlarni siyosiy rejimi, davlat tuzumi va tuzilishi bo'yicha o'rganish alohida ahamiyatga ega. Siyosiy rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarining majmui bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

Davlatlarning **siyosiy rejimi** bo'yicha davlatlarni ikkita toifaga bo'lish mumkin demokratik va g'ayridemokratik davlatlar. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga qaraganda, XX asrning 70 yillarida demokratik davlatlar toifasiga dunyoning 1/3 davlati kirgan bo'lsa, XXI asrning 80-yillarida 88 ta (dunyoning 2,8 mlrd aholi shu davlatlarga yashaydi) erkin demokratik davlatlar va 55 ta (dunyoning 1,3 mlrd aholisi istiqomat qiladi) davlat qisman erkin, deb tan olingan. Bu davlatlarda, shaxsning iqtisodiy sohadagi erkinligi, inson va fuqaro huquqlari erkinligi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy birlashmalarning ko'pligi belgilari xosdir.

3-jadval

Monarxiya boshqaruv shaklidagi davlatlar

Davlatlar	Boshqaruv shakli	Davlatlar	Boshqaruv shakli
G'arbiy Yevropa			
Andorra	Knyazlik	Lixtenshteyn	Knyazlik
Belgiya	Qirollik	Lyuksemburg	Buyuk Gertsoglik

Vatikan	Teokratik monarxiya	Monako	Knyazlik
Buyuk Britaniya	Qirollik	Gollandiya	Qirollik
Daniya	Qirollik	Norvegiya	Qirollik
Ispaniya	Qirollik	SHvetsiya	Qirollik
Xorijiy Osiyo			
Baxreyn	Amirlik	Omon	Sultonlik
Bruney	Sultonlik	Birlashgan Arab Amirligi	Amirlik
Bruney	Qirollik	Saudiya Arabistoni	Qirollik
Butan	Qirollik	Tailand	Qirollik
Iordaniya	Qirollik	Tailand	Qirollik
Kambodja	Qirollik	Yaponiya	Qirollik
Qatar	Amirlik	Nepal	Qirollik
Kuveyt	Amirlik	Malaziya	Sultonlik
Afrika Okeaniya			
Lesoto	Qirollik	Tonga	Qirollik
Marakkash	Qirollik		
Svazilend	Qirollik		

Jahon mamlakatlarining g'ayridemokratik tuzumga asoslangan davlatlaring soni 50 ta bo'lib, demokratik erkinliklar, siyosiy va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini cheklanganligi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasidagi vakolatlari aniq taqsimlanmaganligi, insonning konstitutsion huquqlari va erkinliklari poymol bo'layotganligi bu davlatlar uchun xos.

Davlatlarni boshqaruvi tuzumi ikki xil respublika va monarxiya shaklida bo'ladi. Davlatlarni respublika shaklida boshqarilishi Antik davrida vujudga kelgan bo'lib, Yangi va eng yangi tarixiy bosqichlarda bu boshqaruv shakli juda keng tarqalgan. SHuni qayd etish zarurki, mustamlakachilik tuzumidan ozod bo'lgan va siyosiy mustaqillikga erishgan aksariyat davlatlar, respublika boshqaruviga o'tishgan, ming yillab monarxiya boshqaruviga ega bo'lgan Misr, Iron, Tunis, Liviya davlatlari ham respublika boshqaruvi shaklni qabul qilishgan. Hozirgi davrda, dunyoning 4/5 mustaqil davlatlarida respublika boshqaruvi tuzumi xos.

Respublika boshqaruvida asosiy qonun chiqaruvchi organ, xalq tomonidan saylangan parlament, ijro etuvchi organ esa–hukumat hisoblanadi. Respublikalar Prezidentlik va parlamentar respublikalarga bo’linadi. Prezidentlik respublikasiga AQSH, Qozog’iston, O’zbekistonni kiritish mumkin. Parlament respublikalariga Avstriya, Italiya, Germaniya misol bo’lishi mumkin. Monarxiya boshqaruvi Eng qadimgi davrda vujudga kelgan bo’lib, O’rta asrlarda va Yangi davrda rivojlanadi. Davlatni monarx (imperator, amir, qirol, shoh va xok.) boshqaradi, va boshqaruv avloddan-avlodga o’tib turadi. Hozirgi davrda 30 ta monarxiya davlati mavjud.(4-jadval). Monarxiya uch xil bo’ladi, konstitutsion, mutloq va teokratik. Hozirgi davrdagi monarxiya tuzumidagi davlatlarning ko’pchiligini konstitutsion monarxiya tuzumi tashkil etadi, monarxning vakolati cheklangan bo’ladi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar davlat boshqaruvini olib boradi. Konstitutsion monarxiya davlatlariga misol qilib, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Norvegiya, Ispaniyani keltirish mumkin.

Mutloq monarxiyada cheksiz vakolatga ega bo’lgan monarx boshqaradi. Bu davlatlarga Oman, BAA, Qatar misol bo’ladi. Teokratik monarxiyada davlatni diniy boshqaruv olib boradi. Saudiya Arabistoni, Vatikan, Bruney shu davlatlar qatoriga kiradi.

4-jadval

Dunyoning federativ tuzilishiga ega bo’lgan davlatlari

Mintaqalar	Davlatlar
MDH	Rossiya Federatsiyasi
Xorijiy Yevropa	Avstriya Respublikasi, Belgiya Qirolligi, Bosniya, Gertsegovina, Germaniya Federativ Respublikasi, SHveytsariya Konfederatsiyasi
Xorijiy Osiy	Hindiston Respublikasi, Malayziya, Myanma Ittifoqi, Birlashgan Arab Amirligi, Pokiston Islom Respublikasi
SHimoliy Amerika	Kanada, Amerika Qo’shma shtatlari
Lotin Amerikasi	Argentina Respublikasi, Braziliya Federativ Respublikasi, Boliviya respublikasi, Venusuela, Meksika Qo’shma shtatlari, Sent-Kits va Nevis

	federatsiyalari
Avstraliya va Okeaniya	Avtraliya Ittifoqi, Mikroneziya Federativ shtatlari

Davlat tuzilishi shakli uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir. Davlat tuzilishi bo'yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Unitar davlatlar.
2. Federativ davlatlar.
3. Konfederativ davlatlar.

Unitar davlat-bu oddiy, yaxlit davlat bo'lib, davlat, oblast, okrug, rayon, tuman, deb turlicha nomlanadigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta xukumat, bitta prezident bo'ladi. Bunday davlatlarga, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, SHvetsiya, Polsha va boshqalar misol bo'ladi.

Federativ davlat murakkab, ittifoqdosh davlat bo'lib, bir qancha ma'muriy-hududiy bo'linmalardan tashkil topadi (shtatlar, o'lkalar, respublikalar), federativ tuzilishdagi davlatlarni AQSH, Rossiya, Hindiston, Meksika va xok. tashkil etadi (4-jadval). Konfederatsiya o'z suverenteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda, u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti bo'ladi. Hozirgi davrda SHveytsariyada konfederatsiya maqomi saqlanib qolgan.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Jahon mamlakatlarining guruhlanishi va tavsiflanishi qaysi tamoyillar asosida aniqlanadi?
2. Dunyo mamlakatlarini maydoni, aholisining soni bo'yicha guruhlariga ajratish?
3. Rivojlangan mamlakatlarni asosiy xususiyatlarini aniqlang?
4. Qaysi xususiyatlar rivojlanayotgan mamlakatlarni bitta guruhga ajratadi?
5. "Davlat tuzumi" va "davlat tuzilishi" tushunchalarini ochib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisov N. V., Xorev B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira (obshiy obzor).- M., 2001.
2. Atlas mira. -M., 1996.
3. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya zarubejnogo mira i Rossii.-M., 1998.
4. Geografiya mirovogo xozyaystva.-M., 1997.

5. Gladkiy Yu. I., Sokolov O. V., Faybusovin E. L. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya.- M., 1999.
6. Gutkin L.S. CHelovechestvo na rubeje vekov.-M., 2003.
7. Kokin A. V., Kokin V. N. Prirodnye resursy mirovoy ekonomiki.-M., 2001.

2.2. Dunyo aholisi

Reja:

1. Dunyo aholisining soni va dinamikasi
2. Aholining takror barpo etilishi va uning tiplari
3. Dunyo aholisining etno-demografik tarkibi
4. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiyasi.

1. Dunyo aholisining soni va dinamikasi.

Aholi deganda—ma'lum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. Aholining mutloq soni—biron-bir hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning ma'lum vaqtdagi miqdoriy ifodasidir.

Demografiyada aholi soni, eng umumiy asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir sanaga (1-yanvar, 1-iyul yoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991 yil 1 yanvarda 20708,2 mingni, 2000 yil 1 yanvarda esa – 24487,7 mingni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1 yanvardan 31 dekabrga qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi. Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, yuqorida qayd etilgandek, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

Demografik tadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniladi. Nazariy aholi soni o'zgarmas – stabil aholi sonidir. Stabil aholi soni lotincha “stabilis” so'zidan olingan bo'lib, doimiy, o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Aholining asosiy kategoriyasi mavjud (nalichnye) aholidir. Demografik koeffitsientlarni hisoblaganda mavjud

(nalichnye) aholi sonidan foydalaniladi. SHuningdek, mavjud aholi soni aholi ro'yxatlari orasidagi davr uchun aholi mutloq sonini o'rganishda ham qo'llaniladi.

1-jadval

Er sharida aholi sonining o'sish sur'ati, %

Mintaqalar	Yillar		Prognoz
	1955-1984	1985-1999	2000-2025
Dunyo bo'yicha	1,9	1,6	1,2
Evropa	0,7	0,3	0,1
Osiyo	2,1	1,6	1,0
Afrika	2,6	3,1	2,5
SHimoliy Amerika	1,3	0,8	0,6
Lotin Amerikasi	2,0	2,0	1,4
Rossiya	1,3	0,8	0,6

Manba: [Population Reference Bureau. 2011 World Population Data Sheet.](#)

Aholining mutloq soni muntazam o'zgarib boradi. Aholi ro'yxatlari yordamida aholi mutloq sonini o'zgarishini aniq ifodalash mumkin. Aholi mutloq sonidagi o'zgarishlar aholi soni muntazam ko'payib borsa ijobiy, agar aholi soni kamaysa salbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda aholi mutloq soni 1897-1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari oralig'ida muntazam ko'payib borgan.

Aholi soni asosan tabiiy va mexanik ko'payish orqali ortib boradi. Tabiiy ko'payishda demografik jarayonlardan tug'ilish va o'lim jarayonlari muhim o'rin tutadi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari natijasida, aholi takror barpo bo'ladi, avlodlar tug'iladi. Aholi takror barpo bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: Tabiiy-biologik; Ijtimoiy-iqtisodiy; Ijtimoiy-madaniy; Psixologik; Demografik. Yer kurrasi aholisi 2012 yilda 7 milliarddan oshdi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi 2015 yilgacha har yili 80-85 million kishidan ko'payib boradi.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, yer shari aholisi asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar 3,5 marta ko'paygan. Aholining tez sur'at bilan ko'payishi XX asrga to'g'ri keldi va bu asosan rivojlanayotgan davlatlar hisobiga bo'lmoqda. Agar 1950–1990 yillarda aholi butun yer sharida yiliga o'rtacha 1,8 % ko'paygan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 0,9 % ni va rivojlanayotgan

davlatlarda esa 2,1 % ni tashkil qiladi. 2000 yil avval yer sharida 200 million kishi yashagan va uning aksariyati Osiyoda joylashgan. Hozirga kelib yer yuzida aholi quyidagicha tarqalgan:

- Yevropa (Rossiya Fedaratsiyasining Yevropa qismi bilan birgalikda)..740 mln
- Osiyo (Rossiya Fedaratsiyasining Osiyo qismi bilan birgalikda)4216 mln
- Afrika1051 mln
- Amerika942 mln
- Avstraliya va Okeaniya37 mln

BMT prognoziga ko'ra dunyo aholisi 2000 y. - 6 030 mln, v 2005 y. - 6 550, 2011 y. - 7058 mln, 2125 y. - 8082 mln kishiga yetadi.

XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning hamma mintaqasida aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati pasaydi, Xorijiy Yevropada, bu ayniqsa sezilarli bo'ldi. Faqatgina Afrikada bunday hodisa ro'y bermadi. Mazkur qora mintaqada hamon "demografik portlash" kuzatilmoqda. 2000-2025

2-jadval

Aholisi eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar (2011 y.)

Aholisi eng ko'p davlatlar	Aholisi, ming kishi	Aholisi eng kam davlatlar	Aholisi, ming kishi
Xitoy	1345,9	Nauru	0,01
Hindiston	1241,3	Palau	0,02
AQSH	311,7	San-Marino	0,03
Indoneziya	238,2	Monako	0,04
Braziliya	196,7	Grenada	0,1
Pokiston	176,9	Seyshel orollari	0,1
Nigeriya	162,3	Antigua-Barbados	0,1
Bangladesh	150,7	Mayot	0,2
Rossiya	142,8	San-Tome-Prinsipi	0,2
Yaponiya	128,1	Beliz	0,3

Manba: [Population Reference Bureau. 2011 World Population Data Sheet.](#)

yillarda ham Afrikada bu holat saqlanib qoladi (1-jadval). Oxirgi 30 – 40 yil ichida aholisi tez ko'payib borishi xos bo'lgan, rivojlanayotgan davlatlardagi demografik vaziyat qator mutaxassislarni "dunyoda aholi ortiqchaligi paydo bo'ladi"—degan tashvishga ham olib keldi. Rivojlanayotgan davlatlarda aholi ko'payishining asosiy

sababi o'limning keskin kamayishi, tug'ilish darajasining yuqoriligi hamda o'rtacha umr ko'rish muddatining oshganligidir. Hozirgi paytda dunyo aholisining deyarli 60 % Horijiy Osiyoda, 15 % ga yaqini – Afrikada, 13 % - Amerikada, 11 % Horijiy Yevropada, 0,5 % - Avstraliya va Okeaniyada, hamda 6 % - MDH tarkibiga kirgan davlatlarda istiqomat qilishadi. Aholi sonining tez oshib borishi Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilib, ularda aholi yiliga 2,5 – 3 % dan ko'payib bormoqda.

2. Aholining takror barpo etilishi va uning tiplari.

Aholining takror barpo bo'lishi, jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, tug'ilish va o'lim jarayonlari natijasida, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir yoki bir avlod vakillarining o'rniga ikkinchi bir avlod vakillarining kelishi, avlod almashinishidir.

Avlodlar almashinishi davomida (aholining takror barpo bo'lishi) uning soni, yosh va jinsiy tarkibi o'zgaradi. Avlodlar almashinuvi, aholi tabiiy o'sishi hajmini aniqlash, har bir avlod o'rtacha umr ko'rish, tug'ilish va o'lim jarayonlari yig'indisi aholining tabiiy harakati yoki takror barpo bo'lishi deyiladi. Aholining takror barpo etilishi bevosita va bilvosita aholining tug'ilishiga, o'limiga va tabiiy o'sishiga bog'liq. Jamiyatda avlodlar almashinadi, aholi takror barpo bo'ladi. Natijada aholi soni o'sadi. Aholining takror barpo bo'lishi har bir hudud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhiti ta'sirida ro'y beradi va taraqqiy etadi. SHu boisdan aholi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari turli mamlakatlarda turli vaqtlarda bir-biridan farqlandi. Bu farqlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlardan foydalanildi. Biologik hodisa hisoblanmish tug'ilish va o'lim asosiy aholi takror barpo bo'lishidagi ko'rsatkich ekanligini aytib o'tgandik. Bu ko'rsatkich miqdoriy jihatdan 1000 kishiga hisoblanadi va promilleda ifodalanadi.

Aholi takror barpo bo'lishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Tabiiy-biologik;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy;
3. Ijtimoiy-madaniy;
4. Psixologik;
5. Demografik.

Tabiiy-biologik omil aholi takror barpo bo'lishida muhim omillardan biri. Yer yuzi aholisi turli tabiiy sharoitda yashaydi, tug'iladi va o'ladi. Insonning tug'ilishi va o'lishi kabi biologik hodisa ekan u tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikdadir.

Jamiyat davomiyligini ta'minlovchi inson ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Aholi tabiiy o'sishi uning jinsiy, yosh tarkibi, nikoh va ajralish jarayonlari ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi demografik omillar sirasiga kiradi. Ma'lumki, tug'ilish qanchalik ko'p bo'lsa, aholi soni o'sib boradi, aholi tarkibida bolalar va yoshlar miqdori oshadi yoki aksincha tug'ilish kamaysa, jinsiy tarkibdagi buzulishlar ro'y bersa aholi yosh tarkibida qariyalar soni va salmog'i o'sadi va hokazo. Yuqoridagi omillar aholi takror barpo bo'lishiga bir xil ta'sir etmaydi.

Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy omil aholi tabiiy harakatida muhim rol o'ynaydi. Aholining yashash sharoiti, sog'liqni saqlashning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o'rni, aholining madaniy va ma'lumotlilik darjasi va boshqalar aholi tabiiy harakati darajasini belgilab beradi. Ushbu omillarning tug'ilish va o'limga ta'siri qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yaxshilanishi, tibbiy xizmat kabi sohalarning rivojlanishi, o'lim ko'rsatkichini pasaytiradi, aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi uzaytiradi. Natijada, aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payadi va o'z-o'zidan o'lim ko'rsatkicha osha boshlaydi.

Aholining takror barpo etilish jarayonida tug'ilish alohida o'ringa ega bo'lib, unga tabiiy-biologik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ta'lim darjasi omillari ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholining balog'at yoshiga tez yetishi va

reproduktivliligiga (tug'ish imkoniyatining uzoqligi) mamlakatlarning iqlim xususiyatlari tabiiy-biologik omil sifatida qaralsa, demografik omillarga esa, aholining jins, yosh bo'yicha tarkibi qaraladi. Aholining farovonligi, madaniy va ta'lim darajasi ham mamlakat aholisining tug'ilish ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aholining tabiiy o'sishi tug'ilganlardan o'lganlarning ayirmasiga teng yoki aholining har 1000 ta kishi o'rtasidagi tug'ilganlar va o'lganlar o'rtasidagi farqdir. Insoniyat jamiyati tarixida aholi takror barpo bo'lishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lgan va bo'lmoqda, oqibatda, hozirgi davrda dunyo aholisining takro barpo etishining quyidagi tiplari paydo bo'ldi:

1) Arxetip, 2) an'anaviy tip, 3) zamonaviy tip.

Arxetipga xos aholining tabiiy o'sishi insoniyatni demografik rivojlanishida uzoq davom etgan davri bo'lib, aholining yuqori darajadagi tug'ilishi yuqori darajadagi o'limi ko'rsatkichlari bilan kuzatiladi. Bunday, tabiiy o'sish hozirgi davrda Afrikaning ko'pgina qoloq mamlakatlariga xos. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda aholining takror barpo bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, rivojlanayotgan yoki iqtisodiy nochor davlatlardagi aholi o'rtasida erta oila qurish, ko'p farzandlilik, ayollar ahvoli yaxshi himoyalanganligi, ma'lumotlilik darajasining pastligi, sog'liqni saqlash tizimining yetarli yo'lga qo'yilmaganligi tug'ilishning juda yuqori bo'lishiga, o'lim darajasining, ayniqsa, bolalar va ayollar o'limining ko'pligiga sabab bo'ladi. Aholining turmush darajasi baland, madaniy saviyasi yuqori bo'lgan aksariyat, rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish darajasining pastligini ko'ramiz. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi eng balandni tashkil etadi.

Angliyalik iqtisodchi Semyuel Leng "agar hamma yetarli, qulay, yaxshi sharoitda yashaganda edi, hozir dunyo odamsiz qolgan bo'lur edi" deydi. Bundan aholining moddiy ahvoli, ma'naviy turmush darajasi yuksalib borar ekan, o'z navbatida inson psixologik nuqtai-nazardan ko'p farzand ko'rishni istamaydi, degan fikr tug'iladi.

B.TS. Urlanis “Moddiy jihatdan yaxshi ta’minlangan oilalarning farzandlari kam sonlidir” deb iqtisodiy omilning demografik omilga ko’rsatayotgan ta’sirini ifodalab beradi. SHuningdek, u moddiy omil bilan ma’naviy omilning avlodlar almashinuviga hamisha bir xil yo’nalishda ta’sir etmasligini ham aytib o’tadi. Aholi takror barpo bo’lishi, ushbu omillar tasirida bir-biridan farq qiluvchi tiplari vujudga keladi.

Birinchi tip-bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o’rtasida tug’ilish va o’limning yuqori darajasi va bunga mos ravishda, aholining kam miqdorda ko’payishi xos bo’lib, hozirda ushbu tipga kiradigan davlatlar yer sharida juda kam miqdorda uchraydi.

Ikkinchi tip - davlatlariga tug’ilish miqdori yuqori, o’lim ko’rsatkichi tibbiyotdagi erishilgan yutuqlar evaziga keskin kamayib boradi. Aholi yosh tarkibi progressiv, keksa va qariyalar salmog’i kam sonli, bolalar, yoshlar ko’pchilikni tashkil etgan holda, aholi takror barpo bo’lishi ijobiy baholanadi, “demografik portlash” kuzatiladi. Aholi takror barpo bo’lishining kengaygan ushbu tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari, Avstraliya va Okeaniya, O’rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi tip-bu tipdagi davlatlarda aholi o’limining kam miqdori ushlanib turgan holda, tug’ilish darajasi qisqarib boradi. Aholi soni haddan tashqari ko’payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma’lum bir miqdorda o’sishi kuzatiladi. Ushbu tipdagi davlatlar aholi takror barpo bo’lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar, deb ataladi.

To’rtinchi tip- davlatlari aholisi o’z-o’zini qayta tiklamaydi. O’lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq bo’ladi. Mazkur guruh davlatlarida “depopulyatsiya” ro’y beradi, qisqargan aholi takror barpo bo’lishiga olib keladi. Bularga Yevropa, Boltiqbo’yi davlatlari, SHimoliy Amerikadagi ma’lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyani kiritish mumkin.

Hozirda yer shari aholisi tug’ilish umumiy koeffitsienti har ming kishiga 20 promillega, aholi o’limi 8 promillega, tabiiy ko’payish 12 promillega (2012 y)

teng bo'lmoqda. XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, XX asrga kelib, aksariyat, rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida, tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatda bo'lgan bo'lsa, XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtda tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni eng aniq ifodalovchi demografik ko'rsatkichlardan biri tug'ilishning yig'indi koeffitsienti bo'lib, u ma'lum avlodga tegishli har bir ayolning farzand ko'rish davrida (o'rtacha 15-49 yosh) tuqqan bolalarning o'rtacha sonini bildiradi. Agar mazkur koeffitsient qaysi bir hududda 4,15dan yuqori bo'lsa, shu hududda aholi soni tez sur'at bilan ko'payib boradi, aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog'i yuqori bo'lib, qariyalar (65 yosh va undan kattalar) salmog'i past bo'ladi. Agar tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,15dan kichik bo'lsa aholi juda sekin o'sib boradi, aholi tarkibida bolalarga nisbatan qariyalar salmog'i yuqori bo'lib, aholining demografik "qarish" jarayoni ro'y beradi. Bu ko'rsatkich 2,15dan 4,15 gacha bo'lsa tug'ilish darajasi normal hisoblanib, aholi o'rtacha me'yorda ko'payib boradi.

Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti dunyo bo'yicha, 2,5 ga teng (2012 y). Demak, aholi takror barpo bo'lishda davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu raqam 1,7 ga, rivojlanayotgan davlatlarda 3,0 ta, o'rtacha darajadagi rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,6 ga teng (2012 y). Afrikada tug'ilishning ushbu koeffitsienti eng yuqori ko'rsatkichga ega, ya'ni 4,7, Amerikada 2,2, AQSHda 2,0, Osiyoda 2,2 va Yevropada 1,6 ni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha Angola, Kamerun, Brunda, Malavi davlatlari (5,7-6,5) aholisi o'ta yuqori tug'ilish darajasiga ega. Yevropa aholisi demografik inqirozga yuz tutgan, bironta davlat aholisida tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,0 dan oshmaydi. Bunda albatta mamlakatlar

aholisining yosh, jinsiy, milliy tarkibi, hududiy joylashuvi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda o'ta yuqori darajada banligi kabi xususiyatlari alohida o'rin tutadi.

3-jadval

**Aholining takror barpo bo'lishi ko'rsatkichlari
(har1000 aholiga nisbatan, 2012 yil)**

Mintaqalar	Tug'ilish	o'lim	Tabiiy ko'payish	Mexanik ko'payish
<i>Butun dunyo</i>	20	8	1,2	-
Afrika	36	11	2,5	-1
Amerika	16	7	10	0
Osiyo	18	7	1,1	0
Avstraliya va Okeaniya	18	7	1,1	4
Evropa	11	11	0,0	2
Rossiya	13	14	-0,1	2
<i>O'zbekiston</i>	23	5	1,8	-2

Manba: [Population Reference Bureau. 2012. World Population Data Sheet.](#)

Evropa davlatlari aholisi jinsiy tarkibida ayollarning 45-50 foizi xalq xo'jaligida band. Osiyo, Afrika davlatlarida esa bu raqam juda kichik. Afrikada ayollarning atigi 5 foizi ishlab chiqarishda qatnashadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 promilledan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbaniztsiya jarayoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi. Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlarida, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erda nikohga kiradi, G'arbiy Yevropada esa aksincha.

1970 – 2005 yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi SHimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,6 marta kamaygan). Uning asosiy sabablardan biri shahar aholisining o'sishidir. Masalan, AQSH va Kanadada shahar aholisining 1950 – 1999 yillarda 64 % dan 75 – 79 % gacha o'sgan. Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib keladi. Buni Xorijiy

Osiyoning eng aholisi ko'p davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ham ko'rish mumkin. Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi.

BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1970 – 1974 yil har bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986 – 1990 yillarda 2,1 va 1,4 tadan farzand ko'rishgan. Xitoy davlati konstitutsiyasida er-xotin farzand ko'rishi rejalashtirishi zarurligi qayd etilgan. Farzandlar tug'ilishini rejalashtirish bo'yicha maxsus komitet tashkil etilgan, oilada farzandlar tug'ilishi uchun hukumatdan rasmiy ruxsat olinishi zarur. Kech nikohga kirish belgilangan, institutda o'qish davomida turmush qurishga ruxsat berilmaydi. Oilani rejalashtirish shiori “Bir oilaga-bitta bola” siyosati hozirda o'z natijasini bermoqda. Ammo, bir vaqtlardagi demografik portlash hisobiga tug'ilganlarning bugungi kunda o'rta va nafaqa yoshiga yetib kelayotganligi, Xitoy demografik siyosatida yana bir katta muammoni keltirib chiqarmoqda. Oqibatda, aholi o'rtasida qariyalar va nafaqo'rlar soni keskin ortishi, tug'ilyotgan oiladagi bitta bola oltita odamni boqishi kutilmoqda.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash milliy davlat dasturi 1951 yili qabul qilingan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlari kiradi. Oilani rejalashtirish milliy davlat dasturi Hindistonda “Biz ikkitamiz-bizga ikkita” shiori ostida ish olib boradi. Bu dasturga binoan nikohga kirish yoshi ko'tarilgan. Natijada, tug'ilish va aholining tabiiy ko'payish darajalari birmuncha pasaydi. Masalan, 1970 – yillardan buyon har bir ayol o'z umri davomida ko'rgan farzandlari soni 5,4 dan 1,7 gacha kamaydi. Ammo shunga qaramasdan, dunyoda tug'ilyotgan har 5 ta chaqaloqning 1 tasi Hindistonga to'g'ri keladi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971 yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir.

Aholining takror barpo bo'lishi nafaqat, tug'ilishga balki o'lim jarayoniga ham bog'liq. O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar natijasida ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'rsatildi.

Endogen omillar-organizmning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati, qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda, endogen omillar tufayli keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatda me'yoriy hodisa, deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamida ham endogen sabablar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqea-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar-odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib, bu omillar ta'siri oqibatida, aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtda turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida, yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida, atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda. O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tashkil etadi. SHundan, Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 taga teng.

Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqa Yevropa hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan

yuqori. O'limning umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlamaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishiga qaramasdan, aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. Yevropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichida bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda, erkaklarda, aksincha, juda baland. Bundan tashqari, Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi. Tug'ilish darajasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shunday holat, tufayli qisqargan aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda, ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlilidan, aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunyoda erkaklarda 68 yosh, ayollarda 72 yoshga tengligi, ya'ni eng baland aholi o'rtacha umr ko'rish rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar- 80, ayollar- 86 yosh). O'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani, aksariyat, ayollarda kuzatilmoqda. Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya (86 yil), Gonkong(86), Finlyandiya (85), SHvetsiya (84), Norvegiya (83), Gretsiya (82), Italiya (84), Frantsiya (85), Kanada (83 yil) kiradi. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Keyingi 10 – 15 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi, o'rtacha umr ko'rish yoshining ortishiga sabab bo'ldi.

Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya (aholisi o'rtacha umr ko'rish yoshi 83 yil, ayollarda 86 yil); SHvetsiya va SHveytsariyada (o'rtacha ko'rsatkich 80-82 yosh); Niderlandiya, Norvegiya, Frantsiya, Avstraliya (82 yosh); SSHA, Kanada, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Finlyandiya (80—82 yosh); O'rtacha umr ko'rish yoshi o'rtacha

bo'lgan davlatlar (60—79 yosh) — Xitoy, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Hindiston, Meksika, Braziliya, ko'pgina MDH davlatlari; O'rtacha umr ko'rish yoshi past bo'lgan davlatlar (55 yoshdan past) Afriki, janubiy, janubiy –sharqiy Osiyo davlatlari kiradi:

BMT tomonidan 1992 yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan xalqaro konferentsiyada demografik muammoni hal etish har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturining asosiy qismi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Har bir davlat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, o'sib borayotgan aholisini boqishi, hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishda o'zining demografik siyosatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishi zarur. Aholi ko'payishida nafaqa, uning tabiiy harakati, balki mexanik harakati, ya'ni migratsiyasi ham muhim rol o'ynaydi.

Migratsiya - so'zi lotincha “migratio” so'zidan olingan bo'lib, ko'chib yurish, ya'ni bir hududdan ikkinchi bir hududga chegaralardan o'tib aholining almashinishini bildiradi. Aholining turli maqsadlarda, yangi yerlarni o'zlashtirish, daromad topish, o'qish, yashash hamda siyosiy nuqtai-nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirishiga, uning mexanik harakati deyiladi. Aholi migratsiyasi ikki shaklda ichki migratsiya va tashqi migratsiya shaklida ro'y beradi. Agar aholi mamlakat ichida hududlar bo'ylab (shahar-qishloq, qishloq-shahar, tuman-viloyat va hokazo) ko'chishni amalga oshirsa bunday migratsiya ichki migratsiya deyiladi. Aksincha, aholi o'zi yashab turgan mamlakatdan boshqa mamlakatlarga, qit'alarga ko'chib borsa bunday migratsiyani tashqi yoki xalqaro migratsiya-deb ataymiz. Migratsiyaning har qanday turida ishtirok etgan kishilar migrantlar deyiladi. Tashqi migratsiya ikkiga bo'linadi: emigratsiya va immigratsiya.

Emigratsiya-kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Immigratsiya-kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko'chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi “immigrantlar” deyiladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatga ko'chib ketib, muayyan muddatdan so'ng yana qaytib ko'chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar "reemigrantlar" deyildi. SHuningdek, aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra uch turga, ya'ni doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi. Sabablariga qarab ixtiyoriy hamda majburiy migratsiya turlari ham mavjud. Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir. Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir. Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi.

2010 yil jahon banki ma'lumotlari bo'yicha, dunyo aholisining 3,2 foizi yoki 215,8 mln kishi emmigrant sifatida o'z yashash joyini o'zgartirgan. Emigrantlar tarkibida universitet bitiruvchilarining ulushi 20,3 foiz va vrachlarning ulushi 4,2 foiz bo'lgan. Immigrantlarning tarkibida ayollarning ulushi 48,4 foiz bo'lib, 16,3 mln emmigrantlar yoki jami emmigrantlarning 7,6 foizi qochoqlar bo'lgan. Immigrantlarni qabul qilayotgan mamlakatlar AQSH, Rossiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Kanada, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Frantsiya, Avstraliya¹ hisoblanmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyo aholisining har 33 tasi migratsiyada ishtirok etishmoqda. Bu esa yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarda immigrantlarga bo'lgan talab borligidan dalolat beradi. 1990 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda har 3/2 migrant SHimoliy Amerikaga to'g'ri kelgan. 1980 yilgacha kam rivojlangan davlatlarda xalqaro migrantlar umumiy sonining har 5/3 tasi o'ta rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. SHu boisdan bo'lsa kerak, "migrantlarning eng katta miqdori Yevropada-64 mln., Osiyoda-53 mln., SHimoliy Amerikada-45 mln joylashgan. Deyarli barcha migrantlarning yarmi ayollardir.

¹Xўжаев Н. "Миялар кўчиши"нинг ижтимоий-иктисодий оқибатлари // Демографическое развитие Республики Узбекистан за годы независимости. Материалы республиканской научно-практической конференции, посвященной 20-летию юбилею независимого развития республики.-Т., 2011. Б.271.

2000-2005 yillar davomida o'ta rivojlangan mintaqalar har yili 2,6 mln migrantlarni yoki shu vaqt oralig'ida jami 13,1 mln migrantlarni qabul qildi"².

Tarixda davlatlar miqyosida yirik migratsion harakatlar ro'y berganligi hammaga ma'lum. Jumladan Ye.L. SHuvalov VII-X asrlarda ommaviy ko'chishlarni Arabiston yarim orolida yashovchi arab qabilalarining SHimoliy Afrika, Pireney yarim oroli, Yaqin va O'rta SHarq hududlarini bosib olganligi va bu yerlarda islom dini hamda arab yozuvini keng tadbiiq qilib tarqatganligini ko'rsatib o'tadi. SHuningdek bu arab qabilalari mazkur hududda Misr va Marokash kabi qator zamonaviy arab qabilalarining tashkil topishida qatnashdilar.

Aholi migratsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan davr dunyoda buyuk geografik kashfiyotlar davri hisoblanadi (XV asr oxiri- XVII asr o'rtasi). Bu davr odamlarning almashilishida unchalik ahamiyatli bo'lmasada, keyinchalik ommaviy aholi ko'chishiga zamin bo'lib hizmat qildi. XIX asrda Afrika mintaqasidan Amerikaga ko'plab qora tanli negrlar ko'chirib keltirildi. XV-XVIII asrda avval Ispaniya va Portugaliyadan, keyinchalik Angliya va Frantsiyadan Amerikaga odamlar ko'chib borishadi. O'sha vaqtlarda Amerika arzon ishchi kuchiga ehtiyoji balandligi tufayli, bu qit'aga Afrikadan 50 million negr qul sifatida olib ketilgan. Bu qullarning atigi 12-14 millioni Amerikaga yetib borishgan bo'lsa, qolganlari esa yo'lda halok bo'lishgan. Yevropadan Amerikaga XIX asr o'rtalarida aholining ko'chib borishi yanada kuchaydi va bu XX asr o'rtalarigacha davom etdi. Ikkinchi jahon urushigacha ko'chib borganlarning aksariyati, AQSH ga to'g'ri keladi. Ushbu aholi xarakatlarining bosh sababi iqtisodiy omil hisoblanadi. Sehrli diyor bo'lmish Amerikaga aholining ko'chib borishi Ikkinchi jahon urushidan keyin ham to'xtagani yo'q. Hatto, sobiq Ittifoq respublikalari alohida davlat bo'lib, mustaqillikka erishganlaridan so'ng bu jarayon yana bir karraga jonlanib, tezlashdi. 1993 yili AQSH prezidentining sobiq Ittifoq hududidagi ziyolilar va mutaxassislarning AQSH ga ko'chib kelishiga mumkin qadar qulayliklar yaratish to'g'risidagi qarori bu davlatga migrantlar oqimining yanada ko'payishiga turtki

²Глуценко Г.И. Миграция и развитие: Мировые тенденции// Вопросы статистики. Научно-информационный журнал.-М., 2/2008.С.66.

bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Va bu jarayonni olimlar fanda "oqillar ketishi" deb nomlashgan. Sobiq Ittifoqning parchalanishi ko'plab matematik, kompyuter dasturchilari, ximik, fizik, biolog singari olimlar va mutaxassislarning Amerikaga ketishiga, o'z navbatida, MDH davlatlaridagi intellektual salohiyatning pasayishiga olib keldi. Yevropadan, Afrikadan, sobiq Ittifoq davlatlaridan Amerikaga ko'chib kelgan aholi soni shu hudud aholisi bilan aralashib mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Qit'a va materiklar o'rtasidagi migratsiya jarayoni nafaqat Yevropa va Amerika balki Yevropa va Afrika, Yevropa va Avstraliya, Xitoy va Koreya davlatlari o'rtasida ham bo'lib o'tgan. Yevropadan Afrikaga odamlarning mexanik harakati Amerikaniki singari XIX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Manbalarda ko'rsatilishicha, 1960 yili Afrikada toza yevropaliklar 6 million kishiga yetgan. Yevropaliklar Afrikaning janubiy, sharqiy hamda shimoliy hududlariga ko'chib borishgan. Avvalo bularning ko'chib borgan joylari Afrikaning eng boy qimmatbaho resurslari mavjud bo'lgan yerlaridir. Keyinchalik ko'pgina Afrika davlatlari alohida bo'lib mustaqillikka erishganidan so'ng ko'chib kelgan ba'zi kishilar vataniga qaytib ketishdi.

Rossiya MDH ichida eng yirik, qudratli davlat hisoblanadi, ammo demografik vaziyatni yaxshilash davlat ahamiyatidagi muammolardan biri. 1990 yillardan beri tabiiy ko'payishi manfiyga tushgan. Aholisi O'rta Osiyo va boshqa MDH davlatlaridan ko'chib borayotganlar soni bilan o'smoqda va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini to'ldirmoqda.

3. Dunyo aholisining etno-demografik tarkibi.

Aholi tarkibi deganda aholining ma'lum ijtimoiy – iqtisodiy va demografik belgilar asosida taqsimlanishi tushuniladi.

Aholi tarkibi asosan quyidagi belgilar asosida taqsimlanadi:

1. Biologik xususiyatga ega bo'lgan belgilar: (askriptiv) jinsi, yoshi, irqi, etnik guruhi

2. Sotsial xususiyatga ega bo'lgan belgilar: nikoh statusi (nikohda turishi) savodliligi va ma'lumotlilik darajasi), kelib chiqishi, tili, fuqaroligi, professional tayyorgarligi
3. Iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan belgilar: kasbi, bandligi, bandlik soxasi, daromad manbai
4. Migratsion xususiyatga ega bo'lgan belgilar: tug'ilgan joyi, mazkur aholi maskanida necha yildan beri yashab kelishi va h.k.
5. Demografik (vitalnyy) belgilar: tug'ilish va o'lim, nikoh va ajralish, nikohga kirish yoshi, homiladorliklar soni, farzandlar soni, o'lim soni va h.k.
6. Oilaviy tarkibi bo'yicha belgilar: oila yoki uy xo'jaligi, oila turlari va h.k.

Aholining yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar (demografik tarkibi) birinchi navbatda jamiyatning demografik holati bilan chambarchas bog'liq. Demografik holat esa aholining yoshi va jinsiy tarkibi, nikohga kirishi va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalanadi.

Aholi yosh tarkibi uch asosiy omil ta'sirida shakllanadi;

- 1) yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat;
- 2) o'limdagi jinsiy farq
- 3) aholi migratsiyasidagi jinsiy farq

Demografiyada va statistikada birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi jinsiy nisbatlar mavjud.

Birlamchi nisbat – homiladorlikdagi qiz va o'g'il bolalar nisbati. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha 100 ta qiz bola homilaga 125-130 ta o'g'il bola homilalar tug'ilar ekan.

Ikkilamchi nisbat – tirik tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar nisbati. Tadqiqotlar ko'rsatishicha har 1000 ta chaqaloqdan 488 tasi qiz va 512 tasi o'g'il bolalar to'g'ri keladi (yoki 100 ta qiz bolaga 105 – 106 ta o'g'il bola, Xitoyda o'g'il bolalar ko'p tug'ilyapti – 100 ta qiz bolaga 1980 yil 107,4 o'g'il bo'lsa, 1993 yil 100 ta qiz bolaga nisbatan 114,1 o'g'il bola tug'ilgan – bu muammo)

Uchlamchi nisbat – reproduktiv yoshdagi erkaklar va ayollar nisbati – demografik rivojlanishda eng ahamiyatli nisbat

Yosh – inson tug‘ilganidan hayotining ma‘lum nuqtasigacha bo‘lgan davr. Biologik va kalendar yoshlar mavjud. Hozirgi davrda aholining yosh strukturasi bo‘yicha quyidagi klassifikatsiyasi berilgan. Aholining yosh tarkibi ijtimoiy–iqtisodiy va demografik jarayonlarni o‘rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo‘linishidir. Aholi yosh guruhlari va demografik jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0 – 9, 10 – 19, 20 – 29 yoshida) salmog‘ining yuqoriligi nikoh va tug‘ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta‘sir etadi. Ayni paytda tug‘ilish yuqori bo‘lgan hollarda hududlarda bolalar, yoshlar salmog‘i yuqori bo‘ladi. Tug‘ilish darajasi past bo‘lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog‘i yuqori va o‘lim hollari ko‘proq sodir bo‘ladi. Demografik nuqtai nazardan yondashganda, aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo‘lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

4-jadval

Yosh klassifikatsiyasi*

Kalendar yosh	Inson hayoti davrlari
1 – 7 kunlik	Yangi tug‘ilgan chaqaloq
7 kun – bir yosh	CHaqaloq
1 – 3 yosh	Erta bolalik
4 – 7 yosh	Birinchi bolalik
8 – 12 (o‘g‘il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8 – 11 (qiz bolalar)	
13 -16 (o‘g‘il bolalar)	O‘smirlar
12 – 15 (qiz bolalar)	
17 – 21	Yigitlar
16 – 20	Qizlar
22 – 35 (erkaklar)	I – yetuklik davri
21 – 35 (ayollar)	
36 – 60 (erkaklar)	II – yetuklik davri
35 – 55 (ayollar)	
61 – 74 (erkaklar)	Keksa odamlar
56 – 74 (ayollar)	
75 – 90 yosh	Qari odamlar
90 dan yuqori yoshdagilar	Uzoq yashovchilar

*Narodonaselenie: Entsiklopedicheskiy slovarь. M., 1994 s. 461

Aholi yosh tarkibini o'rganganda, aholining alohida har bir yoshlarga (0,1,2,3,4,5...100 va undan yuqori) besh yillik yosh guruhlariga (10 – 14, 15 – 19...) va uchta yirik – yirik guruhlariga (0 – 14, 15 – 60, 60 va undan yuqori) ajratiladi. Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish ob'ekti sifatida o'z kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin: a) alohida yosh guruhlari va ularni nisbatlarini statistik tahlili; b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlari va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni; v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasining nisbatan pastligi va aholi umumiy tarkibida bolalar salmog'ining kamligi bilan xarakterlanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqoriligi xarakterli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

Yosh akkumulyatsiyasi – ba'zi yosh guruhlaridagi aholi sonini o'zidan oldingi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi. Bu hol ko'p hollarda aholi o'zini yoshini yaxlitlab aytishi sababli sodir bo'ladi. Ko'proq 60 yoshdan keyin keksalar yoshlarini ko'paytirib aytadilar. Natijada ba'zi yoshdagi aholi soni o'zidan oldingi yoshdan oshib ketadi. Masalan, 1897 y. aholi ro'yxatlarining tahlilidan 70 yosh erkaklar, 75 yosh ayollar soni 69 yosh va 74 yoshdagi aholi sonidan oshib ketgan.

Aholining yosh tarkibi aholining tabiiy harakati ko'rsatkichi bilan chambarchas bog'langan. Insonning iqtisodiy, biologik va kalendar yoshlari mavjud bo'lib, ular o'z ilmiy ta'riflari va xususiyatlariga egadir. Demografik nuqtai-nazardan inson umri turli davrlarga bo'linadi (go'daklik, bolalik, yoshlik, yetuklik, mehnatga qobiliyatlilik davri va qariyalik). Umuman, dunyo miqyosida aholi yosh tarkibi bo'yicha uchta demografik guruhlariga ajratiladi. Bularga 0-14

yosh (bolalar), 15-64 yosh (mehnat yoshidagi aholi), 65 yosh va undan yuqorilar (qariyalar) kiritiladi

SHved demograf olimi G.Sundberg aholining yosh tarkibiga qarab uch turga bo'ldi:

1. Progressiv.
2. Statsionar.
3. Regressiv.

Progressiv- yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (0-14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo'lgan hududlarda kuzatilib ularning aholisi muntazam ko'payib boradi. Bu yosh tarkibiga Afrika va Osiyo davlatlarini kiritsa bo'ladi. Dunyo bo'yicha 15 yoshdan kichiklar jami aholining 26 foizini tashkil qilsa, Afrikada 41 foizni, Osiyoda 25 foiz, Yevropada 16 foizga teng (2012 y.). Bizning respublikamiz aholisi yosh tarkibida aynan shu yoshdagilar dunyo ko'rsatkichidan baland 29 foiz.

Statsionar- yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog'i yoshlar bilan tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki kamayishi kuzatilmaydi.

Regressiv- yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga qaraganda yuqori bo'ladi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib boradi va "depopulyatsiya" holati yuz beradi. Aholi "qarib" borishi kuzatiladi. Dunyo aholisining atigi 8 foizi (2012 yil) 64 yoshdan kattalarga to'g'ri keladi. AQSH, Kanada, Yevropa, Okeaniya davlatlarining aksariyatida 64 yoshdan katta yoshdagilar salmog'i dunyo aholisining aynan shu yosh tarkibi bo'yicha umumiy ko'rsatkichidan ustunligi kuzatiladi.

Aholi yosh tarkibini ikkita asosiy tipga ajratish mumkin.

Birinchi tipda (tug'ilish va o'lim yuqori bo'lib, o'rtacha umr ko'rish davri qisqa bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar) bolalar, o'smirlar miqdori ustun, qariyalar hissasi uncha katta emas. Ikkinchi tip SHimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga xos (tug'ilish kam, o'lim past ko'rsatkichga ega, uzoq umr ko'ruvchilar ko'p sonli) bolalar va o'smirlar soni qisqarib, qariyalar ulushi

oshib boradi. Dunyo aholisining yosh tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa aholi salmog'i ko'payayotgan mintaqalarga Amerika, Yevropa va Avstraliya hamda Okeaniya davlatlari kiradi. Binobarin, 1970-2012 yillarda 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6 dan 26,0 foizga tushdi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog'i esa 57,9 dan 66,0 foizga ko'tarildi, 65 yosh va undan kattalar salmog'i barcha mintaqalarda sezilarli darajada ortib bormoqda, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich hozirda 8 foizga teng (5-jadval).

5-jadval

Dunyo aholisining yosh tarkibi. 1970-2012 yillarda, foiz hisobida

Mintaqalar	1970 yil			1985 yil			2012 yil		
	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori
Dunyo bo'yicha	36.6	57.9	5.5	33.7	60.6	5.7	26	66	8
Evropa	24.9	63.7	11.4	20.9	66.7	12.4	16	68	16
Osiyo	38.9	57.0	4.1	35.0	60.6	4.4	25	68	7
Afrika	44.1	53.0	2.9	45.4	51.5	3.1	41	56	3
Amerika	36.4	57.2	6.4	31.6	61.2	7.2	25	66	9
Okeaniya	32.2	60.5	7.3	28.6	63.3	8.1	24	65	11
O'zbekiston	45.0	49.2	5.8	40.8	52.8	6.4	29	67	4

Manba: [Population Reference Bureau. 2012 World Population Data Sheet.](#)

Aholi jinsiy tarkibiga ko'ra ham farqlanadi, XX asrning 90 yillarida erkaklar soni ayollar sonidan ko'p bo'ldi. Bu ayniqsa, 0-14 yoshgacha bo'lgan o'smirlarda yaqqol kuzatildi. Ushbu yoshdagilarda, har mingta ayolga 1041 erkak to'g'ri keldi. 40-45 yoshdagilarda deyarli teng, 60 yoshdagilarda ayollar soni erkaklarga nisbatan ko'p. Dunyoda davlatlar aholisi jinsiy tarkibi bo'yicha quyidagicha bo'linadi: erkak va ayollar soni teng davlatlar (Ko'pgina Lotin Amerikasi davlatlari, Afrika); ayollar soni erkaklarga nisbatan ko'p bo'lgan davlatlar (Evropa davlatlari, AQSH, Kanada); erkaklar soni ko'p bo'lgan davlatlar (Osiyo—Xitoy, Hindiston, Afg'onistan, Singapur, Bangladesh va boshqalar).

Er shari aholisining jinsiy tarkibi deyarli teng. Masalan, sobiq SSSR, xorijiy Yevropa davlatlarida istiqomat etuvchi aholining jinsiy tarkibida ayollar soni

ustunligi seziladi. BMT ma'lumotlarga qaraganda, bu hudud davlatlarida har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to'g'ri kelgan. Lekin dunyodagi barcha mamlakatlarda ham ayollar va erkaklar mutanosibligi bir xil emas. Janubiy mamlakatlar hisoblanmish Osiyo va Afrika davlatlarida erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan bir muncha ko'p. Masalan, Osiyo qit'asidagi aholi tarkibida erkaklar ayollarga qaraganda ancha ortiqdir. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1985 yilda Osiyoda erkaklar ayollarga nisbatan 58 mln ko'p edi. Bunday hol Okeaniyada ham kuzatiladi. Erkaklarning salmog'i yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar va Osiyo qit'asida ayollar o'rtasida o'lim ko'p kuzatiladi. Ayniqsa, Osiyodagi davlatlarda erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, har 1000 ta ayolga 1041 nafar erkak to'g'ri keladi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi geografik farqlar, asosan, aholining yosh-tarkibi bilan bog'langan. Bolalar va ayollar salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, jinslar nisbatining o'rtacha ko'rsatkichi me'yor holatga yaqinlashadi, ba'zi huddlarda bunga aholining mexanik harakati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo aholisining barqaror rivojlanishida nafaqat uning yosh-jins tarkibi, balki aholining milliy tarkibi ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, mehnat malakasidagi, xo'jalik yuritish shakllari va aholi manzilgohlarining joylashuvidagi muhim hududiy tafovutlar millatlarning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

Jumladan, kishilarning umumiylik-"etnos", ijtimoiy rivojlanishining ob'ektiv qonunlari asosida shakllangan va hudud, til, ma'naviy hamda madaniy xususiyatlari, o'z-o'zini anglash kabi qator umumiy barqaror belgilarga ega bo'lgan sotsial organizmdir.

Qabila etnik taraqqiyotning boshlang'ich bosqichi bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzumida tarkib topgan. Elat ma'lum tarixiy sharoitlarda etnosning soni va joylashganligiga, uning bir butunligini belgilab beruvchi belgilarga bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi.

Millat-jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi etnik birlikning oliy shaklidir. Millatning millat bo'lib shakllanishi ikkita: konsolidatsiya va

assimilyatsiya jarayonlarini bosib o'tadi. Bu jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan.

Konsolidatsiya- o'zaro qarindosh- qondosh bo'lgan etnik birliklarning birlashib undnda yirik va rivojlngan etnik birliklarning hosil bo'lishidir. Masalan, slavyan qabilasidan rus, ukrain, belorus xalqlari shakllandi va ular o'sib millatga aylandi. Konsolidatsiya oqibatida o'zbek xalqi o'zbek millatiga, gruzin xalqi gruzin millatiga aylandi.

Assimilyatsiya- bir etnik gurug'ni boshqa bir etnik guruh yutib boshqa bir etnik guruh yutib yuborishi yoki uni to'la o'zlashtirib bitta etnik guruhga aylanishidir

Millatning millat bo'lib shakllanishi ikkita: konsolidatsiya va assimilyatsiya jarayonlarini bosib o'tadi. Bu jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan.

Dunyo aholisi etnik jihatdan bir necha xalqlardan, etnoslardan tashkil topgan. Dunyoda 3-4 ming xalq, etnoslar mavjud. Ko'pgina xalqlar kam sonli. Soni 1 mlndan ko'p bo'lgan xalqlar yer yuzida 310 tani tashkil etadi., bu jami jahon aholisining 96 foiziga teng. 100 mlndan ko'p bo'lgan xalqlar atiga 7 ta: xitoylar(1 mlrdan ko'p), AQSH amerikaliklari, bengallar, ruslar, braziliyaliklar, yaponlar va hindlar. Bundan tashqari yer yuzi aholisi til klassifikatsiyasi bo'yicha ham guruhlarga ajraladi. Bulardan eng kattasi, hindevropa til oilasi, unda 150 ta xalq umumiy soni 2,5 mlrd kishi, 1 mlrddan ortiq aholi xitoy-tibet til oilasida gaplashadi.

Dunyo bo'yicha soni eng ko'p xalqlar xitoylar, yaponlar, ruslar, amerikaliklar, hindlardir. Sobiq Ittifoq davrida va hozir MDH da o'zbek millati soni bo'yicha ruslar va ukrainlardan keyin uchinchi o'rinda turadi. Millatlarni, xalqlarni bir-biridan ajratish ularni guruhlarga bo'lishda til birligi bo'yicha klassifikatsiyalash qabul qilingan.

Er yuzida olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra 2 mingdan 3 minggacha bo'lgan har-xil xalqlar eng maydasidan yirik millatgacha bo'lganlari uchraydi.

Manbalardan shu narsa aniqki, yer sharidagi jami tillarning soni 2000 dan ortiq. Ammo, lingvistlar 5000 dan ko'p, deb hisoblashadi. Odatda xalqlarning soni

bilan tillarning soni mos kelishi kerak. Lingvistlar uchun eng kam sonli kishilar gaplashadigan til ham, dialekt ham hisobga olinadi. SHu boisdan tilning aniq bir soni ma'lum emas.

Geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, dunyo miqyosida yirik til oilalari quyidagicha guruhlariga ajratilgan holda o'rganiladi.

1. Hind-Evropa oilasi-Evropaning katta hududi, SHimoliy va Janubiy Amerika, SHimoliy Hindiston va Eron.
2. Kavkaz oilasi-Kavkazorti respublikalari.
3. Ural oilasi-fin va ugorlar qator Yevropa dvlatlari, MDH ning Yevropa qismi va Sibir.
4. Oltoy oilasi (turk guruhi, mo'g'ul va turgus-manchjurlar)- SHarqiy Yevropa, Sibir, Old Osiyo, O'rta va Markaziy Osiyo.
5. Xitoy-Tibet oilasi-SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo.
6. Malayziya-Tanzaniya oilasi-Tinch va Hind okeani orollari.
7. Dravidlar oilasi-Janubiy Hindiston.
8. Mon-Kxemerlar oilasi-Hindixitoy.
9. Semito-Xamit oilasi-Janubi-SHarqiy Osiyo, SHimoliy Afrika.
10. Bantu oilasi-Janubiy Afrika.

Mazkur til oilasiga kirmay qolgan yirik tillardan yapon va koreys tili hisoblanadi. Turli xalqlarning bir til oilasiga mansubligi ularning birortasida milliy o'xshashlik yoki boshqa belgilar bor degan xulosaga kelish noto'g'ridir.

Barcha xalqlar etnik jarayonlarning umumiylikiga qarab geografik nuqtai-nazardan guruhlashtirilgan. Hududiy o'zaro yaqin bo'lgan xalqlar xo'jalikning turli shakllarini yuritishda doimo aloqada bo'ladi va ba'zi madaniy, diniy urf-odatlarida o'xshashlik ham uchraydi.

Har bir xalq o'zining etnik hududiga ega. Biroq ko'pgina xalqlarda bu etnik hudud davlat chegaralari bilan mos kelmaydi. Masalan, o'zbek xalqi to'laligicha O'zbekiston hududida istiqomat qiladi, desak xato bo'ladi. Qirg'izistonning janubiy vilotlarida, Qozog'istonning CHimkent va Jambul, Turkmanistonning

CHorjuy, Toshovuz viloyatlarida hamda Afg'onistonning shimoliy qismida bir necha million o'zbeklar yashaydi.

Bir millatga mansub davlatlar juda kam kuzatiladi. Arabiston yarim oroli va G'arbiy Yevropadagi bir necha davlatlar, Yaponiya, Koreya, Bangladesh davlatlari bir millatli davlatlar sanaladi.

Sobiq Ittifoq, AQSH, Xitoy, Eron kabi davlatlarda esa yuzlab xalqlar yashaydi. Aholi migratsiyasi natijasida, yuqorida tilga olingan bir millatli davlatlarda ham ma'lum bir miqdorda boshqa millat vakillari mavjud.

Aholining milliy tarkibi dinamikasini respublikamiz misolida olib qaralsa, mamlakatimizda ko'plab millat vakillari turli yillarda turli miqdorni tashkil etib kelmoqda. Bir vaqtlar, ya'ni sobiq Ittifoq davrida rus millatiga mansub kishilar o'zbeklardan keyin ikkinchi o'rinni egallashgan bo'lsa, oxirgi yillarda ular soni tobora kamaymoqda. Millatlarning turli hududlarda ma'lum bir davrdan buyon yashab kelishi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatida muhim o'rin egallaydi. Qolaversa, barcha millatlarning urf-odati, diniy-ma'rifiy rasm-rusmlariga alohida hurmat bilan qaraladi. Ular o'z tiliga ega.

Insoniyat tarixan kelib chiqishi, tashqi ko'rinishi, ba'zi morfologik va fiziologik belgilariga ko'ra irq'larga ajratiladi.

Etnik umumiylik yoki birlik ijtimoiy xarakterga ega, irqiy guruhlash bu biologik asosda amalga oshiriladi. SHu boisdan etnik birlik, til oilalari bilan irq'lar chegarasi mos kelmaydi.

Olimlarning fikricha paleolit davrida ikkita: g'arbiy va sharqiy irq paydo bo'lgan. Keyinchalik bu irq'lar yer shari bo'ylab tarqalib, aralashib, yangi zamonaviy irq'lar paydo bo'ldi.

Irq-bu kishilarning tarixiy tarkib topgan yirik hududiy guruhlaridir. Irqlar kelib chiqishiga ko'ra bir bo'lib, faqat ba'zi bir tashqi fiziologik belgilariga-sochining shakli va rangi, tanasining rangi, ko'zlarining shakli, yuz suyaklarining o'lchamlari va ayrim xususiyatlari, burun, lab tuzilishiga ko'ra farq qiladi.

Bu irq'lar nasldan-naslga o'tadi. Irqiy belgilar odam zoti paydo bo'lganidan keyin yashash sharoitidagi tafovutlar ta'sirida vujudga kelgan. Odamlarning

anatomik va fiziologik hamda ruhiy xususiyatlarida irqiy farqlar yo'q. Irqiy tafovutlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etmaydi³.

Er shari aholisi uchta asosiy irqqa bo'linadi. Bular yevropeid, mongolid va negr-avstraloid irqi. Yirik irq o'z navbatida mayda irq larga ham ajraladi.

Evropeoid irqi-Evropa, SHimoliy Amerika, Old Osiyo, SHimoliy Amerika va Kanada, Avstraliyaning bir qismi, Yangi Zelandiyada keng tarqalgan.

Mongoloid irqi-Markaziy, SHimoliy va SHarqiy Osiyo hududlariga to'g'ri keladi.

Negraoid irqi-Afrikada joylashgan.

Evropeid irqining ikkita tarmog'i ajratib ko'rsatiladi: SHimoliy tarmog'i SHimoliy Yevropani egallaydi. Janubiy tarmog'i Yevropaning janubi, SHimoliy Afrika, Old Osiyo va SHimoliy Hindistondir. Bular o'rtasidagi farq odamlarning bo'yi, ko'zi, sochi va terisining rangida. SHimoliy tarmog'idagilarning bo'yi baland, rangi tiniq, qirra burun bo'lsa, janubidagilar o'rta bo'y, to'q rang va to'g'ri sochi, qoracha ya'ni, bug'doy mag'iz terisi bilan ajraladi.

Mongoloid irqi ham yevropeoid irqi singari ikki tarmoqqa bo'linadi: shimoliy va sharqiy. SHimoliy mongoloidlarga mo'g'illar, tungus-manchjur xalqlari kirsa, sharqiy mongoloidga koreyslar, shimoliy xitoylar kiradi.

Negroid irqi asosan Afrikada keng tarqalganligi ayon biroq, ma'lum bir jihatdan ular AQSH va Karib havzasida ham uchraydi. Bu irq larning o'rtasidagi farq unchalik katta emas.

Janubi-sharqiy Osiy, Avstraliya va Okeaniyada negroid irqiga o'xshash odamlar yashaydi. Ammo ular ba'zi belgilariga ko'ra negroidlardan keskin farq qiladi. SHu boisdan, olimlar bularni to'rtinchi- avstraloid irqi deb atashmoqda. Dunyo aholisining 70 foizini asosan uch irq vakillari tashkil qiladi (evropeidlar-43.6, mongoloidlar-19.1, negroidlar 6.6 foiz) qolgan 30 foizi aralash va boshqa oraliq irq larga to'g'ri keladi⁴.

³ Гуломов П. Жўғрофия атмалари ва тушунчалари изоҳли луғати, Т., “Ўзбекистон” 1994., 52-бет.

⁴ Брук С.И. Население мира: Этнодемографический справочник. М., 1981., с.113.

Dinlar geografiyasining asosiy ko'rsatkichlari

Dinlar	E'tiqod qiluvchilar ning soni (mln.k)	Mintaqalar va davlatlar
Xristianlik SHu jumladan	1259 dan ortiq	Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya, Belgiya, Irlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, CHexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, AQSH, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Kipr, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Katoliklik	800	
Protestantlik	350	SHimoliy Yevropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, SHveysariya, Latviya, Estoniya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Pravoslavlik	100	Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va CHernogoriya Federatsiyasi, Gretsiya, Kipr
Islom SHu jumladan	1000 dan ortiq	Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari (Eron, Ozarbayjondan tashqari), SHimoliy, G'arbiy va SHarqiy Afrika mamlakatlari, Pokiston, Afg'oniston, Bangladesh, Malayziya, Indoneziya, Hindiston, Xitoy, Filippin
Sunniylik	900 dan ortiq	
SHialik	100 ga yaqin	Eron, Ozarbayjon, Iroq, Yaman
Buddizm va lamaizm	400 dan ortiq	Xitoy, Mo'g'iliston, Yaponiya, Mbyanma, Tailand, Vyetnam, Kambodja, Laos, Malayziya, SHri-Lanka, Koreya, Rossiya
Induizm	520	Hindiston, Nepal, SHri-Lanka
Konfutsiachilik	180	Xitoy
Sintoizm	70	Yaponiya
Maxalliy an'anaviy dinlar		G'arbiy, Markaziy, SHarqiy, Janubiy Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika, Okeaniya, Indoneziya

Manba: Корылов V.A. География населения. Учебное пособие.- М., 1999.

Jahon bo'yicha xalqlar o'rtasida o'nlab dinlar tarqalgan bo'lib, ular xususiyatlariga ko'ra primitiv, milliy va dunyoviy dinlar guruhlariga bo'linadi. Dastlabki shakllanish bosqichida kelayotgan primitiv dinlar urug' va qabilachilik holatida yashab kelayotgan kichik etnik xalqlari orasida tarqalgan. Milliy dinlar jahonning ba'zi mamlakatlarida asosan bitta davlat doirasidagi mahalliy din holatida yashab kelmoqda. Ularga Hindistondagi induizm, Xitoydagi konfutsionizm, Yaponiyadagi sintoizm, Isroildagi iudizm va boshqlar kiradi. Dunyoviy dinlarga jahonda eng keng tarqalgan va uning siyosiy-ijtimoiy hayotida katta o'rin tutuvchi Budda, xristian va islom dinlari kiradi. Bu dinlar orasida Budda dini eng qadimiy din hisoblanadi.

Tropik Afrika negrlari, Janubiy Amerika hindulari, ayrim Janubiy-SHarqiy Osiyo va Okeaniyaning kichik etnik xalqlari orasida primitiv din ko'rinishlari tarqalgan. Ular orasida fetishizm(biron tabiat jismlarining alohida qismlariga e'tiqod qilish) Tropik Afrikada, totemizm (biron hayvonga e'tiqod qilish) Avstraliya aborigenlari, Amerika hindulari va Hindistonda, shomonlik(o'lganlar ruhining qayta tirilishi va tanlangan kishilarning ular bilan muloqot qila olishiga ishonish) shimol xalqlari orasida keng tarqalgan. Bundan tashqari, animizm, ajdodlar ruhi madaniyati kabi primitiv dinlar ham bor.

Mahalliy dinlardan induizm (6 asrda paydo bo'lgan) Hindistonda yuzaga kelgan. Bunda ular qayta tirilishga, insonlar orasida tabaqalanishning mavjud ekanligiga ishonishgan. Muqaddas kitobi-"Vedalar" hisoblanib, "Maxabxarat" va "Ramayana" asarlarida ham bu din vakillari qarashlari aks etadi. Sikxizm (16 asrda vujudga kelgan) SHimoliy Hindistonda induizm dinining bir yo'nalishi sifatida paydo bo'lgan. Ular tabaqalanishga qarshi bo'lib, birinchi ustoz-Namak ta'limotlarini qadrlashadilar. Konfutsizm, iudaizm, sintoizm kabi ko'rinishlari mavjud.

Dunyoviy dinlar orasida buddizm dini e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra eng kam salmoqni tashkil etadi. Bu din SHimoliy Hindistonda eramizdan avvalgi 5-6 asrlarda paydo bo'lgan. Uning maxayana va xanayana oqimlari mavjud. Xristian dini eramizning 1 asrida Isroilda paydo bo'lgan bo'lib, eng ko'p e'tiqod qiluvchilarga ega. Bunga Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati va Buyuk geografik kashfiyotlar sabab bo'lgan. Uning katolik, protestant va provaslav mazhablari mavjud. Islom dini eramizning 7 asrida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan. Ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar soni tez o'sib bormoqda. CHunki, musulmon davlatlari dunyoda tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Uning sunniy va shia mazhablari bor.

4. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiyasi.

Aholi yer yuzida notekis joylashgan bo'lib, aholi zichligi o'rtacha 1 km.kv joyga 51 kishidan to'g'ri keladi (2012 yil). Ushbu ko'rsatkich Yevropada — 116

kishi; Osiyoda — 132 kishidan ko'p; Amerikda — 22 kishi; Afrikada — 35 kishi; Avstraliya i Okeaniyada — 4 kishiga teng. Yer yuzining 10 foiz quruqlik qismida 82 foiz aholi yashaydi. Katta qismi okean, dengiz yirik daryo bo'ylarida, temir va avtomobil yo'llari atrofida tarqalgan.

Aholi zich joylashgan areallar dunyoda alohida ajralib turadi. Bularga birinchi o'rinda Osiyo areali: sharqiy, janubiy sharqiy va janubiy. Mazkur mintaqadagi Bangladesh — 1046 ko'p kishi; Koreya Respublikasi — 492 kishi; Maldiv Respublikasi — 1091 kishidan ko'p; Yaponiya va SHri-Lanka — 340 kishidan ortiq har birida; Hindiston, Filippin va Vyetnam — 300 kishidan ko'p (2011 y). Yevropada eng aholisi zich bo'lgan davlatlar joylashgan.

Aholining notekis joylashishini o'zaro bog'liq bo'lgan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar belgilaydi. Ushbu omillar ichida ijtimoiy-iqtisodiy omil alohida ahamiyat kasb etmoqda deb aytishimiz mumkin. Biroq, tabiiy omillarning roli hamma davrlarda ham birlamchi hisoblangan. Jumladan, hududi iqtisodiy nuqtai-nazardan kam o'zlashtirilgan aksariyat davlatlarda aholi o'rtacha zichlik ko'rsatkichi past bo'lib, bu davlatlar xo'jaligi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hamda ko'p mehnat talabga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Misol tariqasida, Osiyo mamlakatlarini keltirish mumkin. Aynan shu davlatlar aholisi inson uchun tabiat in'om etgan eng qulay joylarni tanlashgandir. Bundan tashqari, tabiat boyliklaridan sanoat usulida foydalanish natijasida, yirik-yirik industirlashgan shaharlarning vujudga kelishi, transport tizimining murakkablashuvi aholi o'rtacha zichlik ko'rsatkichining tobora yiriklashuviga olib keldi. Bunga, G'arbiy Yevropa, AQSH, Osiyoning yirik rivojlangan Singapur, Gonkong davlatlarini misol keltirish mumkin.

Hindistonda aholi asosan Ganga va Braxmaputra daryolari yoqasida hamda okeanga tutash dengiz bo'ylarida zich joylashgan. Xitoy va Hindiston nafaqat, Osiyoda balki, dunyo miqyosida ham aholisining umumiy soni bo'yicha yetakchi davlatlardir. Germaniya, Frantsiya, Angliya kabi buyuk davlatlarning qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega ekanligi aholisining joylashuvida ham aks etgan. Bu uchala davlatda aholining o'rtacha zichligi 1 km.kv. joyga 200 kishidan ortadi.

SHimoliy Amerikaning sharqi, Karib havzasining Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan davlatlari aholisi xuddi G'arbiy Yevropaniki singari zich joylashgan. Aynan shu mamlakatlar o'ta sanoatlashgan, ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturasi yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan mashhur.

Dunyodagi barcha aholisi zich davlatlar okean va dengiz bo'ylarida qulay transport va iqlim mavjud bo'lgan joylarda o'rnashgandir. Ammo, Rossiyaning shimoli, Amerika va Afrikaning g'arbiy qismlari, SHimoliy Amerikaning shimolidagi okeanga chegaradosh davlatlardagi sovuq okean oqimlari, notekis relief shakllari aholining zich joylashuviga imkon bermaydi. Biroq dunyoning ushbu hududlarida tabiiy boyliklar juda ko'pligiga qaramasdan, aholi yashashi uchun noqulay. SHu jihatdan bo'lsa kerak, bu yerlar deyarli kam o'zlashtirilgan. Yer yuzasida aholi zichligi ko'rsatkichi 1 kishiga ham yetmaydigan hududlar yer yuzasining teng yarmini egallaydi. Mazkur joylarga Kanadaning shimoliy rayonlari, Grenlandiya, Afrikaning cho'llari, Rossiyaning tayga va tundralari, baland-baland tog'liklar kiradi. SHuningdek, dunyo maydonining 1/4 qismida aholining zichligi 10 kishigacha bo'lib, bunday hududlar kam o'zlashtirilgan hisoblaniladi. Masalan, Qozog'iston, Rossiya, Kanada, Avstraliya, Mongoliya davlatlari aholisining zichligi 1 dan 10 kishigacha bo'lgan oraliqqa to'g'ri keladi. Bunday mamlakatlar yoki hududlar yer shari quruqligining katta-katta maydonlarini egallaganligi bilan tavsiflidir.

7-jadval

Er shari mintaqalari aholi zichligi dinamikasi

Mintaqalar	Aholi zichligi, 1 km.kv. ga kishi		
	1978 yil	1999 yil	2012 yil
Dunyo bo'yicha	31	44.6	51
Evropa	97	98.6	116
Osiyo	89	113.3	132
Afrika	15	25.4	35
Amerika	14	20.3	22
Avstraliya va Okeaniya	2.6	3.5	4

Manba: Vse strany mira // Naselenie i obshchestvo. 1999. [Population Reference Bureau. 2012 World Population Data Sheet.](#)

Aholi joylashuvi, uning zichligi har bir mintaqa shart-sharoiti, iqlimi, reliefi, geografik joylashgan o'ri, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda demografik vaziyatiga mos va xos tarzda shakllanadi, taraqqiy etadi. SHu boisdan, ham aholi soni va uning zichligi asosan demografik vaziyati ijobiy, aholi soni tez ko'payib borayotgan davlatlarda tezlik bilan o'smoqda.

Er sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi manzilgohlari tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatdan kelib chiqib, xilma-xil o'ziga xos ko'rinishlarga ega. SHu boisdan ham bunday ko'rinishidagi aholi manzilgohlari ikkita – shahar va qishloq aholi manzilgohlariga bo'linadi. SHahar va qishloq aholi manzilgohlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasida aniq chegara o'tkazib bo'lmaydi. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Jumladan, dunyo miqyosidagi shaharlarni aholiyligiga ko'ra maqom berishda aniq chegaralangan bir xil miqdordagi tsenz mavjud emas. Har bir davlatdagi shaharlar bajaradigan funktsiyasi va aholi manzilgohlarining roolidan kelib chiqqan holda aholi soniga qarab ajratiladi. Masalan, Daniya va Islandiyada aholisi 200 kishi va undan ko'p bo'lgan aholi manzilgohlari shahar, deb ataladi. Bundan tashqari, Yaponiyada–30 mingdan oshiq, Niderlandiyada 20 ming aholisi, Turkiyada–10 ming, Hindiston va Pokistonda–5 ming, Meksikada–2,5 ming, Rossiyada–12 ming, O'zbekistonda esa 7 ming aholisi bor manzilgohlar shahar hisoblanadi. Ammo, dunyoda shunday aholi manzilgohlari borki, ular faqat ma'muriy markaz bo'lganligi bois shahar, deb nomlanadi. CHunonchi, ayrim mamlakatlardagi barcha aholi manzilgohlarining ma'muriy markazlari, poytaxtlari shaharlar sirasiga kiritiladi. Masalan, Jazoir, Ekvador shular jumlasidandir. SHuningdek, Rossiya shaharlaridagi aholining atigi 15 foizga yaqini qishloq xo'jaligida band bo'lishi mumkin. Hindistonda esa mehnatga layoqatli erkaklarning 4/3 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi manzilgohlarida yashasa, bunday manzilgohlar shaharlar sifatida qabul qilinadi. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas. Sobiq Ittifoq davridagi shaharlar unda yashovchilar soni va aholining bandligiga ko'ra shahar maqomiga ega bo'lmagan. Mamlakatlar,

mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o'sib borishi – urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keldi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi⁵. Dunyoda shahar aholisining soni to'xtovsiz o'sishida davom etmoqda. Jumladan, 1900 yilda shahar aholisi jami aholining 3 foizini, 1860 yilda – 6,4 foizni, 1990 yilda – 19,6 foiz, 1990 yilda 43 foiz, 2005 yilda esa 48 foiz, 2012 yilda 51 foizini tashkil qilgan. Bundan aholining shaharlarda kontsentratsiyalashuvi ya'ni, mujassamlashuvi tezlashganini kuzatamiz.

BMT bergan statistik ma'lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi 51 foizi (2012 yil) shaharlarda yashaydi va bu ko'rsatkich 2030 yilda 60 foizni, ya'ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil etadi. 2000-2030 yillar orasida yer shari shahar aholisi soni yiliga 1,8 foizdan ortib boradi, bu global o'sishdan ikki marta ko'p degani. SHuningdek, bugungi kunda dunyoning 20 ta shahrida 10 million kishi yashamoqda (15 tasi rivojlanayotgan davlatlarda) bu jahon aholisining 4 foiziga teng. 2015 yilda shunday liga shaharlar 22 taga yetadi va ularda 5 foiz dunyo aholisi yashaydi.⁶ Davlatlar o'rtasida shahar aholisi ustun bo'lgan mintaqalarga rivojlangan davlatlarni kiritish mumkin. Masalan, Yevropa aholisining 71 foizi shaharlarga to'g'ri keladi, Osiyoda bu ko'rsatkich 44 foiz (2012 yil), Yaponiya (86 foiz), Koreya respublikasi (82 foiz), Singapur (100 foiz), Malayziya (64 foiz), Eron (70 foiz), Quvayt (98 foiz) va qator G'arbiy Osiyo mamlakatlari aholisining hududiy tarkibida shahar aholisi ustun.

Evropa davlatlari deyarli hammasida shahar aholisi jami aholining 50 foizdan ko'pini tashkil qiladi. Faqatgina, Albaniya, Bosniya va Gertsegovina aholisining 46-50 foizi shahar aholisi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa davlatlaridan Islandiya (93 foiz), Daniya (85 foiz), SHvetsiya (84 foiz), Angliya (80 foiz), Germaniyani (73 foiz, 2012 yil) to'laligicha urbanistik tavsifga

⁵ Гуломов П. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. Тошкент “Ўқитувчи”, 1994. 112 бет

⁶ Народонаселение мира 2004 в году. стр 29-30

ega deyish mumkin. Aholining yirik shaharlarda to'planishi o'z navbatida yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish madaniy-maishiy, kommunal – xo'jalik aloqalari o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi manzilgohlarining yangi turi fanda *aglomeratsiya*, deb nomlanadi.

Agglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo'shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Agglomeratsiyalarda aholi zich o'rnamagan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi⁷.

Agglomeratsiya so'zi frantsuz adabiyotlarida uchraydi, inglizlar buni konurbatsiya, amerikaliklar metropolislar, ham deb atashadi. Dunyoda birinchi agglomeratsiyalar XIX asrning ikkinchi yarmida yirik shaharlar (London, Parij, Nyu-York) yoki unga yaqin joylashgan uncha katta bo'lmagan shaharlar atrofida shakllangan. Dunyoda eng yirik agglomeratsiyalar 20 dan ortiq bo'lib, ularning ko'pi AQSHda (CHikago, Nyu-York, Los-Anjel'es), Hindistonda (Dehli, Bombay, Kalkutta), Yaponiyada (Tokio, Osako-Kioto, Kobe), Braziliyada (San-Paulu, Rio-De-Janeyro) joylashgan. Pokiston (Karachi),

8-jadval

Dunyoing yirik megapolislari (prognoz 2025 y.)

shahar-megapolislari	mamlakatlar	aholi soni, mln kishi
1. Mexiko-siti	Meksika	36,7
2. Tokio Iokogama	Yaponiya	29,7
3. Katta Bombay	Hindiston	27,0
4. Kalkutta	Hindiston	26,4
5. Jakarta	Indoneziya	23,6
6. Dakka	Bangladesh	23,6
7. Tokio	Yaponiya	20,7
8. Karachi	Pokistan	20,7
9. Madras	Hindiston	20,6
10. Bangkok	Tailand	19,8

Manba: [Population Reference Bureau. 2012 World Population Data Sheet.](#)

⁷ Гуломов П. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. Тошкент “Ўқитувчи” 1994. 7-бет

Buyuk Britaniya (London), Eron (Tehron), Argentina (Buenos-Aeros), Fillipin (Manila), Xitoy (SHanxay), Frantsiya (Parij), Bangladesh (Dakka), Rossiya (Moskva) kabi davlatlarda aglomeratsiyalar soni atiga bittadan xolos. Amerika davlati uchun aholining urbanizatsiyalashgan hududlarda to'planishi xos, masalan, AQSHda shahar yerlariga 14 mln ga, transport kommunikatsion yerlari 10,8 mln.ga, qishloq aholi punktlari, fermerlar 3,2 mln.ga yerni egallashadi. Kanada, AQSH va Meksikada aholi yirik aglomeratsiyalarda to'planadi. Kanadaning o'zida 22 ta aglomeratsiyada 12 mln kishi yashaydi.

SHahar aglomeratsiyalari o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga sabab bo'ladigan jarayon **suburbanizatsiya**, -deb ataladi. Vaqt o'tishi bilan shahar va shaharchalar, o'zaro hududiy tutashib, qo'shilib ketishi urbanizatsiyalashgan hududlar deyiladi. Urbanizatsiyalashgan hududlar 3-5 ta aglomeratsiyalarning birlashmasidan tarkib topadi.

SHahar aglomeratsiyalarining o'zaro qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan shahar aholi punktlari urbanizatsiyalashgan zonalar yoki **megapolislar**, deb yuritiladi. Hozirda dunyo bo'yicha SHimoliy-sharqiy Atlanik (AQSH) 40 ta aglomeratsiyani, Ichki ko'l atrofi (AQSH, Kanada) 35 ta, Janubiy – G'arbiy, Tinch okean (AQSH, Meksika) 15 ta, Tokaydo (Yaponiya) 20 ta Angliya (Buyuk Britaniya) 30 ta, Reyn (Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Frantsiya) 30 tadan aglomeratsiyani o'ziga qamrab olgan yirik megapolislardir. Dunyo olimlarining prognoziga ko'ra, kelgusida, megapolislar o'zaro birlashib yagona Oykumenopolislarni tashkil etadi. Unda yer sharining eng ko'p aholisi yashaydi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlariga (turlari, aniqlash, hisoblash metodlari) nimalar kiradi?
2. Aholi tarkibining asosiy belgilari qanday?
3. Aholi migratsiyasi nima?
4. Aglomeratsiya, megapolis, suburbanizatsiya, rururbanizatsiyaning ko'rinishlarini keltiring?
5. Progressiv yosh tarkibi, regressiv yosh tarkibidan qanday farqlanadi?
6. Dunyodagi aholi zich joylashgan areallarni aniqlang?
7. Aholi takror barpo bo'lishi nima va uning turlari?
8. Demografik o'tish bosqichlarini ajrating?
9. Aholining qarishi va demografik siyosat ma'zmun-mohiyatini baholang?
10. Aholi yosh tarkibi klassifikatsiyasi qanday ajratiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya zarubejnogo mira i Rossiyskoy Federatsii. Uchebnoe posobie.-Moskva, 2003.
2. Bo'rieva M.R. Demografiya asoslari Toshkent. 2001
3. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari.- Toshkent., 2011.
4. Глушенко Г.И. Миграция и развитие: Мировые тенденции// Вопросы статистики. Научно-информационный журнал.-М., 2/2008.
5. Demograficheskiy – entsiklopedicheskiy slovar'.- M., 1985
6. Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana 2002. Tashkent. 2003
7. Корылов V.A. Geografiya naseleniya.-M., 1999.
8. Medkov V.M. Demografiya. M., 2004
9. Naseleniya i obshchestva (RAN 1998 – 2011 gg).
10. Naseleniya mira.-M., 1998.
11. Xo'jaev N. "Miyalar ko'chishi"ning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari // Demograficheskoe razvitie Respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti. Materialy respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, posvyashchennoy 20-letnemu yubileyu nezavisimogo razvitiya respubliki.-T., 2011.
12. Xorev B.S. Mirovoy demograficheskiy rost i perspektivy chelovechestva i geografiya v shkole – 1995 № 5.
13. [Population Reference Bureau. 2011- 2012. World Population Data Sheet.](#)

2.3. Dunyo xo'jaligi geografiyasi

Reja:

1. Dunyo xo'jaligiga umumiy ta'rif.
2. Xalqaro mehnat taqsimoti.
3. Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga ta'sir etuvchi omillar

1. Dunyo xo'jaligiga umumiy ta'rif.

Jahon xo'jaligi ko'p asrlardan beri mavjud bo'lsada, 19-asr oxiri 20- asr boshlarida to'liq shakllandi. Bunga ko'pgina omillar ta'sirida erishildi, ya'ni yirik mashina ishlab chiqarishining rivojlanishi, transportning samarali turlari paydo bo'lishi, fan-texnika yutuqlari va boshqalar.

Jahon xo'jaligi-bu dunyo mamlakatlari milliy xo'jaligining tarixan, o'zaro iqtisodiy jihatdan bog'langan murakkab to'plamidir. Butun jahon iqtisodiy munosabatlar asosini jahon bozori tashkil etadi. Ushbu bozor transport rivojlanishi

munosabati bilan yana ham kengaydi, sababi, u dengizlarni birlashtirishga imkon berdi.

XX asrning 50-90- yillarida jahon xo'jaligida muhim rol o'ynaydigan davlatlar paydo bo'ldi. Bu davlatlarga SHarqiy, Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Avstraliya, Kanada va boshqalar kirdi. Bugungi kunda ko'pgina xorij va Rossiya olimlarining ilmiy tadqiqotlarida dunyo davlatlarini iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalashga harakat qilishmoqda.

O'tgan asrning 90-yillaridagi iqtisodiy geografiya darsligida jahon mamlakatlari 8 ta guruhga ajratilgan

1. "Katta yettilik davlatlari" (AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, GFR, Frantsiya, Italiya);
2. "Ettilikka" kirmaydigan G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlari (SHvetsiya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Norvegiya, Avstriya, Lyuksemburg, SHveytsariya va bosh.);
3. Kapitalizmga o'tgan davlatlar (Avstraliya, JAR, Isroil, Yangi Zelandiya).
4. MDH va G'arbiy Yevropa davlatlari;
5. Yuqori YaIM ko'rsatkichiga ega bo'lgan, Fors ko'rfazidagi neft qazib oluvchi davlatlar;
6. "Yangi industrial mamlakatlar" Osiyo, Afrika, Latin Amerikasi, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika, Argentina, Venesuela, Turkiya, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi;
7. "Osiyoning to'rt ajdarhosi" Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong;
8. Iqtisodiy qoloq davlatlar (Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari, Osiyo va Afrika qator davlatlari), BMT bunga dunyoning 40 ta davlatini kiritadi, ya'ni bulardan Bangladesh, Niger, Nepal. Efiopiya, Afg'onistan, CHad, Somali, Okeaniya davlatlari.

Tovar ishlab chiqarishining o'sishi, jahon bozorida davlatlar o'rtasida xom ashyo va mahsulot bozorining raqobatini keltirib chiqardi. Xalqaro mehnat taqsimotning vaqti keldi. Jaxon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida halqaro

geografik mehnat taqsimotining o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Geografik mehnat taqsimoti bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Geografik mehnat taqsimoti miqyosiga ko'ra rayonlararo va halqaro mehnat taqsimotiga bo'linadi. Halqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaliging xarakatlantiruvchi kuchi va negizidir. Dunyo mamlakatlari milliy xo'jaliklarining jahon xo'jaliklarini birlashtirish asosida halqaro mehnat taqsimoti (XMT) yotadi.

2. Xalqaro mehnat taqsimoti

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT)—ayrim mamlakatlarning tabiiy sharoit va resurslari, aholining mehnat malakalarining ko'nikmalari asosida ayrim mahsulotlari yoki ularning turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa mamlakatlar bilan ayrboshlashuvidir. XMT mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi darajasi ijtimoiy–siyosiy tizimining harakteridan qat'iy nazar tovarlar xizmat va bilimlarning xalqaro ayrboshlanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilmiy savdo soliq sohalarida boshqa hamkorlarining ob'ektiv asosidir. XMT mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishining qonuniy natijasi ijtimoiy mehnat taqsimotining mantiqiy davomidir. XMT xarakatlantiruvchi kuch va uni rag'batlantiruvchi omil. Mamlakatlarning unda ishtirok etishidan ko'zlangan maqsadi, manfaatlari, vazifalari iqtisodiy foyda olishga qaratilgandir. XMT da har bir mamlakat milliy iqtisodiyotning tutgan o'рни quyidagilarga bog'liq bo'ladi.

- A) Iqtisodiy geografik holati.
- B) Agroiqlimiy sharoitlari
- V) Tabiiy resurslari foydali qazilmalar bilan ta'minlangan darajasi
- G) Xalqning, millatning mehnat an'analari ma'lum ishlab chiqarish turlari xizmatlari ko'nikmalariga egaligi.
- D) Mamlakatni iqtisodiy tarixiy rivojlashi xususiyatlari
- E) Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot darajasi
- J) Mehnat resurslari sifat tarkibi kasbiy va intellektual darajasi yangi kasb hunarlarning o'zlashtirish imkoniyatlari kabi bir qator iqtisodiy ijtimoiy ko'rsatkichlar.

XMTning mamlakatlar uchun manfaatli tomonlari.

1. Xalqaro ayirboshlashning qulay sharoitlarida eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlar baynalminal va milliy qiymatlari o'rtasidagi ijtimoiy farqiga erishish

2. Arzon import tovarlar va xizmatlar evaziga milliy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlardan voz kechish.

Iqtisodiy integratsiya ikki va undan ortiq milliy xo'jaliklarining yagona mexanizmini yaratish maqsadidagi yaqinlashuvi va uyg'unlashuvidir. Iqtisodiy integratsiya jarayoni rivojlanish darajasiga ko'ra quyidagi beshta guruhga ajratiladi:

1. Erkin savdo mintaqasi;
2. Bojxona ittifoqi;
3. Umumiy bozor;
4. Valyutaviy iqtisodiy ittifoq;
5. Siyosiy;

Dunyodagi eng yirik integratsion ittifoq neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) hisoblanadi. U 1960 yilda tashkil topgan bo'lib, asosiy neft qazib oluvchi davlatlar qiziqishlarini himoya qiladi. Uning tarkibiga 13 ta davlat kiradi, bular Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Qatar, Eron, Iroq, Indoneziya; Afrikada — Liviya, Jazoir, Nigeriya, Gabon; Lotin Amerikasida — Venesuela, Ekvador.

AQSH, Kanada, Meksika iqtisodiy ittifoqi hududlari erkin savdo zonasiga (NAFTA) aylandi. Mintaqalar doirasidagi ittifoqqa Lotin Amerikasi assotsiatsiyasi integratsiyasi (LAI), Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi (ATES), Afrika birligi tashkiloti (OAE) va boshqalar kiradi.

3. Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga ta'sir etuvchi omillar

Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi.

- ✓ Iqtisodiy geografik o'rin, hudud omili, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar, birinchi o'rinda mineral resurslar;

- ✓ Hududning o'zlashtirilganlik va o'rganilganlik darajasi; transport omili;
- ✓ Demografik omil(aholi soni, mehnat resurslari va uning sifat darajasi, urbanizatsiya);
- ✓ Ilm talab omili; ekologik omil;

2000 yillarda dunyo iqtisodiyotida 2 240 million kishi band bo'lgan, bu 1900 yilga nisbatan 4 martaga ko'pdir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar xo'jaligida 382 million, rivojlanayotgan davlatlarda 1,7 milliard kishi mehnat qilishadi. Iqtisodiyot tarmoqlarda bandlar soniga ko'ra Xitoy birinchi o'rinda turadi, ikkinchi o'rinda Hindiston, so'ngra AQSH, Indoneziya va Braziliya.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Xalqaro mehnat taqimoti nima va uning turlari?
2. Dunyo davlatlari iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra nechta guruhga ajratiladi?
3. Xalqaro mehnat taqsimotining manfaatli tomonlari nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Xalqaro mehnat taqsimoti vujudga kelishidagi muhim omillar?
5. Jahon xo'jaligida hududning o'zlashtirilganlik va o'rganilganlik darajasi; transport omilining roli qanday?
6. Demografik omil(aholi soni, mehnat resurslari va uning sifat darajasi, urbanizatsiya) xo'jalik tarmoqlari rivojlanishida va joylanishida qanday ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira (obshchiy obzor). M., 2001.
2. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2003.-200s.
3. Golubchik M.M., Faybusovich E.L., Nosonov A.M., Makar S.V. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya: Osnovy nauki: Ucheb.dlya stud. Vyssh.ucheb.zavedeniy.-M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2004. -400s.
4. Gladkiy Yu. I., Sokolov O. V., Faybusovin E. L. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. M., 1999.
5. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshchaya xarakteristika mira. Yaroslavl, 1993.
6. Maksakovskiy V. P. Obshchaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast'1.- Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.-367 s.

2.4. Dunyo sanoati.

Reja:

1. Yoqilg'i-energetika kompleksi
2. Metallurgiya - mashinasozlik sanoati
3. Ximiya sanoati
4. Engil sanoat

1.Yoqilg'i-energetika kompleksi

Jahon xalq xo'jaligida sanoat tarmog'i yetakchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, u iqtisodiyotning hamma tarmoqlari shakllanishiga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, transportning barcha turlariga, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlariga to'g'ridan-to'g'ri va kuchli ta'sir etadi. Dunyo sanoat tarmog'ida bugungi kunda 350 milliondan ortiq kishi xizmat qiladi, bu jahon qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlayotganlarga nisbatan 3 barobarga kam degani. Moddiy ishlab chiqarishning asosi hisoblangan sanoat tarmog'i ikkiga bo'linadi: qazib oluvchi va qayta ishlovchi. Mazkur tarmoqlardan qazib oluvchi (qora va rangli metallar, ko'mir, torf, tabiiy gaz, neft, slanets va b.) birlamchi ahamiyatga ega, qayta ishlovchi tarmoqlar esa ikkilamchi tarmoqlar bo'lib, har ikkalasining ham hozirda umumiy dunyo iqtisodiyotida ulushining kamayib borishi xosdir. Faqat, ikkilamchi, ya'ni qayta ishlovchi tarmoqlarning qazib oluvchi tarmoqlarga nisbatan jahon iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasida kamayish biroz sekinroq kechmoqda. Jahon sanoat rivojlanishida yetakchi tarmoqlar yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, ximiya, oziq-ovqat, yengil, yog'ochni qayta ishlash, metallurgiyadir.

1951-1980 yillarda dunyo sanoat tarmog'ining o'rtacha o'sish sur'ati rivojlangan davlatlarda 4,2 foizni, 1981-1998 yillarda 2,3 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda esa, mos ravishda, 6,1 va 5,4 foizni tashkil etgan. 1900-2000 yillarda jahon sanoat ishlab chiqarishi 26 martaga ortdi. Bu, G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida 22 martaga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 62 martaga

teng bo'ldi. Ayni shu davrda, sanoat ishlab chiqarishi hajmi AQSHda -23, Kanadada – 90, Xitoyda – 106, Braziliyada - 125 martaga ko'paydi. Ammo shunga qaramasdan, jahon sanoat ishlab chiqarishining 56 foizdan ko'pi g'arbning rivojlangan davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Dunyo iqtisodiyotining asosini yoqilg'i-energetika kompleksi (YoEK) va uning uchta bo'g'ini, ya'ni, a).Yoqilgi energetika resurslarini qazib olish, b). Resurslarni qazib olingan joyidan iste'mol joyiga yetkazish, v). Elektr va yoqilg'i energiyalarini ishlab chiqarishni tashkil etadi. Iste'molda birlamchi energoresurslarga neft, gaz, ko'mir, yadro va qayta tiklanadigan energiya turlari kiradi. Birlamchi energoresurslar iste'moli va ishlab chiqarishida neftning hissasi 42 foiz, tabiiy gazniki 25 foiz, ko'mir 28 foiz, atom elektrostantsiyasini 2,3 foiz, gidroelektrostantsiyasini 3,3 foizga teng. Jumladan, ko'mir sanoati dunyoning 70 dan ortiq davlatlarida turli darajada rivojlangan. Yillik ko'mir qazib olish 5 mlrd tonnadan ortadi, shundan qazib olishning yarmi beshta davlatlarga to'g'ri keladi: Xitoy (qazib olish hajmiga ko'ra birinchi o'rinda), AQSH, Rossiya, Germaniya va Avstraliya. Bulardan tashqari, ko'mir qazib oluvchi yirik o'nlik davlatlarga Hindiston, Polsha, JAR, Ukraina va Qozog'iston ham kiradi. Ko'mirning asosiy qismi qazib olinayotgan davlatlarning o'zida iste'mol qilinadi. Atigi, 10 foizgina dunyo eksportiga chiqariladi. CHetga chiqarilayotgan ko'mir Avstraliya, AQSH, JAR, Hindiston va Xitoydan G'arbiy Yevropa, Yaponiya va Koreya Respublikasiga jo'natiladi.

Jahonda toshko'mir va qo'ng'ir ko'mirni qazib olish va iste'mol qilish hajmi birmuncha kamayib bormoqda. Bu ularning geologik zahirasi bilan umuman bog'liq emas. CHunki, aksariyat tarqalgan mineral yoqilg'i turlarida qattiq turdagi yoqilg'ining geologik zahirasi 90 foizni tashkil etadi. Hozirgi davrda qazib olish darajasidan kelib chiqsa, uning zahirasi bir necha yuz yillarga bermalol yetadi. Neft va gazniki 10 foizdan ham kam, ularning zahirasi 10 yilga, yaxshi foydalanilsa 100-150 yilga yetadi xolos. Aholi va xo'jalikning birlamchi yoqilg'i turlariga bo'lgan talabi hali yetarlicha qondirilmayapti. SHu boisdan, ham tabiiy

muhitga katta zarar yetkazilishga qaramasdan, juda ko'p miqdorda qazib olinayotgan bir paytda neftning narxi yildan-yilga ortib bormoqda.

Neft sanoati dunyoning 80 dan ortiq davlatlarida keng rivojlangan. Yiliga 3,7 mlrd tonna va undan ko'p neft qazib olinmoqda. Saudiya Arabistoni (1 o'rinda) dunyoda qazib olinayotgan neftning 15 foizini bermoqda. Umuman olganda Fors ko'rfazidagi beshta davlatga yer yuzida qazib olinayotgan neftning (Saudiya Arabiston, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi, Iroq, Eron) 25 foizi, OPEKga a'zo davlatlarga esa 40 foizi to'g'ri keladi. Sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar AQSH bilan birgalikda barcha yer sharidagi neftning 25 foizini qazib olishmoqda. Dunyodagi qazib olinayotgan neftning 10 foizi MDHga kiruvchi mamlakatlarga tegishli. Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda neft qazib olish hajmi kamaygan. Bu asosan AQSH va Buyuk Britaniyada neft qazib olish qisqarishi bilan bog'liq, vaholanki, AQSH dunyoda neftning katta zahiralariga ega mamlakat hisoblanadi. Ammo shunga qaramasdan, jahonda barcha iste'mol qilinayotgan neftning 52 foizini import qiladi. Asosiy neft import qiluvchi mamlakatlarga Yaponiya, AQSH, G'arbiy Yevropa va Koreya Respublikasi kiradi. Eksport qiluvchi davlatlar esa OPEK a'zolari, Rossiya, Xitoy hisoblanadi.

Jahonda 2,4 mlrd m³ tabiiy gaz qazib olinadi. Asosiy gaz qazib oluvchi davlatlarga Rossiya, AQSH, Kanada, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Jazoir, Iroq kiradi. Jami bo'lib dunyoda 60 dan ortiq davlatlarda gaz qazib olinadi. Tabiiy gazning tarqalishiga ko'ra hamda kelgusidagi zahirasi bo'yicha Rossiya yetakchi hisoblanadi. Rossiya katta gaz zahirasi ega bo'lishiga qaramay, qazib olinayotgan gazning 40 foizga yaqinini chetga chiqaradi. Vaholanki, bu ko'rsatkich, Kanadada-47 foiz, Niderlandiyada - 49, Jazoirida - 62, Norvegiyada-87 foizga teng.

Yoqilg'i-energetika kompleksining muhim bo'g'ini atom energiyasidir. Bugungi kunda ko'pgina davlatlar yadro yoqilg'i resurslariga ega. Bulardan uran rudasining yirik konlari JAR, Avstraliya, AQSH, Rossiya, Kanada, Niger, Namibiya, Frantsiyada joylashgan. Uran rudalari Gabon, SHvetsiya, Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Paragvay, Ekvador, Ispaniya va boshqa qator davlatlarda

ham qazib olinmoqda. Bundan tashqari dunyoning 20 dan ortiq mamlakatida uran rudasi qazib olinadi.

XX asrga kelib energiya resurslari ko'mir, neft va tabiiy gaz bilan birgalikda noan'anaviy energiya manbalaridan, yadro va suv resurslaridan keng foydalanish yo'lga qo'yildi. Jahon sanoat ishlab chiqarishida noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish muammosi muhim o'rin tutadi. Noan'anaviy energiya manbalariga dengiz va okean to'lqinlaridan olinadigan energiya, shamol energiyasi, yerning geotermal energiyasi, bu hozirda dunyoning 90 ta mamlakatida mavjud, uchinchi quyosh energiyasi. Jumladan, quyoshdan yerga tushayotgan 0,01 foiz energiya, energiya resurslariga bo'lgan barcha ehtiyojni ta'minlagan bo'lardi.

Elektroenergetika olishga asoslangan quvvatli elektrostantsiyalar tezlik bilan o'smoqda. Asosiy elektroenergiyani (60 foiz) neft, gaz, ko'mir, yonuvchi slanetsga tayanadigan issiqlik elektrostantsiyalari (IES) beradi. Hidroelektrostantsiyalar 20 foiz, atom elektrostantsiyalari 17 foiz, noan'anaviy elektr energiya manbalari 3 foiz elektr energiyani berishadi. Germaniya, Polsha, JAR, Ukraina, Belarussiya, Daniya, Gretsiya, Niderlandiya, Italiyada asosiy elektroenergiya IESlardan olinadi. Boshqa davlatlar energobalansida AESlarning ham hissasi bor. Masalan, Frantsiyada barcha elektroenergiyaning 75 foizi, Belgiya va Yaponiyada esa yarmi AESga to'g'ri keladi. Dunyoda yillik elektroenergiya ishlab chiqarish 12 trln kvt/soatdan oshib ketdi. Asosiy yirik elektroenergiya ishlab chiqarish AQSH (25 foiz), Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiya, Braziliya, Norvegiya, Hindistonda yo'lga qo'yilgan.

O'tgan asrning 60-80 yillarida atom energetikasi tezlik bilan rivojlandi. 80-yillarning oxirida dunyoda 335 ta atom reaktorlari 300 mln kvt quvvat bilan ishlar edi. 1999 yilda dunyoning 28 ta davlatida 351 gVt quvvatiga ega 434 ta AESning energoblokida energiya ishlab chiqarilgan. AQSH (quvvati 85 mln kVtga yaqin), Frantsiya (50 mln kVt), Yaponiya (bu yerda 43 atom reaktorlari umumiy quvvati 35 mln kVt bilan ish olib boradi), Germaniya, Rossiya, SHvetsiya, Ispaniya, Ukraina, Qozog'iston, Armaniston, Braziliya, CHili, Argentina, Peru, Urugvay,

Kuba, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, JAR, Hindiston, Pokiston, Litva, Sloveniya va boshqa qator davlatlarda atom elektr stantsiyalari ishlab turibdi. AESlarga qiziqish Lotin Amerikasi, janubiy, janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida hamon yuqori. Aksariyat, Yevropa davlatlarida esa aksincha, hatto 1998 yil 1 iyulda SHvetsiyada «Barsebek» AESi o'z ish faoliyatini to'xtatgan. Ko'pgina mamlakatlarda gidroenergetika tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bunday davlatlarga Yevropadagi Avstriya (ishlab chiqarilayotgan barcha elektroenergiyaning 2/3 qismini beradi), Portugaliya (40%), Lyuksemburg (58%), SHveysariya (70%), Norvegiya (99%) kiradi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari energetika xo'jaligida GESlar asosiy rol o'ynaydi. Masalan, Braziliyada ishlab chiqarilayotgan barcha elektroenergiyaning 80 foizini, Surinamda 75 foiz, Kolumbiyada 70 foiz, Peru, CHili, Boliviya 50-55 foizini GESlar beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'pgina davlatlarda noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Xitoy, Frantsiya, Kanada, AQSH, Rossiyada to'liq energiyasidan foydalanish rivojlangan bo'lsa, shamoldan energiya olish AQSH, Belgiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiyada keng yo'lga qo'yilgan. Geotermal energiya ishlab chiqarish manbalari AQSH, Meksika, Islandiya, Italiya, Yaponiya, Vengriya, Rossiya, Filippin, Yangi Zelandiya, Markaziy Amerikada yo'lga qo'yilgan. Energiya resurslari va ulardan foydalanishda birlamchi energiya manbalari neft, ko'mir, gaz, yadro yoqilg'isi, noan'anaviy energiya manbalariga talab oshib boraveradi. Jahon iqtisodiyoti instituti olimlarining prognoziga ko'ra 1995-2015 yillarda birlamchi energiya manbalari istemoli 1,7 martaga ortishi mumkin. Aksincha, iste'molda neftning hissasi kamayib, gazniki o'sishi, ko'mirniki esa hozirgi miqdorda saqlanib qolinishi kutilmoqda.

2. Metallurgiya-mashinasozlik sanoati.

Metallurgiya sanoat tarmog'i hamisha ikkita, ya'ni qora va rangli metallurgiyaga ajratilgan (maktab darsliklarida batafsil ma'lumot berilgan). Qora metallurgiya tarmog'iga kiruvchi temir rudasi 50 ga yaqin mamlakatlarda qazib

olinadi. Dunyoning yetakchi metallurgiya markazlari G'arbiy Yevropa, AQSH, Rossiya va Yaponiya hisoblanadi. Yaponiya metallurgiyasi to'liq import temir rudasiga tayanadi. Qora metallurgiya oxirgi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga kengayib, o'sib bormoqda. Braziliya va Hindiston po'lat quyish bo'yicha Yevropa mamlakatlarini quvib o'tdi.

Rangli metallurgiyada rangli metallar ikkiga og'ir va yengilga ajratiladi. Og'ir rangli metallar ko'p miqdorda yoqilg'i, xom ashyo va suvni talab etsa, yengil rangli metallarga juda ko'p elektr-energiyasi zarur. Masalan, 1 t alyuminiy olish uchun 16-18 ming kVt soat elektro-energiya sarflanadi. SHu boisdan, alyuminiy ishlab chiqarish korxonalarini arzon elektroenergiya manbalariga yaqin joylashtiriladi. AQSH, Yaponiya, Rossiya, Kanada, Germaniya, Norvegiya, Frantsiya, Italiya asosiy alyuminiy ishlab chiqaruvchi davlatlardir. Ko'p miqdorda mis qazib oluvchi va ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga CHili, Peru, Zambiya, Kongo (Kinshasa), Rossiya, AQSH, Xitoy, Qozog'iston kiradi.

Jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i mashinasozlik hisoblanadi. Unga barcha sanoat mahsulotining 1/3 to'g'ri keladi. Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, aviasozlik, temiryo'l mashinasozligi, kemasozlik), qishloq xo'jaligi, energetika, stanoksozlik, priborsozlikdir. Mashinasozlik davlatlarning ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilaydi, shu boisdan ham bu tarmoq unda band bo'lganlar va mahsulot narxi bo'yicha jahon sanoatida birinchi o'rinni egallaydi. Dunyoda mashinasozlik asosan to'rtta regionda: G'arbiy Yevropa, AQSH, Yaponiya va SHarqiy Yevropada rivojlangan. Yiliga jahonda 50 mln dona avtomobil ishlab chiqariladi, uning katta qismi yengil avtomobillardir. Oxirgi yillarda AQSH va Yaponiya avtomobilsozlik bo'yicha o'zining yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda, ya'ni yiliga 22 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi. Germaniya va Frantsiya dunyo bozoriga 8,5 mln dona avtomobil yetkazib beradi. Hozirda Lotin Amerikasi davlatlari yiliga 2,5 mln dona avtomobil ishlab chiqarish bilan ushbu davlatlarga yetib olishga harakat qilishmoqda. «Ford», «Djeneral motors», «Kraysler» (AQSH), «Nissan», «Xonda», «Toyota» (Yaponiya); «Fol'ksvagen», «Daymler-Bents» (Germaniya); «Fiat» (Italiya);

«Reno» i «Pejo-Sitroen» (Frantsiya) kabi avtomobil kontsernlari va firmalari dunyoga mashhur. Dunyo kemasozligida Yaponiya (jahon ishlab chiqarishining 52 foizi), AQSH, Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Norvegiya, Germaniya, Buyuk Britaniya yetakchi hisoblanadi.

Jahon industriyasining yangi tarmog'i elektron sanoati hisoblanadi. Elektron sanoati ko'pgina mamlakatlarda mashinasozlik sanoatidan keyin yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bularga Osiyodagi Singapur, Koreya Respublikasi misol bo'ladi. Elektron sanoati mashinasozlikning eng yangi ko'p bilim-ilm talab sanoat tarmog'i bo'lib, ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Aholi va xo'jalikning aniq hisoblash mashinalariga, kompyuterlarga, aloqa apparaturalariga, maishiy elektron texnika buyumlariga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda AQSH murakkab elektron mashinasozlik sanoati o'ta taraqqiy etgan mamlakat hisoblanadi. Mintaqa dunyoda kompyuter soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi, masalan, har 100 ta biznesmenga 50 ta personal kompyuter to'g'ri keladi.

Yaponiya jahonda elektron mashinasozlik rivojlanish darajasiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi. Elektron mashinasozlik sanoatining 1000 ga yaqin korxonalari Yaponiyadan tashqarida ham juda keng faoliyat olib boradi. 500 ga yaqini Osiyoda, 150 ga yaqini AQSHda, 100 tasi Yevropada va hakoza. Yaponiyaning o'zida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar, ya'ni integral sxemalar, kompyuterining yangi avlodlarini ishlab chiqarish qolgan xolos. G'arbiy Yevropa elektron mashinasozlik sanoati rivojlanishi uchun yetarli ilmiy, moliyaviy, texnik va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqalardan biridir. Bu yerda telekommunikatsion apparaturalar, hisoblash texnikasi, turli elektron priborlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. O'tgan asrning 80-yillarida Finlyandiya va SHvetsiyada quvvatli mobil aloqa vositalari ishlab chiqarish korxonalari barpo bo'ldi. Asosan elektron mashinasozlik sanoati Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Niderlandiyada rivojlangan bo'lib, ularga jami mintaqa elektron sanoati mahsulotining 90 foizi to'g'ri keladi.

Yaponiya va Amerika janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarining qulay geografik, iqtisodiy va demografik imkoniyatlarini hisobga olgan holda XX asrning 80 – yillarida o'zlarining ko'pgina elektron mashinasozlik sanoat korxonalarini, filliallarini mazkur mintaqada joylashtira boshladi. Bu esa ushbu hududlarda nafaqat sanoat tarmog'i rivojlanishiga, balki milliy kadrlar yetishib chiqishiga, eksportdan yuqori daromad olishga imkon berdi.

3. Ximiya sanoati

Ximiya sanoati elektroenergetika va mashinasozlik bilan birga iqtisodiyotning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ximiya sanoatining xom ashyo bazasi xilma-xil bo'lib, eng avvalo tabiiy xom ashyolardan foydalaniladi. Bularga, tuz, oltingugurt, neft, gaz, ko'mir, yog'och hamda qator ishlab chiqarish chiqindilari kiradi. Ximiya sanoati tog' ximiya (mineral xom ashyo qazib olish), asosiy ximiya (mineral o'g'itlar, kislota, soda ishlab chiqarish), organik sintez ximiyasi (polimer material mahsulotlari uchun zarur yarim fabrikat materiallar), polimer materiallar (shinalar, polietilen plyonkalari) ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Ximiya sanoati korxonalarini ham xuddi mashinasozlik korxonalaridagi joylashtirish qonuniyatiga amal qiladi va mashinasozlik tarmog'i singari tarkibiga ko'ra o'ta murakkab sanoat tarmog'idir. Jumladan, tog' ximiya xom ashyo, asosiy ximiya istemolchi va xom ashyo, organik sintez ximiya ko'p suv, xom ashyo, energiya manbalariga yaqin joylashtiriladi. Ximiya sanoati rivojlanishiga ko'ra dunyo mamlakatlari quyidagi uchta guruhga ajratiladi. 1) ximiya sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar; AQSH, Kanada, Yaponiya, G'arbiy Yevropa davlatlari, Rossiya, Ukraina, Avstraliya, Xitoy, Koreya, Singapur.

2) ximiya ishlab chiqarishi rivojlanayotgan davlatlar Hindiston, JAR, Jazoir, Marokko, Liviya, Misr, Pokistan, Meksika, Eron, Turkiya, Nigeriya, Qozog'iston, Turkmanistan, Ozarbayjon, Filippin, SHarqiy Yevropa va boshqa regionlar;

3) Ximiya sanoati past darajada rivojlangan davlatlar (tropik Afrika, Okeaniya, qator Markaziy Amerika davlatlari, Nepal, Butan va boshqalar). SHuningdek, dunyoda ximiya industriyasining yirik rayonlari va markazlari ham mavjud,

bularga AQSHdagi Texas, Pitsburg, Rossiyadagi Volgabo'yi, Ukrainadagi Donbass, Germaniyadagi Rur va boshqalar kiradi.

G'arbiy Yevropa ximiya sanoatida bandlar soni AQSHdan 2 marta, Yaponiyadan 4 marta ko'p. Yevropada AQSH va Yaponiyaga nisbatan sezilarli darajada ko'p sintetik bo'yoqlar, yuvuvchi vositalar, boshqa tarmoqlar uchun zarur bo'lgan maxsus ximikatlari, plastmassa, sintetik kauchuk, ximiyaviy tolalar ishlab chiqariladi. Xuddi shunday SHimoliy Amerika ham dunyo ximiya sanoati rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda. Bu yerda ximiya sanoati taraqqiyoti uchun yetarli shart-sharoit mavjud. Masalan, mintaqaning tog'ximiya xom ashyosiga (osh va tosh tuzi, fosforit, neft, gaz, oltingugurt) boyligi, yirik energiya manbalariga egaligi, AQSH va Kanadada tarmoqni joylashtirish uchun suvning yetarliligi, innovatsion texnologiya yaratish va jihozlar bilan ta'minlash uchun baquvvat ilmiy-texnika salohiyatining borligi, mashinasozlik sanoati salohiyati va uning ishlab chiqarish jihozlari bilan ta'minlash qobiliyati kabi xususiyatlari.

Yaponiya ximiya sanoati rivojlanishiga ko'ra AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Juda kam miqdorda mineral-xom ashyo va yoqilg'i resurslariga tayangan holda, to'liq neft, gaz, tog' ximiya xom ashyosini import qilsada, mamlakatda juda baquvvat ximiya sanoati tarkib topgan. Osiyoda yaratilayotgan ximiya sanoati mahsulotining 62 foizi Yaponiyaga to'g'ri keladi. Ammo oxirgi yillarda Xitoy va boshqa industrial davlatlarda ximiya sanoatining rivojlanishi uning hissasini kamaytirmoqda. Biroq, Osiyo dunyoda hamon asosiy ximiya mahsulotlarini import qiluvchi region sifatida qolmoqda. Ximiya sanoati jahon iqtisodiyotida yetakchi tarmoq bo'lishiga qaramay, asosiy tabiiy muhitni ifloslantiruvchi, inson sog'ligiga katta xavf tug'diruvchi ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib qoladi.

4.Engil sanoat.

Sanoatning yana bir tarmog'i bu yengil sanoatdir. Yengil sanoat tarmog'i aholini turli predmetlar, buyumlar bilan ta'minlovchi xilma-xil tarmoqlarni o'ziga birlashtiradi. Yengil sanoat tarmog'i qishloq xo'jaligi, ximiya sanoati va

mashinasozlik bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanadi. Mazkur tarmoqlar yengil sanoatni xom ashyo, tabiiy va sun'iy tolalar, teri mahsulotlari, bo'yoqlar, mashina va jihozlar bilan ta'minlaydi.

Engil sanoatning eng muhim tarmog'i to'qimachilikdir. To'qimachilik sanoati unda ishlovchilar soni bo'yicha va ishlab chiqarish hajmiga ko'ra yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, unda sun'iy, ximiyaviy tolalar ishlab chiqarish bugungi kunda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Ayniqsa, dunyo bo'yicha AQSH, Hindiston, Yaponiya davlatlari eng ko'p ximiyaviy tolalar ishlab chiqaradi. Bulardan keyingi o'rinlarda Osiyo yo'lbarlari, Koreya Respublikasi va Tayvan turadi. Ip gazlama mahsulotlari ishlab chiqarish esa asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, so'zsiz bunda Hindiston yetakchi, so'ngra AQSH va Xitoy turadi.

Ipak gazlama ishlab chiqarish an'anaviy Osiyo mamlakatlariga tegishli bo'lsa, jun gazlama ishlab chiqarish AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya davlatlarida yaxshi rivojlangan. Jun gazlamani chetga eng ko'p aynan shu davlatlar eksport qiladi. Lyon tolasi va undan gazlamani Rossiya, Belorussiya, Frantsiya va Pol'shada ishlab chiqariladi. Turli gilamlar AQSH va Hindistonda ishlab chiqariladi. Ammo qo'l mehnatida yaratilgan gilam mahsulotlari jahon bozorida eng qimmat mahsulot hisoblanadi. Dunyo bozoriga qo'l mehnatida yaratilgan gilam mahsulotlarini Eron, Afg'oniston va Turkiya davlatlari yetkazib beradi.

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarning jahon to'qimachilik sanoatiga qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaydi. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, arzon ishchi kuchiga tayanilayotgan janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa uning ulushi ortib bormoqda. To'qimachilik bilan baravariga tikuvchilik sanoati ham sharqqa tomon siljib taraqqiy etmoqda. Dunyo bozorida Xitoy va Hindistonning tayyor tikilgan kiyimlari bugungi kunda Yevropa, Amerika mahsulotlari bilan raqoblashmoqda. CHarm va oyoq-kiyim sanoati rivojlangan davlatlarda, AQSH va Italiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu davlatlar yiliga har biri 600 mln juft oyoq kiyim ishlab chiqaradi. Dunyoda arzon va sifatli oyoq kiyim ishlab chiqaruvchi Xitoy va Tayvan jahon bozorida eksport bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi.

Tabiiy mahsulotlar ichida mo'yna eng qimmatbaho hisoblanadi. Rossiya, AQSH, Xitoy va Germaniya jahon mo'yna bozorini to'liq egallashgan. Gretsiya turli mamlakatlardan keltirilgan mo'yna parchalarini qayta ishlash bilan dunyoda dong taratgan bo'lsa, qolgan ko'pgina davlatlar sun'iy arzon mo'ynadan kiyim ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan. Yengil sanoatning yana bir muhim tarmog'i yuvelir mahsulotlari ishlab chiqarish, qimmatbaho toshlarga va metallarga ishlov berishdir. Bu tarmoq AQSHda, Isroil, Hindiston va G'arbiy Yevropa davlatlarida yaxshi rivojlangan.

O'rmon sanoati sanoatning eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalari asosan yog'och, o'rmon yaqinida, dengiz, daryo bo'ylarida, temir yo'llar atrofida joylashtiriladi. Yog'och tayyorlash shimoliy yarim sharda joylashgan Kanada, Rossiya, AQSH, SHvetsiya va Finlyandiya yaxshi yo'lga qo'yilgan. Aholi jon boshiga yog'och tayyorlash, yog'och mahsulotlarini chetga eksport qilish, qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha Kanada dunyoda birinchi o'rinda turadi. Oxirgi yillarda janubiy Braziliya, Afrika, Janubiy-SHarqiy Osiyo mintaqasidagi o'rmonlardan foydalanish jadallashib bormoqda. Afsuski, bu yerdagi qimmatbaho yog'ochlar, daraxtlardan mahalliy aholi faqat o'tin sifatida ishlatishadi xolos. So'nggi vaqtlarda dengiz va okeanlar orqali yog'ochni Yaponiyaga eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Mebel ishlab chiqarish o'rmon sanoatining boshqa tarmoqlariga nisbatan birmuncha farqli ravishda joylashtirilgan. An'anaviy mebel mahsulotlarini AQSH va G'arbiy Yevropa ishlab chiqaradi. Ofis mebellari ishlab chiqarish va uni Yaponiya hamda Yevropaga eksport qilish bo'yicha Xitoy birinchi o'rinda turadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Dunyo xo'jaligidagi o'zgarishlarga baho bering.
2. Jahon sanotidagi eng yirik tarmoqlar qaysilar?
3. Dunyo sanoatini tashkil etish formalari
4. Dunyoning neft, gaz sanoati.
5. Dunyoning mashinasozlik kompleksi.
6. Dunyo sanoatida og'ir mashinasozlikning o'rni va ahamiyati.
7. Mashinasozlikning asosiy turlari va asosiy tarmoqlari yer sharining qaysi mintasida yaxshi rivojlangan?
8. Tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlarga qaysilar kiradi?
9. AES lar rivojlangan davlatlarni ko'rsating?
10. Mo'yna parchalarini qayta ishlash bo'yicha dong taratgan davlat ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira (obshiy obzor).- M., 2001.
8. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2003.-200s.
9. Golubchik M.M., Faybusovich E.L., Nosonov A.M., Makar S.V. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya: Osnovy nauki: Ucheb.dlya stud. Vyssh.ucheb.zavedeniy.-M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2004.-400s.
10. Gladkiy Yu. I., Sokolov O. V., Faybusovin E. L. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. M., 1999.
11. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshaya xarakteristika mira.- Yaroslavl', 1993.
12. Maksakovskiy V. P. Obshaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast'.-Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.-367 s.

2.5. Dunyo qishloq xo'jaligi geografiyasi.

Reja:

1. Dunyo yer fondi.
2. Dehqonchilik
3. CHorvachilik.

1. Dunyo yer fondi

Qishloq xo'jaligi-jahon xo'jaligiing eng qadimgi tarmoqlaridan biri. Dunyoda ishlovchilar soni bo'yicha birinchi o'rinda turishi (1,5 milliarddan), aholi ehtiyojini oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni xilma-xil xom ashyo bilan ta'minlovchi, milliy ishlab chiqarish va aholi bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida aholining bandligi bo'yicha rivojlangan davlatlar rivojlanayotan davlatlardan farq qiladi. Masalan, Osiyo va Afrika davlatlarida aholining 3/5 qismi, Janubiy Amerika va Okeaniyada-1/5, Yevropa va SHimoliy Amerikada 1/10 qismi band. Dunyodagi iqtisodiy faol aholining deyarli yarmi mehnat qilayotgan qishloq xo'jaligi jahon eksportining 1/10 ga yaqini beradi.

Qishloq xo'jaligi asosan dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Dehqonchilik tarmog'i oziq-ovqat va nooziq-ovqat ahamiyatga ega bo'lib, o'z navbatida, donchilik (bug'doy, sholi, makkajo'xori, suli, boshoqlilar va boshqalar),

texnika (qand lavlagi va shakar qamish, kungaboqar, yeryong'oq, paxta tolasi, jut va bosh.), sabzavot va poliz, kartoshka, ko'p yillik ekinlarga (bog'lar, uzumzorlar, mevalar, kauchuk plantatsiyalari) ajratiladi. Chorvachilik-qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik baliqchilik va baliq xo'jaligidan iborat.

Qishloq xo'jaligi ikkita yo'l bilan, ya'ni intensiv va ekstensiv yo'l bilan rivojlantiriladi. Intensiv yo'l-fan va texnologiyaning eng so'nggi yutuqlarini qo'llagan holda, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish, chorvachilikda samaradorlikka erishish orqali rivojlantirish. Intensiv yo'l rivojlangan mamalakatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yuqori darajada qayta ishlash, saqlash mexanizatsiyalash, ximiyalash ishlari amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika taraqqiyoti o'tgan asrning ikkinchi yarmidan juda jonlandi. 60-yillardan ushbu tarmoqni ximiyalashtirish boshlandi, ya'ni mineral o'g'itlarni qo'llash, o'simliklarni ximiyaviy yo'l bilan himoyalash, 80-yillardan rivojlangan davlatlarda biotexnologiya, gen injeneriyasi, komp'yuterlash, hatto robotlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Ximiyalashtirish asosan qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlarni qo'llash, ekinlarni ximiyaviy himoyalashga qaratilgan bo'lib, shu yo'l bilan ekinlar hosildorligini oshirish, yer unumdorligiga erishish maqsad qilib belgilandi. XX asrning ikkinchi yarmidan mineral o'g'itlarni ishlatish 10 martga ko'paydi. Natijada, 1 kg mineral o'g'it ishlatish ekinlar hosildorligining donli ekinlarda 8-12 kg, moyli ekinlarda 4-8 kg, qulupnayda 30-50 kg ortishiga olib keladi. Mineral o'g'itlarni ishlatish rivojlanayotgan davlatlarda tezlik bilan o'sib, ya'ni hatto Osiyo Yevropa va SHimoliy Aerikani quvib o'tib, dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Osiyo qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar ishlatish Xitoy hisobiga (oxirgi 10 yilda Xitoyda 2 martaga ortdi) o'sdi. SHu vaqtning o'zida sobiq SSSR davlatlarida bu ko'rsatkichda pasayish ro'y beradi. Ekin ekiladigan yerga mineral o'g'it solish bo'yicha G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya yetakchi o'rinni egallaydi, Jumladan, 1 gektar yerga Niderlandiyada-770 kg, Buyuk Britaniyada -350 kg va Yaponiyada 450 kg o'g'it solinadi.

Mexanizatsiyalash ixtisoslashishga, tabiiy sharoiti va qishloq xo'jaligi korxonalarining sotsial-iqtisodiy holatiga chambarchas bog'liq. Hozirda dunyo bo'yicha traktorlar miqdori ortdi, ya'ni Osiyoda (7 marta) ayniqsa, Hindistonda va Xitoyda ko'paygan. Mexanizatsiyalash bo'yicha Yevropa birinchi, Osiyo ikkinchi o'rinda.

Ekstensiv yo'l ekin maydonlari kengaytirish, qoramollar sonini oshirish hisobiga qishloq xo'jaligini yuritishdir. Hozirda dunyo yer fondining 35 foizi qishloq xo'jaligi va turli oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan band. Turli maqsadlarda ishlatiladigan eng qimmatbaho va hosildor yerlar 1,5 mlrd ga bo'lib, ular sifatiga, samaradorligiga ko'ra materiklar miqyosida notekis taqsimlangan. Dunyo bo'yicha, har bir kishiga 0,3 ga ekin maydoni to'g'ri keladi, shundan Osiyoga 31 % (0,15 ga) bo'lib, bu eng kichik ko'rsatkich. Sababi, Osiyoda 1 ga yer 7 kishini boqishi kerak. Aholisi zich joylashgan Yevropada 1 ga yer 4 kishini boqadi, Janubiy Amerikada-2,0, SHimoliy Amerikada-1,5 kishiga to'g'ri keladi. Osiyoda 4,3 mlrd aholi yashaydi, umumiy yer maydonining 18 foizi haydaladigan yerlar, shu boisdan ham jon boshiga yer maydoni kichikdir. Yevropada dehqonchilikni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit eng qulay, yer maydoni sezilarli darajada o'zlashtirilgan, ammo aholisi o'ta zich joylashgan, aholi jon boshiga yer miqdori Osiyoga nisbatan ko'p.

Afrika va Janubiy Amerikada qayta ishlanadigan yer maydoni juda kam, o'zini–o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmaydi. Afrikada umumiy yer maydonining 6 %, Janubiy Amerikada 8 %, haydaladigan yerlar. Bu haydaladigan yerlardan ham bir xil foydalanilmaydi. Ko'pgina rayonlarda sug'oriladigan yer maydoni kengayib bormoqda. Oxirgi 25 yilda ekin ekiladigan yer maydoni 140 million gektarga, ya'ni 10 foizga o'sdi, aholi esa 50 foizga ortdi. Ko'payib borayotgan aholini faqat qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanmoqda.

Yaylovlarni asta sekinlik bilan haydaladigan yerlar egalladi. Bunday yerlar o'rmonlar, hosildorligi past yaylovlar hisobiga o'rtacha yiliga 5-10 million gektarga ortib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda 1 ta traktor

o'rtacha 34 gektar yerni qayta ishlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlarda, bu ko'rsatkich-620 gektar, Hindistonda 3000 gektarga teng. Uchinchi dunyo davlatlarida hamon dala ishlari qo'lda amalga oshiriladi. SHu boisdan ham bu mamlakatlarda 1 gektar yer past darajada - 0,61 kishini, o'rtacha darajada - 2,1 kishini, yuqori darajada - 5,05 kishini boqadi. 2000 yilda 117 ta rivojlanayotgan davlatlardan 64 tasida yerlar ayanchli holatda bo'lib, aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olish imkoniga ega emasdi.

2.Dehqonchilik.

Qishloq xo'jaligining asosini don ishlab chiqarish tashkil etadi. Har yili dunyo bo'yicha 2,5 milliard tonna don mahsuloti yig'ib olinadi, qayta ishlanadigan yerlarning yarmini donli ekinlar egallaydi. Donli ekinlarning uchta asosiy turi ajratiladi: bug'doy (don yalpi mahsulotining 28 foizini), sholi (26 foiz) va makkajo'xori (25 foiz). Bug'doy dunyoning 70 ta mamlakatida yetishtiriladi. Asosiy don yetishtiruvchi davlatlar AQSH, Xitoy, Ukraina, Rossiya, Qozog'iston, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Argentina, Frantsiya hisoblanadi. Bug'doy eksport qiluvchi davlatlarga AQSH, Kanada, Avstraliya, Argentina, Frantsiya kiradi. Don va don mahsulotlari tannarxiga ko'ra jahon qishloq xo'jaligi tovar aylanmasida go'sht va go'sht mahsulotlaridan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Dunyo don xo'jaligi geografiyasida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Osiyo hozirda jami don mahsulotining teng yarmini bermoqda.

Donli ekinlardan ikkinchisi-bu makkajo'xori ekinidir. Makkajo'xori SHimoliy Amerika hindularining oziq-ovqati bo'lgan bo'lsada, keyinchalik butun dunyoga nafaqat, oziq-ovqat, balki ozuqa va texnika ekini sifatida tarqalgan. Hozirgacha ham SHimoliy Amerika makkajo'xori eng ko'p ekiladigan mintaqalardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo makkajo'xori hosilining 40 foizi, jahon eksportining 75 foizi AQSHga to'g'ri keladi. Ammo shunga qaramasdan, oxirgi yillarda bu ekin turi bo'yicha, Osiyo davlatlari salmog'i biroz ortib bordi va jahon makkajo'xori mahsulotining $\frac{1}{4}$ bera boshladi. Yer sharidagi yirik makkajo'xori yetishtiruvchi davlatlarga AQSH, Xitoy, Braziliya, Meksika,

Ruminiya va Frantsiya kiradi. Makkajo'xorini asosan Yaponiya, Koreya Respublikasi, Malayziya va G'arbiy Yevropa davlatlari (Ispaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya) sotib olishadi.

Asosiy sholi yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, Bangladesh, Indoneziya, Yaponiya, Tailand, M'yanma, V'etnam, Fillipin va Janubiy Koreyadir. SHuningdek, AQSH, Meksika, Braziliya va O'rta Osiyoning ba'zi respublikalarida ham sholi yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Qand lavlagi mo'tadil kengliklar ekini bo'lib, uni asosan Frantsiya, Ukraina, Rossiya, AQSH, Pol'sha, Germaniya, Vengriya, Italiya va Xitoy yetishtiradi. SHakarqamish bundan farqli ravishda tropik kengliklarda, eng avvalo Lotin Amerikasi-Braziliya, Kuba, Meksika, Kolumbiya hamda Osiyo davlatlari, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Indoneziyada o'stiriladi. Rivojlangan davlatlardan AQSH va Avstraliyada yirik shakarqamish plantatsiyalari mavjud.

Paxta tolasi qadimda Hindiston va Meksikada ekin sifatida kiritilgan. Bu issiqni, namni sevuvchi mo'tadil iqlim mintaqasining ekini tuproqqa, o'g'it va sug'orishga alohida e'tibor talab qiladi. Dunyoda yiliga 20 mln tonna paxta tolasi yetishtiriladi. Yetakchi paxta tolasi ishlab chiqaruvchilarga: Xitoy (jami dunyo mahsulotining 25 foizi) AQSH, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Turkiya, Misr, Avstraliya va O'rta Osiyo respublikalari, xususan O'zbekiston kiradi. Asosiy paxta tolasi chetga eksport qiluvchi davlatlar birinchi o'rinda AQSH (jahon eksportining 1/4), ikkinchi o'rinda O'zbekiston, so'ngra Turkmaniston va Avstraliya hisoblanadi. An'anaviy uzun tolali Misr paxtasi qimmatliligi jihatdan alohida ajralib turadi. Ko'pgina davlatlarda o'rta tolali paxta yetishtiriladi.

Moyli ekinlardan eng muhimi kungaboqar (Rossiya, Ukraina, Bolgariya, Qozog'iston, Vengriya, Ruminiya), soya (AQSH, Xitoy, Braziliya, Meksika), yer yong'oq (G'arbiy Afrika, Hindiston) ham dunyo bo'yicha ko'p miqdorda ekiladi. SHuningdek, yer sharida choy ishlab chiqarish (3 mln tonna) Hindistonda, Xitoyda, SHri-Lankada, Keniyada, Indoneziyada, Turkiyada, Yaponiyada, Eronda, Bangladesh, Gruziya, va Rossiyada, kofe esa (er shari bo'yicha 3 mln tonna kofe

ishlab chiqariladi) Braziliya, Kolumbiya, Indoneziyada, Meksika, Gvatemala, Efiopiya, Uganda, Hindiston va Kosta- Rikada yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Amerikaliklar ekini bo'lgan kartoshka mo'tadil mintaqada yetishtiriladi. Uni ozuqa sifatida, spirt va kraxmal olishda keng foydalanishadi. Bundan tashqari, hozirgi kungacha kartoshka kambag'al aholining eng muhim oziq-ovqati bo'lib xizmat qilib kelmoqda. 90- yillargacha kartoshka Rossiya, Polsha va Xitoyning asosiy ekini bo'lib kelgan bo'lsa, keyinchalik Xitoy yetishtirish bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi.

Issiq talab janubiy amerikaliklar ekini bo'lgan tamaki mo'tadil iqlim mintaqasida ko'plab yetishtiriladi. Ammo shunga qaramasdan, yer sharining barcha mintaqalarida tamaki ekiladi. Inson sog'lig'iga tamakining salbiy ta'siri keng targ'ib qilinishiga qaramay, uni yetishtirish sezilarli qisqarganicha yo'q. Tamaki sanotida va xalqaro savdoda Angliya va Amerikaning yirik kompaniyalari hukmronlik qilishadi. Tamakichilik Osiyoda (dunyo hosilining 3/5), SHimoliy va Janubiy Amerikada, SHarqiy va G'arbiy Yevropada keng rivojlangan. Asosiy tamaki eksport qiluvchi davlat AQSHdir.

Tabiiy kauchuk olish XIX asrdan yo'lga qo'yilgan bo'lib, qishloq xo'jaligining yangi tarmog'i hisoblanadi. Dastlabki davrlarda bu ekin Janubiy Amerikada ekilar edi, keyinchalik kontrabanda yo'li bilan Osiyoga keltirilgan. Avtomobil sanoatining keng taraqqiy etishi tropik mintaqalarda kauchuk plantatsiyalarining Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikada ken yoyilishiga sabab bo'ldi. Sun'iy kauchuk ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi tabiiy kauchukka nisbatan 3 marta ko'p mahsulot ishlab chiqarish ortishiga olib keldi. Natijada, hozirda tabiiy kauchuk yetishtirish geografiyasi o'zgardi. Dunyodagi jami kauchukning 9/10 qismi Osiyoda, qolgani Afrika va Janubiy Amerikada yetishtiriladi.

3. CHorvachilik.

Qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i chorvachilik bo'lib, u jami dunyo qishloq xo'jaligi mahsulotining 1/5 ni beradi. Asosiy chorva mahsulotlarini

rivojlangan mamlakatlar yetkazib beradi va o'z navbatida, import qiluvchi davlatlar sirasiga ham aynan ular kiradi. CHorva mollarining bosh soni dunyoda - 4 milliardni tashkil etadi. Eng ko'pi yirik shoxli qoramollardir. Ular chorva mollarining 1/3 ga to'g'ri keladi. Asosiy yirik shoxli qoramollar joylashgan regionlarga Hindiston, Braziliya, AQSH, Xitoy, Rossiya, Argentina, Ukraina kiradi.

Yirik shoxli qoramollar yer sharida ishlab chiqarilayotgan sutning 90 foizini, go'shtning 1/3 ni beradi. Yirik shoxli qoramollarning eng ko'p joylashgan joyi Hindiston bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmigacha ikkinchi o'rinni AQSH egallab kelgan edi, keyinchalik sobiq SSSR davlatlari egalladi. CHorvachilik rivojlanishi va ixtisoslashishi ko'p jihatdan ozuqa bazasiga bog'liq. Ozuqa bazasiga eng katta talab yirik shoxli qoramollarda, ya'ni sutchilikda. Sut chorvachiligi yer sharining asosan mo'tadil mintaqa, o'rmon va o'rmon dasht rayonlarida, tabiiy o'tloqlarga boy, yog'ingarchilik bir xil bo'lib turadigan, suvli ozuqa manbalarida yaxshi rivojlangan. Sut chorvachiligi sanot jihatdan taraqqiy etgan SHimoliy Amerika, SHimoliy Yevropa, Yangi Zelandiya va boshqa qator davlatlarda (Boltiqbo'yi davlatlari, Belorussiya, Rossiya, Yangi Zelandiya) nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda sut chorvachiligi intensiv ravishda rivojlantirishga asoslanadi. SHu boisdan ham sut chorvachiligida yuqori hosildorlikka erishilmoqda. AQSH, Daniya, Niderlandiya, SHvetsiyada sut sog'ib olish 1 ta sigirdan 6 ming kg, Yaponiyada- 5 ming kg, Rossiyada 2,8 ming kg, Argentinada 2,6, Xitoyda 1,6, Mongoliyada 0,35 ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlarda sut chorvachiligi asosan tog' oldi zonalarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sigirlardan yiliga 500 million tonna sut sog'ib olinadi yoki kishi boshiga 100 kg dan kam. Kishi boshiga sut ishlab chiqarish bo'yicha Yangi Zelandiya birinchi o'rinda turadi (2400 kg), Irlandiya (1500 kg), Niderlandiya (900), Belorussiya (700), Daniya (500), Frantsiya (490), Germaniya (450) ham bu sohada yetakchi davlatlar sirasiga kiradi.

Yirik shoxli qoramollarga dunyoda yetishtirilayotgan go'sht mahsulotining 30 foizi to'g'ri keladi. Mol go'shti yetkazib beruvchi yetakchi davlatlar Avstraliya,

Braziliya, Niderlandiya, Kanada, AQSH va Argentina hisoblanadi. Cho'chqachilik, ko'pgina davlatlarda rivojlangan, cho'chqa bosh soni bo'yicha Xitoy birinchi o'rinda turadi. SHuningdek, AQSH, Rossiya, Polsha, Germaniya, Braziliya, Meksika, Ispaniya, Frantsiya, Ukraina davlatlarida ham cho'chqachilik yaxshi rivojlangan. Musulmon davlatlarida din taqiqlaganligi munosabati bilan cho'chqa boqilmaydi. Cho'chqachilik dunyo go'sht mahsulotining 40 foizini va ma'lum bir miqdordagi teri mahsulotlarini beradi. Xitoy, AQSH, Braziliya, Meksika, GFR, Polsha, Rossiya, Ukraina, Yaponiyada cho'chqalar bosh soni ko'p. Yer sharida cho'chqa go'shtini chetga asosan Niderlandiya, Polsha va AQSH eksport qiladi.

Dasht va chala cho'l zonalarida hamda tog' oldi regionlarda qo'ychilikning muhim areallari joylashgan. Qo'ylarning dag'al junli, mayin junli, yarim dag'al junli turlari ajratiladi. Dunyoda 1 milliard bosh qo'y soni mavjud bo'lib, ular Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Qozog'iston, Rossiya, Argentina, Urugvay, Ispaniya, Gretsiya, Buyuk Britaniya, Mongoliya, Marokko, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya davlatlarida tarqalgandir. Yer yuzining dasht, quruq dasht, chala cho'l, va tog'li rayonlarida bu tarmoqning ozuqa bazasi yaxshi rivojlangan. Qimmatli qorako'l junini beradigan qorako'l qo'ylari dunyoning ayrim mintaqalarida boqiladi, xolos. Bularga, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina va JAR kiradi. CHorvachilikning kuchsiz rivojlangan tarmog'i bo'lgan echkichilik rivojlanayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan. Jahonda, echkilar soni 700 milliondan ortadi, eng ko'p echkilar Xitoy va Hindistonda boqiladi. SHuningdek, Eron, Pokiston, Bangladesh kabi Osiyo mamlakatlarida ham echkilar bosh soni ko'p.

XX asrning ikkinchi yarmidan parrandachilik dunyoda tezlik bilan rivojlanmoqda, birgina tovuqlarning soni yer yuzida 14 milliard boshga yaqin. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan go'shtning 20 foizini parrandachilik tarmog'i beradi. AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda sanoat tipidagi yirik korxonalar jo'janing go'shtga mo'ljallangan turini, ya'ni broyler jo'jalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Xitoyda, AQSHda tovuqlar

bosh soni eng ko'p, shuningdek, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Meksika ham tovuqlar soni bo'yicha yetakchi davlatlarga kiradi.

Jahon xo'jaligida baliqchilik eng qadimgi tarmoqlardan hisoblanadi. Bu sohada 13 million kishi band. Jahon bo'yicha baliq va baliq mahsulotlari tutish 80-90 million tonnani tashkil etadi. Asosiy baliq mahsulotlarini (55-60 foiz) Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Koreya, AQSH, CHili, Peru, Norvegiya, Islandiya, Vyetnam, Malayziya, Fillipin beradi. 90 foiz baliqlar yer sharining kontinental shelf zonasidan tutib olinadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Dunyo yer maydoni va uning taqsimlanishi.
2. Jahon qishloq xo'jaligida ximiyalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Dehqonchilikda don yetishirish yetakchi bo'lgan davlatlarga misol keltiring?
4. Qo'ychilikning asosiy areallari qaerda tarqalgan?
5. Dunyoda yetishtirilayotgan go'shtning asosiy qismi qaysi chorva mollari hisobiga to'g'ri keladi?
6. Tamaki qaysi iqlim mintaqasida yetishtiriladi ?
7. Dunyo qishloq xo'jaligining rivojlanish va joylashish xususiyatlari.
8. Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning shakllari.
9. Dunyo ziroatchiligining yetakchi tarmoqlarining joylashishi va rivojlanishi.
10. Dunyo bozori va jahon xo'jaligining shakllanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira (obshchiy obzor). M., 2001.
2. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2003.-200s.
3. Golubchik M.M., Faybusovich E.L., Nosonov A.M., Makar S.V. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya: Osnovy nauki: Ucheb.dlya stud. Vyssh.ucheb.zavedeniy.-M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2004.-400s.
4. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshchaya xarakteristika mira. Yaroslavl, 1993.
5. Maksakovskiy V. P. Obshchaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast':- Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.-367

2.6. Dunyo transporti

Reja:

1. Jahon xo'jaligida transportning roli.
2. Quruqlik transporti
3. Suv transporti
4. Havo transporti

1.Jahon xo'jaligida transportning roli.

Transport to'g'ridan-to'g'ri ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'langan tarmoqdir. Sanoat va qishloq xo'jaligi bilan birga ishlab chiqarish va uni hududiy tashkil qilishning asosini transport tashkil etadi. Iqtisodiy geografiyaning negizi bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti, mahsulotni ishlab chiqargan rayon bilan uni iste'mol qiladigan joy orasida aloqa transportsiz amalga oshmaydi, hududiy ishlab chiqarish majmualari ham shakllanmaydi. Transportsiz tizim (sistema) va majmua (kompleks) o'rtasidagi aloqani tasavvur qilish kiyin. Transport xo'jalikning alohida tarmog'i, ishlab chiqarishning hududiy tarkibiga kiruvchi to'rt elementlardan biri, makroiqtisodiyot tarmog'idir. Transportning infrastruktura vazifasi uning makroiqtisodiyot tarmog'i uchun xizmat qiladi, sharoit yaratadi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishning omildir.

Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishda xom-ashyo va yoqilg'i sarfining kamayishi, temir yo'llarning elektrlashuvi, turli xil quvur transporti, yuqori quvvatli elektr uzatish tarmoqlari, dengiz transportini konteynerlashtirish va hokazolar transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi rolini kamaytirmoqda. Ammo shunga qaramasdan, transportning mahsulot qiymati shakllanishida, tannarxida hissasi katta.

Transport tarmog'i rivojlanishi va joylanishi qator geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Jumladan, tabiiy geografik omillardan tabiiy sharoit, shamol, yog'in-sochin, bulut, tuman, rel'ef shakllari, tuproq va uning fizik xususiyatlari, gidrogeologik sharoit transportning barcha turiga va transport yo'llariga kuchli taʼsir ko'rsatadi. Masalan, yer sharining ayrim mamlakatlarida (Boliviya, Peru) 4700 - 4800 m dengiz sathidan balandlikda joylashgan tog' mintaqalarida temir yo'llar odatda daryo, bo'ylab, ba'zi joylarda tunellar orqali o'tadi, murakkab sharoitda tor izli yo'llar quriladi. SHuningdek, temir va avtomobil yo'llar qurilishida ko'priklar qurish ham katta ahamiyatga ega. Tog'

daryolarida ko'priklar uncha uzun emas, tekislikda esa ular uzundur. Umuman, temir yo'llarni qurish katta vaqt va mablag'ni talab qiladi, ammo ular shunga muvofiq uzoq muddat xizmat qiladi.

Jahon xo'jaligida transport o'ta muhim rol o'ynaydi. Jahon transport tizimi o'z ichiga turli yo'llarni, transport korxonalarini, transport vositalarini qamrab oladi. Transport tarkibiga quruqlikdagi transport (avtomobil, temir yo'l, ot-arava), suv (dengiz, daryo, ko'l), havo, quvur, elektr transporti kiradi. So'nggi yillarda transport turlari ko'payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o'zgarmoqda. An'anaviy temir va avtomobil, suv (daryo, dengiz va okean), havo transporti bilan bir qatorda quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. U ko'pincha neft-gaz sanoati mavjud bo'lgan hududlardan turli iste'mol rayonlariga mahsulot yetkazib beradi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa quvurlarda hatto qattiq jinslar-temir rudasi, ko'mir kabilar ham yuboriladi («пульпопровод»). Barcha transport turlari ikkita asosiy vazifani bajaradi, ya'ni: yuk va passajirlar tashish. Yuk tashishda transport tizimida tashiladigan mahsulot yoki xom-ashyoning transporttabelligi, masofasi va tarkibi, qiymati hisobga olinadi. Eng arzon, odatda dengiz (okean) transporti hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda yirik daryolardagi transport turadi, Temir yo'l transporti ham bu borada ancha arzon hisoblanadi.

Transportning ham hududiy majmualari mavjud. Bunga transport tugunlari misol bo'la oladi. Yirik transport markazi va tugunlarida o'ziga xos ob'ektlar (ta'mirlash zavodlari, omborxonalar, bevosita transport bilan bog'liq qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari) joylashadi. Transport yo'llarining umumiy uzunligi (dengiz trassasiz)-35 million km. Passajir tashishda avtomobil transporti, jahon yukini tashishda dengiz transporti hal qiluvchi rol o'ynaydi, MDH respublikalari, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Belorussiyada passajirlarning asosiy qismi temir yo'l transportida, AQSH va G'arbiy Yevropaning qator davlatlarida esa avtomobilda, Xitoyda ichki suv transportida tashiladi. Temir yo'llarning dunyodagi umumiy uzunligi 1 million kmga teng bo'lib, ko'pgina davlatlarda uning uzunligi qisqarib borayotganligi kuzatiladi. Natijada, temir yo'lda umumiy yuk tashish kamaymoqda.

2. Quruqlik transporti

Avtomobil transporti yuk tashish xhajmiga ko'ra barcha boshqa transport turlarini quvib o'tadi. Chunki avtomobil transporti eng muhim imkoniyatlarga, ya'ni tezlikda yetkazib berishi, "eshikdan eshikkacha" yukni olib borishi, yukning yaxshi saqlanishi kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. 500 kmgacha bo'lgan masofaga avtomobil transporti temir yo'l transportiga nisbatan yukni 3 martaga tez olib boradi. Avtomobil transportining rivojlanganligi davlatlar miqyosida avvalo ular uchun avtomobil parklarining mavjudligi, avtomobil yo'llarining holati va uzunligi, shuningdek ushbu transport turiga va uning ishiga bo'lgan talab hamda iqtisodiy imkoniyatlar bilan belgilanadi.

1-jadval

Dunyoda avtomobil yo'llarining uzunligi, avtomobil parklarining o'lchamiga ko'ra birinchi o'ntalikka kiruvchi davlatlar

Davlatlar	Avtomobil yo'llarining uzunligi, ming km	Qattiq qoplamali yo'llarning ulushi, % da	Umumiy avtoparklar soni, mln dona	Engil avtomobillar i soni, mln dona
AQSH	6466	65,1	230	136
Xitoy	3584	-	-	-
Hindiston	3320	-	-	-
Braziliya	1752	5,5	28	23
Yaponiya	1204	79,8	75	56
Kanada	1042	39,9	20	17
Frantsiya	1027	-	35	30
Rossiya	933	80,9	31	26
Avstraliya	813	42,0	-	-
Ispaniya	681	100	23	19
Germaniya	-	-	47	45
Italiya	-	-	38	34
Buyuk Britaniya	-	-	33	30

Manba: www.cia.gov

1900 yillarda dunyo bo'yicha 6 ming avtomobil bor edi. 1950 yillarda ularning soni 62,3 milliontaga yetdi, XXI asr boshida 600 millionta, shundan 460 milliontasi yengil, 140 milliontasi yuk mashinalari bo'lgan bo'lsa, hozirda avtomobillarning yer sharidagi miqdori 800 mlndan ortadi va u yer sharining turli mintaqalari bo'yicha turlicha taqsimlangan. "Katta yettilik" mamlakatlariga

dunyodagi avtomobillarning 60 foizi to'g'ri keladi., shundan AQSHga 29 foizi. Oxirgi yillarda avtomobil parklarining miqdori tezlik bilan o'sib bormoqda, ayniqsa bu eng avvalo Osiyoda, ya'ni Xitoy va Hindistonda. Dunyoda avtomobillar soni ko'pligi bo'yicha yetakchi bo'lgan mamlakatlarga sobiq SSSR davlatlaridan faqat 31 mln avtomobili bilan Rossiya birinchi o'ntalikka kiradi. Transport darajasi rivojlanganligiga ko'ra AQSH yetakchilik qiladi, shuningdek, bu davlat avtomobil magistralining uzunligiga ko'ra, avtoparklarining soniga ko'ra, temir yo'llarining uzunligiga ko'ra, avialiniyalarining qalinligiga ko'ra ham dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

3. Suv transporti

Xalqaro savdoda suv transporti birinchi o'rinda bo'lib, 80 foiz yuk ushbu transport orqali tashiladi. Dengiz flotining umumiy tonnaji 514 mln tonna. Eng katta dengiz floti Liberiya va Panamaga tegishli. Ammo bu ularning shaxsiy floti emas: ko'pgina rivojlangan davlatlar o'zining kemalarini liberiyalik va panamalik flot egalariga berishadi. Sababi, bu yerda soliqning kamligi, dengizchilarga to'lanadigan oylikning kamligi, qonun nazoratining sustligi, sug'urta foizi kattaligi va xavfsizilik nuqtai-nazaridan shunday yo'l tutishadi. Xuddi shunday davlatlarga yana Gretsiya, Kipr, Filippin ham kiradi.

Yaponiya, Xitoy, AQSH, Norvegiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Frantsiya yuk tonnaji katta davlatlar hisoblanadi. Dunyoda 3 mingta port mavjud bo'lib, ular universal va maxsus ixtisoslashgan portlarga bo'linadi. Eng yirik portlar Nyu-York, Rotterdam, Gamburg, London, Osaka, Tokio, Singapur, Gonkong, Filadelfiya, SHanxay, Vankuver, Marsel, Genuya, Antverpen portlaridir. Ammo shunga qaramasdan, bugungi kunda yer sharida yuk tonnaji, aylanmasi bo'yicha eng yirik portlarning 8 tasi bu Xitoy davlatiga tegishli portlar hisoblanadi (2-jadval).

Ichki suv transporti Janubiy Amerikada yaxshi rivojlangan (dunyo daryo yo'llarining 1/3), AQSH, Rossiya, Kanada, GFR, Xitoy, Niderlandiyada daryo kemachiligi yo'lga qo'yilgan. Eng yirik kanallarga Suvayish, Panama, Kil (GFR),

Buyuk (Xitoy), Qirg'oq bo'yi (AQSH), Belomor-Bolتيqbo'yi va Volgo-Don (Rossiya) kiradi.

2-jadval

Dunyodagi eng yirik portlar, 2008 y

Port nomlari	mamlakatlar	Yuk aylanmasi, mln tonna
Singapur	Singapur	515
SHanxay	Xitoy	508
Rotterdam	Niderlandiya	421
Tyanьtszinь	Xitoy	365
Ninbo	Xitoy	362
Gunchjou	Xitoy	347
TSindao	Xitoy	278
Gonkong	Xitoy	259
TSinxuandao	Xitoy	252
Dalyanь	Xitoy	246

Manba: American Association of port Authorities

XX asrning ikkinchi yarmidan quvur transporti tezlik bilan rivojlandi. Bunga sabab birinchidan, yirik yangi neft va gaz konlarining ochilishi, ikkinchidan yoqilg'i – enegetika resurslari qazib olishning va unga bo'lgan talabning o'sishi bilan bog'liq. O'tgan asrning 70-yillarida dunyodagi magistral neft quvurlarining uzunligi 258 ming kmga, gaz quvurlariniki-609 mingni tashkil etgan bo'lsa, XXI asrning boshida magistral neftquvurlariniki 500 ming km, gaz quvurlariniki-1,5 mln kmga yetdi. Quvurlarning uzunligi bo'yicha AQSH birinchi o'rinda, undan keyin Rossiya turadi. SHuningdek, Yaqin SHarq va shimoliy Afrika, G'arbiy va SHarqiy Yevropada ham quvurlar tarmog'i yaxshi yo'lga qo'yilgan.

4. Havo transporti

Havo transporti tezlik rivojlanmoqda. Agarda 1950 yillarda dunyo bo'yicha 31,2 mln mln kishi havo transportida tashilgan bo'lsa, o'tgan asrning 90-yillarida esa 2,2 milliard kishi, shundan xalqaro liniyalarda 1,3 milliard kishi tashildi. Bugungi kunda eng tez buziladigan va qimmatbaho yuklarni tashishda, aholini manziliga tez yetkazib berishda havo transportining roli oshib bormoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Ichki suv transporti qaysi davlatlarda yaxshi taraqqiy etgan?
2. Transportning asosiy vazifalari.
3. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-geografik omillar transport turi va tizimining joylashuviga taʼsirini baholang?
4. Xalqaro savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan transport turini aniqlang?
5. Havo transporti va uning xalq xo'jaligi taraqqiyotidagi roli?
6. Dunyodagi yirik xalqaro aviakompaniyalarning geografiyasini aniqlang?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira (obshchiy obzor). M., 2001.
2. Atlas mira. M., 1996.
3. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya zarubejnogo mira i Rossii. M., 1998.
4. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2001.
5. Geografiya mirovogo xozyaystva. M., 1997.
6. Gladkiy Yu. I., Sokolov O. V., Faybusovt E. L. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. M., 1999.
7. Simagin Yu. A. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira: Ucheb. posobie. M., 2001.
8. Sotsial'no-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira M., 1998.

3-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA UNING MINTAQALARI RESURS SALOHIIYATINI BAHOLASH

3.1. Respublika tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini iqtisodiy geografik baholash

Reja:

1. Iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, iqlimi, rel'ef xususiyatlari.
2. Suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi.
3. Mineral-xom-ashyo resurslari.
4. Yoqilg'i-energetika resurslari.

1. Iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, iqlimi, rel'ef xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Yevro Osiyoning markazida joylashgan. Hududi shimoli-g'arbda Orol dengizi hamda Ustyurt platosidan, janubda Afg'oniston bilan

tabiiy chegara vazifasini bajarayotgan Amudaryogacha, sharqiy va janubi-sharqiy tomonlarda Tyanshan hamda Hisor-Oloy tog'larigacha bo'lgan yerlarni egallagan holda, g'arbdan-sharqqa 14235 km ga, shimoldan –janubga esa 930 km ga maydoni cho'zilgan bo'lib, jami davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km ga teng.

“O'zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning jo'g'rofiy o'rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o'ziga xos mintaqaviy markaziga aylantiradi”⁸. Ammo shunga qaramasdan, respublikaning dunyo okeaniga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatining cheklanganligi iqtisodiy geografik o'rnida biroz noqulaylik tug'diradi. Mamlakatimiz dunyo okeaniga chiqishi uchun har tomondan ikkita davlat hududini bosib o'tishi lozim. Dunyoda bunday davlatlar soni hozirda 44 ta.

Mamlakatimiz yer maydoni 448,9 ming km. kv., shuning 3/4 qismini tekisliklar va platolar, qolgan 1/4 qismini tog' oldi hududlari va tog'lar egallaydi. Maydonining kattaligiga ko'ra, Buyuk Britaniya, SHveytsariya, Bel'giya, Daniya, Armaniston, Avstriya davlatlaridan oldinda turadi. Hududning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, bu yerda qorli cho'qqilar va baland tog' muzliklari, ulkan vodiylar va keng vohalar bilan birga bamisoli cheksiz cho'llar va platolar mavjud. Jumladan, O'zbekiston hududining 70 foizi cho'llardan, 30 foizi tekislik, tog' va tog' oldi yerlaridan iborat. Tog'lar asosan “respublikaning sharqiy, janubiy –sharqiy qismini egallagan. O'zbekistonning Tyanshan va Hisor-Oloy tog' tizmalari tarkibiga kiruvchi ana shu tog'li o'lkalari Tojikiston va Qirg'iziston hududidagi tog'liklar bilan tutashgan; O'zbekistonga kirib keladigan Ugom,

⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари- Т.: Ўзбекистон, 1997. Б.227-230.

Pskom, CHotqol, Turkiston, Zarafshon tog' tizmalari shimoli-g'arb va janubi-g'arb tomon asta-sekin pasaya boradi va tekislarga qo'shilib ketadi⁹.

Hududning katta qismida mo'tadil iqlim hukmron. Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq va quruq, qishi sovuq va kam qorli. Bunga sabab mintaqa hududining Osiyo markazida va okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi. SHu boisdan, bu yerlarda yozning harorati iyul-avgust oylarida 25-45 darajaga, qishda minus 35-40 darajaga yetishi kuzatiladi. Iqlimning sharoiti bu yerda issiqsevar o'simliklar: paxta, kanop, kunjut, zig'ir hamda shirin-shakar uzum va mevalar, sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish uchun nihoyatda qulaydir. Biroq, respublika iqlimining serquyoshligi, issiqligi tufayli yog'inlar kam tushadi, natijada, ayrim ekinlarning suvga bo'lgan ehtiyoji yetarlicha qondirilmaydi. Yog'inlar asosan bahor hamda qish oylarida eng ko'p tushadi. Yog'in miqdori 200-900 mm gacha yetadi. Bu albatta turli geografik hududlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, tog'li yerlarda uning darajasi o'rtacha 900-950 mm bo'lsa, cho'l va tekislik hududlarida 200-300 mmni tashkil etadi.

2. Suv-er resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi.

Respublikaning tabiiy resurs salohiyatida suv resurslari alohida o'rin egallaydi. CHunki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarmog'ining taraqqiyotida suv yetakchi omil vazifasini bajaradi. Suv bilan mamlakat hududini ta'minlashda uning eng yirik daryolari Amudaryo (1437 km) va Sirdaryo (2137 km) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu daryolardan Amudaryoning suv hajmi katta. SHuningdek, Norin, Zarafshon, CHirchiq, Surxondaryo, Qashqadaryo, SHerobodaryo, Qoradaryo va So'x kabi jami 50 ga yaqin daryolar ham mavjud bo'lib, ular asosan berk havzada joylashgan, qor va muz suvlaridan to'yinadi. Iqlimning issiqligi va quruqligi ushbu daryo suvlarining ko'plab sug'orishga va bug'lanishga sarflanishiga sabab bo'ladi. Suv resurslari tarkibiga daryolardan tashqari, ko'llar, kanallar, suv omborlaridagi suvlar ham

⁹ Солиев А.С ва бошқ. Минтақавий иқтисодиёт. - Т., Университет, 2003. Б.71.

kiradi. CHunonchi, O'zbekistondagi ko'llar turli katta-kichiklikda bo'lib, tabiiy ravishda hamda daryo, irrigatsiya tizimlari oqavalaridan hosil bo'lgan. Eng yirik ko'llarga Orol dengizi, Arnasoy, Sudochnye ko'llari misol bo'ladi. Orol dengizi oxirgi 40 yil mobaynida 15-16 metrga pasayib ketdi, qirg'og'i chekindi, suv sathi qariyb 5 martaga kamaydi.

Tabiiy ko'llardan tashqari, su'niy ko'llar, ya'ni suv omborlari ham bo'lib, ular sug'orish ishlarida keng foydalaniladi. Eng katta suv omborlariga Qayroqqum, CHorvoq, Kattaqo'rg'on, Janubiy Surxon, CHimqo'rg'on, Quyimozor, Pachkamar, Karkidon, Andijon, Kosonsoy, Jizzax, Tuyabo'g'iz, Hisorak kiradi. Daryolardagi, suv omborlaridagi suvlar kanallar orqali sug'orishga yetkazib beriladi. Bunday kanallarning umumiy uzunligi 160 ming km bo'lib, shundan 22 ming km xo'jaliklararo kanallar, qolgan qismi ichki xo'jalik tarmoqlariga suv yetkazib berishga xizmat qiladi. Respublikadagi eng katta kanal Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona kanalidir. Bundan tashqari, Zang kanali, Janubiy Mirzacho'l, Amu-Qorako'l, Amu-Buxoro, Amu-Zang, Katta Andijon, Katta Namangan kanallari sug'orish ishlarida va elektr energiyasi olishda keng foydalanilmoqda.

O'zbekiston yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Umumiy yer zahirasiining salkam o'n foizini haydalgan va sug'oriladigan yerlar tashkil etadi. SHularning asosiy qismi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan, aholi zich joylashgan vodiy va vohalarga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori, kanop, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, lalmi yerlarda esa bug'doy va arpa etishtiriladi. Mamlakatda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. hektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiy va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari shular jumlasidandir. Sug'oriladigan yerlar maydoni XX asrning 60-yillaridan so'ng ikki martadan ziyod ko'paydi. O'sish asosan Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Ellikqala massivi hisobiga ta'minlandi. O'zbekistonda bog'lar va tokzorlar egallagan maydon salkam 0,4 mln. hektarga teng bo'lib, ularning asosiy qismi tog'oldi mintaqasi yaxshi rivojlangan viloyatlardadir. So'nggi yillarda tomorqa xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor

qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda tomorqa va dala-bog' yerlarning umumiy maydoni 0,6 mln. gektarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy taraqqiy etishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishida tabiiy-geografik sharoitlarining qulayligi, xilma-xil tabiiy hamda inson resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi katta imkoniyatlar yaratadi. Suv-er resurslariga nisbatan O'zbekiston o'simlik va xayvonot dunyosiga o'ta boy. Ayniqsa, o'simliklarning 25 mingdan ortiq xili mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi Qizil kitobga kiritilgan. O'simliklarning aksariyatidan ozuqa sifatida foydalansa, ba'zilaridan farmatsevtika sohasida keng ishlatishadi. Hayvonot dunyosida 97 ga yaqin sut emizuvchilar, qushlarning 410 ga yaqin turi, sudralib yuruvchilarning 57 ta turi, baliqlarning 60 ga yaqin turi, hashoratlarning 15 mingdan ortiq turi uchraydi. Tulki, chiyabo'ri, bo'rsiq, ondatra, nutriya kabi qimmatbaho mo'yna beradigan hayvonlar, 60 dan ortiq turdagi ovlanadigan qushlar, ayiq, qoplon, bars, qunduz, alqor kabi hayvonlar respublika florasini boyitib kelmoqda.

3. Mineral-xom-ashyo resurslari

O'zbekiston xilma-xil turdagi mineral xom-ashyo resurslari, yer osti qazilma boyliklariga ega mamlakatdir. Bu o'rinda, Respublikada ayniqsa rangli, nodir va qimmatbaho metal rudalarining zahiralari ulkan ekanligini ta'kidlab o'tish asoslidir. "Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral – xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. SHundan 60dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. SHu bilan birga, umumiy mineral xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak"¹⁰. Muhim yer osti qazilma boyliklariga rux, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, vol'fram, uran, tabiiy gaz, neft, ko'mir, allyuminiy xom ashyosi,

¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари- Т.: Ўзбекистон, 1997. Б.230.

marmar, xar-xil tuzlar kiradi. Bulardan eng qimmatlisi oltin bo'lib, uning eng yirik konlari Markaziy Qizilqum (Muruntov va Ko'kpatos)da joylashgan. Muruntov koni ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan, dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aritsontov, To'rboy, Ko'chbuloq, Zarmiton konlaridan ham oltin qazib olinadi. O'zbekistonda oltinning 30 dan ortiq konlari topilgan va zaxirasi aniqlangan. Oltin zaxiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda uni qazib olish bo'yicha 8-o'rinda turadi.

Kumush ham oltin singari qimmatbaho hisoblanadi. Kumush asosan Toshkent, Navoiy va Namangan viloyatlaridagi Kosmonachi, Visokovoltnoe, O'qjetpes (Qizilqum) va Oqtepa konlarida keng tarqalgan bo'lib, zahirasi 50-60 yilga yetadi. Oqtepa koni kumush qazib chiqarish bo'yicha eng istiqbolli bo'lib, chet el investitsiyalarini o'ziga jalb etadigan konlardan biri. Binobarin, respublikada mis, qalayi, qo'rg'oshin, vol'fram, litiy, alyuminiy xom ashyosi, alunitlar, kaolinlar, strontsiy va uran kabi rangli va nodir metallarning yirik konlari ham mavjud. Mis rudasining yirik konlari—Qalmmoqqir, Sarichek va Dalnee Angren-Olmaliq rayonida joylashgan. Qalmmoqqir koni noyob konlardan bo'lib, u mis-molibden rudalarini qazib chiqarish bo'yicha chet eldagilardan ancha ustun turadi. Bu konning rudasini Olmaliq kon metallurgiya kombinati qayta ishlaydi. Dalnee mis konida nafaqat mis, balki mis bilan birgalikda molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va oltingugurtning katta zahiraları mavjud.

Qo'rg'oshin-rux rudalarining juda katta zahiraları Surxondaryodagi Xondiza va Jizzax viloyatidagi Uchquloq konlarida to'plangan. Xondizadagi konda qo'rg'oshin va rux bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiy qazib olinadi. Mamlakatimizda uran, vol'fram, molibden va boshqa ma'danlarning ham yirik konlari ochilgan. Bulardan, Samarqand viloyatining Ingichka, Jizzax viloyatidagi Qo'ytosh vol'fram konlari o'zlashtirilgan.

Respublika qazilma boyliklari orasida rudali resurslardan oltin, mis, kumush va boshqalar qatori qora metallar ya'ni, temir, titan, marganets va xrom rudalarining xalq xo'jaligida ahamiyati yuqori. Jumladan, temir rudasining konlari Orol bo'yi regionida, Qizilqumda, Jizzax viloyati Forish tumanidagi konning

sanoat ahamiyati katta bo'lib, uning tarkibida 60% atrofida sof temir borligi qayd qilingan. Bu mamlakat qora metallurgiya istiqbolini belgilamoqda. SHuningdek, O'zbekistonning shimoliy va shimoliy-sharqiy qismida, CHotqol tog'larida, Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa tog'larda marganetsning cho'kindi konlari mavjud. Qizilqum Farg'ona ofiolit belbog'ida, Tomditog' va Sulton-Uvays rayonlarida xrom konlari uchraydi.

Mineral xom ashyo resurslarida metallardan tashqari nometall qazilma boyliklari ham ko'p. Bularga tog'-ruda xom ashyosi, tog'-kimyo xom ashyosi, qurilish materiallari, yer osti suvlari kiradi. Tog'-ruda xom ashyosi o'z ichiga erituvchan shpat, dala shpati-kvartslı xom ashyosi, qoliplaydigan xom ashyo, vollastonit, asbest va boshqalarni oladi. Erituvchan shpat, dala shpati Toshkentoldi geologiya-iqtisodiy rayonida, Navoiy viloyatida topilgan. Tog'-kimyo xom ashyosi hisoblangan fosforitlar, tabiiy tuz, soda, agrokimyo xom ashyosi, sulʼfat, kaliy, osh tuzi konlari borligi yirik-yirik zavodlarning ishga tushishiga sabab bo'lgan. Masalan, Qo'ng'irotda soda zavodi, Qashqadaryodagi kaliy o'g'itlar ishlab chiqarish zavodi va boshqalar.

Tog'-kimyo xom ashyosi Boybichakon, Tubagatan, Oqqat, Lalmikon va Xo'jaikon konlaridan qazib olinadi. Xo'jaikon, Boybichakon, Borsakelmas, Tubakat va Oqqal'a tosh tuzi konlarida taxminan 90 millirad tonna xom ashyo bor. Borsakelmas tuzlaridan kimyoviy usulda kalʼtsiy va kaustik soda ishlab chiqarish maqsadida Qo'ng'irotda soda zavodi qurildi va hozirda ishlab turibdi. Qashqadaryo viloyatidagi Tubakat va Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon kaliy tuzi konlari 100 yildan ko'proqqa yetadi. Tubakat kaliy tuzlari koni negizida chet ellik investorlar ishtirokida kaliy o'g'itlar ishlab chiqarishni tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Navoiy viloyati zonacida keng ko'lamli razvedka-qidiruv ishlari olib borilishi natijasida, Lavlyakan (Konimex tumani) va Tuzquduq (Uchquduq tumani) kabi yirik tuz konlari borligi aniqlandi. Binobarin, Ustyurtda, Janubiy Orolbo'yida, Sulton Uvaysda, Markaziy Qizilqumda va Zirabuloq-Ziyovudinda bentonit gili tarqalgan. 370 dan ortiq qurilish materiallari konlari bor bo'lib,

ularning 31 tasi tsement xom ashyosi, 29 tasi qoplama tosh, 13 tasi keramzit xom ashyosi, 39 tasi qurilish toshlari, 175 tasi g'isht xom ashyosi, 67 tasi qum-gravil materiallari, 22 tasi beton uchun qum va silikat buyumlari, 3 tasi shisha xom ashyosi konlari hisoblanadi. Kimyoviy xom ashyo resurslari fosforitlar (Markaziy Qizilqum), osh va kaliy tuzlari (respublikaning janubiy, markaziy va shimoli-g'arbiy hududlarining) zahiralari esa deyarli bitmas-tuganmasdir.

4. Yoqilg'i-energetika resurslari.

Yoqilg'i-energetika resurslariga neft, gaz, ko'mir va elektroenergiya kiradi. Bulardan neft konlari Farg'ona vodiysida, xususan, Farg'ona viloyatining SHimoliy So'x, CHung'ara, CHimyon, SHo'rsuv, Andijon viloyatining Janubiy Olamushuk, Polvontosh konlaridan qazib olinadi. Farg'ona vodiysida Xo'jaobod, Janubiy Olamushuk, SHimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo'ja Usmon, Xartum kabi yangi konlar topilgan va ishga tushirilgan. Janubiy O'zbekiston Surxondaryo va Qashqadaryoda yangi-yangi neft konlari (Kokaydi, Lalmikor Xaudak, Uchqizil) topilgan. SHuningdek, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham neft konlari topilgan. Muborak, SHo'rtan, O'rtabuloq va Ko'kdumaloq konlarida neft-gaz kondensati uchraydi. Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalari neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqadir. O'zbekistonda gaz va neft zahiralari izlab topish darajasi hozir 30-32 foizdan oshmasada, gazning aniqlangan zahirasi mamlakat ehtiyojini 35, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga yetadi.

Yoqilg'i-energetika xom ashyosida neftni qazib olish va qayta ishlash ishlarining jadallashuvi 1995 yilda respublika neft mustaqilligiga erishishiga olib keldi. Buxoro viloyatida joylashgan Ko'kdumaloq neft koni negizida, yirik Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodining ishga tushishiga sabab bo'ldi. SHuningdek, Qorovulbozordan 30 km masofada yangi Kamalak neft koni aniqlandi. Neft bilan baravariga gaz konlari ham respublika tabiiy xom ashyo potentsialida muhim o'rin tutadi. Tabiiy gazga boyligi jihatidan, O'zbekiston dunyodagi 10 ta davlatning biri hisoblanadi. Respublikaning Buxoro va

Qashqadaryo viloyatlarida tabiiy gazning yirik konlari mavjud. Hududimiz tabiiy gaz zahiralariga juda boy. Hozirgi davrda zahirasi juda katta bo'lgan gaz koni Qashqadaryo viloyatidagi SHo'rton koni, Buxoroning Ko'kdumaloq konidan neft bilan birga gaz ajralib olinadi.

Gaz bilan birga ko'mir ham muhim o'rin tutadi. Ko'mir resursi zahirasi 5 milliard, balansdagi zahirasi 3 millirad tonnadan ko'p, shundan uchdan biri toshko'mirdir. Balansdagi zahiradan yiliga 10 million tonna qazib olingan taqdirda, 300 yilga yetadi. Toshkent viloyatidagi Angren, Surxondaryodagi SHarg'un va Boysun konlari respublikaning asosiy ko'mir konlari hisoblanadi. Angren ko'miri ochiq usulda 150-250 metr chuqurlikdan qazib olinadi. Uning negizida, Angren GRESi ishlaydi. SHuningdek, bu konning yaroqsiz qatlamidan o'nlab million tonna kaolin, ohaktoshlar, kvarts qumlar, tosh qotishmalar va kam uchraydigan boshqa elementlar ham qazib olinmoqda. Birgina kaolin xom ashyosidan sopol, olovga chidamli buyumlar, keramik qoplamalar, pardozlash plitkalari, chinni va fayans buyumlari, o'ta pishiq g'isht va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. SHarg'un koni 600-800 metr balandlikdagi tog'likda joylashgan, qazib olish murakkab, ammo ko'miri sifatli.

Barcha yer osti va yer usti boyliklarimizni asrash, ularni himoya qilish, tejab – tergab foydalanish, kelajak avlodga yetkazib berish shu hududda yashayotgan har bir insonning burchidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to'g'risida” 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan (yangi tahrirdagi) Qonunining ahamiyati katta.

Mavzu bo'yicha savollar:

- 1.O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy geografik o'rmini baholang.
- 3.O'zbekiston iqlimi qanday ekinlarni etishtirish uchun qulay, qandaylari uchun noqulay?
- 4.O'zbekiston yoqilg'i-energetika resurslariga nimalar kiradi?
- 5.O'zbekiston metal qazilma boyliklardan nimalarga boy?
- 6.O'zbekiston yer resurslari bilan qanday ta'minlangan?
- 7.Mamlakatni suv resurslari bilan qanday ta'minlanganligi to'g'risida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari- T.: O'zbekiston, 1997.
2. Soliev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., Universitet, 2003.
3. Iqtisodiy geografiya fanidan ma'ruzalar matni. - T., 2000.
4. N. To'xliiev. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti.-T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1998.
5. G.Asanov, M.Nabixonov, I Safarov. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi.-T.: O'qituvchi, 1994.

3.2. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari

Reja:

1. O'zbekiston aholi soni dinamikasi va joylanishi
2. Aholining demografik tarkibi
3. Respublika aholisining demografik vaziyati
4. Mehnat resurslari

1.O'zbekiston aholi soni dinamikasi va joylanishi

O'zbekiston Respublikasi maydoni 448,9 km² ni tashkil etadi. Aholisi 29,5 mln kishi bo'lib, 1 km² ga 65,8 kishi (2012 y) dan to'g'ri keladi. O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH ga kirgan mamlakatlar orasida Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi. Poytaxti Toshkent shahri (1930-yildan). O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi (1936-yil) va 12 ta viloyat kiradi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda aholi soni muntazam ko'payib kelgan. Masalan, 1865 yili o'lkada 3320 ming aholi istiqomat etgan bo'lsa, 1920 yili aholi soni 4470 mingga, 1970 yili - 11800 mingga, 1991 yili - 20708 mingga va 2005 yili 25707 mingga, 2012 yili 29559,1 kishiga yetdi. Asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar yer shari aholisi 3,4 martaga ko'paygan bo'lsa, O'zbekiston aholisi 6,6 martaga ortdi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida, ya'ni 1990-2010 yillarda respublika aholisi soni 8,2 million kishiga yoki 1,4 barobarga ko'paydi.

**O'zbekistonda aholi soni dinamikasi
(1865-2012 yy., ming kishi)***

Yillar	Jami aholi	Jumladan	
		SHahar aholisi	Qishloq aholisi
1865	3320	466	2854
1897	3948	743	3205
1920	4470	807	3663
1926	4621	1012	3609
1939	6347	1470	4877
1959	8119	2729	5390
1970	1800	4322	7478
1979	15391	6350	9041
1989	19880	8119	11761
1991	20708	8366	12342
1995	22562	8732	13830
2000	24582	9235	15347
2005	25707	9381	16326
2010	29123,4	14897,4	14225,9
2012	29559,1	15120,3	14438,8

*Jadval M.K.Karaxanov. Nekapitalisticheskiy puty razvitiya i problemy narodonaseleniya. – Tashkent, 1983; “CHislennosty naseleniya Respubliki Uzbekistan”, “Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana – 2003”. – Tashkent, 2004 va O'zR Davlat statistika qo'mitasi joriy ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonda aholi soni, tarkibi va demografik hususiyatlariga oid ma'lumotlar 19-asrning 2-yarmidan boshlab mavjud bo'lib kelmoqda. 19-asrga qadar, O'zbekiston hududida asosan o'zbeklar va dini, urf-odatlari o'zbeklarga yaqin bo'lgan tojiklar, qoraqalpoqlar (Amudaryoning quyi qismida va Orol bo'ylarida), qozoqlar (shimoliy-g'arbiy chala cho'llarda), qirg'izlar (tog'lik joylarda-sharqda), turkmanlar (janubiy-g'arbiy cho'llarda) yashaganlar. 20-asr boshlarida o'zbeklar uchta yirik etnik guruh: vohalarda yashagan qadimiy o'troq aholi (20-asr boshlarida ular rus adabiyotida –“sartlar” deb atalgan); mo'g'ullar istilosigacha bu yerda yashagan turkiy xalqlar; mo'g'ullar davrida va undan 16-asrda bu yerga kelib o'rnashgan turkiy qabilalar .

**O'zbekistonda shahar va qishloq aholisining salmog'i
(foiz hisobida) ***

Mintaqalar	SHahar aholisi			Qishloq aholisi		
	1991 y	2005 y	2012 y	1991 y	2005 y	2012 y
O'zbekiston Respublikasi	40,5	36,5	51,2	59,5	63,5	48,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,2	48,7	49,8	51,8	51,3	50,2
Andijon viloyati	2,2	29,8	53,1	67,8	70,2	46,9
Buxoro viloyati	34,5	30,0	38,3	65,5	70,0	61,7
Jizzax viloyati	28,7	29,9	48,0	71,3	70,1	52,0
Qashqadaryo viloyati	26,3	24,8	43,4	73,7	75,2	56,6
Navoiy viloyati	41,2	39,8	49,2	58,8	60,2	50,8
Namangan viloyati	38,2	37,5	64,3	61,8	62,5	35,7
Samarqand viloyati	30,8	25,9	36,8	69,2	74,1	63,2
Surxondaryo viloyati	19,3	19,4	36,5	80,7	80,6	63,5
Sirdaryo viloyati	34,9	31,4	41,4	65,1	68,6	58,6
Toshkent viloyati	44,2	39,5	49,5	55,8	60,5	50,5
Farg'ona viloyati	31,2	28,4	57,4	68,8	71,6	42,6
Xorazm viloyati	27,4	22,6	33,7	72,6	77,4	66,3
Toshkent shahri	100	100	100	--	--	--

* Jadval "Demograficheskiy yejegovodnik Uzbekistana – 2003".- Tashkent, 2004. – B.31. – statistik to'plam va O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

XIX-asrning 60-70-yillarida O'zbekiston hududini Rossiya podsholigi bosib oldi. SHu munosabat bilan 19-asr oxiri 20-asr boshlarida Rossiya aholisining bir qismi, jumladan, dehqonlar ko'chirib keltirildi va Mirzacho'lga joylashtirildi; bu yerda yangi qazilgan kanal bo'ylab muhojirlar aholi maskanlari (posyolkalari) tashkil topdi. 19-asrda O'zbekiston hududiga SHarqiy Turkistondan (Sinьtszyan) uyg'urlar ko'chirib keltirildi va ularga sharqiy qismda tog' vodiylarida yashash uchun joy ajratildi.

1897-yil o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq O'zbekiston hududida 3,9 mln. kishi yashagan; shundan 19 % shahar aholisi bo'lgan. O'sha kezlarda O'zbekistonda aholi takror barpo etilishi, tug'ilish va o'limning yuqori darajasi o'rtacha umr ko'rishning qisqaligi bilan xarakterlanadi. Yosh bolalar o'limi koeffitsienti Yevropa va Rossiyadagiga qaraganda 65-70% yuqori bo'lgan. Tub

aholining migratsiyasi juda past edi. Ushbu holatlar respublikada aholi soni dinamikasi shakllanishiga ta'sir etdi.

1979-1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yillar oralig'ida respublika aholisi 4,5 million kishiga ko'payib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6% ga teng bo'lgan. 1970-1990 yillarda O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati asta-sekin pasayib bordi. Agar 1950-1970 yillarda Respublika aholisi har yili o'rtacha 3,5 foizdan ko'paygan bo'lsa, 1980-1990 yillarda, bu ko'rsatkich 2,7 foizni, 1991-2000 yillarda 1,9 foizni, 2005-2012 yillarda 1,60 foizni tashkil qildi.

Respublikada shahar aholisi 1990-yillarga qadar muntazam ortib bordi, hatto respublika umumiy aholisining o'sish sur'atidan ikki marta yuqori bo'ldi. 1991–2012 yillarda O'zbekistonda shahar aholisining o'sish sur'ati sezilari kamaydi. Buning asosiy sababi shaharlarda tug'ilishning pasayib ketganligi hamda **“2009 yil 13 martdagi Vazirlar Mahkamasining 68 sonli Qaroriga binoan 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomining berilganligi”**¹¹dir. Bu nafaqat, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, balki aholining demografik rivojlanishda ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning demografik taraqqiyotida qishloq aholisining muntazam ravishda o'sib borishi xususiyati xos bo'lib kelgan. Qishloq aholisi sonining o'sishi hozirgi vaqtda ham davom etmoqda va bu hol su'niy ravishda ko'tarilgan urbanizatsiya jarayonini sekinlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, respublika qishloq aholisi salmog'i 1989 yilda jami aholining 59,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 63,7 foiz, 2012 yilda 48,8 foizga teng bo'ldi (2-jadvalga qarang). Qishloq joylar aholisida farzandlar ko'p tug'ilishi, o'lim ko'rsatkichlari past, barqaror nikoh munosabatlari va ajralishning kamligi aholi tabiiy ko'payishini yuqori sur'atda bo'lishiga olib kelgan.

3-jadval

¹¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Қарори.- Т., 2009. № 68.

**O'zbekiston Respublikasi aholisi hududiy tarkibi va joylanishi,
2012 yil, ming kishi**

Mintaqalar	Jami aholi	SHahar aholisi	Qishloq aholisi	Aholi zichligi, kv. km
O'zbekiston Respublikasi	29 559,1	15 069,6	14 489,5	65,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 693,6	840,3	853,3	10,1
Andijon viloyati	2 714,2	1 437,3	1 276,9	631,2
Buxoro viloyati	1 707,6	650,5	1 057,1	42,1
Jizzax viloyati	1 186,1	567,2	618,9	55,9
Qashqadaryo viloyati	2 777,8	1 203,9	1 573,9	97,1
Navoiy viloyati	881,7	430,1	451,6	7,9
Namangan viloyati	2 420,4	1 550,8	869,6	325,3
Samarqand viloyati	3 327,2	1 217,2	2 110,0	198,0
Surxondaryo viloyati	2 219,6	809,5	1 410,1	110,4
Sirdaryo viloyati	739,3	306,2	433,1	176,0
Toshkent viloyati	2 670,7	1 320,2	1 350,5	175,1
Farg'ona viloyati	3 281,3	1 879,5	1 401,8	485,5
Xorazm viloyati	1 629,2	546,5	1 082,7	269,0
Toshkent shahri	2 310,4	2 310,4	-	6 795,3

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida ham 1991-2012 yillarda aholining o'sish sur'ati bir muncha kamayganligi kuzatiladi. Eng aholisi zich joylashgan hudud, bu Andijon viloyatidir, keyingi o'rinlarda Farg'ona, Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlari turadi. Aholisi siyrak joylashgan hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Sirdaryo viloyatlari kiradi.

O'zbekiston aholisining 9,2 foizi Andijon viloyatida joylashgan. Andijon viloyati hududi Respublika hududining 0,9 % ni tashkil etgan holda, aholisini esa 9 % ini qamrab oladi. Andijon viloyati aholisining zichligi bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi. 2012 yilda viloyatda 1kv km ga 631,2 kishidan to'g'ri kelmoqda (3-jadvalga qarang). Viloyat aholisining o'rtacha yillik ko'payishi 1989-1995 yillarda 2,15 foiz bo'lgan bo'lsa, 2005-2012 yillarda 1,60 foizga tushdi. Aholisining 46,9 foizi qishloqlarda yashaydi.

Farg'ona viloyati ham Respublikadagi aholisi eng zich joylashgan va aholi soniga ko'ra yetakchi bo'lgan hududlardan biri bo'lib, bu yerda zichlik 485,5 kishini tashkil etadi. Respublika aholisining esa 10% i istiqomat etadi. Jami

aholisining 42,6 foizi qishloqlarda, qolgani shahar joylarda yashaydi, aholining o'rtacha yillik ko'payishi 1,80 foizga teng (2012 y).

Aholi soni bo'yicha Samarqand viloyati Respublikada 1-o'rinda turadi, aholisining soni 3327,2 ming kishini tashkil etadi. Aholisining zichligi kv.km joyga o'rtacha 198,0 kishidan to'g'ri keladi. Mazkur viloyat respublikada aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati eng katta bo'lgan ikkita viloyatning biri hisoblanadi. Aholisining soni kam bo'lgan viloyatlar Navoiy va Sirdaryo bo'lib, ushbu viloyatlar aholisining zichligi o'rtacha 7,9; 176,0 kishidan iborat. Oxirgi yillarda Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari aholisi zichligi tobora ortib bormoqda.

2. Aholining demografik tarkibi

Aholining demografik rivojlanishida uning milliy, yosh-jinsiy tarkibi alohida o'rin egallaydi. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat etishadi. Jumladan, respublikaning tub joy aholisiga o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar kiradi. O'zbeklar barcha viloyatlarda, obikor yerlarda yashashadi. Qozoqlar asosan Qozog'iston bilan bo'lgan chegara tumanlarida, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Buxoro, Navoiy, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklar esa, Namangan, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida, qoraqalpoqlar azaldan Amudaryo va Orol dengizi atrofidagi hududlarda yashab kelishadi.

O'zbekistonda mahalliy millatlarning mutloq va nisbiy miqdorida o'sish ro'y bermoqda. 1989 yilda o'zbeklar mamlakat umumiy aholisining 71,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 81,4 foizga yetdi.

Mustaqillik yillari barcha mintaqalar aholisi milliy tarkibida o'zbeklar ulushi muntazam ortib bordi. O'zbeklar respublikaning ilgaridan mavjud shaharlar va sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarida yashab kelsada, hududlar bo'ylab notekis joylashganligi kuzatiladi. Oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari, jami o'zbek millatiga mansub kishilarning 35 foizi uchta Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatida yashagan holda, qolgan viloyatlarning har birida ular ulushi 10 foizga

yetmaganligini ko'rsatadi. SHuningdek, aholisining milliy tarkibida o'zbeklar hissasi 90 foizdan yuqori bo'lgan mintaqa 1989 yilda birgina Xorazm viloyati (97,2 %) bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni Andijon (92,1 %), Qashqadaryo (91,8 %), Buxoro (90,5 %), Namangan (93,3 %) hisobiga beshtaga yetdi. Ayni paytda, o'zbeklarning eng kam miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasiga (37,5 %) tegishli.

O'zbeklardan keyin salmog'i va salohiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni mahalliy millatlardan **tojiklar** egallaydi. Hududiy tarkibiga ko'ra, tojiklarning 66,3 foizi qishloq, qolgan qismi shahar joylarda yashaydi va mintaqalar bo'yicha turlicha taqsimlanadi. 2010 yilda mamlakatdagi tojik millatiga mansub kishilarning eng katta salmog'i, ya'ni 18,5 foizi Samarqand viloyatiga, 18,9 foizi Surxondaryo viloyatiga, 14,7 foizi Namangan viloyatiga, 13,2 foizi Farg'ona viloyatiga, 10,0 foizi Toshkent va 8,5 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keldi. Aksincha, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati aholisi milliy tarkibida ularning ulushi juda kichik bo'lib, har birida atigi, 1,0 foizga ham yetmaydi. Ushbu raqamlarni oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Samarqand, Buxoro viloyatidan boshqa barcha viloyatlar aholisi milliy tarkibida tojiklarning hissasi 1-1,5 barobarga ortganligini ko'rish mumkin.

4-jadval

**O'zbekiston aholisi turli millatlaridagi tug'ilish koeffitsienti
(har ming kishiga nisbatan, promileda)**

Millatlar	Jami		SHahar		Qishloq	
	1989 yil	2010 yil	1989 yil	2010 yil	1989 yil	2010 yil
JAMI	33,3	20,3	26,1	17,3	38,2	22,1
Ruslar	14,2	6,1	13,8	6,1	20,6	5,9
Ukrainlar	13,4	4,5	13,5	4,6	11,8	3,6
Beloruslar	10,9	2,1	11,0	2,3	10,6	1,0
O'zbeklar	37,4	22,6	32,2	20,7	39,7	23,4
Qozoqlar	37,6	20,2	34,8	18,6	39,4	21,3
Ozarbayjonlar	20,7	9,5	18,7	9,0	26,8	11,7
Qirg'izlar	35,6	17,0	32,4	13,7	36,1	17,5
Tojiklar	30,4	17,4	28,0	15,0	31,5	18,7
Armanlar	14,9	6,1	14,7	6,1	21,6	7,5
Turkmanlar	35,7	18,4	28,2	15,5	37,4	19,1
Tatarlar	25,2	12,5	27,0	11,1	34,2	28,0
Yahudiylar	18,4	63,3	18,0	67,2	32,1	1,6

Nemislar	18,2	86,8	17,9	124,0	19,6	5,6
Qoraqalpoqlar	...	25,4	...	24,3	...	26,8
Koreyslar	...	8,5	...	8,9	...	6,7
Boshqalar	...	6,6	...	6,1	...	7,6

O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Respublikada yashovchi **ruslar** xuddi tojiklar singari aholi milliy tarkibida alohida o'rin tutadi. Biroq, mamlakat aholisi milliy tarkibida ularning ulushi tobora qisqarib bormoqda. Oxirgi aholi ro'yxati davrida respublika jami aholisining 8,3 foizini, 2010 yilda 3,3 foizini tashkil etgan mazkur millatga mansub kishilar O'zbekistonning barcha mintaqalarida bir xil joylashmagan, ular ko'proq shahar joylarda va viloyat markazlarida tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisi milliy tarkibida mahalliy millatlardan **qozoqlar** soni va salmog'i jihatdan alohida o'rin tutadi. Tahlil etilayotgan yillarda, bu millat vakillari ulushi 1,2 martaga qisqardi. Binobarin, 1989 yilda respublikadagi qozoqlarning 72,4 foizi ikkita mintaqaga - Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 77,4 foizni tashkil etgan. Har ikkala mintaqadagi qozoqlar umumiy miqdori tadqiqot davrida 1,1; 1,3 martaga oshgan. Soni jihatdan beshinchi o'rinda turuvchi **qoraqalpoq** millatining 94,1 foizi nomi bilan bog'liq respublikada, 3,4 foizi Navoiy viloyatida, qolgan qismi esa boshqa viloyatlarda istiqomat qiladi.

5-jadval

**O'zbekiston Respublikasi aholisining jinsiy tarkibi
(1926-2012 yy., foiz hisobida)**

Yillar	Erkaklar	Ayollar
1926	53,0	47,0
1939	51,7	48,3
1979	49,0	51,0
1989	49,9	50,1
2009	50,0	50,0
2012	50,0	50,0

O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi

O'zbekiston aholisi shakllanishi va joylanishida uning yosh-jinsiy tarkibi alohida ahamiyatga ega. Aholining yosh tarkibida hamisha yoshlar, mehnat yoshidagi aholi ko'p sonli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Aholining jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar miqdori o'zaro mutanosib, ya'ni teng (50-50). Bu tenglik ma'lum bir yosh guruhlarigacha saqlanib qolinadi, so'ngra 50-55 yoshlardan boshlab jinsiy tarkibda ayollarning ustunligi kuzatiladi. Aholining jinsiy tarkibida ko'p yillarda ayollarning erkaklarga nisbatan ulushi ortiq bo'lganligi kuzatiladi, ammo oxirgi yillarda bu nomutanosiblik tenglashib bormoqda.

3. Respublika aholisining demografik vaziyati

O'zbekiston hududlarida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida tug'ilish yuqori darajada bo'lgan. Oilada farzandlar tug'ilishi nazorat etilmagan, ya'ni cheklanmagan. Soddaroq qilib aytganda, har 1000 ta aholi bir yilda tug'ilish 45-55 taga teng bo'lgan. O'sha davrlarda respublikada qishloq turmush tarzining keng tarqalganligi (XX asr boshlarida O'zbekiston aholisining 80 foizi qishloqlarda istiqomat etishgan)» qizlarning nihoyatda erta turmush qurishi, bolalar (ayniqsa, bir yoshgacha bo'lgan) o'limining yuqoriligi kabi omillar oilalarda farzandlar tug'ilishini cheklanmasligiga olib kelgan.

Mazkur davrlarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi sabab, aholi o'limi, ayniqsa ayollar va bolalar o'limi juda yuqori bo'lgan. Chunki, aholining og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning yetishmasligi, o'limning ko'pligi, aholi o'rtacha umr ko'rish davrining qisqarishiga olib kelgan. O'tmishda O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 32 yosh bo'lgan bo'lsa, 1989-1990 yillarda bu yosh ko'rsatkichi 69,3 yilga, 2010-2011 yilda 72,7 yilga, shundan ayollarda bu davr oralig'ida 72,4 yildan 74,9 yilga, erkaklarda esa 66,1 yildan to 70,6 yilga ko'tarildi.

**O'zbekiston aholisining tug'ilishi, o'lishi va tabiiy ko'payishi
(1920-2011 yillar) ***

Har 1000 aholiga nisbatan			
Yillar	Tug'ilganlar	O'lganlar	Aholining tabiiy o'sishi
1920	44,8	33,8	11,0
1930	38,7	17,1	21,6
1940	33,6	13,2	20,4
1950	30,9	8,8	22,1
1960	39,8	6,0	33,8
1970	33,6	5,5	28,1
1980	33,8	7,4	26,4
1990	33,7	6,1	27,6
1995	30,4	6,5	23,9
2000	21,7	5,6	16,1
2005	20,6	5,3	15,3
2011	21,9	5,1	16,8

* Jadval ilmiy manbalardan va statistik to'plamlarda chop etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Jumladan, 1960 yilda Respublikada har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 39,8 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yili bu ko'rsatkich 33,7 ni tashkil etdi yoki 6,7 punktga kamaydi. 1991—2011 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublika buyicha 34,5 promilledan 21,9 promillega tushdi. O'zbekistonda tug'ilish darajasining bunday tez sur'at bilan kamayishi urushdan keyingi 40—45 yillik davrda kuzatilgan emas. Respublikaning tug'ilish darajasi doim yuqori bo'lib kelgan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham ko'p bolali oilalar salmog'i keskin kamaygan. Masalan, 1996 yili Qashqadaryo viloyatida har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni 33,1 ni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yili bu ko'rsatkich 24,0 promilleni tashkil etdi. Bu davrda tug'ilishning umumiy koeffitsienti Surxondaryo viloyatida 34,4 % dan 21,9 % ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 25,1 % dan 21,7 % ga, Xorazm viloyatida 27,4 % dan 22,3 % ga kamaydi.

Tug'ilish darajasining kamayib borganligi oilada beshinchi va undan keyingi (oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va h.k.) tug'ilayotgan bolalar salmog'ining qisqarib borishida ham kuzatiladi. Ular 1970 yilda jami tug'ilgan bolalarning 43,1 foizini

tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda 14,3 foizini tashkil etdi yoki uch martaga qisqardi. Umuman 1950-1990 yillarda O'zbekiston aholisi 6 mln 264 ming kishidan 20 mln 322 ming kishiga yetdi.

O'zbekistonda mustaqillik davrining birinchi bosqichida tug'ilish darajasining 1970 yillarda boshlangan kamayish jarayoni tezlashdi. Tug'ilish darajasining kamayishi, yuqorida qayd etilganidek, O'zbekistonda ruy bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti bo'yicha, 1990 yillarga qadar O'zbekiston dunyodagi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirar edi. Bu ko'rsatkich 1990-1991 yillardan boshlab kamaya borib, hozirgi davrda esa 2,36 ni (2011 y.) tashkil etgan (shaharda – 2,10, qishloqda – 2,65). Demak, O'zbekiston bugungi kunda dunyodagi tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olgan. Bu jarayon O'zbekistonning barcha viloyatlarida ham kuzatiladi.

Umuman 1991-2011 yillar davomida O'zbekistonning barcha hududlarida tug'ilishning keskin kamayganligi kuzatilmoqda. Respublikada tug'ilish darajasidagi shahar va qishloq hududlarida qadimdan mavjud bo'lib kelgan farq, keyingi yillarda qishloq aholisida tug'ilishning tez sur'at bilan kamayish hisobiga sezilarli qisqargan. Respublika demografik vaziyatida aholi o'limi muhim jarayonlardan biri bo'lib, aholining o'lim ko'rsatkichi har ming kishiga 1990 yilda 6,1 promille bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda 5,1 promillega teng bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi eng katta yutug'i bu aholining barcha qatlamida o'lim darajasining kamayishiga erishganligidir.

4. Mehnat resurslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasida "Uchinchi ustivor yo'nalish-aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab

quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirishdan iborat"¹², deb belgilashi bejiz emas. Xuddi shu ma'ruzada keltirilishicha, respublika aholisi uchun bir yilda 630 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi va uning uchdan ikki qismi qishloq joylardadir. Bundan tashqari, yangi ish o'rinlarining 65 foizga yaqini kichik biznes va xizmat ko'rsatish tarmoqlari, 20 foizdan ortig'i esa kasanachilik sohasiga to'g'ri keladi¹³.

Mehnat resurslarini tahlili bozor iqtisodi sharoitida ulardan foydalanish sur'ati, soni va sifatiga bo'lgan talab o'zgarib borayotganligidan dalolat beradi. SHu boisdan ham mamlakatda o'sib borayotgan aholi turmush darajasini yanada oshirish, aholi bandligi va u bilan bog'liq muammolarni hal etish islohotlarning muhim vazifasiga, yo'nalishiga aylandi.

7-jadval

Aholi va uning bandlik darajasidagi o'zgarishlar (1991-2012 yy.)

Bandlik ko'rsatkichlari	1991 yil	1995 yil	2001 yil	2005 yil	2012 yil
Aholi soni-ming kishi	20862,5	22659,8	24964,4	26167,0	29559,1
Mehnat resurslari, ming kishi	10213,2	11111,4	12817,4	14453,2	16123,6
jami aholiga nisbatan, % da	49,0	49,0	51,3	55,2	54,5
Iqtisodiyotda bandlar, ming kishi	8254,6	8157,5	9136,0	10196,3	11628,4
Jami mehnat resurslariga nisbatan bandlar hissasi, % da	80,8	73,4	71,3	70,5	72,1
Jami aholiga nisbatan iqtisodiyotda bandlar hissasi, % da	39,6	36,0	36,6	38,9	39,3

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Aholining mehnatda faolligi va ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholi salmog'i mehnat resurslaridan foydalanishning mezonini belgilaydi O'zbekistonda bu mezon 99,8 % dan ziyoddir. Ishlab chiqarish, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblangan mehnat resurslari jamiyatning ijtimoiy-demografik rivojlanishi bilan birgalikda vujudga keladi. Aniqroq qilib aytganda, aholining tabiiy, sotsial, mexanik harakati natijasida mehnat resurslari shakllanadi, rivojlanadi va taqsimlanadi.

¹² Халқ сўзи газетаси, 2008 йил. - № 28. Б.3.

¹³ Ўша манба

Mehnat resurslarining manbai mamlakat aholisidir. Aholining faqat mehnatga yaroqli qismigina mehnat resurslari hisoblanadi. O'zbekistonda mehnat resurslariga 16 dan 59 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 dan 54 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. U mamlakat aholisining taxminan yarmini tashkil etadi¹⁴. Respublikadagi qulay ijtimoiy-demografik vaziyat mehnat resurslari shaklanishini yuqori sur'atda ta'minlashga xizmat qilmoqda. SHu boisdan mamlakat rahbariyati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq aholining barcha qatlamini ijtimoiy himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu borada qator davlat ahamiyatiga ega dasturlar qabul qilindi va ular samarali hayotga tadbiiq etilmoqda. Bozor iqtisodiga o'tish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida mehnat resurslariga bo'lgan talab va aholining bandlik ko'rsatkichlari bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishda xo'jalik yuritishning turli shakllari paydo bo'ldi, ayrim tarmoqlar faoliyatida o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, 1990 yilda aholining 41,5 foizi nodavlat sektorida band bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 79,1 foiz aholi nodavlat, atiga 20,9 foizi davlat sektorida ishlashmoqda. Oxirgi 5 yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida 3,8 mlnga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi, shuning 74 foizi kichik biznes va xususiiy tadbirkorlikga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillari respublikada mehnatga qobiliyatli yoshlarning ma'lumotlilik darajasi, malakasi ancha ortdi. Masalan, 1989 yilda iqtisodiyotda band bo'lganlardan atigi 12,7 foizi oliy ma'lumotli, 21, 4 foizi tugallanmagan oliy va o'rta maxsus bilimiga ega bo'lgan bo'lsa, 2010 yilga kelib oliy ma'lumotlilar 3,9 punktga ko'paygan holda, o'rta maxsus, o'rta hamda to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarda 1,1 punktga kamayish hodisasi ro'y bergan. Mavjud manbalar iqtisodiyotda band bo'lgan aholi ma'lumotlilik darajasida o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilar hissasi yuqoriligini, biroq uning ulushi borgan sari oliy va o'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholining miqdori ortishi hisobiga qisqarib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tadqiqot davrida ayollar o'rtasida oliy va o'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholi ulushi erkaklarnikiga nisbatan yuqori

¹⁴ Тўхлиев Н. ва бошқ. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари.-Т.: 2006. Б.31.

bo'lgan holda tezlik bilan rivojlandi. Jumladan, 1989 yilda oliy ma'lumotli ayollarning jami band bo'lganlardagi ulushi erkaklardan 1,2 punktga kam bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 1,1 punktga katta bo'ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va bu asosda maxsus kasb-hunar kollejlari tizimining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishga kelayotgan yoshlarning aksariyati, o'rta maxsus bilimiga ega bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida, birgina 2000-2010 yilning o'zida respublikaning barcha viloyatlari iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholining oliy va o'rta maxsus ma'lumotidagilar ulushi 1,2-2,0 martaga ortdi, o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotidagilarda esa shuncha miqdorda kamayish ro'y berdi. Mazkur yillar orasida iqtisodiyotda band aholining ma'lumotlilik darajasida oliy ma'lumotlilar ulushi Jizzax va Xorazm viloyatida 2 barobarga, Toshkent shahri va viloyatida 1,1-1,2 marta, qolgan viloyatlarda esa 1,5 martaga ko'paygan. O'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholi salmog'i va salohiyati ham viloyatlar miqyosida o'rtacha 1,2-1,8 martaga o'sgan. Bunday band aholi ma'lumotlilik darajasida sifat jihatdan burilish nafaqat, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, balki demografik rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili, respublika aholisining 60,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va buning 74,4 foizi bugungi kunda iqtisodiy faol aholi (IFA) hisoblanadi. O'zbekiston aholisi muttasil tabiiy ko'payib borishi natijasida, mehnat resurslari soni va salmog'i ham o'sib boryapti. Masalan, respublikada mehnat resurslari soni 1991 yilda 10213,2 ming, 2012 yilda 16123,6 ming kishiga yetdi yoki barcha yillarda jami mamlakat aholisining teng yarmi va undan ko'pini tashkil etdi. Umummamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslari salmog'i yildan-yilga ortib, aksincha, bu mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lganlari hissasi kamayib borishi kuzatiladi. Chunki, 1991 yilda barcha mehnat resurslarining 80,8 foizi iqtisodiyotda band bo'lgan bo'lsa, 2001 yilda 71,3 foiz, 2012 yilda 72,1 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy islohotlar davrida aholining tarmoqlar bo'yicha bandligi dinamikasi va tarkibida qator o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday rivojlanish xususiyati barcha

tarmoqlar va sohalar uchun ham qayd etildi, biroq birgina qishloq xo'jaligida band bo'lganlar nisbiy miqdori kamaydi. Aksincha, sanoat, qurilish, transport hamda xizmat ko'rsatish sohalarida bandlar hissasi ortib bordi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish respublika aholisi bandligini yuqori darajada ta'minlash imkoniyatiga ega tarmoqlar hisoblanadi. SHu boisdan, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining teng yarmi, ya'ni 47,6 foizi shu tarmoqlarga tegishli. Holbuki, 1989 yilda bu ko'rsatkich 60,3 foizni tashkil etgan. Xuddi shunday qishloq xo'jaligida aholi bandligi 1991 yilda 41,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 25,2 foizga, sanoatda esa 14,3 foizdan 13,2 foizga tushdi. Mulkchilik shakllari bo'yicha aholi bandligi taqsimotida eng kichik ulush chet el investitsiyasi asosidagi korxonalarda ishlaydiganlar hisoblanadi.

O'zbekistonda zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlari va texnologiyalarni o'zlashtiruvchi chuqur bilim va malakaga ega, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish darajasidagi mutaxassislarining yetishib kelayotganligi aholiga xizmat ko'rsatish sohasida bandlar soni va salohiyati ortishida bosh omillardandir. Jumladan, 1989-2010 yillarda savdo va umumiy ovqatlanishda aholi bandligi 2,6 martaga, sog'liqni saqlash, sport va aholini ijtimoiy himoyalashda, uy-joy, kommunal xo'jalikda 1,8, ta'lim, san'at, fan, transport va aloqada bu ko'rsatkich mos ravishda 1,4 va 1,1 barobarga ko'paydi. SHu boisdan ham, aynan xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi 1991 yilda 35,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 52,4 foizga ko'tarildi. Bulardan jami mamlakat iqtisodiyotda band aholining 13,8 % ini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim sohasida ayollar bandligi yuqori. Biroq, ko'rilayotgan tarmoqda ayollar bandligi 1999-2010 yillarda 7,4 martaga qisqardi. SHuningdek, savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida jami aholining 13,0 foizi band bo'lgan holda, ularning 52,2 % i ayollardan iborat.

Erkin iqtisodiyot sharoitida bozorlar tizimining taraqqiy etishi va u bilan chambarchas xizmat ko'rsatish sohalarining avj olganligi, tabiiyki bu sohalarda bandlikni oshiradi. Respublika iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan jami aholining atigi, 7,5 foizini qamrab olgan sog'liqni saqlash, sport va ijtimoiy ta'minot sohalarida ishlovchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Qolaversa, bu

sohalarda ayollar bandligi yuqori bo'lib, ya'ni 74 foizni tashkil etadi. Mazkur sohalarda aholining ko'p band bo'lishi mintaqalar ijtimoiy-demografik vaziyati yaxshilanishida muhim ahamiyatga egadir.

Mavzu bo'yicha savollar:

3. 20-asrning ikkinchi yarmida aholi sonidagi o'zgarishlarni baholang?
4. Aholi yosh tarkibida bolalar miqdorining kamayib borishini qanday izohlaysiz?
5. Aholi milliy tarkibida mahalliy millatlarning tutgan o'rni qanday?
6. Demografik vaziyat va demografik jarayonlarning farqi?
7. Tug'ilishning qishloq aholisi o'rtasida keskin kamayishiga qanday omillar ta'sir etmoqda?
8. O'zbekiston aholisi demografik rivojlanishida aholi o'limining ahamiyati?
9. Respublika aholisi migratsiya jarayonlarida faollashuvning sabablari nimada?
10. Iqtisodiy faol aholi nima?
11. Mehnat resurslari va mehnat yoshidagi aholining farqini keltiring?
12. O'zbekistonda aholining eng ko'p qatlami qaysi soha yoki tarmoqda band va nima uchun?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
2. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
3. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
4. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent:Universitet,-2003y.
5. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
6. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
7. www.uzstat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
8. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник.-T.: Uzbekistan, 2011. 229 s.

3.4. O'zbekiston Respublikasi transport-infrastruktura salohiyati

Reja :

1. Infrastruktura haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida infrastrukturaning roli va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi transporti va ishlab chiqarish infrastrukturasi.
3. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy infrastrukturasi.

1. Infrastruktura xaqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida infrastrukturaning roli va ahamiyati.

Infrastruktura-bu ishlab chiqarish va insonlarning turli faoliyatida shart-sharoit yaratib beruvchi iqtisodiyoning (ko'pqamrovli) tarmoqlar majmuasidir va albatta ijtimoiy mehnat taqsimoti mahsuli hisoblanadi. U ishlab chiqarish tarkibiga kirmaydigan mustaqil tarmoq bulib, moddiy va nomoddiy sohaga xizmat qiladi (ishlab chiqarish infrastrukturasi va ijtimoiy infrastruktura).

1. Ishlab chiqarish infrastrukturasi-transportning barcha turlari va transport xo'jaligi (temir yul, dengiz va daryo portlari, neft' va gaz quvurlari), elektr uzatish linyalari, axborotlarni uzatish va qayta ishlash vositalari va boshqa inshootlar kiradi. Bularsiz albatta ishlab chiqarishda me'yoridagi jarayon bo'lmaydi.

2. Ijtimoiy infrastruktura – aholiga xizmat kursatuvchi savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlari, sog'liqni saqlash, yulovchi tashuvchi barcha transport turlari va aloqa, shahar uy-joy xo'jaligi tashkilotlari va nomoddiy sohaning boshqa qismlarini o'z ichiga oladi.

Infrastrukturani kelajakda rivojlanishi ishlab chiqarishda samaradorlikni oshiradi va jamiyatni moddiy va ma'naviy etiyojlarini qondirish va boshqa ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun shart – sharoit yaratadi. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil yetishning ilg'or shakli bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratish asosida infrastruktura tarmoqlarini samarali shakllanishi uchun sharoit vujudga keladi. Natijada, mablag'larni tejash, joriy sarf xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun imkon yaratiladi. Yagona iqtisodiy makonga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan O'zbekiston

uchun xalkaro iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirishda infrastruktura elementlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

2. O'zbekiston Respublikasi transporti va ishlab chiqarish infrastrukturasini.

Ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishida infrastrukturaning roli muhim. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hududiy tizimlarini shakllanishida ishlab chiqarish infrastrukturasini bilan ta'minlanganligini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish infrastrukturasini, avvalombor, avtomobil va temir yo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantirish, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror taraqqiy ettirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida "2009 yilda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" maxsus dastur qabul qilindi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va joylashtirishda transportning roli beqiyos. Transport har qanday mintaqada ishlab chiqarish infrastrukturasini muhim zvenosi hisoblanadi. Har qanday masshtabdagi hududni transportsiz samarali va oqilona rivojlantirish mumkin emas. Sanoat va kishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda transport faol ishtirok etadi. Iqtisodiy tuman va zonalarda ixtisoslashuv transport orqali amalga oshadi. Transportning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlari va texnik taraqqiyotining umumiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Transport infrastrukturasida 1990-2010 yillarda avtomobil yo'llari (109,8 %) bilan baravariga temir yo'llardan (122,1 %) umumiy foydalanish uzunligida o'sish kuzatildi. 2010 yilda transportning respublika yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi 11,4 foizni tashkil etdi, bu jihatdan u sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi uchinchi muhim tarmoq sanaladi.

O'zbekiston qudratli (temiryul, avto, aviya, quvur va daryo) transport tizimlariga ega. Har yili yuk va yo'lovchi tashuvchi transportlarda juda ko'p miqdorda xizmat amalga oshiriladi. Jumladan, 2010 yilda faqat avtomobil

yo'larini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun 378 million dollarga teng bo'lgan mablag' o'zlashtirildi va bu 2009 yilga qaraganda, 31,5 foiz ko'p demakdir. SHuning hisobidan mamlakatimizda 270 kilometrlik zamonaviy avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi. Havo transporti va temir yo'l parklarini yangilash ishlari davom ettirilmoqda. O'tgan yili "Eyrbas industri" kompaniyasining 6 ta A-320-200 rusumli samolyoti, 8 ta zamonaviy elektrovoz sotib olindi, 1 ming 790 ta yuk tashiydigan va 38 ta yo'lovchi tashiydigan vagonlar qurildi, ta'mirlandi va modernizatsiya qilindi.

O'zbekistonda 20-yillar boshlarida temir yul uzunligi 1589 km bo'lgan bo'lsa, 1990 yilda temir yul transporti umumiy foydalanishdagi uzunligi 3462 km, 2010 yilda 4227 kmga yetdi. Temir yo'l yuk tashishda asosiy o'rinni egallab, uning zimmasiga 22,3 mlrd tn.km yuk oboroti to'g'ri keladi. Temir yo'llar orqali toshko'mir, yog'och, g'alla, metall va metall konstruktsiyalar, qurilish materiallari, mashina va jihozlar kabi hajmi, o'lchovi katta bo'lgan yuklar tashiladi.

Mustaqillik yillarida yo'lovchi tashish lokomotivlari parki yangilandi, yuk tashish lokomotivlari hamda vagonlari, temir yo'llar modernizatsiya qilindi va qayta tiklandi. Ispaniyaning "Tal'go" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Toshkent-Samarqand" temir yo'l uchastkasida O'rta Osiyoda birinchi bor bunyod etilgan tezyurar temir yo'l magistrali qurildi va foydalanishga topshirildi. Natijada, Toshkent-Samarqand o'rtasida Ispaniyadan keltirilgan "Tal'go-250" zamonaviy tez yurar poezdiining yo'lga qo'yilishi masofani 1,5 martaga qisqartirdi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganligi, jami aholiga nisbatan, foizda

Indikatorlar	1990 yil	2010 yil
Suv bilan ta'minlanish	64,0	82,6
SHundan; qishloq joylarda	55,0	75,8
Tabiiy gaz bilan ta'minlanish	44,6	83,7
SHundan; qishloq joylarda	19,3	77,7
Markaziy isitish sistemasi	29,1	41,0
Kanalizatsiya	25,5	37,1

1 kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha uy –joy maydoni, metr. Kv.	12,1	15,2
---	------	------

Manba: Osnovnye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskii sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.112.

O'zbekiston temir yo'l transport tizimida "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" yangi yo'l liniyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko'prik foydalanishga topshirildi. Uzunligi 223 km bo'lgan mazkur temir yo'l dengiz sathidan 1500 metr balandlikda tog' davon yo'llaridan o'tkazildi. Bu temir yo'lning qurilishi janubiy mintaqalarni rivojlantirishda, ularning tabiiy resurslarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim shart-sharoitlardan biri bo'ldi. Amudaryo ustidan ko'prik bilan orqali tortilgan 600 kmlik "Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus" temir yo'l liniyasining 6ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi. 1993 yilda Vazirlar Mahkamasining "Temir yo'llarni elektrlashtirish bo'yicha bosh Dastur" qabul qilindi. Mazkur dastur doirasida Jizzax-Jomboy, Jizzax-Samarqand-Buxoro liniyalari elektrlashtirildi. Hozirga kelib 700 kmlik yo'l elektrlashtirilgan.

Ishlab chiqarish infrastrukturasi temir yo'l bilan birga havo yo'llarining ham alohida o'rni bor. Havo transporti yo'lovchilarni, tez buziladigan, shoshilinch, qimmatbaho mahsulotlarni uzoq masofaga birpasda, sifatli xizmat ko'rsatgan holda, yetkazish ikoniyatlaridan biridir. 1993 yilda respublika havo transportini rivojlantirish maqsadida "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tuzildi. Bu kompaniya tomonidan hozirda dunyoning 40 dan ortiq shaharlariga, turli mamlakatlariga aviareyslar amalga oshirilmoqda. Aviareyslar zamonaviy Boeing-757 va Boeing-767, Aerobus A-310, A-320, RJ-85 kabi qator samolyotlarda amalga oshirilyapti va geografiyasi yildan-yilga tobora kengayib rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bunda Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial-iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator-Koreyaning "Korean Eyr" kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorining qabul qilinishi, Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropani Osiyo bilan bog'laydigan Navoiy aeroportining yaqinidan o'tgan xalqaro temir yo'l va avtomobil yo'llari

Rossiya, Yevropa mamlakatlarini Xitoy bilan bog'laydi va o'z navbatida aeroport muhitining yaxshilanishiga imkon beradi. Hozirgi vaqtda Navoiy shahri aeroportidan dunyoning yirik Frankfurt, Seul, Bryussel, Milan, Dubay, Bangkok, Dehli, Dakka va Mumbay shaharlariga reyslar tashkil etilgan. Navoiyidagi Xalqaro logistika markazi nafaqat, Janubiy-SHarqiy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish, balki Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratish imkonini beradi. 2010 yilda xalqaro logistika markazlarini rivojlantirishga doir ishlar davom ettirildi. Navoiy shahridagi aeroportda foydalanishga topshirilgan "Navoiy" xalqaro intermodal logistika markazining yuk terminali orqali 50,1 ming tonna yoki 2009 yilga qaraganda 3 barobarga ko'p yuk tashildi. Angren shahridagi Xalqaro logistika markazi tomonidan 4 million tonnadan ortiq yuk tashish amalga oshirildi.

Respublika transporti xizmatida avtomobil yo'llarining alohida o'rni bor. Mustaqillik yillarida 80 ming km dan oshiq avtomobil yo'llari qurildi, shundan 86 foizi qattiq qoplamali yo'llardir. 1990 yilda qattiq qoplamali yo'llarining uzunligi 39213 km bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda umumiy foydalaniladigan qattiq qoplamali yo'llarning uzunligi 41950 km ga yetdi, buning 3960 kmi xalqaro ahamiyatga ega yo'llar hisoblanadi. SHunga mutanosib ravishda, avtomobil yo'larida yuk tashish oboroti ham ortdi. Masalan, 1990 yilda avtomobil yo'llarida km ga 5,9 mlrd tonna yuk tashilgan bo'lsa, 2010 yilda uning miqdori 3,0 baravarga ko'paydi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanishi
(2011 yil.)

Ma'muriy-hududiy birliklar	1 kishiga to'g'ri keladigan uy-joy, kv.m	Xar 10 ming kishiga to'g'ri keladigan ambulatoriya-poliklinika muassasalari	Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, %da	Tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi, %da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15,2	138,8	68,6	95,1
Andijon	10,0	146,4	88,8	74,5
Buxoro	14,3	177,0	84,5	98,6

Jizzax	13,6	142,7	75,4	73,1
Qashqadaryo	13,2	100,5	82,2	70,5
Navoiy	20,5	149,0	79,0	80,1
Namangan	14,1	120,6	76,6	84,3
Samarqand	14,3	114,8	84,5	84,1
Surxondaryo	13,5	93,6	80,1	60,3
Sirdaryo	16,5	209,5	78,0	90,8
Toshkent	14,2	186,5	91,7	82,7
Farg'ona	14,4	143,6	85,4	81,1
Xorazm	24,2	131,5	63,3	94,9
Toshkeni sh	18,7	131,2	99,8	97,4

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Quvur transporti asosan neft va tabiiy gaz mahsulotini tashishga xizmat qilib, u MDH mamlakatlarining markaziy quvur tizimiga bog'langan. Respublika quvur transporti orqali Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Xitoy davlatlari bilan bog'lanadi. Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurining tortilishi O'zbekistonning tranzit imkoniyatining yanada kengayishiga olib keldi. Hozirda quvur transporti orqali Qozog'istonning janubiy viloyatlari, Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston O'zbekiston tabiiy gazi bilan ta'minlanadi. Farg'ona vodiysi va janubiy hududlar aholisini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida "Yangi Angren-O'zbekiston" LEP-500 elektr uzatish liniyasi, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 165 kilometrlik "Ohangaron-Pungon" magistral gaz quvuri, "G'uzor-Surxon" yuqori voltli elektr uzatish liniyasini qurish bo'yicha startegik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida, mamlakatda yagona elektr va gaz tarmog'i tizimlari tashkil etildi.

Ishlab chiqarish infrastrukturasi va yana inshoot va qurilmalar, kommunikatsiya va tarmoqlar, jumladan elektr uzatish yullari, taqsimlash tarmoqlari, suv, gaz, neft o'tkazgichlari issiqlik trassalari, telefon tarmoqlari va boshqalar kiradi. Aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 1990 yilda 44,6 foizdan 2010 yilda 83,7 foizga ko'paydi. SHundan qishloq joylarda bu ko'rsatkich mos ravishda 19,3 foizdan 77,7 foizga o'zgardi. Respublika bo'yicha aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash 1990 yilda 64 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 82,6 foizga ko'tarildi, qishloq joylarda esa bu raqam 55 foizdan 75,8 foizga yetdi (1-

jadvalga qarang). Bular barchasi mamlakatda Davlat dasturi doirasida magistral gaz va suv quvurlarini qurilishi bilan chambarchas bog'liq. Respublikada elektr va gaz ta'minoti, aholi punktlarining sanitariya ahvolini yaxshilash bo'yicha yangi kommunal infrastruktura tarmoqlari va ob'ektlari qurilmoqda, modernizatsiya hamda rekonstruktsiya qilinmoqda.

3.O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy infrastrukturasini.

Ijtimoiy infrastruktura uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, sog'liqni saqlash, maorif, maishiy xizmat va boshqalar kiradi. Bu xizmatlar insonlarni ma'naviy boy va jismoniy sog'lom kishilar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi turmush farovonligi sanoat va qishloq xo'jaligi bilan emas, balki ijtimoiy sohani rivojlanganligi, uy-joy bilan ta'minlanganligi, xizmat ko'rsatishning tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarining o'sib borishi, mintaqa, hudud taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi, aholining turmush sharoiti, kayfiyati, saviyasidan dalolat beradi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasi ijtimoiy infrasturukturaning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Respublika bo'yicha 52,4 foiz aholi aynan shu sohada band. Ijtimoiy infrasturuktura faoliyatining samaradorligi aholining uy-joy bilan ta'minlanishi va qurilishi bilan chambarchas bog'liq. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi davlat Dasturi doirasida 2009 yildan qishloq joylarda qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi turar joy massivlari kompleks qurila boshlandi. Yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihalarining qulaylik nuqtai –nazaridan boshqatdan ko'rib chiqib, ajratilgan yer uchastkalari hajmini to'rt sotix o'rniga olti sotix qilib belgilandi. Natijada, 2010 yilda respublikadagi 159 ta qishloq tumanida zamonaviy 6 ming 800 ta uy-joy barpo etildi va aholiga topshirildi. Mazkur ishlar samarasi, aholi turmush sharoitining yaxshilanishi, uy-joy bilan ta'minlanish darajasining ortishiga olib kelmoqda. Jumladan, 1990 yilda aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi bir kishiga 12,1

metr kv bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 15,2 metr kvni tashkil etdi. O'z navbatida, 77,4 foizga yaqin oilalar alohida uylarda va kottejlarda yashashmoqda.

Ta'lim tizimi ijtimoiy infrastrukturaning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, 2005-2010 yillar davomida 7 ming 800 dan ortiq umumta'lim muassasasi, qariyb 1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va rekonstruktsiya qilindi. Faqat 2010 yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va multimedia uskunasi o'rnatildi. SHuningdek, respublika bo'yicha 72 ta sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng sport inventarlari va uskunalari joylarga yetkazib berildi. Bular barchasi, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" hamda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil qilish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umumilliy dasturi to'g'risida"gi va boshqa qarorlarining amalga oshirilishi natijasidir. Mazkur qarorlarga binoan respublikada umumiy ta'lim olish muddati 1990 yilda 13,7 yildan 2010 yilda 15,6 yilga uzaytirildi. 1-9 sinflardagi o'quvchilar miqdori 1990 yilda 4053,0 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 4676,1 mingtaga yetdi. Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar miqdori ushbu davrda 13 tadan 11 taga o'zgardi. O'quvchilarni maktab ta'limi bilan qamrab olish darajasi mamlakat bo'yicha 99,3 foizga tengdir.

O'rta umumta'lim maktablarida o'z ona tilimizdan tashqari yana 7 ta tilda dars beriladi. Masalan, 806 ta maktabda rus tili, 394 ta maktabda qoraqalpoq tili, 483 maktabda qozoq tili, 238 ta maktabda tojik tili, 61 ta maktabda qirg'iz, 46 ta maktabda turkman tilida dars beriladi. Davlat umumilliy dasturi doirasida respublikada aksariyat maktablar rekonstruktsiya qilindi, yangi jihozlar bilan ta'minlandi. Yangidan-yangi kasb-hunar kollejlari barpo etildi. Hozirda mamlakat

bo'yicha 1539 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 1623,1 mingta (2010 y) yoshlar ta'lim olishmoqda.

Umumta'lim dasturiga binoan o'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limidan so'ng oliy mutaxassislik ta'limi to'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi va u, ikki bosqichdan, ya'ni bakalavriat va magistratura bosqichidan iborat holda tashkil etilgan. Bugungi kunda respublika bo'yicha 66 ta oliy o'quv yurti faoliyat yuritadi. SHuningdek, dunyoning rivojlangan davlatlari Oliy o'quv yurtlarining mamlakatimizdagi filiallari ham (Rossiya, Italiya, Angliya, Singapur) respublika yoshlariga ta'lim bermoqda.

Ijtimoiy infrasturukturada ta'lim singari sog'liqni saqlash sohasi muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar ushbu sohada sifat o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu sohani isloh qilish natijasida, sifat jihatdan yangi, eng yuksak talablarga javob beradigan va respublika hamda viloyatlar shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazlarini o'z ichiga olgan tibbiyot muassasalari tarmog'i shakllantirildi.

Qishloq vrachlik punktlarining soni 2000-2011 yillarda 2 barobarga ko'paydi va 3 ming 208 taga yetdi. Barcha viloyat markazlarida va Toshkent shahrida skrining markazlari tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda. Ambulatoriya poliklinikalar soni 1990 yilda 3139 ta bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 5886 taga ko'paydi. Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida, aholining yuqumli kasalliklar, jumladan, sil, gepatit kabi og'ir turdagi va boshqa xastaliklarga chalinishning umumiy darajasi ancha pasaydi. Bunga, respublikada tibbiyot xodimlarini tayyorlash sifati, farmatsevtika sohasidagi rivojlanish, tibbiyot muassasalarining markazlari tashkil etilishi va rivojlantirilishiga qaratilayotgan e'tibor sabab bo'lmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Barcha ko'rilgan ijtimoiy infrastruktura tizimidagi aholini toza ichimlik suvi, energiya manbalari bilan ta'minlash, ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Infrastruktura nima va u qaysi tarmoqlarni o'z ichiga oladi?
2. Uzluksiz ta'lim nechta bosqichdan iborat?

3. Mustaqillik yillarida temir yo'l tizimidagi islohotlar va undagi eng katta o'zgarishlar?
4. O'zbekiston quvur transporti orqali qaysi davlatlar bilan bog'langan?
5. Navoiy Xalqaro logistika markazi to'g'risida nimalar bilasiz?
6. Tibbiyot, ta'lim sohasidagi yutuqlar va uning rivojlanishi?
7. O'zbekistonda qaysi davlatlarning ta'lim maskanlari faoliyat yuritadi?
8. Aholining, ichimlik suvi, gaz va elektr energiya bilan ta'minlanishi qanday darajada va uning regional farqlari?
9. Navoiy shahri aeroportidan dunyoning qaysi mamlakatlariga reyslar tashkil etilgan?
10. Mustaqillik yillarida ishga tushirilgan yangi temir yo'l liniyalari haqida nimalar bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

9. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
10. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
11. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
12. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent:Universitet,-2003y.
13. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
14. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
15. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
16. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник.-T.: Uzbekistan, 2011. 229 s.

4-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIK TARMOQLARI VA IQTISODIY RAYONLASHTIRISH

4.1. Respublika sanoat tarmoqlari majmui

Reja:

1. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida sanoatning roli
2. Sanoat tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlar
3. Sanoatning hududiy tarkibi va uning rivojlanishi

1.O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida sanoatning roli

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biridir. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik va u bilan bog'liq paxtachilik, ipakchilik va qorako'lchilik yuqori darajada taraqqiy

etganligi respublikani paxta, pilla yetishtirish hamda qorako'l teri tayyorlash bo'yicha jahon mamlakatlari ichida yuqori o'ringa olib chiqdi.

Mustaqillik yillarida erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'sish tufayli 2000-2010 yillarda yalpi ichki mahsulotda (YaIM) qishloq xo'jaligining ulushi 30,1 foizdan, 17,5 foizga tushdi, sanoatniki 14,2 foizdan 24,0 foizga o'sdi, xizmat ko'rsatish 37 foizdan 49 foizga o'zgardi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi sobiq Ittifoqning parchalanishidan keyin biroz kamaydi, ammo 1996 yildan boshlab o'sishda davom etmoqda. Masalan, sanoat mahsulot hajmi 1990 yillarga nisbatan 2010 yilda 3 martaga ortdi. SHuningdek, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati ushbu davrda 13,4 barobarga, oziq-ovqat sanoatida esa 5,7, yengil sanoatda 3,8 martaga o'sish kuzatildi.

Respublika sanoati paxtachilik, ipakchilik, mevachilik, qorako'lchilik talablari va ehtiyojlari negizida shakllandi, taraqqiy etdi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi va joylanishiga qator omillar va sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Bulardan iqtisodiy geografik omillar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularga mehnat resurslari, infrastruktura va uning tarmoqlari, ishlab chiqarishning moddiy – texnik ba'zasi, fan-texnika taraqqiyoti kiradi. Tabiiy geografik omillar ham sanoat rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik alohida ahamiyatga ega.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Iqtisodiy indikatorlar	birligi	1990 yil	2000 yil	2010 yil	1990 yilga nisbatan	
					2000 yil	2010 yil
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	mln dol	27106	35277	92326	1,3 marta	3,4 marta
YaIM sanoatning ulushi	%	17,6	14,2	24,0	X	x
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	Mlrd sum	11,1	1387	15811	100,6	182,9
YaIM da qishloq xo'jaligi ulushi	%	33,4	30,1	17,5	X	x
Qurilish ishlari	Mlrd.so'm	4,2	388,4	8245,8	86,9	2,3 marta
CHakana savdo	Mlrd.so'm	19,8	1788	21873	99,2	2,8 marta
YaIMdagi ulushi	%	33,8	37,0	49,0	X	x
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	%	0	31,0	52,5	X	x
Asosiy kapitalda investitsiya	Ekv mln	833,8	3142,5	9712,7	3,8 marta	11,6 marta

	doll					
YalMga nisbatan %da	%	18,0	22,9	25,0	X	x
Eksport mahsulotlar va xizmat	Mln doll	442,7	3265	13045	7,4 marta	29,5 marta
YalMga nisbatan %da	%	3,3	24,0	33,5	X	x
Import mahsulotlar va xizmat	Mln doll	362,9	2947	8800	8,1 marta	24,2 marta
YalMga nisbatan %da	%	2,7	21,4	22,6	X	x
Tashqi savdo salbdosi	Mln doll	79,8	317	4245	X	x

Manba: Osnovnyye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskii sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.14.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat ishlab chiqarishini va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilingan. Bu o'rinda dastavval O'zbekistonni jahon iqtisodiy xamjamiyatiga qo'shilishini tezlatadigan, uni dunyoga "tanitadigan", mehnatni ko'p talab etib, suv va xom ashyoni nisbatan kam iste'mol qiladigan, asosan mahalliy mineral resurslar va qishloq xo'jaligi xom ashyosiga asoslanadigan ishlab chiqarishni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Chunki, sanoat mamlakat iqtisodiy salohiyatini, ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini belgilab beradi. Barcha xo'jalik tarmoqlari ichida sanoat tarmog'i yetakchi o'rinda turadi. Uning hozirda 100 dan ortiq tarmoqlari mavjud. Bulardan og'ir sanoat tarmoqlari yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik va qurilish materiallarini o'z ichiga olsa, yengil sanoat paxta tolasi, ip va shoyi gazlamalar, ipak, kanop tolasi, ustki va ichki trikotaj, tayyor kiyimlar, poyabzal, gilamlar, baqqollik buyumlari, chinni-fayans idishlari ishlab chiqarishdan iboratdir.

Mustaqillik yillari respublikada sanoatning yangidan-yangi tarmoqlari paydo bo'ldi. Jumladan, bularga, avtomobilsozlik, neft-gaz ximiya, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy texnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq ovqat va tekstil sanoati va boshqa tarmoqlar kiradi. Mamlakatimizda yiliga qariyb 50 mlrd kvk elektr energiyasi, 60 mlrd m³ tabiiy gaz, 2,7 mln. tonna ko'mir va 600 ming tonnadan ortiq po'lat ishlab chiqariladi.

2000-2010 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining industrilashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanishi natijasida, yangi sanoat tarmoqlari sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishini ta'minladi va sanoatning YaIM dagi ulushi ortishiga olib keldi, masalan, YaIMda sanoatning ulushi 1990-2010 yillarda 17,6 foizdan 24,0 foizga ko'tarildi. Aynan shu tarmoqda aholining bandligi 1991 yilda 14,3 foiz, 2010 yilda 13,2 foizga teng bo'ldi.

2010 yilda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotning ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil etdi. Mamlakatimiz sanoat korxonalarini tomonidan 2010 yilda 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. "2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 2008 yil 2 dekabrda, Navoiy shahri aeroporti bazasida erkin industrial – iqtisodiy zona "EIIZ" tashkil etildi. Umumiy maydoni 564 ga bo'lgan Navoiy "EIIZ" Buxoro va Samarqand shaharlaridan 100-175 km uzoqlikda joylashgan. Navoiyning geografik joylashgan o'rni, ya'ni Yevropa bilan Osiyoning o'rtasida bo'lganligi bois ham shu joy tanlandi. O'zbekistonda erkin industrial-iqtisodiy zonani tashkil etish uchun aynan Navoiy viloyati bejiz tanlanmagan. Sababi, bu yerda mavjud sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahonning 50 dan ziyod davlatlariga eksport qilinmokda. Qolaversa, keyingi yillarda Qizilqum mintaqasida nodir qimmatbaho metallar, fosforit xom ashyosining yangi konlari o'zlashtirildi, yangi zamonaviy korxonalar qurilib, ishga tushirildi.

Navoiy EIIZda sanoatning mashinasozlik, stanoksozlik tarmoqlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mintaqada foydalanilmay yotgan katta kremniy zahirasi bor bo'lib, quyosh batareyalari uchun kremniy plastinalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil qilish mumkin. Buning uchun zonaga faqat zamonaviy texnik-texnologiyalarni olib kirish kerak. Mahalliy

xomashyoga asoslangan zamonaviy to'qimachilik tarmoqlarni, oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yiladi. Navoiy EIIZning faoliyat ko'rsatishi 30 yil bo'lib, keyinchalik u cho'zilishi ham mumkin. Bu davr mobaynida, bu yerda alohida bojxona, valyuta va soliq rejimi, kirish, yashash va chiqib ketish, shuningdek O'zbekiston fuqarolari va norezidentlarining ish faoliyatini amalga oshirishga ruxsat olishning soddalashtirilgan tartibi amal qiladi.

4. Sanoat tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlar

O'tish davrining murakkab qiyin sharoitida, makroiqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlash natijasida, iqtisodiyotning ba'zaviy tarmoqlari neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, ximiya va neft-ximiyasi sanoati jadallik bilan rivojlantirildi. Oqibatda, respublika sanoatining tarmoqlar tarkibida chuqur sifatiy siljishlar ro'y berdi. Sanoat tarmoqlar tarkibida yoqilg'i-energetika sanoati alohida o'rin tutadi.

2-jadval

Yalpi ichki mahsulotda tarmoqlar tarkibi ulushi (foizda)

Indikatorlar	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Jami	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	24,0
Qishloq xo'jaligi	33,4	30,1	17,5
Qurilish	5,8	6,0	6,4
Transport va aloqa	5,2	7,7	12,4
Savdo	4,5	10,8	9,0
Va boshqalar	22,2	18,7	23,7

Manba: Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник.-Т.: Узбекистан, 2011. S.36.

Yoqilg'i-energetika sanoati tarmoqlaridagi o'zgarishlar turli darajada kechmoqda. 1990-2010 yillarda yoqilg'i-energetika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish 3 martaga ordi. Ushbu tarmoqning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 18,3 foizdan 24,1 foizga chiqdi, mamlakatning yoqilg'i-energetika

mustaqilligi ta'minlandi va tarmoqning qayta ishlash salohiyati kengaydi. Ayniqsa, neft va gaz kondensatini qazib olish yillik hajmi 1990 yilga nisbatan 2010 yilda 1,4 martaga, tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi 1,6, yonuvchi gaz ishlab chiqarish esa mazkur davrda 15,2 barobarga o'sdi. Bu sanoat tarmog'i gaz, neft, ko'mir qazib chiqarish, neftni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. SHulardan biri elektroenergetikadir.

Elektroenergiya tarixi 1923 yilda Toshkent yaqinidagi Bo'zsuv kanalida GES qurilishi bilan boshlanadi. Ushbu GESning birinchi navbati 1926 yilda foydalanishga topshirilgan. 19 ta GESdan iborat CHirchiq-Bo'zsuv kaskadi muhim energiya manbaidir. O'zbekiston rivojlangan elektr energetika tizimiga ega. Respublikada umumiy quvvati 11220 mVt.ga teng 37 elektrostantsiya ishlaydi. SHundan 9800 mVt issiqlik stantsiyalariga, 1420 mVt gidroelektrostantsiyalarga to'g'ri keladi. Barcha elektrostantsiyalar salohiyati bir yilda 56-57 mlrd kVt/s. ga teng elektroenergiya ishlab chiqarishga imkon beradi. Suv elektr stantsiyalari orasida eng kattasi CHorbog' GES hisoblanadi (quvvati 660 ming kVtdan ortiq).

Issiqlik elektrostantsiyalari ichida Sirdaryo, Yangi-Angren, Toshkent va Navoiy GRESlari har birining quvvati 1000 mVt.dan oshadi. O'rta Osiyoda eng yirik – Tolimarjon GRESining qurilishi davom etmoqda, bir necha yuz kilometrlik elektr uzatuvchi liniyalar ishga tushirildi. Yangi Angren GRESining 7-energiya bloki qurib ishga tushirildi. Sirdaryo GRESi modernizatsiya qilindi. Toshkent, Sirdaryo, Navoiy, Taxiatosh kabi yirik issiqlik elektrostantsiyalari respublikadagi asosiy elektroenergiyani hosil qilmoqda. Toshkent IESining quvvati 1920 ming kVt ga yaqin, Yangi Angren IESniki 2400 ming kVt (Nurobod shaharchasi). SHuningdek, Angren shahrida Angren - 1 IES (600 ming kVt) ham ishlab turibdi. Mazkur issiqlik elektr stantsiyalari ko'mir, mazut va gaz asosida ishlaydi.

Bugungi kunda mamlakatdagi gidroelektrostantsiyalarining umumiy quvvati 1420 megavatni, elektr tarmoqlarining uzunligi 224 ming kilometrni

tashkil etadi. CHorvoq, Xojikent, G'azalkent, Farhod GESlari elektroenergiyaga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Aynan elektr energiya hosil qilish va uni iste'mol qilish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari ichida Rossiya, Ukraina, Qozog'istondan keyin to'rtinchi o'rinda turadi.

2008 yilda ishga tushirilgan uzunligi 165 kmlik Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasi-"O'zbekiston" yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi barpo etildi. Sirdaryo issiqlik elektr stantsiyasini "So'g'diyona" kuchlantirish stantsiyasi bilan bog'laydigan, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektr ta'minoti ob'ektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom etmoqda. Xojiza konida polimetall rudalarga ishlov berish kabi loyihalar, Navoiy kon-metallurg kombinatining bir qator yangi ob'ektlarini barpo etish ishlari nihoyasiga yetkazildi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, bir necha kichik stantsiyani o'z ichiga olgan "Yangi Angren-O'zbekiston" LEP-500 elektr uzatish liniyasi, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 165 kmlik "Ohangaron-Pungon" magistral gaz quvuri, "G'uzor-Surxon" yuqori voltli elektr uzatish liniyasini qurish bo'yicha strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog'i tizimlarini tashkil etish ishlari, asosan yakunlandi.

Neftni qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining tashkil etilishi respublika energetika xavfsizligini ta'minlay boshladi. Mazkur yoqilg'i sanoati tarmog'ining asosiy korxonalari Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida qurilgan. CHunki, respublikadagi 160 dan ortiq neft va gaz konlarining 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provintsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan.

Mustaqillik yillarida energetika mustaqilligiga erishishni ta'minlash bo'yicha dasturga binoan neft va gazni qayta ishlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi Frantsiyaning "Teknep" va SHo'rtangaz gazximiya majumasi "ABB" kabi xorij kompaniyalari bilan hamkorlikda yaratildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq rekonstruktsiya qilindi (u Yaponiya

firmalari bilan birgalikda 250 mln. AQSH dollariga yaqin mablag' hisobiga qayta ta'mirlandi). Gazximiya tarmog'ining yaratilishi tabiiy gazni to'liq qayta ishlash va ishlab chiqarishning yangi shakllarini, tarmoqlarini yo'lga qo'yishga imkon berdi. SHuningdek, "Gazli" qo'shimcha kompressor stantsiyasi ishga tushirildi, "Qo'ng'iroq" kompressor stantsiyasida kuniga 35 million kub metr gazni quritadigan inshoot barpo etildi. Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari yakunlandi.

Gaz qazib olish va uning ist'emoli yildan-yilga ortib bormoqda. CHunonchi, 1991 yilda 41,8 mlrd metr kub gaz ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 56,4 mlrd metr kubga yetdi. Respublika yoqilg'i balansida hissasi 90 foizga teng bo'lgan gaz xom ashyosi murakkab geologik qatlam, ya'ni 3500 metr va undan chuqurdan qazib olinadi. Aholini qulay yoqilg'i turi bilan ta'minlash maqsadida Andijon viloyatining Xo'jaobod shahrida yirik yer osti gaz ombori qurilgan. Bu inshootni qurishga 70 mln AQSH dollari sarflangan.

Respublika hududidagi Farg'ona, Oltiariq va Buxorodagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, Muborak va SHo'rtandagi gazni qayta ishlash zavodlari xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarmoqda va hatto ayrim neft mahsulotlari chetga eksport ham qilinmoqda. SHo'rtandagi zavodda yiliga 125 ming tonna polietilen, 140 ming tonna suyultirilgan gaz, 130 ming tonna yengil kondensat, 4 milliard kub metrdan ziyod gaz va 4 ming tonna oltingugurt olinadi.

Gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek Xauzak va SHodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xom ashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha yirik loyihalar mavjud. Mazkur loyihalardan tashqari Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyoy majmuasini barpo etish, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruktsiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida bug'-gaz moslamasini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Olmaliq

kon-metallurgiya kombinatining misni boyitish fabrikasini rekonstruktsiya qilish va boshqa loyihalari strategik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Yoqilg'i–energetika majmuida ko'mir sanoatining o'rni ham bor. Angren qo'ng'ir ko'mir koni va Surxondaryodagi SHarg'un, Boysun toshko'mir konlarining yoqilg'i balansida ulushi katta. Ularning umumiy zahirasi 2 milliard tonna. Angren qo'ng'ir ko'mir koni O'zbekistonda chiqariladigan jami ko'mirning 95 foizini beradi. Ushbu kondagi ko'mir qatlamlari orasida joylashgan kaolin asosida "Kaolin" qo'shma korxonasi ham ishlab turibdi.

Sanoat tarmoqlar majumida metallurgiya va mashinasozlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida ushbu tarmoqning jami sanoatdagi ulushi 21,4 foizdan 30,1 foizga o'sdi. Qolaversa, 1990-2010 yillarda mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining o'sish sur'ati umumiy 11,6 barobarga teng bo'ldi. Bu barcha sanoat tarmoqlari ichida eng katta ko'rsatkichdir. Metallurgiyada rangli metallurgiya yetakchi mavqeini egallaydi. Respublikada ushbu sanoat tarmog'i asosan mahalliy xom ashyoga tayangan holda rivojlanmoqda. SHunday korxonalar qatorida rangli, qimmatbaho va nodir metallar ishlab chiqaruvchi Olmaliq, Zarafshon, CHirchiq, Navoiy va boshqa shaharlardagi kon-metallurgiya kombinatlari ajralib turadi.

Toshkent viloyatining Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati, Navoiy viloyati Muruntov oltin koni, Jizzax viloyati Marjonbuloq, Samarqand viloyatidagi Ingichka konlari va boshqa konlar mazkur tarmoqning negizi hisoblanadi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab oltin qazib olinib boshlangan Muruntov oltin koni Muruntov tog'-kon kombinati markazidir. 1995 yilda O'zbekiston-AQSH "Zarafshon-Nbyumont", "Amantaytau-Goldfields" KK tashkil etildi. Bu korxonada rudalarni qayta ishlash va ulardan oltinni chiqarib olish maqsadida tuzilgan MDHdagi yagona korxonaga bo'lib, u eng zamonaviy texnika va texnologiya asosida ish olib boradi. Muruntov oltinining sifati o'ta yuqori, shu boisdan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida olingan oltin yombilar Londonda maxsus sertifikatni qo'lga kiritgan. SHuningdek, Tokio tovarlar birjasida Muruntov oltin quymalariga "oltinning optimal quymasi" degan maqom ham berilgan.

Toshkent viloyatining Olmaliq kon–metallurgiya kombinati Ohangaron-Olmaliq tog' kon sanoatida joylashgan mis, qo'rg'oshin, rux, polimetall konlari negizida shakllangan. CHirchiqda o'tga chidamli va qattiq qotishma metallar kombinati, Ingichka vol'frami va Qo'ytosh volfram-molibden konlari rudalari va mis rudalaridan ajratib olinadigan molibdenga tayanib ishlaydi va 100 ga yaqin mahsulot ishlab chiqaradi. Bulardan, "Olmaliq TMK" OAJda mis mahsuloti, tsink, oltingugurt kislotasi, CHirchiqdagi "CHirchiq metall qurilmalari" OAJda mentallkonstruksiyalar ishlab chiqarilmoqda. Hozirda "Xonjiza" konida polimetall rudalarga ishlov berish yo'lga qo'yildi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yangi ob'ektlari barpo etildi.

Rangli metallurgiyadan farqli ravishda qora metallurgiya tarmog'i nisbatan kam rivojlangan. Sababi, respublikada yirik temir ruda konlarining yo'qligi, 1944 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan yagona Bekobod qora metallurgiyaning kombinatining faqat to'plangan temir-tersaklarni qayta ishlash orqali po'lat va tayyor prokat hamda turli xil maishiy ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashishiga olib kelgan.

O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlari ichida mashinasozlik bugungi kunda o'ta muhim tarmoq hisoblanadi. Mashinasozlik sanotining 100 dan ortiq korxonalarida turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, ya'ni paxta teruvchi mashinalar, yerga urug' qadaydigan, to'quv-yigiruv, sug'orish mashinalari, turli xil stanoklar, televizor, audio va videomagnitofonlar tayyorlanadi. Oxirgi 10 yilda yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmi 7,1 martaga, avtobuslar 2,6 martaga, yuk mashinalari 12,9 martaga ko'paydi.

Mashinasozlik sanoatida avtomobilsozlik alohida o'rin tutadi. Avtomobilsozlik avtomobillar, avtomobil dvigatellari, avtomobillarga ehtiyot qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Dastlabki yengil avtomobil zavodi 1996 yilda Andijon viloyatiningg Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda bunyod etildi. Bu "Uz Deu avto Ko" qo'shma korxonasi "Damas", "Tiko", "Neksiya" va "Matiz" rusumdagi avtomobillarni chiqara boshladi. Natijada, O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab

chiqaradigan 28 nchi mamlakat bo'ldi. Bugungi kunga kelib, Asaka shahrida AQSHning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. SHuningdek, Andijonda yana "GM Ozbekiston" QK, "Pritsep" AJ, "UzKodji", "UzTong Xong KO", "Uz Dong Yang Ko", "Uz Sam Yung Ko", "Uz Dong Vong Ko" qo'shma korxonalari mavjud (aksariyati Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda yaratilgan). "Uz Dong Yang Kompani" qo'shma korxonasi avtomobil ichki jihozlari o'rindiqlik g'illoplari, Farg'onadagi "Evraziya Tapo-Disk" qo'shma korxonasi avtomobil diskleri tayyorlashga ixtisoslashgan. Toshkent viloyatining "CHirchiqqishmash" zavodida kultivator KXU-4B, plugboronalar ishlab chiqariladi.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmog'iga qarashli qator tajriba va ta'mirlash mexanika va boshqa zavodlar ham faoliyat yuritadi ("Marhamat - ETZ", "Andijonkabel", Avia mexanika zavodi va h.k). Bu korxonalar ichida mahsulot qiymati bo'yicha "UzDong Yang Ko" qo'shma korxonasi avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi - u tarmoqning 5,7 foiz mahsulotini beradi. SHuningdek, Toshkent shahrida dunyoga mashhur "Daymler Bents" (Germaniya) kompaniyasi, Samarqandda "Isuzu" (Yaponiya) kompaniyasi avtobuslar ishlab chiqara boshladi. Namangan shahrida yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqaradigan zavod qurilgan. Mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Spark" yengil avtomobili yaratildi. SHu bilan birga katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" (Germaniya) avtomobillarini Samarqandda, energiya tejaydigan lampalar, "Elji" rusumidagi jahonga mashhur xolodilniklari ishlab chiqarilmoqda. Natijada, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990-2010 yillarda 11,6 martaga ortdi. 2011 yildan AQSHning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 225 ming dona avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxonalar qurilib topshirildi. 2010 yilda respublikada jami bo'lib 220313 dona avtomobil ishlab chiqarildi shundan, 217733 dona yengil avtomobil, 1268 dona avtobus, 1312 dona yuk mashinalari, bundan tashqari 96700 dona televizorlar, 124000 dona kompyuter mahsulotlari ham tayyorlandi

Mashinasozlikning avtomobilsozlikdan tashqari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, radioelektronika va elektrotexnika sanoati, asbobsozlik, kimyo va neft kimyo mashinasozligi va hakoza. Masalan, Jizzaxda akkumlyator "Uzeksayd" qo'shma korxonasi, Andijonkabel, CHirchiq metal qurilmalari, "CHirchiqqishmash", "Transfar-mator" zavodlari mashinasozlikning muhim korxonalari hisoblanadi. Toshkent shahrida joylashgan Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, "O'zelektroapparat", "O'zbekkabel" va "Doyche kabel" qo'shma korxonalari, Agregat zavodi, "Zenit elektronika" qo'shma korxonasi, Toshkent yo'lovchi vagonlarni ta'mirlash, "Algoritm" kabi korxonalar o'zlarining salmoqli mahsulot hajmlari bilan sanoatga hissa qo'shishmoqda. Respublikada yagona bo'lgan "Samarqandliftsozlik zavod"ida pasajir va yuk liftlari (yiliga 1000 dona), lift uchun ehtiyot qismlar (1050000 ming so'm) ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi.

Jumladan, elektrotexnika sanoatida "Zenit elektroniks" Toshkent radiotexnika qo'shma korxonasida maishiy konditsionerlar, DVD-ppoigprivatellari, kir yuvish mashinasi, maishiy sovutkichlar va muzlatkichlar, elektr chang yutgichlar, televizorlar tayyorlanadi. SHuningdek, CHkalov nomidagi Toshkent davlat aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida DXJ rangli quyma metallokonstruksiyalarni payvandlash oyna, plastik va ulardan mahsulotlar, yig'ma temir beton konstruksiyasi va detallar, o'yinchoqlar, samolyotlar ishlab chiqariladi. Toshkent traktor zavodida esa avtomobil tashish uchun yarim pritseplar, traktorlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, traktorlar, konteynerlar tashish uchun yarim pritseplar, ekskavatorlar, traktor pritseplari tayyorlanadi. Germaniyaning "Klass" kompaniyasi bilan hamkorlikda zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan.

Respublikada temir yo'l mashinasozligi ham yaxshi rivojlangan. Bularga, Toshkent temiryo'lmashta'mir korxonasi, Andijondagi "Uzjeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodlari kiradi. Bulardan Andijondagi

"Uzjeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodida yangi vagon tsisternalari va ehtiyot qismlar chiqarish yo'lga qo'yilgan.

2010 yilda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida jahon bozorida xaridorgir bo'lgan zamonaviy mahsulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxonalar foydalanishga topshirildi.

Engil sanoat. O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqariladi. O'zbekiston yengil sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati 1990-2010 yillarda 3,8 martani tashkil etdi. Respublikada 1990 yilga nisbatan 2010 yilda paxtadan ip gazlama ishlab chiqarish 2,2 martaga oshdi. Gilam va gilam mahsulotlari 2010 yilda 21 mln m. kvni tashkil etdi yoki 2000 yilga nisbatan 13,6 marta ko'p ishlab chiqarildi. Jumladan, ip gazlama Toshkent, Farg'ona to'qimachilik va Buxoro ip gazlama kombinatlarida ishlab chiqarilar edi. Hozirda bu korxonalarining ayrimlari o'z ish faoliyatini to'xtatgan. Buxoro shahrida "DEU tekstil" to'qimachilik kompleksi, Toshkent viloyatida "Xaytek kabel" qo'shma korxonasi, "Spen tex Toytepa tekstil" qo'shma korxonasi, Olmaliq shahrida gilam fabrikasi, "DEU tekstil interneyshl" QK, "Osiyoteks" va "Xumo", Buxorodagi "Buxoro brilliant shilk"; "O'zkarpet" gilam korxonasi, "Ramstar", "Qorako'lteks" qo'shma korxonalari; Farg'onadagi "Quva tekstil", "Rishton teks", "Rus-O'zbekteks" to'qimachilik qo'shma korxonalari, "Vodiy Toshloq tekstil", "Alesta - Glass" "ORSHAH EV TEKSTILI" mchj (paypok mahsulotlari) va Xitoy texnologiyasi yordamida Xorazmda "Xorazm ipagi" to'qimachilik korxonasi, Buyuk Britaniya asbob-uskunalari bilan jihozlangan Bog'otdagi tibbiy paxta (momiq) ishlab chiqaruvchi fabrika, Rossiyaning Kamyushin fabrikasi bilan hamkorlikda Xonqada ip kalava va ip gazlama ishlab chiqaruvchi korxonalar, "Gurlantekstil", Xiva gilam kombinati mashhur. Yengil sanoat korxonalaridan Andijondagi "Investeks" qo'shma korxonasi trikotaj buyumlar va trikotaj mato, Toshkent shahridagi "TOSHKAYATEKSTIL QK" kalava, trikotaj polotnosi, paxta-chit matosi,

“MURUVVAT-TEKS MCHJ”, “SIRKECHI TASHTEKSTIL QK”, “TRENDY-LAND XK”, “KONTEKS-TASHKENT XK” lari trikotaj mahsulotlari, kalava, trikotaj polotnosi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. SHuningdek, Toshkent viloyatida joylashgan "Billur tekst" korxonasi trikotaj mahsulotlari yiliga - 550 ming dona, "Yangiyo'l paxta tozalash" zavodi paxta tolasi- 10800 tn, "Elnur and Ruslan" qo'shma korxonasi yiliga - 5000 dona tikuvchilik mahsulotlarini yaratmoqda.

Ip gazlamadan tashqari ipak gazlama ham bir vaqtlar respublikaning mashhur mahsulotlaridan biri bo'lgan. Hozirda Farg'onadagi pillakashlik fabrikalarida mahsulot chiqarish qisqarib ketganligi munosabati bilan, asosiy ipak gazlama mahsulotlari Samarqand viloyatida tayyorlanmoqda. Mavjud pillakashlik fabrikalari ham to'liq quvvat bilan ishlayotgani yo'q.

Toshkentdagi chinni-fayans buyumlar ishlab chiqaradigan “Mikond” zavodi (Oniks birlashmasi) yengil sanoatning yetakchi korxonasidir. Bu zavodda bir yilda 10500 dona maishiy qandillar, qandil idishlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yengil sanoatda ko'nychilikning alohida o'rni bor. Ko'nychilik sanoati Toshkent, Samarqand, Qo'qon va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan. Bu korxonalar asosan mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va ishlov berishga tayanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati ko'p tarmoqlarga ega bo'lib geografiyasi kengdir. Undagi mavjud yirik korxonalar respublikaning barcha viloyatlarida uchraydi. 1990-2010 yillarda oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 5,7 martaga o'sdi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari orasida Buxorodagi Kogon yog' - ekstraktsiya zavodi, shuningdek, Buxoro yog' - ekstraktsiya zavodi, “Evrosnar” qo'shma korxonalari, "Andijon yog-moy" zavodi muhim hisoblanadi. SHuningdek, respublikada un-krupa va kombikorm “G'alla Altek” va “Toshkent don mahsulot”, "Navoidonmahsulotlari" aksionerlik jamiyatlarida tayyorlanadi. Oziq-ovqat sanoatida Bektemir spirt zavodi, yog'-moy, vino va shampan ishlab chiqaruvchi korxonalarining ham roli yuqori. Ayni vaqtda, tarmoqda “Xorazm shakar” qo'shma korxonasi va Samarqand choy fabrikasi, Guliston yog'-ekstraktsiya

zavodi alohida o'rin egallaydi. Aynan shakar ishlab chiqarish respublikada 2000 yilda 10169 tonna bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 286055 tonnaga yetdi.

Andijon, Toshkent, Farg'ona viloyatlaridagi yog'-moy kombinatlari, Kattaqo'rg'on, Qo'qon shaharlarida va Uchqo'rg'on tumanidagi yog'-ekstraksiya zavodlari respublika aholisining yog'-moy, sovun mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Birgina, Toshkent yog'-moy kombinatida qadoqlangan yog', o'simlik yog'i, mayonez, margarin mahsulotlari tayyorlanadi. SHuningdek, Toshkent viloyatidagi "Yangiyo'l yog'-moy" zavodi respublikada yog', sheluxa, kombikorma, sovun ishlab chiqarish bo'yicha mashhur korxonalaridan biridir.

Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Andijon viloyatlarida konserva zavodlari ishlab turibdi. Binobarin, tegirmon, go'sht-sut mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklar, non mahsulotlari, qandolat mollari va boshqa kunlik oziq-ovqat mahsulotlari respublikaning barcha viloyat, tumanlarida tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati uchun zarur bo'lgan barcha xom-ashyo yetarli, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, respublikaning geografik joylashgan o'rni, rel'ef tuzilishi qurilish uchun kerakli tosh, ohak, loy, asbest, qum, granit, shag'al, marmar bilan to'liq ta'minlaydi. Ammo shunga qaramasdan, qurilish materiallari sanoati 1990-2010 yillarda atiga, 1,3 barobarga o'sishga erishdi. Bu sanoatda marmar ishlab chiqarish, G'azalkent, Toshkent, Samarqand, Olmaliq, Nukus shaharlarida yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular G'ozg'on marmari negizida ishlaydi. "Bekobodtsement", "Qizilqumtsement", "Navoiy tsement", "Quvasoytsement", "Ohangarontsement" va "Angren tsement" korxonalarida tsement ishlab chiqariladi. Angren tsement kombinati 1947 yildan, Ohangaron esa 1962 yil, Navoiy 1977 yildan, Bekobod 1913 yildan beri faoliyat yuritadi. Bu tsement korxonalarida shifer, asbotsement quvurlar, mineral paxta va undan tayyorlangan buyumlar, tsement-qum cherepitsalari ishlab chiqariladi. Bekobod va Ohangaron shifer ishlab chiqaruvchi zavodlari, Bo'stonliq tumanidagi energiya qurilish industriyasi korxonalarida, "Quvasoyshisha" birlashmasi, G'azalkent shisha-oyna zavodlari faol ishlab turibdi.

O'zbekiston ximiya sanoatida xilma-xil kimyoviy bo'yoqlar, plastmassa

mahsulotlari, mineral o'g'itlar, ximiyaviy tolalar va bosh. ko'plab mahsulotlar tayyorlanadi. O'zbekiston rivojlangan kimyo sanoatiga ega bo'lib, ushbu tarmoqda 1990-2010 yillarda 2,9 martaba mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortdi. Tarmoqning "Farg'ona Azot", "Navoiy Azot", "Elektrokimyosanoat" (CHirchiq), "Ammofos" (Olmaliq), Samarqand kimyo zavodi, Qo'ng'irod soda zavodi va qator korxonalari mavjud.

Ximiya sanoatida 2006 yildan boshlab Qo'ng'irod soda zavodida kaltsiy sodasi ishlab chiqarilmoqda. 2010 yilda mazkur zavodda 90,4 ming tonna kaltsiy sodasi ishlab chiqarildi. Ushbu zavod mahsuloti hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda. Zavod qurilishi kimyogarlar shaharchasi Elobodning barpo etilishiga asos bo'ldi. Ayni vaqtda, Jizzaxdagi "Jizzaxplastmassa" zavodida plyonka va trubalar ishlab chiqariladi. SHuningdek, ximiyaning asosiy korxonalariga "Navoiyazot", "Elektroximsanoat" ham kiradi, ular mamlakatimiz eksportida ham faol qatnashishadi. Ayniqsa, iqtisodiyot uchun nihoyatda zarur bo'lgan superfosfat zavodi xom ashyosi - fosforitlar ham Navoiy viloyati hududida ishlab chiqariladi. Birgina "Navoiyazot" aksionerlik jamiyatida ammiak selitrasi, sirka kislotasi, nitron tolasi, tsianis natriy, sintetik ammik, suyultirilgan xlor, kaustik sodasi kabi turli-tuman mahsulotlar olinadi.

Ximiya sanoti tarkibidagi Farg'ona azot, Farg'ona kimyoviy tola zavodlari, Qo'qon superfosfat zavodi, Farg'ona furen birikmalari zavodi, kimyo va neft kimyosi sanoatida Toshkent lok-bo'yoq va "Olplast" qo'shma korxonasining ahamiyati katta. 2010 yildan ish boshlagan Dehqonoboddagi kaliy o'g'itlar ishlab chiqarish zavodi mintaqadagi yagona zavod hisoblanadi. Bu zavod Qashqadaryodagi Tubakat kaliy tuzlari koni negizida barpo etildi. Mazkur zavod kaliy tuzini qayta ishlash asosida nafaqat o'g'it, balki bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarini olish imkonini beradi. Ayni vaqtda, Samarqanddagi nitrokaltsiyfosfat o'g'itlar chiqaradigan ximzavod ham ximiya sanoatiga munosib hissa qo'shmoqda.

Ximiya sanoatida sun'iy tolalar ishlab chiqarish muhim o'rin tutadi. Jumladan, CHirchiqdagi "Elektrokimyosanoat" birlashmasida kaprolaktam,

Farg'ona kimyoviy tolalar zavodida atsetat iplar, "Navoiyazot" birlashmasida nitron, akril tolalari va hakoza. Kelgusida respublika sanoat tarmoqlaridan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan barpo etiladigan Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasida tsement zavodi qurish, Toshkent viloyatida turli mato va tikuvchilik mahsulotlari, tayyor dori preparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha loyihalar tayyorlangan.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston makroiqtisodiy tarmoqlar tarkibida sanoatning o'rni qanday?
2. O'zbekiston sanoati ishlab chiqargan mahsulot turi va hajmi to'g'risida so'zlab bering?
3. Sanoat tarmoqlar tarkibidagi oxirgi o'zgarishlar?
4. O'zbekiston yengil sanoatining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsating?
5. Mashinasozlik tarmog'ining korxonlari asosan qaysi viloyatda yaxshi rivojlangan va nima uchun?
6. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish uchun qabul qilingan loyihalar va uning ahamiyati?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. - 96 bet.
2. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
3. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
4. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
5. Soliev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., Universitet, 2003. B.71.
6. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
7. Ergashev B., V. Nelyubov. Uzbekistan: основные экономические показатели (Uzbekistan: main economic indicators) // [http:// www.cer.uz](http://www.cer.uz). 2000. № 5 str. 69-74.
8. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
9. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
10. www.ceep.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi samarali iqtisodiy markaziy rasmiy sayti.
11. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник.-T.: Uzbekistan, 2011. 99s.

4.2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi

Reja:

11. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi islohotlar.
12. Qishloq xo'jaligi yer fondi.
13. Dehqonchilik va chorvachilik
14. Fermer xo'jaliklari geografiyasi

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'idagi islohotlar

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimgi va muhim tarmoqlaridan biridir. U aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uchun xom-ashyo yetkazib berish bilan birga, sanoat mahsulotlarining eng katta iste'molchisi ham hisoblanadi. SHu boisdan islohotlarning dastlabki bosqichida mamlakat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsad qilib belgilandi, tarmoqda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiylashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinlardan birini egallagan holda, unga yalpi ichki mahsulotning 1/5 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. 2000-2010 yillarda YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi 30,1 foizdan 17,5 foizga kamaydi. Aynan shu tarmoqda aholining bandligi esa 1991-2010 yillarda 41,9 foizdan 25,2 foizga tushdi va hozirda 3,1 million kishi bu tarmoqda ishlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, qishloq xo'jaligi rivojlanishining strategik yo'li aniqlanib olindi. Bunda ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash, ya'ni don mustaqilligiga erishish, paxta yakka xokimligiga barham berish asosiy vazifalardan qilib belgilandi. 1998 yillardan qishloq joylarda bozor munosabatlarini joriy etish, mulkchilikning xususiy shaklini joriy etishga e'tibor qaratildi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industial-agrar yo'nalishga o'tishiga zamin bo'ldi. Yerga bo'lgan munosabatda yangicha tamoyillar joriy etildi. Yerni fermer xo'jaliklariga

O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan 50 yil muddatga, dehqon xo'jaliklariga umrbod foydalanishga berish tizimi joriy etildi.

1-jadval

YalMda qishloq xo'jaligi mahsulotining ulushi, foizda

Qishloq xo'jaligi mahsulot turlari	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Yalpi mahsulot	33,4	30,1	17,5
Paxta tolasi	15,9	3,6	1,9
Donli ekinlar	1,4	3,4	2,0
kartoshka	0,3	0,8	1,4
sabzavotlar	1,3	2,4	2,3
Poliz ekinlari	0,5	0,3	0,3
mevalar	0,7	0,9	1,1
uzum	0,8	0,8	0,9

Manba: Osnovnye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskiy sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.42.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan va davom etayotgan islohotlar mahsulot yetishtirishda, mahsulot hajmining o'sishida, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligi ortishida muhim bosqich bo'lmoqda. SHu boisdan, 2010 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2009 yilga nisbatan 6,8 foizga, 2000 yilga nisbatan esa 1,8 barobarga oshdi. Paxta, g'alla kabi strategik muhim qishloq xo'jaligi ekinlari bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi.

Sobiq Ittifoq davrida respublika qishloq xo'jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan, markaziy hududlar sanoatini xom ashyo bilan ta'minlovchi monokul'tura ko'rinishidagi rayon edi. Mustaqillikka erishgach bu sohada tub islohotlar olib borildi, qishloq xo'jaligi deyarli to'liq nodavlat sektoriga o'tkazildi, fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etildi, paxta yakka xokimligiga barham berildi, don (g'alla) mustaqilligiga erishildi. 2009 yilda qabul qilingan "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturida qishloq joylarda agroiqtisodiyot sohasi bilan bir qatorda transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, sport kabilarni rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berildi. Hozirgi vaqtda respublika jami investitsiya hajmining taxminan 3 foizi agroiqtisodiyotga to'g'ri

keladi. Vaholanki, bu ko'rsatkich sanoatda 35-37 %, transport va qurilishda 25 % ga teng.

2010 yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda jami 15810,7 mlrd so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Bu borada Samarqand va Toshkent viloyatlari yetakchi – ularning har biriga respublikamiz jami qishloq xo'jalik mahsulotining 13,1 foizidan to'g'ri keladi. Andijon viloyatining ulushi 10,1 %, Buxoroniki 9,2 %, Qashqadaryoniki 8,4 %, Farg'ona viloyatida esa bu ko'rsatkich 8,1 %. Eng past, agroiqtisodiyot tizimi sust rivojlangan Qoraqalpog'iston Respublikasida mazkur ko'rsatkich 3,1 %, Navoiy viloyatida 4,4 %, Jizzaxda 5,2 % ni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlar uning barcha tarmoqlarida, yer fondidan foydalanishda, mahsulot yetishtirish kabi jarayonlarda o'zining ijobiy natijasini berdi. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning ijobiy yutuqlari iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishiga, tarmoq va hududiy tarkibining takomillashuviga, iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga, umuman olganda xalq farovonligi ortishiga xizmat qiladi.

2. Qishloq xo'jaligi yer fondi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishida unda bevosita ishlatiladigan yer va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44896,9 ming ga bo'lib, shundan 99 foizi turli xil korxonalar, tashkilot va muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolar foydalanadigan yerlar bo'lsa, bu yerlarning 3714,7 ming gektarini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligidagi yerlardan foydalanishda ularni 8 toifaga ajratiladi. Buning eng asosiysi qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar hisoblanadi. Ushbu toifadagi yerlar mamlakatimizda 20487,7 ming ga bo'lib, u jami yer fondining 46,1 foizini tashkil qiladi. Keyingi o'rinda zaxira yerlar (10389,4 ming ga) hamda o'rmon fondi yerlari turadi (4274,3 ming ga).


Respublikada barcha ekin ekiladigan yerlar ikki qismdan iborat: sug'oriladigan hamda lalmi yerlar. Umumiy ekin ekiladigan yer maydoni 3708,4 ming ga (2010 y.) bo'lib, bu jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 18,1 foiziga teng, sug'oriladigan yerlar esa 3714,7 ming gani tashkil etadi. Tabiiy

holda sug'oriladigan yoki lalmi (bahorikor) yerlar Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida uchraydi. Qishloq xo'jaligida foydalanadigan boshqa yerlar orasida yaylovlar keskin ajralib turadi. Ularning umumiy maydoni 4052,0 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 93,1 foizini tashkil etadi. Ko'p yillik daraxt zorlar 3298 ming ga, pichanzorlar 107 va bo'z yerlar 82 ming ga (1-rasm).

1991-2011 yillar davomida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar miqdori respublikada 10903 ming gektarga qisqardi. Bunga boshqa turdagi yerlarning birmuncha ko'payishi sabab bo'lgan. 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra qishloq xo'jalik yerlari respublika umumiy yer maydonining 57,5 foiziga teng. Qolgan 42,5 foizi o'rmonlar, butazorlar, va boshqa yerlardan iborat. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida Qoraqalpog'iston Respublikasi 34,3 foizdan, Navoiy viloyatidagi 81,0 foizgacha farq qiladi. Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida (76-77%), Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Namangan viloyatlarida esa nisbatan uning darajasi past (45-55%). Barcha dehqon xo'jaliklaridagi ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydonida 46,1 foizini donli ekinlar, 23,9 foizini sabzavotlar, 11,5 foizini kartoshka egallagan. Xuddi shu ko'rsatkichlar fermer xo'jaliklarida quyidagicha: jami donli ekinlar 45,3; paxta 42,0; sabzavotlar 1,9; kartoshka 0,5 foiz va boshqalar tashkil etadi (2010 y).

Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar ichida sug'oriladigan yerlar katta ahamiyatga ega. Eng so'nggi yillarda, garchi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni qisqargan bo'lsada, bevosita ekin ekiladigan yerlar biroz kengaygan. Jumladan, ular 2003-2009 yillar orasida taxminan 18 ming gektarga ko'paygan. Sug'oriladigan yerlar Jizzax, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisobidan birmuncha ko'paydi. SHuningdek, Toshkent, Sirdaryo viloyati hamda Qoraqalpog'istonda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ayni vaqtda, Jizzax viloyatida 2000 yilda sug'oriladigan ekin yerlar 256,6 ming ga, 2011 yilda esa 264,5 ming ga; shunga mos holda, Qashqadaryoda 417,7 va 424,1 ming ga; poytaxt viloyatida-298,9 va 305,1 ming gani tashkil etdi. Aksincha, sug'oriladigan yer maydonlari Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm kabi

viloyatlarda biroz qisqardi. Sug'oriladigan ekin yerlari juda kam bo'lgan Navoiy viloyatida ham 92,1 ming gadan va 91,0 ming ga tushdi. Umuman olganda, sug'oriladigan ekin yerlar maydoni kattaligi bo'yicha Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyati, Jizzax, Surxondaryo hamda Samarqand viloyatlari ajralib turadi (2-jadval). Navoiy viloyatini hisobga olmaganida, qolgan mintaqalarning har birida bunday yerlar 200 ming gektardan kam emas.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer turlari (01.01.2011 y.).

Qishloq xo'jalik yerlari tarkibida yaylovlar ham katta maydonlarni egallaydi. Respublika yer fondining 46,7 foizin pichanzor va yaylovlar 14,0 % ekin yerlar, 7,0 % o'rmonzorlar tashkil qiladi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarida pichanzor va yaylovlar ko'p. Eng katta yaylovlar Navoiy viloyati (42,2 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (23,0 %), Buxoro (12,4 %) va Qashqadaryo viloyatlarida (7,0 %) joylashgan. Yaylovlar qishloq xo'jaligining, chorvachilik tarmog'ini xususan, unda go'sht, jun-go'sht yo'nalishini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo shunga qaramasdan, yaylovlar maydoni yildan-yilga qisqarib bormoqda. Aksariyat viloyatlar yer maydonida bunday yerlar ulushi juda kichik.

Respublikamizda 2008-2012 yillarga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturi qabul qilingan.

Mazkur maqsadli dasturga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo va boshqa viloyatlarda drenaj va kollektorlar, zovurlar qayta ta'mirlanmoqda, yerlarning sho'rini yuvishga, tarmoqda modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy qishloq xo'jaligi maqsadida ajratilgan yerlarning ¼ qismi birgina Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi; Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo viloyatlari ham bu borada yetakchi hisoblanishadi. Mazkur hududlar respublikadagi jami qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ¾ qismidan ko'prog'ini egallaydi.

Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek, "avvalo yerlarning unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Hozirgi vaqtda yurtimizda jami sug'oriladigan yerlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir, 23 foizdan ortig'i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi. Meliorativ holati qoniqarsiz yerlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi"¹⁵.

3-jadval

Ekin maydonlari tuzilishi

Ekin maydoni	2000 yil		2010 yil	
	Ming ga	Jamiga nisbatan, % da	Ming ga	Jamiga nisbatan, % da
Jami ekin maydoni	3778,3	100	3708,4	100
SHundan, donli ekinlar	1614,0	42,7	1679,4	45,3
boshoqlilar	1417,5	37,5	1559,9	42,1
SHundan bug'doy	1355,8	35,9	1466,3	39,5
makkajo'xori	49,2	1,3	28,3	0,8
sholi	131,8	3,5	69,2	1,9
dukkakli	7,3	0,2	17,5	0,5
Texnika ekinlari	1512,5	40,0	1417,0	38,2
SHundan; paxta	1444,5	38,2	1342,5	36,2
kartoshka	52,2	1,4	70,7	1,9
sabzavotlar	129,9	3,5	173,0	4,7
Poliz mahsulotlari	36,9	1,0	47,9	1,3

¹⁵ И.А. Каримов. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. -Т.: Ўзбекистон, 2011.Б 26.

Ozuqa, yem xashak ekinlari	429,0	11,4	320,4	8,6
----------------------------	-------	------	-------	-----

Manba: Sel'skoe xozyaystvo Respubliki Uzbekistan 2003. Statisticheskiy sbornik.-T, 2004. S. 22. Sel'skoe xozyaystvo Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik.-T, 2011. S. 21.

Qishloq xo'jaligida ekin ekiladigan yer maydonining 45,3 foizi donli ekinlar egallagan, shundan bug'doy 39,5 foiz yerga ekiladi. Ikkinchi o'rinda texnika ekinlari 38,2 foiz yerda ekiladi. Buning ham asosiy qismi paxta ekinlariga to'g'ri keladi. 2000-2010 yillarda texnika ekin maydonlarida qisqarish ro'y berdi, aksincha donli ekinlar, kartoshka, poliz ekinlari va sabzavotlar maydonlari kengaydi (3-jadvalga qarang). Xuddi shunday qisqarish sholi ekin maydonlarida ham kuzatildi, ya'ni ularning maydoni 3,5 foizdan 1,9 foizga tushdi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik geografiyasining shakllanishida hududlarning yer fondi, uning tarkibi bilan bir qatorda agroiqlimiy resurslar, ya'ni namlik (suv), harorat va tuproq, mehnat resurslari, ularning ish malakalari kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda issiq kunlar ko'p, vegetatsiya davri uzoqligi bois, ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3 martadan hosilini olish imkonini beradi. Qolaversa, mintaqalarning tuproqlari ham (asosan bo'z yoki sur tuproqlar ko'p tarqalgan) agroiqtisodiyot rivojlanishiga ancha qulaylik yaratadi. Biroq, qishloq xo'jaligining respublikadagi muammoli tomoni bu suv resurslari bilan ta'minlanishidir. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, suv resurslarining taxminan 10 foizi respublikada shakllanadi, xolos. Qolgan qismi muhim gidrologik manbalar, ya'ni Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon kabi transchegaraviy xarakterga ega bo'lgan daryolar hisobiga ta'minlanadi. Bu daryolar asosan qo'shni davlatlar – Tojikiston va Qirg'iziston hududidan boshlanadi. SHu bois, mavjud suv resurslaridan unumli foydalanish, sug'orma dehqonchilikda yangi texnologiyalarni joriy qilish, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro, xalqaro me'yor va qoidalardan kelib chiqqan holda, suv resurslarini oqilona taqsimlash respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng dolzarb muammosidir.

3. Dehqonchilik va chorvachilik

Respublika qishloq xo'jaligi ikkita yirik tarmoq chorvachilik va dehqonchilikdan iborat. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar natijasida, jami qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotining hajmi 1990 yilda 36,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda dehqon xo'jaliklarida chorva mollarining bosh soni ko'payishi hisobiga 40,6 foizga ko'tarildi. SHuningdek, go'sht yetishtirish hajmi ham sezilarli o'sdi, ya'ni ushbu davrda 789,1 tonnadan 1461,4 ming tonnaga (1,9 marta), sut 3034,2 ming tonnadan 6169,0 ming tonnaga (2 marta), tuxum 1231,8 mln donadan 3061,2 mln donaga (2,5 marta) ko'paydi. Aksincha, paxta tolasining jami qishloq xo'jaligidagi hisyasi 47,7 foizdan 11,1 foizga qisqardi. Qolgan barcha chorvachilik va dehqonchilik mahsulot turlarida mahsuldorlik va hosildorligida o'sish ro'y berdi. Masalan, donli ekin maydonlari kengayishi va hosildorligining ortishi hisobiga donli ekinlar yetishtirish hajmi 1990 yilda 7504,3 ming tonnadan 2010 yilda 2038,2 ming tonnaga ko'paydi. SHuningdek, poliz va sabzavot ekin mahsulotlari miqdori, ya'ni kartoshka 5 marta, poliz mahsulotlari 1,2 marta, mevalar 2,6, uzum 1,3 martaga oshdi.

4-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulot turlarini yetishtirishdagi o'zgarishlar

Q/x mahsulot turlari	O'lchov birligi	1990 yil		2000 yil		2010 yil	
		jami	Jamiga nisbatan, foizda	jami	Jamiga nisbatan, foizda	jami	Jamiga nisbatan, foizda
Yalpi mahsulot	Mlrd so'm	11,1 ¹⁶	100	1387,2	100	15810,7	100
SHundan:							
Paxta-tolasi	Ming tonna	5057,7	47,7	3002,4	11,8	3442,8	11,1
Donli ekinlar	Ming tonna	2038,2	4,1	4101,4	11,4	7504,3	10,8
Kartoshka	Ming tonna	336,4	1,0	731,1	2,6	1694,8	8,6
Sabzavotlar	Ming tonna	2842,5	3,8	2644,7	8,1	6346,5	16,3
Poliz mahsulotlari	Ming tonna	1000	1,4	451,4	1,0	1182,4	2,1
mevalar	Ming tonna	660,4	2,0	790,9	3,0	1710,3	4,7
uzum	Ming tonna	744,7	2,5	624,2	2,6	987,3	4,5
Go'sht (tirik vaznda)	Ming tonna	789,1	20,1	841,8	23,8	1461,4	24,9
Sut	Ming tonna	3034,2	10,0	3632,5	14,9	6169,0	11,5

Tuxum	Mln dona	1231,8	1,1	1254,4	3,0	3061,2	2,7
jun	Ming tonna	25,8	2,3	15,8	0,1	26,5	0,1

Mlrd rubl.

Manba: Osnovnyye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskii sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.46.

Respublika qishloq xo'jaligida dehqonchilik muhim va yetakchi tarmoqlardan sanaladi. Dehqonchilikning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi 2011 yilda 59,4 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik asosan, sug'orma va lalmikor dehqonchilikka tayaniladi. Lalmikor dehqonchilikda (bug'doy, arpa, zig'ir, kunjut, no'xat, ozuqabop ekinlar, bog'dorchilik, uzumchilik) yetishtirilgan mahsulotlar hajmiga ko'ra juda kam ulushga ega. Asosiy dehqonchilik mahsulotlari sug'oriladigan yerlardan olinadi va uning hosili lalmikor dehqonchilikka nisbatan 3-5 marta ko'p bo'ladi. Sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan texnika, donli ekinlar, sabzavot-kartoshka, poliz, yem-xashak ekinlari dehqonchilik yalpi mahsulotining 98-99 foizini beradi. Jumladan, yuqorida ta'kidlanganidek, islohotlar davrida texnika ekinlaridan paxta ekiladigan yer maydonlarining qisqarishi, paxta-tolasining, boshqa dehqonchilik mahsulot turlariga nisbatan mahsulot hajmining kamayishiga olib keldi. Masalan, 1990 yilda respublika bo'yicha yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 47,7 foizini paxta tolasini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu raqam 11,1 foizga teng bo'ldi. Aksincha, donli ekinlar ulushi 4,1 foizdan 10,8 foizga ko'tarildi.

Paxtachilik. Paxtachilik dehqonchilikning yetakchi tarmog'i bo'lib, uning asosiy mahsuloti paxta tolasini va paxta moyi hisoblanadi. 1 t paxta xom ashyosidan o'rtacha 320-350 kg tola (3500 m.kv gazlama), 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. 620 kg chigitdan esa 110 kg moy, 225 kg kunjara, 175 kg shulxa, 35 kg lint, 30 kg tuk chiqadi.

O'zbekistonda 2,5 ming yildan beri paxta yetishtirilib kelayotgan bo'lishiga qaramay, uning yangidan-yangi navlari yaratilmoqda. Mustaqillik yillarida respublika olimlari tomonidan 100 dan ortiq ingicha va o'rta tolali "Buxoro-6", "S-6524", "Namangan-77", "An-Boyovut-2", "Buxoro -8", Buxoro-102" kabi hosildorligi yuqori bo'lgan paxta navlarining yaratilganligi paxta hosildorligining

ortishiga olib keldi. Bu yangi yaratilgan paxta navlari o'zining tez pishishi, kasalliklarga chidamliligi, paxta tolasining sifatliiligi va jahon bozorida talab yuqorililigi bilan ajralib turadi. O'zbekiston dunyoda paxta ekadigan o'nta davlatning beshinchisi, ya'ni Xitoy, Amerika Qo'shma SHatlari, Hindiston va Pokistondan keyingi o'rinda turadigan, eng shimolda paxta yetishtiradigan davlatdir. Paxta tolasining hosildorligi 1990 yilda respublikada gektariga 22,6 tsentnerdan bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda 25,6 tsentnerga ko'tarildi. 2010 yila mamlakat bo'yicha 1342,5 ming gektar yerga paxta ekilib, 3404,0 ming tonna yalpi hosil olindi. Paxta ekin maydoni Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida nisbatan katta. Aksincha, Namangan, Navoiy, Samarqand viloyatlarida uning darajasi 100 ming gektarga yetmaydi.

Respublikaning barcha viloyatlarida o'rta tolali, Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ingichka tolali paxta ekiladi. Ko'p yillarda respublika eksportining asosiy mahsuloti paxta tolasini hisoblangan. Ammo 1990-2010 yillarda paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi 47,9 foizdan 11,3 foizga qisqardi.

5-jadval

Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi (ts/ga)

Q/x mahsulot turlari	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Paxta tolasini	22,6	21,8	25,6
Donli ekinlar	20,2	28,2	44,2
kartoshka	80,0	129,3	194,9
sabzavotlar	192,0	183,8	252,5
Poliz mahsulotlari	115,0	132,4	192,6

Manba: Osnovnye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za godyi nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskii sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.45.

Texnika ekinlaridan tamaki asosan Samarqand viloyatining Urgut tumanida yetishtiriladi, yalpi hosili 12307 tonna, hosildorligi 16,2 ts/ga. SHuningdek, qisman Qashqadaryo viloyatining SHahrisabz va Yakkabog' tumanlarida ham yetishtirilgan. Yetishtirilgan tamaki Urgut tamaki fermentlash "O'z BAT" fabrikasida qayta ishlanadi. Bu fabrika "British Ameriken tobakko" kompaniyasining Samarqandda O'zbekiston bilan hamkorlikda qurilgan

korxonasidir. Urgut tumani Samarqand sigareta fabrikalarini ham tamaki xom ashyosi bilan ta'minlaydi.

Texnika ekinlaridan lavlagi ekini qishloq xo'jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biridir. Qand lavlagi, ozuqa manbai sifatida ekiladigan xashaki lavlagi, sabzavot sifatida ishlatiladigan qizilcha lavlagi respublikamizning deyarli barcha hududlarida ekiladi. Bulardan tashqari O'zbekistonning eng muhim ekini bu donli ekinlar, xususan bug'doy, arpa, javdar, suli, sholi, makkajo'xori, tariq, dukkakli ekinlar, no'xat, mosh, loviya, yeryong'oq, moyli don ekinlari-zig'ir, kunjut, soya, mahsar, kungaboqar va boshqa ekinlar respublikaning barcha mintaqalarda yetishtiriladi.

Bug'doy ekini qadimgi tarmoqlardan biri bo'lgan, ammo u ilgarilari asosan lalmikor yerlarda ekib kelingan. Respublikaning bug'doyga bo'lgan ehtiyoji ko'p yillarda boshqa davlatlardan keltirilgan g'alla hisobiga qondirilgan. Mustaqillik yillarida don mustaqilligiga erishildi, bug'doy ekin maydonlari kengaytirildi, sug'oriladigan yerlarga g'alla ekila boshlandi. 1990-2010 yillarda donli ekinlar hosildorligi gektariga 20,2 tsentnerdan 44,2 tsentnerga oshdi. Bugungi kunda donli ekinlar 1679,4 ming gektar yerga ekilmoqda, yoki jami ekin ekiladigan yerlarning 45,3 foizini egallamoqda, bundan boshqali don ekinlari 42,1 foizga teng. Bug'doy ekin maydoni 39,5 foizni tashkil etadi. Respublikada asosan bug'doyning kuzgi va bahorgi turi ekiladi.

Donli ekinlarning yalpi hosiliga ko'ra Qashqadaryo, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlari oldingi o'rinlarda turadi. Donli ekinlardan Respublikada 2000 yilda 3532,0 ming tonna bug'doy olingan bo'lsa, 2010 yilda ushbu raqam 6657,3 ming tonnaga yetdi. Bug'doyning yalpi hosiliga ko'ra ham yuqoridagi viloyatlar yetakchilik qilishadi.

Donli ekinlardan sholi respublikaning Xorazm, Andijon, Sirdaryo, viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida asosan ekiladi. SHoli ekin maydonlari yildan-yyilga qisqarib boryapti, masalan, respublikada 2000 yili 131,8 ming gektar yerga sholi ekilgan bo'lsa, 2010 yilda 69,2 ming gektarga to'g'ri

keldi. SHunga mutanosib ravishda sholi mahsuloti ham 1,4 martaga kamayib ketdi. 2010 yilda mamlakat bo'yicha 244,8 ming tonna sholi olindi.

Makkajo'xori o'tgan asrning ikkinchi yarmidan don va silos bostirish maqadlarida ekila boshlangan. Makkajo'xori ekini ham sholi singari ekin maydonlari ko'rilayotgan yillar davomida 1,7 barobarga qisqardi. 2000 yilda 49,2 ming gektarga makkajo'xori ekilgan bo'lsa, 2010 yilda 28,3 ming gektarga tushdi. Mahsulot hajmida esa aksincha, ushbu davrda 130,6 ming tonnadan 230,4 ming tonnaga o'sish kuzatildi.

O'zbekistonda sabzavot, poliz va kartoshka mahsulot turlari ko'paydi va ekiladigan yer maydonlari ham kengaydi. Ekin hosildorligi jihatdan eng yuqori bo'lgan ekinlar ham aynan mana shu sabzavot, poliz va kartoshka mahsulotlari hisoblanadi. Chunki, respublikadagi qulay iqlim sharoiti, sug'orma dehqonchilik bu ekinlarning hosildorligi yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu ekinlar O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida ekiladi. Faqat ular viloyatlarning geografik joylashgan o'rnidan kelib chiqib turlicha darajada pishib yetiladi. Masalan, eng shirin qovun-tarvuz Mirzacho'l mintaqasida, ertangi sabzavot va poliz mahsulotlari Janubiy viloyatlarda va hakoza.

Bog'dorchilik va uzumchilik ham eng qadimgi tarmoqlardan biri bo'lib, mevalarning barcha turi, shirindan-shakar uzum navlari butun O'zbekiston bo'ylab ekilgan. Uzumchilik ham bog'dorchilik bilan birga hududiy tashkil etiladi. Jumladan, uzumchilik barcha viloyatlarda mavjud, ammo Samarqand viloyatining Qo'shrabot va Nurobod tumanlarida, Toshkent viloyatining Parkent tumanida nisbatan keng yoyilgan va yaxshi yo'lga qo'yilgan. Uzum yetishtirish bo'yicha Parkent tumani nafaqat viloyatda, balki respublikada eng mashhur tumanlardandir. Aynan mana shu tumanlarda uzumchilikning rivojlanganligi tufayli, Samarqand (260,0 ming tonna) va Toshkent viloyati (115,5 ming tonna) respublikada eng ko'p uzum hosilini beradi. Oxirgi yillarda juda katta bog'lar tashkil etildi, yo'q bo'lib ketgan uzumzorlar qayta tiklana boshlandi. SHu boisdan, respublikada uzumning yalpi hosili 2000-2010 yillarda 624,2 ming tonnadan 987,3 ming tonnaga ko'tarildi. Viloyatlar miqyosida Andijon, Jizzax, Farg'ona, Sirdaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlarida uzum

yalpi hosili mazkur davrda 2,0-2,4 barobarga ko'paydi. Aksincha, birgina Surxondaryo viloyatida 1,1 martaga qisqardi.

Chorvachilik. Respublikada chorvachilikning barcha turi rivojlangan, ayniqsa qo'ychilik, qoramolchilik, parrandachilik, asalarichilik keng taraqqiy etgan. Chorvachilik tarmog'ida yaratilayotgan mahsulotlar jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 40,6 foizini (2011 y.) tashkil etadi. Qoramolchilik sut-go'sht yo'nalishida taraqqiy etgan bo'lib, go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik tog' va tog' oldi mintaqalarida yo'lga qo'yilgan. Qoramollarning bosh soni O'zbekistonda 9094,7 ming bosh, sigirlarniki esa 3758,1 ming boshga yetgan. Har ikkalasining ham umumiy miqdori o'tgan yillarga nisbatan muntazam ko'payib kelmoqda (6-jadvalga qarang). Yirik shoxli qoramollarning eng ko'pi Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lganligi sababli ham, ushbu viloyatlar respublikada asosiy go'sht yetkazib berayotgan mintaqalar hisoblanadi. Masalan, mamlakat bo'yicha olinayotgan go'sht mahsulotining (855,0 ming tonna) 13 foizi Samarqand viloyatiga, 11,8 foizi Toshkent viloyatiga, 11,5 foizi Qashqadaryo viloyatiga, 9,3 foizi Buxoro viloyatiga to'g'ri keladi. Qolgan viloyatlarda uning ulushi 10 foizga yetmaydi.

Qo'ychilik Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarining adir va tog' mintaqalarida rivojlangan. Qo'ychilikda uning dag'al jun va go'sht-yog' beruvchi hisori hamda jaydari qo'y zotlari, qorako'l qo'ylarini boqish va undan sifatli teri olish muhim o'rin tutadi. Hisori qo'ylari respublikaning tog' va tog' oldi mintaqalarida boqiladi. Jaydari qo'ylar esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatidan tashqari qolgan barcha viloyatlarda keng tarqalgan. Jaydari qo'ylarga nisbatan Hisori qo'ylarining vazni 180-190 kggacha, yillik jun mahsuldorligi 1,0-1,2 kg. Jaydari qo'ylarida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 45-50 kg; 2,0-2,5 kgdir.

O'zbekiston bo'yicha barcha xo'jaliklarda olinadigan yillik jun mahsuloti 26510 tonnani (2011 y) tashkil etadi. Jun ishlab chiqarish hajmi 2005-2011 yillarda respublikada 117,9 foizga o'sdi. Asosiy jun yetkazib berayotgan viloyatlarga Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Jizzax kiradi.

**O'zbekiston Respublikasida ayrim chorva mollari bosh sonidagi
hududiy-dinamik o'zgarishlar**

Hududlar	Yirik shoxli qoramollar		sigirlar		Qo'y va echkilar	
	2000	2010	2000	2010	2000	2010
Qoraqalpog'iston Respublikasi	382,6	760,1	161,3	254,1	435,8	764,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	441,0	735,0	185,3	307,6	507,3	890,5
Buxoro	428,0	883,9	184,7	365,0	813,9	1563,2
Jizzax	283,0	611,2	128,9	217,9	803,8	1363,8
Navoiy	174,4	332,4	89,0	418,5	1056,5	1745,8
Namangan	348,7	520,0	136,8	150,1	479,6	614,2
Samarqand	794,0	1191,3	353,5	568,8	893,3	1647,6
Sirdaryo	171,1	282,8	71,5	113,6	110,7	191,8
Surxondaryo	446,4	689,4	215,1	303,4	975,1	1701,0
Toshkent	387,5	629,8	180,1	285,4	389,2	645,0
Farg'ona	464,9	723,6	196,2	307,8	392,1	624,8
Xorazm	450,0	694,3	186,3	280,7	208,9	355,4
Qashqadaryo	581,8	1040,9	254,7	418,5	1866,3	3233,5
Jami	5353,4	9094,7	2343,4	3758,1	8932,5	15340,9

Manba: Sel'skoe xozyaystvo Respubliki Uzbekistan 2003. Statisticheskij sbornik.-T, 2004. S. 137, 141, 145. Sel'skoe xozyaystvo Uzbekistana. Statisticheskij sbornik.-T, 2011. S. 135, 139, 143.

Qo'ychilikning qorako'lchilik tarmog'i qadimdan mavjud bo'lgan bo'lib, bu qo'ylar asosan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining cho'l zonasida boqiladi. Chunki, ulardan olinadigan terining mahsulot sifati shu joyning iqlimi, harorati, suvi bilan bevosita bog'liq. Shu boisdan, respublikamizning iqlimi issiq, yaylovlarning suvi sho'r, hududi cho'ldan iborat bo'lgan viloyatlaridagina bu tarmoq yaxshi rivojlangan. Qorako'l teri olish 2000-2010 yillarda 125,1 foizga o'sgan holda, 2010 yilda respublika bo'yicha 934,9 ming dona qorako'l terisi tayyorlandi. Asosiy teri mahsulotini dehqon xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi korxonalarida yetkazib berishmoqda.

Echkilar respublikaning tog' va tog' oldi mintaqalarida boqiladi va u asosan go'sht, serqaymoq va shifobaxsh sut, jun, teri hamda tivit beradi. Farg'on vodiysida, xususan Namangan viloyatida mayin oq tivit beradigan angor echkilari

boqiladi. SHuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida ham echkichilik rivojlangan. Mamlakat bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 15340,9 mingtani tashkil etadi. Bundan, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari qo'y va echkilar soni ko'pligi bo'yicha yetakchi hisoblanadi (6-jadval).

CHO'chqachilik yirik shaharlar atrofida va g'allachilik mintaqalarida tashkil etilgan bo'lgan. Ammo hozirda chorvachilikning bu tarmog'i juda qisqarib ketdi. SHunga qaramasdan, respublikadagi cho'chqalarning umumiy bosh soni 100 ming boshga (2011 y) yetdi va 2000-2011 yillar davomida 64,1 foizga kamayib ketdi. Biroq, Samarqand (9,6 ming bosh), Toshkent (35,8 ming bosh), Buxoro (10,0 ming bosh), Navoiy (18,6 ming bosh) va Sirdaryo (7,3 ming bosh) viloyatlari cho'chqalarning bosh soni bo'yicha oldingi o'rinni egallaydi. Farg'ona vodiysidan tashqari qolgan barcha viloyatlarda cho'chqa boqiladi, ammo ularning soni aydarli darajada ko'p emas. Quyunchilik ham cho'chqachilik singari tez ko'payish imkoni yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri. Bu tarmoqni rivojlantirish ko'proq shaxsiy va fermer xo'jaliklarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Parrandachilik serdaromad tarmoqlardan biri bo'lib, keyingi yillarda tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Respublikaning hamma viloyatlarida tuxum, parhez go'sht beradigan parrandachilik tarmog'ining korxonalari mavjud. Samarqand, Toshkent viloyatlarida yirik broyler jo'jalarini yetishtirishga mo'ljallangan korxonalar ishlab turibdi. Respublika bo'yicha parrandalar soni 3958,6 ming bosh bo'lib, bu ko'rsatkich 2005 yilga nisbatan 300 foizga oshdi. Parrandalar bosh soni ko'payishi oqibatida, tuxumlar soni ham 2000-2010 yilning o'zida 2,4 martaga ko'paydi (7-jadvalga qarang). Respublikada olinayotgan tuxumning (3061,2 mln dona) eng ko'pini Toshkent (871 mln dona), Samarqand viloyatlari (576,9 mln dona) yetkazib bermoqda. SHuningdek, Andijon, Xorazm, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari ham mamlakatda parranda tuxumi soni yetkazib berish bo'yicha yetakchi hisoblanishadi. Bu borada, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari biroz orqada.

**O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari asosiy turlarini yetishtirish,
ming tonna (2000-2010 yy..)**

Mahsulot turlari	Barcha xo'jaliklar		Ferma xo'jaliklari		Dehqon xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi korxonalar	
	2000 yil	2010 yil	2000 yil	2010 yil	2000 yil	2010 yil	2000 yil	2010 yil
go'sht	501,8	855,0	36,8	21,8	6,6	812,3	458,4	20,9
sut	3632,5	6169,0	176,5	205,0	54,1	5927,8	3401,9	36,2
tuxum, mln dona	1254,4	3061,2	490,6	288,1	12,0	1775,5	751,8	997,6
Jun	15,8	26,5	3,9	1,7	0,2	22,0	11,8	2,8
Qorako'l terisi, ming dona	747,6	934,9	499,3	44,1	8,2	632,1	240,1	258,7
pilla	16,5	25,2	16,2	24,7	0,3	-	-	0,5

Manba: Sel'skoe xozyaystvo Respubliki Uzbekistan 2003. Statisticheskiy sbornik.-T, 2004. S. 29-30. Sel'skoe xozyaystvo Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik.-T, 2011. S. 29-30.

Pillachilik bo'yicha respublika dunyoga mashhur davlatlardan biri. Pillachilik tarmog'i paxtachilik bilan birga qo'shib olib boriladi. Tut, ipak qurti urug'ini tayyorlash, pilla yetishtirish barcha viloyatlarda bor. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ipak qurti boqish 4 – asrda Xitoydan O'rta Osiyoga tarqalgan, 1913 yilda 4 ming tonnaga yaqin pilla yetishtirilgan bo'lsa, uning 90 foizi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Hozirga kelib mamlakatimizda yiliga 25,2 ming tonna pilla olinadi (7-jadvalga qarang). Yetishtirilayotgan pillaning 98 foizi fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda. Respublikdagi 10 ga yaqin pillakashlik fabrikasi o'zimizda yetishtiriladigan pillani qayta ishlaydi. Ammo ma'lum bir vaqt oralig'ida pilla yetishtirish keskin kamayib ketdi, ko'pgina tut daraxtlari kesilib yuborildi, hozirga kelib (yillik o'sish 104,9 %) yana bu tarmoqni rivojlantirishga alohida e'tibor berilyapti.

Baliqchilik O'zbekistonning tabiiy suv havzalaridan qadimdan mavjud bo'lgan. Ilgarilari baliqning asosiy qismini Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo havzalari yetkazib bergan. Orol dengizi suv sathi kamayishi evaziga sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirish rivojlandi. Umuman mamlakatdagi ko'l va daryolarda 62 ga yaqin baliq turi yashaydi. Bulardan, zog'ora baliq, do'ngpeshona, sudak,

oqcha, tobonbaliq, ilonbosh, cho'rtan, qizilko'z alohida ahamiyatga ega. Yirik baliqchilik xo'jaliklari Jizzax, Toshkent, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida tashkil etilgan. Aydarko'l tizimining kengayib borishi baliqchilikning rivojlanishiga imkon berdi. SHuningdek, Toshkent viloyatidagi "Damachi" hovuz baliqchilik xo'jaligi ham baliq yetkazib berishga xizmat qilmoqda.

Asalarichilik tarxi uzoq yillarga borib taqalsada, oxirgi yillarda tezlik bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Qolaversa, ushbu tarmoqni respublikada rivojlantirish va yo'lga qo'yish uchun yetarli shart-sharoit mavjud. O'zbekistonning tog' va tog' oldi mintaqalarining asali o'zining xushbo'yligi va shifobaxsh ekanligi bilan mashhur. Har yili 20 ming tonnadan ko'p asal olinadi. Asalni yilda ikki marta, may-iyun va avgust-sentyabr oylarida olishadi.

Darrandachilik tarmog'i juda keng rivojlangan bo'lmasada, Quyi Amudaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida ondatra, nutriya, tulki, norkalar qimmatbaho mo'yna olish maqsadida boqiladi.


4. Fermer xo'jaliklari geografiyasi

O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida fermer xo'jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Fermer xo'jaligining boshqa jamoa, shirkat yoki hissadorlik kabi yirik xo'jaliklardan asosiy farqi va ustunlik tomoni fermerning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita birgalikda, ya'ni mulk va mehnat natijalarini tasarruf etish buyicha masalalarni mustaqil hal etishida bo'lib, uning iqtisodiy negizini ishlab chiqarish vositalariga (er bundan mustasno) va o'z mehnati natijalariga mulkiy egalik tashkil etadi. Fermer xo'jaligida tadbirkorlik erkinligi, oila hamda shaxsning o'z moddiy farovonligi yulida mehnat qilishiga tayanish muhim o'rin tutadi. Respublikada fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 01.01.2011 y. ma'lumotlari bo'yicha jami 71981 ta fermer xo'jaliklari qayd etilgan. Fermer xo'jaliklarining miqdoriga ko'ra Samarqand va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilishadi. Bu hududlarning har biriga mamlakatimizdagi jami fermer xo'jaliklarining 12,1 -10,7 foizi to'g'ri

keladi. Qashqadaryo va Namangan viloyatlari ham ushbu xo'jalik soniga ko'ra oldingi o'rinlarni egallaydi. Fermer xo'jaliklari soni 1991 yildan 2007 yilgacha muttasil ortib borgan. Masalan, 2000 yilda fermer xo'jaliklari soni 43,7 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda esa uning soni 5 martaga yaqin ko'paydi, ya'ni 217,1 mingtaga yetdi. Biroq, keyingi 2007- 2010 yillarda fermer xo'jaliklari soni 3 martaga kamaydi (2-rasm). Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077-sonli "Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish (optimallashtirish) choralari ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi tufayli bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydoni 2 baravarga (27 gektardan 56 gektarga) kengaytirilganligi sababdir. Hozirda o'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydoni ko'rilayotgan davrda 4 baravarga ko'paygan holda, 2010 yilda 80 gektardan oshib ketdi. Bu esa o'rtacha bir fermer xo'jaligi a'zosiga to'g'ri keladigan yer maydonining 2007-2010 yillarda 169,2 foizga o'sishiga olib keldi. 2000-2010 yillar davomida respublika fermer xo'jaliklariga biriktirilgan ekin maydonlari 6,5 martaga ko'paydi. Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydoni Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasida nisbatan katta. Mazkur hududlardagi fermer xo'jaliklariga o'rtacha 10 gektardan ko'p yer tegishlidir. Ayni paytda Andijon, Xorazm, Sirdaryo hamda Navoiy viloyatlarida bu ko'rsatkichlar nisbatan past. Respublikada o'rtacha har bir fermerga 80 ga yer maydoni to'g'ri kelmoqda.

Республика ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотида фермер хўжалиқларининг
улуши (фоизда)



O'zbekistonda 2010 yil ma'lumotiga ko'ra, jami fermer xo'jaliklari 5826,8 ming gektar yer maydonida ish olib borishmoqda. Mazkur fermer xo'jaliklarining optimallashtirilishi natijasida ularda ishlayotgan ishchilar miqdori kamaydi. Bugungi kunda respublikada o'rtacha har bir fermerga 18,5 nafar ishchi-xodim to'g'ri kelgan holda, jami fermer xo'jaligida ishlayotganlar 1500ga yaqin bo'lib, ularning soni ko'rilayotgan yillarda kamayib bormoqda. Masalan, 2008 yilda – 1754,0 ming kishi fermer xo'jaligida ishlagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda – 1330,5 ming kishiga teng bo'ldi.

Respublika fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi jami qishloq xo'jaligi va dehqon xo'jaliklariga nisbatan jadal ko'payib bormoqda. Jumladan, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda fermer xo'jaliklarining ulushi 2000-2010 yillarda 35 foizgacha ko'tarildi. Ayni vaqtda ushbu ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 43,1 %, Qashqadaryoda 41,9 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida-40,2 % ga teng bo'lgan bo'lsa, aksincha, Navoiy, Buxoro va Namangan viloyatlarida uning darajasi umummamlakat ko'rsatkichidan biroz past. Mazkur xo'jaliklarining qishloq xo'jaligidagi tarmoqlar tarkibidagi o'rni ko'proq dehqonchilikda ko'rinadi, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda esa aksincha, dehqon xo'jaliklari faol ishtirok etishadi. Masalan,

2005 yilda fermer xo'jaliklari jami dehqonchilik mahsulotlarining 41,6 foizini yetkazib bergan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 60 foizga teng bo'ldi.

Fermer xo'jaliklari geografiyasida joylarning rel'efi (er usti tuzilishi), yersuv resurslari bilan ta'minlanganligi, agroiqlimiy resurslar (namliq, harorat, tuproq), geografik o'rni, geoeologik vaziyati, qishloq xo'jaligining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda ma'lum tafovutlar kuzatiladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlar nimalarda namoyon bo'lmoqda?
2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligida yalpi ichki mahsulotning qancha mahsuloti yaratiladi?
3. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlariga nimalar kiradi?
4. Respublika yer fondining tuzilishi?
5. Dehqonchilikda qaysi ekin maydonlari keskin qisqarib ketgan?
6. Ingichka tolali paxta mamlakatning qaysi hududida ko'plab yetishtiriladi?
7. Qo'y va echkilar soni bo'yicha qaysi viloyat yetakchi va nima uchun?
8. Qorako'l qo'ylari respublikaning qaysi mintaqalarida asosan boqiladi va nima uchun?
9. Fermerchilik qanday xo'jalik va uning rivojlanishi?
10. Uzumchilik rivojlangan mintaqalarni ajratib ko'rsating?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. - 96 bet.
17. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
18. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
19. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
20. Abdug'aniev A.A Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.-T.: TDIU. 2004. B.67-74.
21. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.- T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
22. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent:Universitet,- 2003y.
23. Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T.: "Fan va texnologiya", 2009. 134-146 b.
24. Soliev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., Universitet, 2003. B.71.
25. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
26. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
27. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
28. www.ceep.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi samarali iqtisodiy markaziy rasmiy sayti.
29. Sel'skoe xozyaystvo Respubliki Uzbekistan 2003. Statisticheskiy sbornik.-T, 2004.
30. Sel'skoe xozyaystvo Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik.-T, 2011.

4.3. Tashqi iqtisodiy aloqalari

Reja:

1. Jahon xo'jalik aloqalari rivojlanishidagi zamonaviy an'analar va O'zbekistonning xalqaro savdoda tutgan o'rni.
2. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining yangi jihatlarini.
3. Tashqi savdo aylanmasi (eksport-import).

1. Jahon xo'jalik aloqalari rivojlanishidagi zamonaviy an'analar va O'zbekistonning xalqaro savdoda tutgan o'rni

Dunyo xo'jaligining zamonaviy ko'rinishida tashqi iqtisodiy aloqalarning tezlik bilan rivojlanishi, YaIMda o'sish yuqori bo'lgan davlatlarning tashqi savdoda faol ishtiroki kuzatilmoqda. Oxirgi yillarda xalqaro savdoda tovarlar 10 baravarga ko'paydi, holbuki dunyo YaIMda o'sish 4 martani tashkil etdi. Xalqaro mehnat taqsimotiga barcha davlatlar jalb etilgan, ko'pgina davlatlar tovar mahsulotining eksporti hisobiga o'zining daromadlarini oshirib bormoqda. Bularni "iqtisodiyoti ochiq" mamlakatlar, deb nomlashmoqda. Mazkur davlatlar asosan G'arbiy Yevropa, Xorijiy Osiyo, SHimoliy Amerika mintaqasi davlatlaridir. Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya va Okeaniya davlatlariga dunyo savdo hajmining 10 foizi ham to'g'ri kelmaydi. MDH davlatlarida bu ko'rsatkich 2 foizdan oshmaydi.

Tashqi savdo aylanmasida AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Frantsiya yetakchilik qilayotgan bir vaqtda, oxirgi yillarda o'tish iqtisodiyotini boshidan o'tkazayotgan davlatlarning jahon savdosida ulushi ko'payayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa, ushbu guruh davlatlarining jahon xo'jaligida tobora integratsiyalashuvi, davlatlararo iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar, savdo, ishlab chiqarish, fan-texnika va boshqa sohalarda aloqalarning o'rnatilishi bilan chambarchas bog'liq. Oxirgi 20 yilda iqtisodiyoti rivojlanayotgan, o'tish bosqichini boshidan o'tayotgan davlatlarning dunyo bozorida eksport hajmi 10 barobarga ko'paydi va jahon eksport hajmining 6 foizini tashkil etdi. O'zbekiston bu borada muvaffaqiyatli ishtirok etish, sifatli tovarlar ishlab chiqarish va uni bozorga taqdim etish hamda jiddiy o'rinlardan birini egallashga harakat qilmoqda.

Dunyoda so'nggi 10 yilda xalqaro savdoda mahsulotlarning tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo xom-ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishi va tayyor buyumlarga bo'lgan talabning ortishida namoyon bo'lyapti. Jumladan, o'tgan asrning 60 yillarida xalqaro savdoning yarmidan ko'pini xom ashyo, yoqilg'i, va yarim fabrikatlar egallagan bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning salmog'i $\frac{1}{4}$ ga teng bo'lgan holda tushib boryapti. Ayni vaqtda tayyor mahsulotlar miqdori va unga talab o'smoqda.

Sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar eksportida mashina va jihozlar asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, AQSH eksportining yarmidan ko'pi, Buyuk Britaniya $\frac{1}{2}$, Yaponiya $\frac{2}{3}$, Kanada, Frantsiya va Italiya eksportining $\frac{2}{5}$ qismi aynan shu mahsulot turlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston eksporti hajmida mashina va jihozlar 5,5 foizni tashkil etadi.

Dunyo mahsulotlariga bo'layotgan talab kundan-kunga ortib borayotgan bir vaqtda, ayniqsa, uning ilm talab va litsenziyalangan mahsulotlarga ehtiyoji tobora yuqori bo'lmoqda. Holbuki, bugungi kunda litsenziyalangan mahsulotlar jahon savdo aylanmasida eng tez almashinayotgan mahsulotlar sirasiga kiradi. Ilm talab mahsulotlarni eksport qilayotgan davlatlarga AQSH, Germaniya va Yaponiya misol bo'ladi. SHu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar xalqaro savdoda bu mahsulot turi bo'yicha eng faol ishtirokchi sifatida qatnashishmoqda. Ular jahon bozorida nafaqat iste'molchi, balki yangi texnologiyalarni yetkazib beruvchi sifatida ham namoyon bo'lishmoqda. O'zbekiston eksportida hozircha bunday mahsulotlarning ulushi juda kichik. Xalqaro savdoda ilm talab mahsulotlarning eksportida Rossiyaning hissasi 0,3 foiz, Xitoyniki 6 foiz, deb baholanmoqda.

Dunyo eksporti xizmatlar hajmining yarmidan ko'pini xalqaro turizm ($\frac{1}{3}$) va transport xizmatlari ($\frac{1}{5}$) tashkil etadi. Xalqaro savdoda xizmatlar bo'yicha AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Frantsiya yetakchilik qilishadi. Jahon savdosini boshqarish va liberallashtirishda Butunjahon savdo tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Butunjahon savdo tashkiloti umum tamoyil va qoidalar asosida xalqaro savdoni amalga oshiruvchi ko'p tamonlama xalqaro, davlatlararo kelishuvlar asosida ish olib boradigan tizim. 2006 yilda bu tashkilotga 149 ta davlat a'zo bo'lib


kirdi, 20 dan ortiq davlatlar shu jumladan, O'zbekiston ham unga a'zo bo'lib kirishning turli bosqichlarida turibdi.

Jahon xo'jaligining internatsionalizatsiyalashuvi tashqi iqtisodiy aloqalarning regionlashtirishga olib kelmoqda. Oxirgi 10 yillikdagi integratsiya jarayonlari regionlar darajasida davlatlarning turli iqtisodiy birlashmalari shakllanishiga sabab bo'ldi. Bularning paydo bo'lishi xilma-xil iqtisodiy, siyosiy va tarixiy xarakterga ega shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Hozirgi paytda mazkur regional guruhlar miqyosida jahon savdo va xizmatlarning 60 foizdan ko'pi amalga oshirilmoqda. Mazkur tashkilotlarga misol qilib Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi, Yevropa ittifoqi, SHimoliy Amerika erkin savdo zonasi va MDH davlatlarini keltirish mumkin. Bulardan MDH davlatlari bilan O'zbekistonning integratsiya aloqalari nisbatan kuchli desak, mubolag'a bo'lmaydi.

2.O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining yangi jihatlari

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi turli davlatlar bilan integratsiyalashuviga jahon xamjamiyatiga tanilishiga sabab bo'ldi. Hozirda O'zbekiston 120 ga yaqin davlat bilan diplomatik munosabatlarga ega, bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol ish olib boradi. 4000 ga yaqin xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar respublikamiz hududida faoliyat yuritmoqda. Respublikaning xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki avvalo uning tabiiy geografik xususiyatlari, madaniy, tarixiy shart-sharoiti, qator imkoniyat va salohiyati bilan chambarchas bog'langan. Bugungi kunda xalqaro mehnat taqsimotida tashqi aloqalarni kengaytirish uchun mamlakatimizda barcha imkoniyat va sharoitlar mavjud. SHu boisdan, O'zbekiston yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan hamkorlik qilmoqda. Respublikada yaratilayotgan turli-tuman mahsulotlar jahon bozoriga chiqarilyapti. Import hajmi eksport hajmidan kam bo'lmoqda, tashqi savdo aylanmasi ijobiy foyda bilan yakunlanmoqda. Jumladan, 1990 yilda respublika tashqi savdo aylanmasi 805,6 mln dollarni, shundan eksport 442,7 mln dollar, import esa 362,9 mln dollarga teng, tashqi savdodan qolgan qoldiq ijobiy 80 mln dollar bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda yoki o'tgan 20 yil davomida

tashqi savdo aylanmasida 27,1 martaga, shundan eksport hajmi 29,5; import esa 24,2 barobarga o'sish kuzatildi. 2010 yilga kelib tashqi savdo aylanmasining hajmi 21842,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Hozirgi murakkab sharoitda, dunyo davlatlari bilan jahon bozorida aloqalar o'rnatish, eksport hajmini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilish eng muhim vazifalardandir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish respublika iqtisodiyotining barcha tarmoq va sohalarini yanada rivojlantirish, aholi turmush farovonligini o'stirish kafolatlaridan biridir. SHu boisdan, bugungi kunda O'zbekiston 65 dan ortiq yirik xalqaro tashkilotlar, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa taraqqiyot va tiklanish bank (ETTB) lari bilan aloqa o'rnatgan. Tashqi savdoda hamkorlik olib borayotgan davlatlar ro'yxati yildan-yilga kengayib



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi

boryapti. Ular orasida AQSH, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Belgiya, Italiya, Tailand, Frantsiya, Germaniya, Rossiya kabi dunyoning rivojlangan davlatlari munosib o'rin olgan.

Tashqi savdo aylanmasining 56,9 foizi Uzoq sharq davlatlariga, 43,1 foizi (2010 y) MDH davlatlariga to'g'ri keladi. Bulardan, xususan, 24,3 foizi Rossiyaga, 10,4 foizi Qozog'istonga, 8,7 foizi Xitoyga, 4,8 foizi Turkiyaga, 2,5 foizi

Ukrainaga, 2,3 foizi Germaniyaga va qolgani boshqa davlatlarga tegishlidir. Oxirgi yillarda MDH davlatlaridan Ozarbayjon va Turkmaniston bilan bo'ladigan savdo aloqalari kuchaydi. Yevropa mamlakatlaridan Frantsiya, Italiya davlatlari bilan bo'lgan savdo aloqasida o'sish kuzatildi. Umuman olganda, respublika tashqi savdosining 59,6 foizi Yevropaga, 37,3 foizi Osiyoga, atiga, 3,1 foizi Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya davlatlariga mansub.

Tashqi savdo aylanmasida eksport va import tarkibi o'zgardi, ya'ni ilgari tashqariga ko'proq xom ashyo olib chiqilgan va tayyor buyumlar, xususan iste'mol mahsulotlari olib keltirilgan bo'lsa, hozirda tayyor buyumlar eksport qiluvchi davlatga aylandi. Dunyodagi mashhur va nufuzli kompaniyalar, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banklari singari moliya institutlari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlari va boshqa xorijiy tashkilotlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda O'zbekistonning yirik hamkorlariga aylandi.

3.Tashqi savdo aylanmasi: eksport-import

O'zbekiston mustaqillikka erishuvi bilan uning jahon xamjamiyatida integratsiyalashuvi uchun barcha sharoitlar yaratilib, qo'shma korxonalar faoliyatidagi ijobiy natijalar iqtisodiy o'sishni ta'minlay boshladi. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi ortdi. Eksportda ko'p yillar davomida paxta asosiy o'rinni egallab kelgan bo'lsa, hozirda paxtadan tashqari qator mahsulotlar, ya'ni mashinalar, ularga ehtiyot qismlar, rangli metal va qora metallar, mineral xom ashyo, o'g'it, pilla, o'simlik moyi, energiya manbalari, neft mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar ulushi ortib boryapti. Jumladan, 1990-2010 yillarda paxtaning mamlakat eksportidagi ulushi 59,7 foizdan 11,3 foizga tushdi. Eksport tarkibida xom ashyo bo'lmagan mahsulotlar salmog'i mazkur davr oralig'ida 30 foizdan 70 foizga ko'tarildi. Yengil avtomobillarni eksport qilish oxirgi 10 yilda 7,6; ip-gazlama 4,7; trikotaj mahsulotlari 156,0; tsement 6,3; sabzavot va mevalar 14,1 martaga ordi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo tuzilishi

	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Tashqi savdo aylanmasi, mln doll	805,6	6212,1	21842,2
Eksport, mln doll	442,7	3264,7	13044,5
Import, mln doll	362,9	2947,4	8799,7
Saldo (+,-), mln doll	79,8	317,3	4244,8


Manba: Osnovnye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskiy sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. S.58.

Eksport mahsulotida xizmatlarning salmog'i 1990-2010 yillarda 1,3 foizdan 9,1 foizga yetgan holda o'z ichiga har-xil transport turlari, xizmatlarni oladi. Bundan tashqari, mashina – jihozlarni qayta ishlash, montaj qilish, ta'mirdan chiqarish, foydalanish va ijaraga berish, sug'urta, reklama, arxitektura va muhandislik xizmatlari hamda turizm ham xizmatlar sirasiga kiradi.

Eksportda energiya manbalari va neft mahsulotlari muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy qismi yaqin xorij mamlakatlariga eksport qilinadi. Mazkur mahsulot turlarining jami eksportdagi ulushi 24,8 foizni tashkil etadi va 1990 yilga nisbatan 1,4 barobarga ko'paydi. Xuddi shunday o'sish jarayoni qora va rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlardan ham kuzatiladi. Jumladan, mazkur mahsulot turlarining eksporti 1990-2010 yillarda 4,6 foizdan 6,8 foizga ko'tarildi. Mashina va jihozlarning ushbu ko'rilayotgan yillarda umum eksportdagi ulushi 1,7 foizdan 5,5 foizga, xizmatlarniki 1,3 foizdan 9,1 foizga va boshqa mahsulot turlari eksport hajmida 9,4 foizdan 27,7 foizga o'sdi (2-rasmga qarang). Eksportda boshqa mahsulot turlari qatorida ko'nchilik mahsulotlari, keramika, shisha buyumlar, mebel, qurilish mollari asosiy o'rinda turadi. Tashqi savdoda turli korxonalar, birlashmalar, firmalarning jahon bozoriga mustaqil chiqishi eksport mahsulotlari hajmida o'sishiga olib kelmoqda. Tashqi savdoda eksport mahsulotlaridan farqli ravishda import mahsulotlarining ayrimlari yildan-yilga kamayib bordi. Respublikada import qilinayotgan mahsulotlar tarkibida ishlab

chiqarish texnik ahamiyatidagi mahsulotlar, yarim fabrikatlar, butlovchi va ehtiyot qismlar, materiallar ko'chilikni tashkil etadi. Chunki, mazkur mahsulotlar respublikada ishlab chiqarilmaydi va ular tovar ishlab chiqarish va qayta ishlash, texnologik jarayonlarda foydalaniladigan tovarlar hisoblanadi.


ЭКСПОРТ



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi eksport mahsulotlari tarkibidagi o'zgarishlar, foizda, 1990-2010 yu.

Import mahsulotlari tarkibida mashina va jihozlarning jami importdagi ulushi 12,1 foizdan 44,1 foizga ko'tarildi, aksincha, oziq ovqat mahsulotlari importi keskin kamaydi, ya'ni ularning salmog'i 48,9 foizdan 10,9 foizga qisqardi (3-rasm). SHuningdek, importda energiya manbalari va neft mahsulotlari 3,1 foizdan 6,0 foizga ko'paydi (3-rasmga qarang). Aksincha, qora va rangli metallar va boshqa mahsulot turlarida ham kamayish kuzatildi. Xuddi eksportdagi singari importda ham xizmatlarning salmog'i ortib bormoqda, 2010 yilda umum import mahsulotida xizmatlarning hissasi 4,7 foizni tashkil etdi. Umuman olganda respublika import mahsulotlarining yarmiga yaqinini mashina va jihozlar tashkil etayotganligi aholi va xo'jalikning aynan mana shu mahsulot turlariga bo'lgan talabi yuqori ekanligini va o'z navbatida kelgusida o'zimizda mazkur mahsulot

turlarini ishlab chiqarishni tobora yanada kengroq yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatadi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi import mahsulotlari tarkibidagi o'zgarishlar, foizda, 1990-2010 yu.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi savdoda chet mamlakatlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etish eng samarali yo'llardan biridir. O'zbekistondagi tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashqi savdo aylanmasida chetdan mashina va jihozlar, butlovchi qismlar ko'plab olib kelishi natijasida, import mahsulotlarining ulushi ortib boradi.

Tashqi savdo aylanmasida Toshkent shahri va Toshkent viloyatining salmog'i yuqori. Birgina Toshkent shahri mamlakat umumtashqi savdo aylanmasining 42,1 foizini, Toshkent viloyati esa 13,2 foizini o'ziga qamrab olgan. SHuningdek, Andijon (9,6 %), Farg'ona (4,2 %) va Navoiy (4,2 %) viloyatlari ham bu borada yetakchi hisoblanadi. Aksincha, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo va Namangan viloyatlari tashqi savdoda kam ishtirok etishmoqda. Respublika viloyatlari tashqi savdosida Uzoq xorij davlatlari, MDH davlatlari alohida o'rin tutadi. Oxirgi yillarda MDH davlatlari bilan bo'layotgan aloqalar yanada kuchayib

bormoqda. Bu savdo aloqalari tovar yetkazib berish, suv – energetika resurslaridan birgalikda foydalanish, transport, kommunikatsiya va boshqa turli sohalardagi hamkorlikka tayanilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va uning iqtisodiyotga ta'siri qanday baholanadi.
2. Globalizatsiya nima va uning geografiya fani rivojlanishidagi roli?
3. Tashqi savdo va uning turlari?
4. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalarining mintaqaviy tarkibi?
5. Respublika tashqi iqtisodiy aylanmasi va uning dinamikasidagi o'zgarishlar?
6. Iqtisodiy integratsiya jarayonlari va uning geografiyasi?
7. Tashqi savdoda viloyatlarning tutgan o'rnini qanday baholaysiz?
8. Import mahsulotlar tarkibini asosan qanday mahsulotlar tashkil etadi?
9. Eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar va ularning turlari?
10. Mustaqillik yillarida tashkil etilgan qo'shma korxonalar va ularning faoliyati nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. - 96 bet.
2. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
3. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
4. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
5. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
6. Golubchik M.M., Faybusovich E.L., Nosonov A.M., Makar S.V. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya: Osnovy nauki: Ucheb.dlya stud. Vyssh.ucheb.zavedeniy.-M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2004. -400s.
7. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya karta mira. CH. T. Obshaya xarakteristika mira. Yaroslavl, 1993.
8. Maksakovskiy V. P. Obshaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast'1.- Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.-367
9. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent:Universitet,- 2003y.
10. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
11. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
12. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
13. www.ceep.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi samarali iqtisodiy markaziy rasmiy sayti.
14. Osnovnye tendentsii i pokazateli ekonomicheskogo i sotsial'nogo razvitiya respubliki Uzbekistan za gody nezavisimosti (1990-2010 gg.) i prognoz na 2011-2015 gg. Statisticheskii sbornik.-T.: Uzbekistan, 2011. 229 s.

4.4. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi va iqtisodiy rayonlashtirish

Reja:

1. Iqtisodiy rayonlashtirish mintaqalar rivojlanishini boshqarishning muhim shakli sifatida
2. Respublikani iqtisodiy rayonlashtirish
3. O'zbekiston iqtisodiy rayonlarining o'ziga xos xususiyatlari

1. Iqtisodiy rayonlashtirish mintaqalar rivojlanishini boshqarishning muhim shakli sifatida

Iqtisodiy rayon (**latinchada «rejiо» region-mamlakat, o'lka, viloyat**)- bu mamlakatning bir qismi bo'lib, uning ichidagi barcha iqtisodiy ob'ektlar bevosita yoki bilvosita ixtisoslashuvning biron bir funksiyasini bajaradi.

A.S.Soliev rayon ham hudud, ammo hududning ma'lum bir o'xshashliklarga ega bo'lgan muayyan bir qismidir. Tabiiy geografiyada rayon turli komponentlarning majmuasi shaklida vujudga kelgan landshaft tipi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa u hududiy mehnat taqsimoti natijasida shakllangan, iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ma'lum soha yoki yo'nalishlariga ixtisoslashgan aniq hududdir, deb ta'riflaydi (Soliev A.S., 2007).

N.N.Kolosovskiyning fikricha, rayonlashtirish nazariyasini rivojlantirib, uning fundamental ahamiyati, har bir fanning eng murakkab tomoni uning ma'zmun mohiyatini ifodalaydigan tushunchasini ochib berishdir. Matematikada masalan, sonlar xaqidagi ta'limot. Fizikada materiya va energiya xaqidagi ta'limot, biologiyada xujayra, geografiyada esa rayon xaqidagi ta'limotdir (Plisetskogo Ye.L., 2008).

Rayonlashtirish jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va milliy jihatdan rivojlantirish maqsadida ajratiladi va unda albatta ichki bir butunlilik tamoyili

muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy rayonlashtirish-mamlakat hududlarini iqtisodiy rayonlarga ajratishdir. Bu o'z navbatida, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda boshqarishning muhim bir vositasi va asosi hisoblanadi.

Rayonlarni ajratish murakkab, rayonlashtirishning oddiy va murakkab shakllari mavjud. Masalan, mamlakat hududini turli geografik tomonlar bilan nomlash (Markaziy, G'arbiy, SHarqiy, Janubiy, SHimoliy va ularning oraliqlari SHimoliy-sharqiy, Janubi-sharqiy, SHimoli-g'arbiy, Janubi-g'arbiy) yoki alohida orollar, yarim orollar, anklav va eksklav hududlarni to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy rayon maqomida ko'rish rayonlashtirishda uncha qiyin emas. Haqiqiy rayonlashtirish alohida, rayonlar chegarasini aniqlash esa iqtisodiy makonni uning ichki tuzilish (tarkib) xususiyati, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi, kombinatsiyasi, rayon hosil qiluvchi markazlarning mavjudligini hisobga olgan holda ajratiladi (Soliev A.S., 2007).

Rayonlashtirish mintaqaviy, maqsadli dasturlarni amalga oshirishda, mintaqaviy siyosat masalalarida, moddiy ishlab chiqarish, yoqilg'i-energetika va boshqa sohalarda muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi. SHuningdek, rayonlashtirishda quyidagi rayon hosil qiluvchi omillarga, ya'ni rayon tarkibiga kirgan hududlar mamlakat milliy iqtisodiyotining bir qismi sifatida uni taraqqiyotida faol ishtirok etishi, ulkan mehnat va demografik salohiyatga ega bo'lishi, bir butunlilik tamoyiliga amal qilishi, rayon hosil qiluvchi tarmoqlarning mavjudligi, iqtisodiyotning ba'zaviy tarmoqlarining rivojlanganligi, transport va boshqa infrastruktura tizimining shakllanganligi va hokozolarga alohida e'tibor qaratiladi.

Qaysiki, mehnat taqsimotidagi jiddiy o'zgarishlar, yirik masshtabdagi yangi foydali qazilma konlarining topilishi va ishga solinishi hamda boshqa hududiy siljishlar rayonlar chegarasining o'zgarishiga yoki uni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, G'uzor – Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi bilan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari Janubiy iqtisodiy rayon tarkibi sifatida ko'rila boshlandi. Ammo, mustaqillik yillarida ichki hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy va mintaqaviy integratsiya jarayonlari, yangidan yangi

konlarning ishga tushishi va uning negizida ishlab chiqarishning rivojlanishi, transport tizimidagi islohotlar respublikani iqtisodiy rayonlashtirishda yana o'zgarishlar ro'y berishidan dalolat beradi.

2. Respublikani iqtisodiy rayonlashtirish

O'zbekistonni rayonlashtirish tarixi 1926 yilga borib taqaladi. O'sha vaqtda respublika ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirilib 10 ta okruglarga ajratilgan. Keyinchalik, ushbu ma'muriy-hududiy bo'linishda yana o'zgarishlar ro'y bergan. "1930 yilda O'zbekiston poytaxti Samarqand shahridan Toshkentga ko'chirilgan, 1936 yilda Qoraqalpog'iston MSSR O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilgan, 1938 yilda respublika tarkibida 5 ta viloyat - Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazm viloyatlari tashkil etilgan; 1941 yilda Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, 1943 yilda Qashqadaryo viloyati, 1963 yilda Sirdaryo viloyati, 1973 yilda Jizzax viloyati va 1982 yilda Navoiy viloyati tashkil etildi"(Asanov G va boshqalar., 1994).

O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalari bilan ko'p yillarda Z.A.Akramov, K.N.Bedrintsev, V.M.CHetirkin, N.G.TSapenko, A.S.Soliev, N.To'xliiev kabi qator geograf, iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan. Jumladan, respublika dastavval 5 ta iqtisodiy rayonga bo'lingan: Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Quyi Amudaryo va Janubiy. Keyinchalik, Z.A. Akramov mamlakatni 8 ta iqtisodiy rayonga ajratishni taklif etganlar, unda Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent viloyati), Mirzacho'l rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari), Farg'ona rayoni (Andijon, Namangan, Farg'ona), Samarqand (Samarqand viloyati), Buxoro-Qizilqum rayoni (Buxoro va Navoiy viloyatlari), Qashqadaryo rayoni (Qashqadaryo viloyati), Surxondaryo rayoni (Surxondaryo viloyati) hamda Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) rayonidan iborat bo'lgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy –hududiy bo'linishi, 2012 yil

Ma'muriy – hududiy birliklar	Hudud maydoni,	Aholisi, ming kishi	tumanlar	shahar posyolkalari	qishloq fuqarolik	qishloq aholi punktlari

	ming kv.km.				yig'inlari	
O'zbekiston Respublikasi	448,9	29 559,1	158	985	1844	11154,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	166,6	1 693,6	14	26	138	1130,0
Andijon	4,3	2 714,2	14	78	90	456,0
Buxoro	40,3	1 707,6	11	62	120	1470,0
Jizzax	21,2	1 186,1	12	42	100	519,0
Navoiy	111,0	881,7	8	38	54	594,0
Namangan	7,4	2 420,4	11	120	91	403,0
Samarqand	16,8	3 327,2	14	88	125	1865,0
Sirdaryo	4,2	739,3	8	21	71	264,0
Surxondaryo	20,1	2 219,6	13	114	112	865,0
Toshkent	15,3	2 670,7	14	18	167	963,0
Farg'ona	6,8	3 281,3	15	197	164	1020,0
Xorazm	6,1	1 629,2	10	58	98	559,0
Qashqadaryo	28,6	2 777,8	13	123	148	1046,0
Toshkent shahri	-	2 310,4	1	-	-	-

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan Bundan farqli ravishda, A.S.Soliev "mamlakatni 6 ta iqtisodiy rayonlarga ajratishni taklif qilgan (Soliev A.S., 1998). Unda keltirishicha, iqtisodiy rayonlarning bunday to'ri va tarkibi, ularning haqiqiy shakllanganlik darajasi, huquqiy maqomi haqida bahs va munozaralar, e'tirozlar bo'lishi mumkin. Masalan, belgilangan rayonlar davlatning tegishli vazirliklari (Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi) tomonidan rasmiy ravishda tan olinmagan. Boz ustiga, bu rayonlar hozircha yaxlit va mukammal bozor muhiti, iqtisodiyot makon xususiyatga ega emas. Ularda ichki iqtisodiy aloqalar, integratsion jarayonlar rivojlanmagan, har bir viloyat (ma'muriy iqtisodiy rayon), ularga berilgan keng imtiyoz va huquqlardan foydalangan holda, o'zlarining ma'lum darajada «mustaqil» iqtisodiy salohiyatini vujudga keltirmoqda" (Soliev A.S., 2007).

N.To'xliiev iqtisodchi olimlarning fikrlarining umumlashtirgan holda respublikani 6 ta iqtisodiy rayonga bo'lishni taklif etadi (To'xliiev N., 2006). Hozirgacha ham, respublikani iqtisodiy rayonlarga ajratish bo'yicha olimlar o'rtasida yagona yondoshuv mavjud emas. Chunki, iqtisodchi olimlar O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirishda yuqoridagi 6 ta rayonlashtirish tizimidan

tashqari, yana quyidagi tasnifni ma'qul, deb hisoblashmoqda. Bunga ko'ra, respublika 7 ta iqtisodiy rayonga bo'lib o'rganiladi, ya'ni:

1. Toshkent iqtisodiy rayoni;
2. Jizzax-Sirdaryo iqtisodiy rayoni;
3. Farg'ona iqtisodiy rayoni;
4. Samarqand-Qashqadaryo iqtisodiy rayoni;
5. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni;
6. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni;
7. Surxondaryo iqtisodiy rayoni.

Ushbu rayonlashtirishdan farqli ravishda, geograf olim A.S.Soliev O'zbekistonni quyidagicha 6 ta iqtisodiy rayonga ajratadi. Ular quyidagicha:

1. Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
2. Farg'ona (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari);
3. Zarafshon (Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari);
4. Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
5. Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari);
6. Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati)

Biz respublikani iqtisodiy rayonlashtirishni aynan shu taxlitda berishni lozim ko'rdik.

3. O'zbekiston iqtisodiy rayonlarining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy – hududiy jihatdan hozirda 6 ta iqtisodiy rayon, 12 ta viloyat, bitta respublika va 158 ta tuman, 985 ta shahar posyolkalari, 11154,0 ta qishloqlardan iborat (1-jadvalga qarang). Iqtisodiy rayonlar ichida **Toshkent iqtisodiy rayoni**-respublikada eng rivojlangan hududlarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning tarkibiga Toshkent viloyati va Toshkent shahri kiradi. Umumiy maydoni 15,6 ming km., kv., aholisi 4981,1 ming kishi, zichligi 1 km., kv joyga 319,3 kishidan (2012 y) iborat. Bu jihatdan, ya'ni aholisining ko'pligi, zich joylashganligi, qulay iqtisodiy geografik o'rinni

egallashi, poytaxt mintaqasi ekanligi bilan iqtisodiy rayon boshqa rayonlarga nisbatan yaqqol ajralib turadi.

Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekistonning shimoliy-sharqiy qismida, G'arbiy Tyanshanь tog'lari bilan Sirdaryoning o'rta oqimi oralig'ida joylashgan. SHuningdek, uning maydoni Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l va Janubiy Qozog'iston (CHimkent viloyati) tekisliklari oralig'idagi hududlarni egallaydi. Iqtisodiy rayonni shimoliy va shimoli-sharqiy tomondan Pskom, Ugom, CHotqol, Qurama tizmalari o'rab turadi. Bu tog'larning eng baland joyi Pskom tizmasidagi Beshtor tog'idir (4299 m). Tabiiy resurslarga boy, tabiiy sharoitiga ko'ra ikki qismdan iborat, ya'ni tekislik va tog' qismi. Tekislik qismi tog' oldi rayonlaridan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilgan, CHirchiq-Ohangaron daryolarining vodiysini egallagan holda, dengiz sathidan 250-450 metr balandlikka to'g'ri keladi. Bu yerda sovuqsiz kunlar 200 va undan ham ko'proq davom etadi, vegetatsiya davrida quyoshdan keladigan issiqlik miqdori 4100-4500 gradusga yetadi. Yog'in miqdori tog' oldida 350-400 mm, tog'larda 500 mm gacha tushadi.

Iqtisodiy rayonning suv resurslari CHirchiq daryosiga qurilgan CHorvoq suv ombori, maydoni 40 km.kv. umumiy suv hajmi 1,5 mlrd metr kub hamda Ohangaron daryosiga qurilgan Tuyabo'g'iz suv omborida 250 mln metr kub suv to'planadi. CHirchiq daryosi va uning irmoqlari mintaqa aholisi va xo'jaligining suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Tabiiy resurslardan ko'mir, qora va rangli metallar, qurilish materiallari, qimmatbaho metallarga boyligi ham mintaqani respublikada rivojlangan sanoat rayoniga aylanishiga sabab bo'lgan.

Toshkent iqtisodiy rayoni tashkil etilishida uning sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy rayon respublikada sanoat tarmoqlari tarkibining xilma-xilligi va uning taraqqiy etganligi hamda yirik xom-ashyo bazasiga ega ekanligi bilan ko'zga tashlanadi. Jumladan, Toshkent iqtisodiy rayonida mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, ximiya, yoqilg'i energetika, qurilish, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari rivojlangan bo'lib, mintaqaga respublika sanoat mahsuloti hajmining 27,6 foizi, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 13,1 foizi, asosiy qurilish ishlarining 27,8 foizi to'g'ri keladi.

Iqtisodiy rayonda O'zbekistonning yirik sanoat korxonalari, joylashgan bo'lib, bulardan "BEKTEMIR SPIRT EKSPERIMENTAL ZAVODI XJ" etil spirti, oziq-ovqat spirti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, "COCA-COLA ISHIMLIGI UZBEKISTON, LTD QK" alkogolsiz ichimliklar, "QUYUV-MEXANIKA ZAVODI SHK" temir yo'l vagonlariga ehtiyot qismlar, temir yo'l yuk vagonlarini ta'mirlash, "DOYCHE KABEL AG TASHKEHT QK" elektr asboblari kompleks uchun provod va shnurlar, shahar telefon aloqa kabeli, ulangan izoliyatsiyasiz o'tkazgichlar, "TTZ-Metall QK" traktorlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, traktor pritseplari, traktor pritseplari uchun detallar, "UZ CLAAS AGRO XK" traktorlar, don yig'adigan mashinalar, yig'ib presslagich, "TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI XJ" avtomobil tashish uchun yarim pritseplar, traktorlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, traktorlar konteynerlar tashish uchun yarim pritseplar, ekskavatorlar, traktor pritseplari, "UZKABEL QK" lak-bo'yoq mahsulotlari, o'rama provodlar va emальprovodlar, mebel, karton qutilar ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, "Olmaliq TMK" OAJ (mis maxsuloti tsink maxsuloti), "Transformator", "CHirchiqqishmash", "Ohangarontsement", "Bekobodtsement" , "Angren ko'mir koni" va "O'zmetkombinat" birlashmalari iqtisodiy rayon sanoati rivojlanishiga munosib hissa qo'shishmoqda.

Iqtisodiy rayon mashinasozligida qishloq xo'jaligi mashinalari, xususan, paxtachilik majmui bilan bog'liq traktorlar va uning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish muhim o'rin tutadi. SHuningdek, ko'plab elektrotexnika, kimyo mahsulotlari tayyorlanishida yuqorida nomlari keltirilgan korxonalarining munosib hissasi bor. Iqtisodiy rayon xo'jaligida sanoat bilan birga qishloq xo'jaligi ham alohida ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotiga ko'ra iqtisodiy rayon respublikada yetakchi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida donli ekinlar, paxta, kartoshka, meva, sabzavot va poliz ekinlarining ko'plab ekilishi bois ham hudud yalpi mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi 25 foizni tashkil etadi. Iqtisodiy rayonning shimoliy-sharqiy qismlari chorvachilik uchun qulay bo'lsa, tog' oldi yerlari lalmikor dehqonchilik

qilish uchun Ohangaron va CHirchiq daryolarining vodiylari sug'orma dehqonchilik uchun yetarli shart-sharoitga ega.

Transport tarmoqlarining barcha turi yaxshi rivojlangan, mintaqa respublikada muhim transport tuguni vazifasini ham o'taydi. CHunki, u yaqin va uzoq xorij mamlakatlarini o'zaro bog'lovchi temir va avtomobil yo'llari markazida joylashgan. Iqtisodiy rayon taraqqiyotida respublika poytaxti Toshkent shahrining alohida o'rni bor.

Toshkent shahri iqtisodiy rayonning shimoli-sharqiy qismida, CHirchiq daryosi vodiysida, dengiz sathidan 440-480 metr balalikda joylashgan bo'lib, aholisi 2012 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, 2 310,4 ming kishiga yetdi. Toshkent shahrida iqtisodiy rayon aholisining 46,4 foizi, respublika aholisining 7,8 foizi istiqomat qiladi. Ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta tumanga bo'linadi. SHahar iqtisodiy rayonda sanoat, fan va madaniyat markazi, yirik qurilish bazasi, zich transport tuguni va tarmog'i shakllangan hamda taraqqiy etganligi bilan munosib o'rin egallab kelmoqda.

Farg'ona iqtisodiy rayoni-ma'muriy jihatdan o'z tarkibiga Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarini oladi. Maydoni 18,5 ming kv. km yoki respublika hududining 4,1 foizini egallaydi, aholisi 8415,9 ming (2012 y) kishini tashkil etadi. Umummamlakat aholisining 28,5 foizini qamrab olgan iqtisodiy rayon aholisining zich joylashuvi, juda katta demografik salohiyatga egaligi, yersuv resurslarining cheklanganligi bilan respublikada alohida ajralib turadi.

Iqtisodiy geografik o'rniga ko'ra iqtisodiy rayon hamma tomondan tog' tizmalari, ya'ni Tyan'zhan va Xisor-Oloy tog' tizimiga kiruvchi shimoli-g'arbdan Qurama va CHotqol tizmalari, shimoli-sharqdan Farg'ona tizmasi, janubdan Turkiston va Oloy tizmalari bilan o'ralgan. Iqtisodiy rayon foydali qazilmalarga unchalik boy emas, bu yerda asosan neft, rangdor metal rudalari uchraydi xolos. Suv resurslari bilan juda yaxshi ta'minlangan, iqlimi dehqonchilik qilish uchun qulay, baland tog' mintaqalari yaylov chorvachiligini rivojlantirish imkonini bergan. Ammo adir mintaqasining ayrim yerlari dehqonchilik qilishga imkon bermaydi. Dehqonchilik bahorikor va sug'orma dehqonchilikka tayanadi.

Iqtisodiy rayon juda katta demografik saohiyatga ega hudud hisoblanadi. Bu yerda aholining zichligi 1 km kv joyga o'rtacha 454,9 (2012 y) kishidan to'g'ri keladi. Uning eng yuqori darajasi Andijon viloyatida kuzatiladi, Farg'ona va Namanganda nisbatan zichlik darajasi kamroq. Aholi soni va zichligi asosan tabiiy ko'payish hisobiga yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa rayonda mehnat resurslarining miqdori ko'payishiga, ish bilan ta'minlashda muammolarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiy rayonning qulay tabiiy sharoiti, inson resurslarining yetarliligi, hozirda iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llarini topish lozimligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotida sanoat muhim tarmoqlardan biri bo'lib, respublika yalpi sanoat mahsulotining 22,1 foizini beradi. Sanoatda ayniqsa, yog'ilg'i-energetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat sanoat korxonalari hamda mustaqillik davrida shakllangan avtomobil sanoati mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yoqilg'i-energetika sanoatida "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" muhim o'rin tutadi. Bu zavod faoliyati neftni birlamchi qayta ishlashga (yiliga 7517 ming tn) yo'naltirilgandir.

Mashinasozlikning ko'plab korxonalari tashkil etildi va bugungi kunda ularda turli xil avtomobillarga qismlar, jihozlar tayyorlanmoqda. Jumladan, Andijonda joylashgan "Uz Dong Vong Kompani" qo'shma korxonasi hamda "UzDEU avto" – hozirgi "GM Ozbekiston" qo'shma korxonasi avtomobillar va avtomobil ichki jixozlari, o'rindiq g'iloplari ishlab chiqarishga, Namangandagi O'zbekiston-Koreya "O'Z CHASIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasida avtomobil qismlari, Farg'onada "Evraziya Tapo-Disk" korxonasi avtomobil disklari, "Avtooyna" aksionerlik jamiyati avtomobil oynalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bundan tashqari, iqtisodiy rayon sanoatida yengil sanoatning ko'pgina korxonalari turli tuman mahsulotlar yaratib sanoat tarmog'i rivojlanishiga munosib hissa qo'shishmoqda.

Farg'ona iqtisodiy rayonining O'zbekiston yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida ulushi 25,6 foizga teng (2010 y.). Qishloq xo'jaligining asosini dehqonchilik, xususan paxtachilik, pillachilik, donchilik, bog'dorchilik, meva,

sabzavot, kartoshka yetishtirish tashkil etadi. Respublika yalpi dehqonchilik mahsulotining 28,8 foizi, chorvachilik mahsulotining 20,8 foizi, umumiy yer maydonining 7,1 foizi (2010 y.) ushbu iqtisodiy rayon hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jalik yerlarining asosiy qismi Andijonda (91,6 %), Namangan (81,9%) va Farg'onada ham (95,1 %) sug'orilib dehqonchilik qilinadi.

Transportida temir yo'l, avtomobil yo'li va havo transporti yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mustaqillik yillarida ta'mirlanib, kengaytirilib ishga tushgan Qamchiq dovoni orqali o'tadigan avtomobil yo'li iqtisodiy rayonni respublikaning boshqa hududlari bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zarafshon iqtisodiy rayoni-Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy rayon Zarafshon daryosining o'rta va quyi qismini, qadimda uning ta'sirida vujudga kelgan xo'jalikning hududiy tizimini o'z ichiga oladi. Rayonning umumiy maydoni 168,1 ming km² bo'lib, u mamlakat hududining 37,4 foizini tashkil qiladi. Bu jihatdan u, faqat Quyi Amudaryo rayonidan biroz kichikroq, xolos. Aholisi 5916,5 ming kishi (2012 y.) bo'lib, umumrespublika aholisining 20,0 foizi istiqomat qiladi. Bundan Samarqand viloyati aholisi 3327,2 ming kishi, Navoiy viloyatiniki 881,7; Buxoro viloyatiniki esa 1707,6 ming kishidan iborat.

Aholisining zichligi iqtisodiy rayon bo'yicha kv.km joyga o'rtacha, 35,2 kishidan to'g'ri keladi. Hududi shimolda Qozog'iston Respublikasi, Nurota tizmalari, shimoli – sharqda Turkiston, sharqda va janubi-sharqda Zarafshon tizmalari bilan, davlatlardan yana janubi-g'arbda Turkmaniston davlati bilan chegaradosh.

Iqtisodiy rayon yer sirti xilma-xil katta qismi tekisliklardan (Qizilqum, Qarnob cho'li), vodiy va adir yerlardan iborat. Tabiiy resurslardan mineral resurslarga boy, tabiiy gaz zahiralari, oltin, nodir metallar, tuzlar, qurilish materiallari, marmar, vol'fram konlari mintaqa sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Suv resurslariga Zarafshon daryosi, Amu Buxoro, Amu Qorako'l kanallari, Quyimozor, Kattaqo'rg'on suv omborlarini kiritish mumkin. Buxoro vohasi ko'proq Amudaryo suvlari bilan sug'oriladi. Biroq, bu hududning

rivojlanishida Zarafshon daryosining ahamiyati katta bo'lgan; Buxoro daryoning quyi, Samarqand esa daryoning yuqori qismida joylashgandir.

Zarafshon iqtisodiy rayoni O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 18-20, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 22-23 foizini beradi. Mamlakat ichki mehnat taqsimotida rayon hosil qiluvchi tarmoqlar sifatida paxtachilik, qorako'lchilik, rangdor metallurgiya, xalqaro turizm va boshqalar xizmat qiladi. SHuningdek, bu hududda pilla yetishtirish, uzumchilik, kimyo va neft kimyosi, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoatlari ham rivojlanib bormoqda. Rayonni g'arbdan sharqqa tomon kesib o'tuvchi xalqaro temir va avtomobil yo'llar, sug'orish inshootlari uning iqtisodiyotini shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Mintaqa iqtisodiyoti agrar - industrial yo'nalishga ega. Mustaqillik yillarida mintaqa sanoati, xususan, yoqilg'i, qurilish materiallari ishlab chiqarish ancha tez rivojlandi, qulay investitsiya muhiti yaratildi. Mamlakat neft mustaqilligini ta'minlashda Buxoro (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash zavodi muhim o'rin tutmoqda. Bu korxonada Frantsiyaning Teknep firmasi bilan hamkorlikda barpo etildi va buning uchun 500 mln. AQSH dollariga yaqin mablag' sarflandi. Zavod Qashqadaryo neft-gaz konlari asosida ishlaydi. Yoqilg'ini asosan Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va qisman "Gazlineftgaz qazib chiqarish" shirkat korxonasi beradi. Sanoatda mashinasozlik va metallni qayta ishlashda ta'mirlash mexanika zavodi "Trubodetal"; "Buxorosozta'mir-servis", "NEM" ta'mir mexanika zavodi, "Samarqandliftsozlik zavodi; yengil va oziq-ovqat sanoatida "Buxoro brilliant shilk"; "O'zkarpet", "Ramstar", "Qorako'lteks", «Samteks», "Uz BAT""Sino", "Sigaretnaya qo'shma korxonalari, Kogon, Kattaqo'rg'on yog' - ekstraktsiya zavodlari, shuningdek, Buxoro yog' - ekstraktsiya zavodi, "Evrosnar" qo'shma korxonasi, ximiyada "Samarqandkimyo", "Navoiyazot", "Elektroximsanoat", yoqilg'i-energetikada Xishrov GES, Navoiy IES, qurilishda "Qizilqumtsement", "Qizilqum – Rus - Nur", rangli metallurgiyada "Zarafshon-Nbyumont" qo'shma korxonalari ham yetakchilik qiladi. Mamlakatimiz xo'jaligi uchun nihoyatda zarur bo'lgan superfosfat zavodi xom ashyosi-fosforitlar Navoiy viloyati hududida ishlab chiqariladi.

Zarafshon iqtisodiy rayoni O'zbekiston umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotining 26,7 foizini yetishtiradi. Iqtisodiy rayon tarkibida bu jihatdan Samarqand viloyati yetakchilik qiladi. Qishloq xo'jaligi paxtachilik, qorako'lchilik, qo'ychilik, meva-sabzavotchilik va donli ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Iqtisodiy rayonda respublika yalpi don ekini hosilining 22,8 foizi, go'shtning 29,2 foizi yetishtiriladi. SHuningdek, kartoshkaning yalpi hosili bo'yicha hamda go'sht ishlab chiqarish hajmiga ko'ra Samarqand viloyati mamlakatda birinchi o'rinni egallaydi (371,7 ming tonna kartoshka, 111,9 ming tonna go'sht, 2011 y.).

Transport tizimining barcha turlari rivojlangan, ayniqsa, Buxoro-Tashkent, Buxoro-Qarshi temir yo'llarining borligi, "Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus" temir yo'l liniyasi ishga tushirilganligi, Navoiy logistika markazining qurilib topshirilganligi mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Aynan mana shu logistika markazi tufayli iqtisodiy rayon dunyoning turli mamlakatlari bilan havo aloqalari o'rnatishga erishdi. Qolaversa, mintaqadan juda katta xalqaro ahamiyatga ega gaz quvurlarining olib o'tilganligi ham transportning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni - o'z tarkibiga Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini oladi. Uning maydoni 25,5 ming km² bo'lib, Respublika hududining 5,6 foizini tashkil qiladi. Maydonining kattaligi jihatidan Janubiy mintaqadan keyin to'rtinchi o'rinda turadi.

Yangi yerlarni o'zlashtirish, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida vujudga kelgan iqtisodiy rayon Respublika markazida joylashgan bo'lib, g'arbiy qismi Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubi qo'shni Tojikiston Respublikasi, sharq tomondan Toshkent viloyati, shimolda Qozog'iston Respublikasi bilan qo'shniligi iqtisodiy jihatdan har tomonlama qulaydir. Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasining rivojlangan iqtisodiy rayonlar oralig'ida joylashuvi mamlakat hududiy mehnat taqsimotida turli hamkorlik aloqalarini o'rnatishga imkon beradi.

Iqtisodiy rayonda tekislik, tog' yonbag'ri va tog'li yerlarning qo'shilib ketganligi, tabiiy sharoitning xilma-xilligi turli xil xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga sharoit yaratgan. Jumladan, Jizzax viloyatining Baxmal, G'allaorol tumanlari Turkiston, Molguzar, Gubdin, Qo'ytosh va Qaroqchi tog'lari botig'ida joylashgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatining aksariyat hududi tekislik mintaqasiga to'g'ri keladi. Mintaqaning taraqqiy etgan Toshkent va Samarqand viloyatlari o'rtasida o'mashganligi uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berib kelmoqda. Ayni vaqtda, janubi-sharqda Tojikiston, shimoldan Qozog'iston Respublikasi bilan qo'shnihiligi uning geosiyosiy mavqeini ham belgilab beradi. Rayonning iqtisodiy geografik o'rni turli iqtisodiy aloqalar qilish uchun ham qulay. Bu borada, respublikaning taraqqiy etgan viloyat va shaharlarini, qolaversa, qo'shni respublikalar bilan bog'lovchi temir yo'l, avtomobil, quvur yo'llarining o'tganligi hamda shu yo'llar orqali xom ashyo, turli xil mahsulotlar ayirboshlashdagi xizmatini ko'rsatib o'tish lozim.

Mamlakat mehnat taqsimotida iqtisodiy rayon ko'p issiq va uzoq vegetatsiya davrini talab etuvchi ekinlarni (paxta, pilla, g'alla, poliz) yetishtirishga hamda bog'dorchilik, chorvachilik, uzumchilik, sanoatda elektroenergetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat tarmoqlariga ixtisoslashgan ligi bilan ko'zga tashlanadi. Oxirgi yillarda bu yerda tog'-kon, kimyo, to'qimachilik sanoatlari ham rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy rayonni tashkil etuvchi, hududiy tuzilishiga ko'ra bir-biriga deyarli o'xshamaydigan Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tabiiy sharoiti va foydali qazilmalariga ko'ra qisman o'zaro farq qiladi. Darhaqiqat, Sirdaryo viloyatida deyarli birorta foydali qazilma konlari uchramasada, Jizzax viloyati bundan mustasno. Jizzax viloyatining yer usti tuzilishi xilma-xil, tog', tog' yonbag'ri va tekisliklarning o'zaro mujassamlashganligi bilan tavsiflanadi. Tog' va tog' oldi yerlari mintaqaning ancha katta qismini egallagan holda eng baland joyi 3401 metrdir. CHunonchi, Molguzarning balandligi 2620 metr, Qo'ytoshniki 1905 metr va hokazo.

Jizzax viloyati qo'shni Sirdaryodan farq qilib turli foydali qazilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Baxmal, Zomin, G'allaorol, Jizzax, Forish, Zarbdor

tumanlarida mineral-xom ashyo zahiralari: oltin, kumush, volʼfram, qoʻrgʻoshin, rux, marmar, molibden, marmar, volostanit, ohak, granit, korund mavjud. qoʻytoshning volʼfram, Marjonbuloqning oltin, Uchquloqning qoʻrgʻoshin-rux konlari iqtisodiy jihatdan ahamiyatlidir. Ammo aniqlangan qazilma konlardan foydalanish, ishlab chiqarishga keng jalb etish hozircha sust darajada. Binobarin, ushbu boyliklarni oʻzlashtirish yuqori texnologiyaga asoslangan turli shaklli korxonalarini qurishni zarur qilib qoʻyadi.

Turkiston, Nurota, Molguzar va Qoʻytosh, Pistalitogʻ, Gubdin togʻ tizmalari oʻziga xos iqlim hamda tabiat manzarasini vujudga keltiradi. 1976 yilda viloyatning Zomin rayonida 48 ming gektarli Xalq parki tashkil qilindi. Bu park Turkiston tizmasining shimoliy yonbagʻrida joylashgan boʻlib, uning yonida Zomin qoʻriqxonasi ham vujudga keltirilgan. qoʻriqxonasi va Xalq parki 78 ming gektar maydonni egallaydi.

Aholisi 2012 yil 1 yanvar maʼlumotiga koʻra, 1925,1 ming kishiga yetdi, shundan Jizzax viloyatiniki 1186,1 ming kishi, Sirdaryoniki esa 739,3 ming kishini tashkil etadi. Aholisining zichligi iqtisodiy rayon boʻyicha kv.km joyga oʻrtacha 75,5 kishidan toʻgʻri kelmoqda. Aholisi joylashuvida asosan Sirdaryo viloyati aholisi tigʻiz joylashuvi bilan tavsiflanadi, oʻrtacha 171 kishidan, Jizzaxda zichlik koʻrsatkichi 53,6 kishiga teng. Togʻli va togʻ oldi hududlaridan iborat tumanlar aholisi siyrak, aksincha, tekislik qismida uning zich joylashganini koʻrish mumkin.

Sanoati turli tarmoqlarga ixtisoslashganligi bilan respublikada koʻzga tashlanadi. Ayniqsa, iqtisodiy rayonda akkumulyatorlar, mebel, plastmassa buyumlar, ipak gazlama, trikotaj kiyim-kechaklar, temir-beton buyumlar, turli xil qurilish materiallari, paxta moyi, un, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qator korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda.

Yoqilgʻi-energetika majmuida yoqilgʻi resurslari boshqa iqtisodiy rayonlardan, aniqrogʻi Shoʻrtan gaz konidan keltiriladi. Respublikamizdagi eng yirik Sirdaryo IESining qurilishi munosabati bilan bu yerda SHirin shahri barpo boʻldi. IESning qurilishi qishloq xoʻjaligi bilan bir vaqtda sanoatning

rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Asosiy sanoat mahsulot hajmida elektr energetika tarmog'ining ulushi 66,6 foizga tengdir. Sanoatning bu tarmog'i Jizzax viloyatida Sirdaryo viloyatidan farq qilgan holda, umuman rivojlanmagan, kerakli mahsulot va xom ashyo asosan boshqa mintaqalardan keltiriladi.

Tog'-kon sanoatida rangli metallar, shu jumladan qo'ytoshdan 1937 yildan beri volfram–molibden rudalarni, Marjonbuloq konlaridan oltin (1980 yil) va qo'ytoshda volostanit, marmar, granit, ohak, Forish rayonidagi qo'rg'oshin, rux qazib olinadigan Uchquloch, Banoz konlari mavjud.

Kimyo va mashinasozlik sohasida irrigatsiya va melioratsiya maqsadlarida ishlatiladigan (Jizzax plastmassa quvurlar zavodi) polietilen plyonkalar, quvur va termoplastdan ishlangan quvur qismlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. "Jizzax akkumulyator zavodi" ochiq turdagi aksionerlik jamiyati akkumulyator ishkori chiqaradi.

Mashinasozlik sanoatning nisbatan yangiroq tarmog'i hisoblanib, u asosan qishloq xo'jalik mashinalari, qurilish va yo'l texnikasini ta'mirlashga xizmat qiladi. Jizzax, Gagarin, Paxtakorda joylashgan bunday korxonalar Toshkent qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mashinasozligi zavodlarining filiallari hisoblanadi.

Sirdaryo viloyatida asosiy sanoat ishlab chiqarish so'nggi 40-50 yil davomida shakllangan. 50-yillarda Mirzacho'lni majmuali o'zlashtirish maqsadida uning qurilish bazasi yaratildi va paxta tozalash sanoati, oziq-ovqat hamda elektr energetika rivojlanib bordi. Viloyat sanoatining hozirgi kundagi ahvoli birmuncha past bo'lib, u bu jihatdan faqatgina Jizzax viloyatidan oldinda turadi, xolos. Yengil sanoat asosan viloyat paxta xom ashyosiga tayangan holda rivojlanib kelmoqda. Dehqonobod, Boyovut, Dashtobod, Uchtepa, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzaobod, Farg'ona va Guliston paxta tozalash zavodlari shular jumlasiga kiradi. Mazkur zavodlar iqtisodiy rayondagi yetishtirilgan paxtani to'la qayta ishlash quvvatiga egadir. Oziq-ovqat sanoatining korxonalari deyarli barcha shahar va tumanlarda mavjud bo'lib, bunga Sirdaryo, Guliston sut zavodlari, "Jizzaxdonmahsulotlari" un, omuxta yem, non va non mahsulotlari, qandolat,

makaron mahsulotlari ishlab chiqaradigan va qator yog'-pishloq zavodi, yog'-ekstraksiya, qandolat fabrikasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi tarmoqlardan tashqari mashinasozlik va metalni qayta ishlash tarmog'i ham shakllanmoqda. Asosan Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodining Sirdaryo filiali, Guliston ta'mirlash-texnika zavodlari, refrijerator-vagonlarni ta'mirlash zavodlari shular jumlasidandir. Yangier qurilish materiallari va konstruktsiyalari kombinati tarkibida temir-beton mahsulotlari, temir-beton quvurlari zavodlari va tsexlari mavjud. Sirdaryoda ham temir-beton mahsulotlari ishlab chiqariladi, bu yerda uysozlik kombinati barpo etilgan.

Sirdaryo viloyatida qazilma boyliklar, yetarlicha ishchi kuchi bo'lmaganligi bois og'ir sanoat tarmoqlari sust rivojlangan, ammo kelajakda to'qimachilik, mashinasozlik, farmatsevtika va qurilish sanoatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar bor.

Qishloq xo'jaligida tog', tog' oldi va adir zonalarida lalmikor dehqonchilik (bug'doy, no'xat, poliz ekinlari, bog'dorchilik) va obikor dehqonchilik qilinadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan chorvachilik, ya'ni qo'ychilik va parrandachilik yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy rayonning Baxmal, Zomin, Forish va G'allaorol tumanlaridagi chorvachilik tarmog'i sut-go'sht va go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lsa, Jizzax, G'allaorol hamda Zafarobod tumanlari sanoatlashgan parrandachilikka, parranda go'shti va tuxum yetishtirishga mo'ljallangan.

Hozirgi vaqtda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, bozor infrastrukturasi barpo etish, aholining ishsiz qolgan qatlamini ish bilan ta'minlash, oziq-ovqat, qurilish, yengil sanoat tarmoqlarida kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dehqonchilikning yetakchi tarmog'i-paxtachilik bo'lsada, keyingi yillarda uning ekin maydonlari anchaga qisqardi. Hozirgi vaqtda Sirdaryo viloyati barcha ekin maydonlarining 53,1 foiziga paxta ekilmoqda.

Poliz va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish ham muhim qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'lib, viloyat bu jihatdan mintaqalar ichida yetakchilardan hisoblanadi.

Iqtisodiy rayonda transportning ba'zi turlari, ya'ni temir yo'l, avtomobil, havo transporti mavjud. Ammo asosiy transport turi avtomobil bo'lib, u barcha rayonlarni bir-biri bilan bog'laydi. Respublikaning boshqa viloyatlari bilan aloqa qilishda ushbu rayon hududini kesib o'tgan Katta O'zbek traktining ahamiyati katta. Mintaqa hududidan Toshkent-Samarqand shaharlarini bog'laydigan temir yo'llar (217 km) o'tgan. Ushbu transport turi mazkur rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, mamlakat ahamiyatiga ega bo'lgan gaz quvurlari, elektr uzatish shaxobchalari (Sirdaryo IESdan) ning o'tganligi hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rayonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, infrastruktura aloqalarini yaxshilashda transportning barcha turlarini imkoniyat darajasida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqadan Toshkentni, mamlakatimiz janubiy va markaziy rayonlarini Farg'ona vodiysi bilan bog'laydigan Toshkent-Sirdaryo-Guliston-Xovos-Farg'ona vodiysi, Toshkent-Sirdaryo-Jizzax-Samarqand-Qarshi-Termiz temir yo'llari o'tadi. Bundan tashqari, mintaqada ichki aloqalarini ta'minlashga xizmat qiluvchi transport tizimi ham rivojlanmoqda. Bu o'rinda Sirdaryo-Gagarin-Do'stlik-Paxtakor-Jizzax temir yo'li hamda viloyatlarni Toshkent bilan bog'lovchi temir yo'lning elektrlashtirilganligi katta ahamiyatga ega.

Janubiy-iqtisodiy rayon-o'z tarkibiga Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini birlashtiradi. Iqtisodiy rayon (mintaqa) umumiy maydoni 48,7 ming km² bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi hududining 10,9 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiy geografik o'rni qulay, respublikaning eng janubiy hududlarida joylashgan ushbu iqtisodiy rayon qo'shni Tojikiston, Turkmaniston davlatlari bilan, respublikaning Samarqand, Buxoro viloyatlari bilan chegaradosh. Tabiiy sharoitiga ko'ra iqlimi boshqa viloyatlarga qaraganda issiq bo'ladigan kunlar ko'proq, yozi issiq va quruq, subtropik. Hududi uch tomondan tog'lar bilan o'ralgan: shimolda Hisor, shimoli g'arbda Boysun va Ko'hitang, sharqda Bobotog' tizmalari (eng baland nuqtasi Hisor 4643 m). Rel'efi sharqdan g'arbgacha tomon pasayib boradi,

katta maydonlarni tog'lardan tashqari cho'llar (Qarshi, Nishon, Sandiqli, Surxon-SHerobod), tekisliklar, adirlar egallaydi.

Janubiy iqtisodiy rayonda xilma –xil mineral resurslar, neft, gaz, toshko'mir, mineral tuzlar, marmar, oltingugurt, rangli metallurgiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari hamda shifobaxsh mineral suvlar topilgan. Asosiy neft va gaz konlari Havotog', Uchqizil, Ko'kaydi Ko'kdumaloq, Muborak, Pomuk, SHo'rtan, Zevardi va Lalmikordadir. Toshko'mir Boysun va SHarg'unda, Dehqonobod, Xo'jaikonda esa turli xil tuz konlari joylashgan. Tubagatan kaliy tuzi koni kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarish sanoati rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Suv resurslari bilan Surxondaryo, Qashqadaryo, SHerobodaryo va ularning irmoqlari (Jondirdaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo, Oyoqchidaryo, Qizil-daryo), Uchqizil, Qumqo'rg'on, Janubiy Surxon, Hisorak, Qalqamin, CHimqo'rg'on, Qamashi, Pachkamar suv omborlari, Katta Hisor, Amu-Zang, Hazorbog', Qarshi magistral, Mirishkor, Eski anhor va boshqa kanallari mintaqani ta'minlaydi. Ushbu suv manbalari iqtisodiy rayon sug'orma dehqonchiligining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy rayon rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bor. Jumladan, Surxondaryodagi Omonxona, Uchqizil, Xo'jaikon, Qashqadaryodagi Miroqi dam olish sihatgohlari, tarixiy yodgorliklar (Oqsaroy va b.), eski Nasaf qoldiqlari, g'orlar va boshq.

Janubiy mintaqada 4997,4 ming kishi yoki mamlakatning 16,9 foiz aholisi yashaydi, aholi hudud bo'ylab notekis joylashgan, zichligi kv.km joyga o'rtacha 102,6 kishidan iborat (2012 y.), shundan Surxondaryoda 110,4 kishidan, Qashqadaryo viloyatida esa o'rtacha kv.km joyga 97,1 kishidan to'g'ri keladi. Aholisining 55,6 foizi Qashqadaryo viloyatida, qolgan qismi Surxondaryoda istiqomat qiladi. Har ikkala viloyat respublikada aholining tabiiy ko'payishi eng yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu esa viloyatlarda aholini ish bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish zaruratini qo'yadi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligi respublikada agrar–industrial yo'nalishda bo'lib, mintaqaning geografik o'rnini, tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda iqtisodiyoti taraqqiy etmoqda. Sanoatida neft-gaz,

yengil sanoat, asosan, paxta tozalash sanoati, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, Xodiza, SHarg'un-Sariosiyo, Boysun, SHo'rtangaz majmuasidagi konlar sanoat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishmoqda. SHu boisdan, ham iqtisodiy rayon respublikada ko'mir va neft sanoati bo'yicha yetakchi hisoblandi.

Toshg'uzor – Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi, ko'pgina yoqilg'i resurslarini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar mintaqa sanoatining kelgusida yanada taraqqiy etishidan dalolat beradi. Elektr energiyasi bilan bilan To'palang GES, Tollimarjon IES, Muborak issiqlik energetika markazlari ta'minlaydi.

Qurilish materiallari sanoatida SHERobodda mahalliy xom ashyo asosida yirik va umuman Janubiy O'zbekistonda yagona tsement zavodi qurilishi katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo hissasiga O'zbekistondagi neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 95,8 va oltingugurtning deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. Sanoat tarmog'ida to'qimachilik korxonalari, SHahrisabzda ip-gazlama ("Oqsaroy - to'qimachi" QK, ipak-chilik), paxta tozalash zavodlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHo'rtan neft-gaz" sho''ba korxonasi, "Surxondaryodonmahsulotlari" hamda "Hisor neft-gaz", "Surxonteks", "Jarqo'rg'on neftni qayta ishlash" kabi qator qo'shma korxonalari ishlab turibdi.

Janubiy iqtisodiy rayon respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining 16,3 foizini beradi. Mintaqaning Surxondaryo viloyati o'zining agroiqtisodiyoti rivojlanishiga ko'ra Qashqadaryodan oldingi o'rinlarda turadi. Surxondaryodagi Surxon-SHERobod cho'lida yangi yerlarni o'zlashtirish natijasida, ingichka tolali paxtachilik, eksport yo'nalishida subtropik mevachilik va ertagi sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, Qashqadaryoda paxtachilik, bog'dorchilik va g'allachilik, Quyi zonada, ya'ni Qarshi dashtida paxtachilik yo'lga qo'yilgan. Xususan, tog' va tog'oldi hududlarda bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Tog' yonbag'irlarida lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik uchun sharoit qulay. CHo'l mintaqasida esa g'alla va chorvachilik yo'lga qo'yilgan. G'allachilik qisman tog' etaklarida obikor yerlarda lalmikor dehqonchilik asosida ham tashkil etilgan.

Umuman iqtisodiy rayonda turli xil mevalar, ayniqsa olma, xurmo, uzum, anjir, anor, bodom, pista, yong'oq, tsitrus mevalari ko'plab yetishtiriladi. Surxondaryo viloyatining Denov tumani subtropik bog'dorchilik va tsitrus mevalarini yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lsa, viloyat markazlari, shahar atroflarida sabzavot va kartoshka, ko'katlar yetishtiriladi. Ayniqsa, Surxondaryoda yil bo'yi sabzavot hosilini olish imkoni bor. Pillachilik paxtachilik tarmog'i bilan birgalikda olib boriladi. Iqtisodiy rayon bo'yicha paxta umummamlakat yer maydonining 21,4 foiziga, donli ekinlar 21,9 foiziga ekiladi.

CHorvachiligida cho'llarda qorako'l qo'ylari, adir-tog' etaklarida mashhur histori qo'ylari, adir-tog' mintaqasida jaydari qo'y echki, qoramollar boqiladi. Iqtisodiy rayonda jami respublikadagi yirik shoxli qoramollarning 19,0 foizi, qo'y va echkilarning 32,2 foizi to'plangan. Aynan qo'y va echkilar soni bo'yicha Qashqadaryo (3233,5 ming bosh, 2010 y.) viloyati respublikada (15340,9 ming bosh, 2010 y.) birinchi o'rinni egallaydi. SHu boisdan bo'lsa, kerak ushbu viloyat mamlakatda go'sht ishlab chiqarishda Samarqand va Toshkent viloyatidan keyin uchinchi o'rinda, sut, jun ishlab chiqarishda esa birinchi o'rinda turadi.

Transport. iqtisodiy rayonda temir yo'l transporti katta ahamiyatga egadir. Bunda Toshkent-Termiz temir yo'li alohida ahamiyatga ega.

1995 yil 17 avgustda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Qashqadaryo va Surxondaryo oralig'ida G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li qurilishi boshlanib, 2007 yilda qurib ishga tushirilgan Toshg'uzor – Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'li iqtisodiy rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, temir yo'l atrofidagi turli xil qazilma boyliklar, rekreatsiya va turistik imkoniyatlardan keng foydalanishda muhim imkoniyatlardan biriga aylandi. Bu temir yo'l Surxondaryo bilan Toshkent orasidagi masofasini 120-130 km ga qisqartirishiga sabab bo'ldi.

Janubiy rayon ichki aloqalarida Termiz-Qarshi, Termiz-Hayraton (Afg'oniston), Termiz-Dushanbe, Termiz-Toshkent, Qarshi-Toshkent kabi avtomobil yo'llarining roli yuqori. Quvur transporti, havo transportining viloyat ichki va tashqi aloqalarida ahamiyati oshib bormoqda. Termiz, Qarshi shaharlarida

yirik xalqaro aeroport bor. U iqtisodiy rayon tashqi aloqalarini amalga oshirishda xizmat qiladi.

Quy **Amudaryo rayoni**- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan tarkib topgan respublikaning eng shimoliy mintaqasi hisoblanadi. Uning maydoni 172,7 ming km² yoki mamlakat hududining 38,4 foizini tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi maydoni jihatdan respublikada eng oldingi o'rinda turadi (166,6 ming km.kv.), Xorazm viloyatiniki esa 6,1 ming km.kvni tashkil etadi. SHu boisdan ham bu jihatdan O'zbekiston Respublikasining eng katta iqtisodiy rayoni hisoblanadi. Rayon, Amudaryoning quyi oqimida, Orol dengizining janubiy qismida Qizilqum cho'lining g'arbida va Ustyurt platosining sharqiy qismida va O'zbekiston Respublikasining shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan. Tabiiy sharoitiga ko'ra xilma-xil, asosan tekisliklardan iborat, faqatgina Sulton Uvays tog'i va ayrim qirlar qad ko'tarib turadi. Bunda Tuyamo'yindan Orol dengizigacha cho'zilgan Amudaryo mansabidan iborat pasttekislik, Amudaryodan o'ng tomonda joylashgan Qiziqumning shimoli-sharqiy qismi, Ustyurt platosi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rayon shimolda juda katta maydonni egallagan holda iqlimi keskin kontinental, issiq kunlar nisbatan kamroq, vegetatsiya davri qisqa, bahori kech, kuzi erta boshlanishi bilan tavsiflanadi. Qolaversa, rayon dunyodagi eng shimolda paxta yetishtiradigan hududlardan hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan tabiiy gaz, tuzlar, qurilish materiallari, Sulton Uvays tog'ida fosforit, temir rudasi, Oqtog'da plavik shpati va tal'k, Qushxontovda mirabilit, Qo'ng'irot atrofidagi Borsa - kelmas hamda Qoraumbet kabi konlarda sul'fat - magniy, tosh va osh tuzlari va hako'zolar uchraydi. Qoraqalpog'istonning Ustyurt qismida tabiiy gaz va ayniqsa, neft' konlarining yirik zahiralari borligi aniqlangan. Bu yerdagi, Oqsholoq, SHohpaxta, Quvonish konlaridan tabiiy gaz qazib olinadi. Xorazm viloyati hududi foydali qazilmalarga unchalik boy emas.

Suv resurslari yetishmasligi, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik muammolar aynan ushbu hududlarga xos. Qoraqalpog'istonning shimoliy hududida joylashgan Orol dengizi so'nggi 40-45 yilda muntazam ravishda qurib bormoqda va uning

qurigan qismida Orolqum paydo bo'lgan. Agar 1964 yilda Orol dengizining maydoni 66,0 ming kv.km.ni tashkil etgan bo'lsa (Qozog'iston qismi bilan birga), 2009 yilda dengizning maydoni atigi 8,9 ming kv. km.ga yoki dengizning suv hajmi ham 1083 kub km dan 87 kub km gacha qisqargan.

Aholisi 2012 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, 3322,8 ming kishi bo'lib, bu mamlakat aholisining 11,3 foiziga teng. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² maydonga 19,2 kishi, shundan Xorazm viloyatida 267,1 kishidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida bunga nomutanosib ravishda 10,2 kishidan to'g'ri keladi. Xorazm viloyatining yer maydoni kichikligi, hududining asosiy qismini o'zlashtirilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik salohiyatining yuqoriligi aholi joylashuvida o'z aksini topgan.

Iqtisodiy rayon tarkibidagi viloyatlar o'zlarining tabiiy sharoiti va qazilma boyliklari, demografik, tabiiy geografik va resurs salohiyatining bir xil emasligi ularda iqtisodiyotning o'ziga xos tarmoqlari shakllanishiga olib kelgan. Mamlakat mehnat taqsimotida rayon iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega paxtachilik, donchilik, chorvachilik hamda oziq-ovqat, tog'-kon kimyosi, qurilish materiallari va to'qimachilik, yengil sanoatning ayrim tarmoqlari rivojlanganligi bilan ko'zga tashlanadi. SHunga binoan, rayonda paxta, sholi, jun, o'simlik yog'i, gilam, trikotaj, non va non mahsulotlari, omuxta yem, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, rayonda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun shart-sharoit mavjud.

Mintaqada og'ir sanoat, xususan, yoqilg'i-energetika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qora va rangli metallurgiya sust rivojlangan. SHuningdek, kimyo, neft - kimyo, qurilish materiallari sanoat tarmoqlari oxirgi yillarda tobora rivojlanib bormoqda. Qo'ng'iro't tumanida soda ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonaning qurilganligi va shuning asosida kimyogarlar shaharchasi – Elobodning barpo etilganligi iqtisodiy rayon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mintaqadagi Taxiyyatosh IES, Tuyamo'yin GES yagona elektr energiya ishlab chiqaruvchi manbalardan biridir. Yengil sanoati tarkibida to'qimachilik va paxta tozalash korxonalarining o'rni katta. Qo'shma korxonalaridan Urganchdagi

"Xorazm Nurtop" qo'shma korxonasi, Buyuk Britaniya asbob-uskunalari bilan jihozlangan, "Bog'ot tekstil" qo'shma korxonasi, "Koka-kola" ichimligi Toshkent LTD qo'shma korxonasi Urganch filiali, Gurlan paxta tozalash zavodlari, "Beruniy tolasi", Kegayli tumanidagi "Xalqobod momig'i", Qo'ng'irot tumanidagi "Ko'ng'irot un zavodi", To'rtko'ldagi "To'rtko'l oq oltin", "Tortkol asaka tekstil", Nukus shahridagi "Nukus vinoxavodi", "Ko'ng'irot soda zavodi", "KKikkikaramet" korxonalari ishlab turibdi. Bundan tashqari, Xiva gilam kombinati, Hazoraspdagi yagona shakar zavodi-Xorazmshakar" ining nafaqat mintaqada, balki respublika sanoatida alohida o'rni bor.

Iqtisodiy rayonning ekologik – geografik o'rni, ya'ni uning Orol dengiziga yaqinligi, ushbu mintaqada vujudga kelgan ekologik vaziyat qishloq xo'jaligi rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ammo shunga qaramasdan, mintaqa agroiklimiy shart-sharoitlarga bog'liq holda, paxta, sholi, go'sht, jun mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ekologik holatining yomonligi bois, iqtisodiy rayon respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining atigi, 9,3 foizini beradi (2010 y.). Donli ekinlar yalpi hosili kamligiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi (289,4 ming tonna) Navoiy viloyatidan (247,2 ming tonna) keyin ikkinchi, Xorazm (333,9 ming tonna) esa uchinchi o'rinlarni egallaydi. Bundan bug'doyning yalpi hosili kamligi jihatdan esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi (196,3 ming tonna) hatto respublikada birinchi o'rinda turadi. Binobarin, bug'doy hosildorligi ham ushbu respublikada eng past, gektariga 29,5 tsentner (o'rtacha ko'rsatkich-45,9).

CHorvachilikda mamlakatdagi yirik shoxli qoramollardan 16,0 foizi ushbu iqtisodiy rayonda boqiladi. SHundan, sigirlar Qoraqalpog'iston Respublikasida 254,1 ming bosh, Xorazm viloyatida esa 280,7 ming boshga yetgan (2010 y). Qo'y va echkilarning eng kam soni va salmog'i aynan ushbu rayonga to'g'ri keladi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami respublikadagi qo'ylarning 4,9 foizi, Xorazm viloyatida esa 2,3 foizi to'plangan. Bu yerda Xorazm viloyatining yer maydoni, yaylovlar kamligini tushunish mumkin, biroq Qoraqalpog'iston

Respublikasidagi katta yer maydonlari, ushbu tarmoqni rivojlantirishga imkon beradi.

Mazkur chorva mollarining mintaqada kam sonliligi tabiiyki, go'sht, sut ishlab chiqarishda yaqqol sezilmoqda. Ayniqsa, bu Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatiladi, chunki, bu hudud go'sht (33,6 ming tonna), sut (183,6 ming tonna), tuxum (46 mln dona) ishlab chiqarish bo'yicha respublikada (855,0; 6169,0 ming tonna, 3061,2 mln dona, 2010 y.) eng oxirgi o'rinlarda turadi. Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligi tarmoqlari tumanlar miqyosida turlicha taqsimlangan bo'lib, ularda bu tarmoqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yalpi hosili va hosildorligining o'sishiga erishish mintaqa aholisini, xo'jaligini zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlash, turmush farovonligini oshirishning muhim omilidir.

Transport tarmog'i iqtisodiy rayon aloqalarini olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning barcha turlari yaxshi rivojlangan. Jumladan, Xorazm hududi orqali o'tgan Turkmanobod – Toshhovuz-Beynau temir yo'li, Qoraqalpog'iston hududidan O'zbekistonni Rossiya bilan bog'lovchi Taxiatosh – Beynov temir yo'lining o'tganligi viloyat, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlar bilan aloqa qilishida qulay shart-sharoitlardan biridir. SHu bilan birga keyingi yillarda qurilib ishga tushirilgan Nukus – CHimboy temir yo'lidan Qo'ng'iro't – Nukus – CHimboy yo'nalishi bo'yicha yo'lovchilar tashishda foydalanilmoqda. Ayni vaqtda, Uchquduq – Miskin – Nukus temir yo'lining qurib ishga tushirilishi mamlakatimiz transport mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Avtomobil yo'llaridan maxsus Davlat dasturi asosida qurilgan Nukus - Beynov magistral avtomobil yo'li mintaqa hayotida katta mazmun kasb etmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonda suv transporti (Amudaryo, Orol dengizi), quvur, havo transporti mahalliy va xalqaro aloqalarni amalga oshirishga katta hissa qo'shishmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishiga ko'ra, nechta viloyat, tuman, shahar va qishloqlardan iborat?
2. Nima sababdan respublika iqtisodiy rayonlarga ajratiladi?
3. Iqtisodiy rayonlashtirishning qanday turlarini bilasiz?
4. Farg'ona iqtisodiy rayonining tabiiy sharoiti va boyliklari, demografik vaziyatiga iqtisodiy jihatdan baho bering.
5. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni mamlakatimizda qanday sohalarga ixtisoslashgan va uning istiqboldagi rivojlanish omillari qaysilar?
6. Toshkent iqtisodiy rayoni iqtisodiyotining hududiy tarkibi qanday?
7. Nima uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida og'ir, mashinasozlik sanoat yaxshi rivojlanmagan?
8. Janubiy iqtisodiy rayonining asosiy muammolari va istiqbolda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini ta'riflab bering.
9. Quyi Amudaryo havo transporti qanday rivojlangan?
10. Iqtisodiy rayonlashtirishning xalq xo'jaligida ahamiyatini nimalarda ko'rasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I. Asosiy vazifamiz–vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
3. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
4. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira {obshiy obzor). M., 2001.
5. Asanov G.A., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi.-T.: O'zbekiston, 1994.
6. Axmedov E. Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi: qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 2006.-384 b.
7. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2003.-200s.
8. Vinokurov A.A. i dr. Vvedenie v ekonomicheskuyu geografiyu i regional'nuyu ekonomiku Rossii: ucheb. Posobie dlya studentov, obuchayushixsya po spetsial'nostyam "Finansy i kredit", «Buxgal'terskiy uchyot, analiz i audit».-M.: Gumanitar.izd.tsentr VLADOS, 2008.-550 s.
9. Maksakovskiy V. P. Obshchaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast'1.- Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.
10. Soliev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.-T., 2007.
11. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent: Universitet,-2003y.
12. Soliev, A.O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010.
13. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.
14. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

GLOSSARIY - tayanch so'zlar

Avtarkiya – boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga asoslanib milliy iqtisodiyotni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosat.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo'shib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o'rnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi

Agrar islohatlar – yerlardan foydalanish tizimida davlat tadbirlari. Mamlakatlar va ularning tumanlarining iqtisodiy geografik sharoiti va tarixiy xususiyatlari islohatlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Agrobiznes – foydani ko'paytirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimida boshqarishni zamonaviy usullaridan foydalanishga asoslangan qoidalarni qo'llash. Yirik qishloq xo'jalik korxonalari ham agrobiznesda qatnashishlari mumkin, bunda ikki tomon o'rtasida qat'iy kelishuv hosil bo'ladi.

Agrosanoat majmui (ASM) – mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xom-ashyosi bilan ta'minlovchi tarmoqlararo xo'jalik majmui:

Agrofirma-muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalar.

Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatlari, shuningdek irqning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyatidagi hududiy xususiyatlarni o'rganadi.

Asosiy fondlar – ishlab chiqarish vositalari, ular joylashgan binolar.

Aholi deganda – ma'lum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. SHu boisdan ilmiy – geografik tadqiqotlarda aholi va aholi manzilgohlarini atrof muhit va xo'jalik bilan bevosita bog'liq holda tadqiq etishadi.

Aholi zichligi – maydon birligiga . odatda 1 km.kv. ga to'g'ri keluvchi aholi soni tushuniladi.

Biznes-kishilarning foyda olish maqsadidagi iqtisodiy faoliyati.

Venchur korxonalari – yirik kompaniyalar buyurtmalari va davlat bitimlari bo'yicha ilmiy tekshirish sohalarida muhandislikda, innovatsiyada faoliyat ko'rsatuvchi firmalar.

Globallashish – umumjahon degan ma'noni anglatib, dunyo ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotidagi zamonaviy jarayonlarning umumlashuvidir.

Dehqon xo'jaligi - o'z qaramog'ida bo'lgan mulk, yer va boshqa tabiiy resurslarda foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Er rentasi – Yer egasiga vaqti-vaqti bilan ijarachi tomonidan yerdan foydalanganligi uchun to'lanib turiladigan so'm miqdori.

Jamg'arma boylik-asosiy va aylanma fondlar, aholining shaxsiy mulki kabilar inson mehnati tufayli yaratilgan boylik.

Jaxon bozori – yer yuzasidagi barcha davlatlar milliy bozorlarining yig'indisi, davlatlararo savdo.

Jahon xo'jaligi – jahondagi barcha davlatlarning milliy xo'jaligi yig'indisi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish – bozor iqtisodiyotida davlat va jamiyat tashkilotlari tomonidan harakatdagi sotsial-iqtisodiy tizimni o'zgarib turgan sharoitga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy, ijro va nazorat qilish xususiyatiga ega bo'lgan tadbirlar tizimi.

Iqtisodiy o'sish – muayyan davr yoki bir yil davomida yaratilgan YaIM yoki uning kishi boshiga ishlab chiqarilgan hajmi.

Investitsiya – uzoq mudatli kapital qo'yilma, sarmoya.

Innovatsiya – texnika, texnologiya, mehnatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi yangiliklar va bu yangiliklarning iqtisodiy faoliyatningturli sohalarda qo'llanilishi.

Intensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish ko'lami, chratilgan mahsulotlar va xizmatlar xadming resurslarni tejimli ishlatish xisobidan oshib borishi, ular sifatini yaxshilanishi. Sifat o'sish.

Ishchi kuchi – ish qidirayotganlardan tashqari barcha ishlovchilar va ishlamoqchi bo'lganlar.

Makroiqtisodiy barqarorlik-iqtisodiy inqirozga barham berish, iqtisodiy taraqqiyotni ifodalovchi ko'rsatkichlarni muayyan darajada saqlab iturish, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish.

Mehnat resurslari – mehnatga yaroqli aholi. Mehnat resurslarini aniqlashda aholining yosh va jins tarkibi hisobga olinadi. Ularga 16-59 yoshdagi erkaklar,16-55 yoshdagi ayollar kiradi.

Mehnat resurslari – aholinig mehnatga layoqatli qismi. Erkaklarning 16-59 yoshgacha, ayollarning 16-54 yoshgacha bo'lgan qismi.

Mehnat unumdorligi – ma'lum vaqt (soat, sutka, oy, yil) ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan o'lchanadi.

Milliy boylik-mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim integral ko'rsatkich. U o'z ichiga tabiiy, qayta tiklanmaydigan resurslarni hamda yaratilgan, amalga ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatida foydalanilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni qamrab oladi.

Milliy daromad- yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Monarxiya – davlat boshqaruvi avlodldan avlodga o'tuvchi yakka xokimlik.

Nikoh - bu erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning, ularning bir-biriga va o'z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tomonidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir.

Nikoh yoshi –bu qonun yoki odat nikohga kirishga ruxsat beradigan eng kichik yoshidir.

Nikoh strukturasi –bu aholining nikoh holatlari (statuslari) bo'yicha taqsimlanishidir. Nikoh strukturasi aholini ro'yhatga olish yoki mikro ro'yhatga olish ma'lumotlari bo'yicha belgilanadi.

Oila – insonlarning tabiiy, biologik, nikoh-qon qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ia'naviy munosabatlarda asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir.

OPEK – neftni eksport qiluvchi, unga quyidagi davlatlar a'zo: Saudiya Arabistoni, Iroq, Quvayt, BAA, Jazoir, Liviya, Nigeriya, Gabon, Indoneziya, Venesuela, Meksika, SHtab-kvartirasi Avstriyaning poytaxti Vens shahrida joylashgan.

Reproduktiv yosh - tiklanish yoshi, ya'ni balog'atga (oila qurish yoshiga) yetgan aholi qatlami.

Sof milliy daromad(SMD)- yangidan yaratilgan mahsulot (xizmat)larning haqiqiy hajmini belgilaydi.

Sof milliy mahsulot (SMM)- amortizatsiya ajratmalari summasiga kamaytirilgan YaMM(IMM) sifatida chiqib, tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi.

Strukturaviy ishsizlik - ishsizlik bozorining ma'lum mahsulot turi bilan to'ldirilishi natijasida shu mahsulotga bo'lgan ehtiyojning so'nishi bilan yuzaga keladigan ishsizlik.

Tabiiy boylik-er, suv, yer osti va ustidagi boyliklarni inson yaratgan emas. Ular tabiat in'omi. Ammo ularni boylik sifatida inson manfaati yo'lida ishlatilishi mehnatsiz bo'lmaydi. Chunki, tabiat in'omlari o'z-o'zidan qayta ishlanmay turib ite'molga yaramaydi. Masalan, yer qa'ridagi neft, agar u qazib olinib, qayta ishlanmasa, o'z-o'zidan yoqilg'i bo'la olmaydi.

Tabiiy resurs – kishilik jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan va xo'jalikda bevosita foydalaniladigan tabiiy elementlar. Ularga tuproqlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, mineral xom ashyo, suv va b lar kiradi.

Tabiiy sharoit – ma'lum bir paytda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi g'amda jamiyatning hayoti va xo'jalik faoliyati uchun muhim bo'lgan, ammo moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan tabiat kuchlari, narsa va hodisalardir.

Tiklanadigan tabiiy resurslar-o'simlik, hayvonot dunyosi, yer osti ayrim qatlamidagi cho'kindi jinslar kiradi. Bular inson mehnati tufayli qaytadan hosil bo'ladi. Buning uchun qo'riqxonalar ochiladi, o'simliklar genofondi tashkil etiladi, noyob o'simliklar davlat himoyasiga olinadi.

Tiklanmaydigan tabiiy resurslar- yer qa'ridagi neft, toshko'mir, gaz va boshqa foydali qazilmalar. Ularni qazib olish va ishlatish mavjud resurslarning butunlay yo'qolib ketishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi

Friktsion ishsizlik – ish qidirayotgan yoki yaqin vaq ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – ayrim mamlakatlar xo'jalik iqtisodiy va siyosiy tizimining o'zaro birlashishini bildiruvchi jarayon.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida olingan mamlakatning mahsulot va xizmatlar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashishini bildiradi.

TSiklik ishsizlik – ishlab chiqarish darajasining pasayishiga bog'liq holda ishchi kuchiga bo'lgan talabni kamayishi oqibatida yuzaga keladigan ishsizlik

Ekstensiv iqtisodiy o'sish - qo'shimcha ish kuchi ishlab chiqarish vositasi va resurslarini jalb qilish xisobiga, ya'ni mehnat va moddiy resurslarni ko'proq qo'llash xisobiga o'sish. Bunda oddiy mehnat sarflari qisqarmaydi, mehnat unumdorligi oshmaydi.

YaIM – yalpi ichki mahsulot. Bir yil davomida mamlakat yoki biror hududda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning qiymatda ifodalanishi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – mamlakatning ichki xo'jalik faoliyatini umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkichi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – ichki va tashqi faoliyatda bir yilda moddiy va nomoddiy sohalarida qanday millat tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy qiymati bo'lib, mamlakatning yaxlit sotsial-iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

YaMM – bir yil davomida mamlakat korxonalari yoki milliy kapital tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi ifodasi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy:

1. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari- T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz– jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. - 96 bet.
3. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 79 b.
5. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011. 48 b.
6. Alisov N. V., Xoree B. S. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira {obshchiy obzor). M., 2001.
7. Asanov G.A., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi.-T.: O'zbekiston, 1994.
8. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari.- Toshkent., 2011.
9. Butov V. I. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya mira i Rossii. Rostov n/D, 2003.-200s.
10. Vavilova e.V. Ekonomicheskaya geografiya i regionalistika. M.: Gardariki, 2005y. -160s.
11. Gladkiy Yu. I., Sokolov O. V., Faybusovin E. L. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. M., 1999.
12. Gladkiy Yu.N., Dobroskok V.A. Semenov S.P. Ekonomicheskaya geografiya Rossii Uchebnik-M.: Gardariki, 2000 y-752 s.
13. Golubchik M.M., Faybusovich E.L., Nosonov A.M., Makar S.V. Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya: Osnovy nauki: Ucheb.dlya

- stud. V_Ыssh.ucheb.zavedeniy.-M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2004. - 400s.
14. Корылов V.A. Geografiya naseleniya.- M., 1999.
 15. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya kartina mira. CH. T. Obshchaya xarakteristika mira. Yaroslavl', 1993.
 16. Maksakovskiy V. P. Obshchaya ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya. Kurs letsiy. V dvux chastyax. CHast'.- Gumanitar. Izd. TSent VLADOS, 2009.-367
 17. Medkov V.M. Demografiya. - M., 2004
 18. Soliev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.-T., 2007.
 19. Soliev A.S., Ahmedov E.A, va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot.-Toshkent: Universitet,-2003y.
 20. Soliev, A.O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010.
 21. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 280 b.

Qo'shimcha:

1. “Mirovye xozyaystvo i mejdunarodnoe ekonomicheskoe otnoshenie na sovremennom etape”, M.: “Novyye yurist”, 1998.
2. www.ceep.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi samarali iqtisodiy markaziy rasmiy sayti.
3. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
4. Abdullaev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2009.
5. Альбом сельскохоzyaystvenных kart Respubliki Karakalpakstan i oblastey Uzbekistana”. - T.: Goskomzemgeodezkadastr, 2008.
6. Ata–Mirzaev O, Tuxliiev N. Uzbekistan: priroda, naselenie, xozyaystvo. – T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2009.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.
8. Axmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: “O'zbekiston”, 2006.
9. Bugaev V. K. Sotsial'no – ekonomicheskaya regionalistika – Spb Izdatelstvo “VVM” , 2007.
10. Bo'rieva M.R. Demografiya asoslari Toshkent. 2001.
11. Geografiya Rossii. Entsiklopedicheskiy slovar/GL. Red. A.R.Gorkin.-M.: Bol.Ros.ents., 1998 y. 800 s.: il., karti.
12. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atmalari va tushunchalari izohli lug'ati.- T., “O'zbekiston” 1994.
13. G'ulomov P., Hasanov I. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., 2007.
14. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston. -T., 1999.

15. Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana – 2003. – Tashkent, 2004.
16. Doklad o chelovecheskom razvitiy Uzbekistana-2003 g., T.: O'zbekiston, 2004 y.
17. Доманьский Р. Экономическая география: динамический аспект. Перевод с польского – М.: Новыи хронограф, 2010.
18. Qayumov A. va boshqalar. “Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti”, T.: Universitet, 2005 y.
19. Qayumov A., Nazarova H., Egamberdiev F. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T., 2004
20. Qishloq joylar demografiyasi. Prof A.S.Soliev tahriri ostida. – T., 2005.
21. Lomakin V.A. “Mirovaya ekonomika”M.: “Finansy”, 1998.
22. Lomakin V.A. Mirovaya ekonomika. M.: Finansi. 1998 g.
23. Maksakovskiy V.P. - «Geograficheskaya kartina mira». Yaroslavl, 1996.
24. Nabiev Ye., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati.-T.: Akademiya-Universitet, 2004 y.
25. Nazarov M., Tojjeva Z. Ijtimoiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T., 2003.
26. Naseleniya i obshchestva (RAN 1998 – 2011 gg).
27. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник.-T.: Uzbekistan, 2011. 229 s.
28. Региональная экономика. Под ред. М.В.Степанова. -М., 2000.
29. Региональная экономика. Под ред. Т.Г.Морозовой. -М., 1998.
30. Регионоведение. Под ред. проф. Т.Г.Морозовой, Учебное пособие. -М., 1998.
31. Rodoman B.B. Territorialno'e arealy i seti. -M., 1999.
32. Rozin M.S., Volf M.B. Vasilevskie L.I. - «Sovremennoe geografiya mirovogo khozyaystva». M.: Prosvещение, 1998.
33. Rossiya regionov : v kakom sotsial'nom prostranstve my jivem ? – M., 2005.
34. Ro'ziev. Surxondaryo viloyati. Termiz, 1996.
35. Sergeev P.V. Mirovye khozyaystvo i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya na sovremennom etape.-M.: Misl, 1998 g.
36. Soliev A.S., Mahamadaliev R.Y. Iqtisodiy geografiya asoslari. -T., 1996.
37. Soliev A.S., Nazarov M.I. O'zbekiston qishloqlari (qishloq joylar geografiyasi). T., Fan va texnologiya, 2009.
38. Spiridonova I.A. Mirovaya ekonomika. Uchebnoe posobie. -M., 2001.
39. Tojjeva Z. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (monografiya) . – T.: “Fan va texnologiya”, 2010.
40. Toshkentboev A., Nasirov U. Jizzax viloyati. -T., O'zbekiston, 1996.
41. To'xliiev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti.-T.: O'zbekiston, 1998 y. Sergeev P.V.
42. Uzbekistan za gody nezavisimosti. Ekonomicheskiy obzor za 1991-1996 gg.. -T., 1996.

43. O'zbekiston Respublikasi Entsiklopediyasi,-T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997-2001 y.
44. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. -T., 1996.
45. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent, 1998.
46. Ульджаев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте. -Т., 1999.
47. Хэггет Р. “Пространственный анализ в экономической географии”, Перевод с английского. М.: “Progress”,1998.
48. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под ред. проф. И. А. Родионовой – М.: Elits – Inform, 2008.
49. [www. Ziyo net](http://www.Ziyo.net)
50. [www. bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

